

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

A.JO'RAEV, Z.JUMAEV, SH.QIYOSOV.

TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

**“BOJXONA ISHI ASOSLARI”
FANIDAN**

TA'LIM TEXNOLOGIYASI

TOSHKENT - 2010

Mazkur fan ta'lim texnologiyasi Toshkent moliya instituti "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrası tomonidan bakalavriat yo'nalishining o'quv rejasi va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Jo'raev A.S. -	TMI, "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrası mudiri, i.f.d., professor	_____
Jumaev Z. T. -	TMI, "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrası dotsenti, i.f.n.	_____
Qiyosov Sh.U. -	TMI, "Soliqlar va soliqqa tortish" o'qituvchisi	_____

Taqrizchilar:

Ko'zieva N.R. -	Soliq akademiyasi, "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrası mudiri, i.f.d., professor. v.b., i.f.d.
Shirinov S.E. -	TMI, "Sug'urta ishi" kafedrası dotsenti, dotsenti v.b., i.f.n.

Kafedraning 2010 yil 5 maydagi 17-sonli yig'ilish bayonnomasi bilan muhokamadan o'tgan va institut Ilmiy-uslubiy kengashida muhokama etishga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

prof. Jo'raev A.S.

Fan bo'yicha ta'lim texnologiyasi fakultet Ilmiy kengashida muhokama etilgan va nashrga tavsiya qilingan (2010 yil 7 maydagi 10-sonli bayonnoma)

Kengash raisi:

prof. Almardanov M.I.

Fan bo'yicha ta'lim texnologiyasi Toshkent moliya instituti Ilmiy-uslubiy kengashida muhokama etilgan va nashrga tavsiya qilingan (2010 yil 15 maydagi 4-sonli bayonnoma)

Kengash raisi:

prof. Karimov A.A.

**“BOJXONA ISHI ASOSLARI” FANINI
MA‘RUZA VA AMALIY MASHG‘ULOTLARDA
O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI**

M U N D A R I J A

	Kirish	
I.	«Bojxona ishi asoslari» fanining dolzarbligi va o'qitish tizimi	
II.	«Bojxona ishi asoslari» fanining asosiy mazmuni	
1–Mavzu	Fanning predmeti va vazifalari	
2 –Mavzu	Markaziy Osiyoda va Uzbekistonda bojxona ishining rivojlanishi tarixi	
3–Mavzu	Uzbekiston Respublikasi Davlat bojxona organlari faoliyatining tashkil topishi va huquqiy asoslari	
4–Mavzu	Uzbekiston Respublikasining bojxona siyosati	
5–Mavzu	Uzbekiston Respublikasida bojxona nazoratining tamoyillari va shakllari	
6–Mavzu	Bojxona rejimlari va ularni kullash shartlari	
7–Mavzu	Bojxona tulovlari	
8–Mavzu	Tovarlarning bojxona qiymati va uni aniqlash usullari	
9–Mavzu	Bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik	
III.	«Bojxona ishi asoslari» fanida ma'ruza va amaliy (seminar) mashg'ulotlarini o'qitish bo'yicha ta'lim texnologiyasining kontseptual asoslari	
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	

KIRISH

«Bojxona ishi asoslari» fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarini o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiya qoidalari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu kitobda, o'quv texnologiyasida ko'rsatib o'tilgan: birinchidan - o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha o'quv axborot materiallari, pedagogik maqsadlar, o'quv mashg'uloti rejasi, o'quv natijalarini aks ettiruvchi topshiriqlar, o'qitish shakli, vositalari va boshqalar. Ikkinchidan - o'quv mashg'ulotining texnologik kartasida bosqichma-bosqich to o'quv maqsadiga etguncha o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'quv faoliyati ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu kitobning tarkibi kirish, «Bojxona ishi asoslari» fanini o'qitish texnologiyasining kontseptual asoslari xamda ma'ruza va seminar mashg'ulotlarni o'qitish texnologiyalaridan tashkil topgan.

Ta'lim texnologiyasining kontseptual asoslari bo'limida «Bojxona ishi asoslari» maxsus kursining Davlat va erkin bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotning sub'ektlari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashdagi ahamiyati va ushbu kursni o'qitishning dolzarbligi asoslangan, o'quv soatlarining mavzular bo'yicha taqsimlanishi hamda kursning asosiy mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishda qo'llanilgan asosiy qoidalari: ta'lim usuli va texnikasi; tashkil qilish shakli, vositasi; kommunikatsiya usullari; berilgan ma'lumotlarni nazorat qilish usullari va vositalari; baholash va nazorat qilish tartiblari yoritilgan.

Maxsus kursni o'qitish texnologiyasi quyidagi tartibda ishlab chiqilgan:

-Ma'ruza mashg'ulotlarini olib borishda ko'proq ko'rgazmali, muammoli, informatsion va tematik shakllarga e'tibor qaratilgan.

-Amaliy mashg'ulotlarini olib borishda muammoli savollarni guruxlarga bo'lingan xolda muxokama qilish, individual tarzda ishlash, muammoli vaziyatni keys-stadi usulidan foydalanib nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash bo'yicha ko'nikmalar va bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgan.

Ushbu «Bojxona ishi asoslari» fanidan tayyorlangan «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyasi» bo'yicha uslubiy qo'llanma «Soliqlar va soliqqa tortish» fanidan tayyorlangan «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyasi» buyicha uslubiy qo'llanmadan foydalangan holda Oliy ta'limning 300000-«Ijtimoiy fanlar, iqtisod va huquq» bilim sohasi, 340000-«Iqtisod va biznes» ta'lim sohasidagi 5340800 – “Soliqlar va soliqqa tortish” bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun tayyorlandi.

Ushbu ta'lim texnologiyasi barcha oliy o'quv muassasalarida, malaka oshirish kurslarida «Bojxona ishi asoslari» maxsus kursini tegishli texnik vositalari bilan jixozlangan auditoriyalarda o'qitishga mo'ljallangan bo'lib, ushbu kursni o'qitadigan o'qituvchilar uchun mo'ljallab tuzilgan.

1. «Bojxona ishi asoslari» fanining dolzarbligi va o'qitish tizimi

Jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishda soliq munosabatlarini takomillashtirish soliqlarning turlari va ularning amal qilish mexanizmini ilmiy tahlil qilish muhim va dolzarb muammoli masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ayniqsa, iqtisodiyotning tadbirkorlik sektorini taraqqiyotini ta'minlash, ularni rivojlantirishga soliqlarning rag'batlantiruvchilik ahamiyatini oshirish to'g'risida Prezidentimiz I.A.Karimov 2006 yilgi islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan ustuvor vazifalar haqida qisqacha to'xtalib «... soliq yukini sezilarli ravishda engillashtirish bo'yicha ko'zda tutilgan chora tadbirlarni amalga oshirish borasidagi eng muhim vazifa- ishlab chiqarishni faollashtirishning muhim omili bo'lmish xarid talabining jadal o'sishini ta'minlashdir»¹.

«Bojxona ishi asoslari» fani yuridik va jismoniy shaxs maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortish tizimini qamrab olib, yuqoridagi fikr mulohazalar fanning bugungi kunda soliq xizmati va soliq sohasidagi mutaxassis xodimlarni o'qitishda dolzarb ahamiyatga egaligini tasdiqlaydi.

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi tutgan o'рни, yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning turlari, ularni soliqqa tortishni o'ziga xos xususiyatlari va hisoblash mexanizmlari hamda soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlarini nazariy va amaliy jihatidan yoritish fanning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Talabalar o'quv dasturiga muvofiq mazkur fanni asosiy fan sifatida chuqur o'rganadilar. Bu fanni o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni va O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonuni asos qilib olinadi. Shunindek, fanni o'rganishda hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qarorlar va me'yoriy xujjatlar hamda iqtisodiy adabiyotlardan keng foydalaniladi.

Fanning maqsadi va vazifalari.

«Bojxona ishi asoslari» fani orqali talaba Respublika bojxona tizimini, soliqqa tortish mexanizmini, bojxona organlarining ishlarini va soliqlar va yig'implarni davlat byudjetidagi o'rnini, ahamiyatini o'rganadi.

«Bojxona ishi asoslari» fanini o'qitishdan maqsad, kelajakda shu soxadagi mutaxassislarga bojxona tizimini tashkil qilish, bojxona orqali iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish faoliyati bo'yicha mustaxkam nazariy bilim berish, bojxona siyosatini, xususiyatlarini va iqtisodiyotni boshqarishdagi o'rnini hamda soliqqa tortish usullarini o'rgatishdir.

«Bojxona ishi asoslari» fanini o'rganishning asosiy vazifasi bakalavr mutaxassis kadrlarini tayyorlashda davlat standarti qo'ygan talablarni amalga oshirishdir.

«Bojxona ishi asoslari» fanini o'rganish jarayonida quyidagi vazifalar qo'yiladi:

➤ bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish sharoitida fandagi tub o'zgarishlar bo'yicha to'liq bilimga ega bo'lish;

➤ kursni o'zlashtirish jarayonida, moliyaviy munosabatlarning asosi sifatida, xududlar, tarmoklar va mulk shakllarini rivojlanishidagi ijtimoiy xarakterlarini bilish;

¹ Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. - T.: Xalq so'zi, 2006 yil 11 fevral. 2-bet.

➤ ushbu kursni o'zlashtirish jarayonida tegishli fanlar bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lish.

➤ bojxona soxasida amaliy masalalarni echishga o'rgatish.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi.

Talabalar boshqa fanlar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lmasdan turib, «Bojxona ishi asoslari» fanini o'rganishi qiyin. Shu sababli ushbu fanni o'rganish o'quv rejasiga kiritilgan ko'pgina fanlar bilan uzluksiz bog'liqdir. Mazkur fan bakalavr ta'lim yo'nalishidagi «Soliq nazariyasi», «Moliya», «Buxgalteriya hisobi», «Davlat byudjeti», «Iqtisodiyot nazariyasi», «Moliya huquqi», «Soliq huquqi», «Moliyaviy menejment», «Soliqlarni prognoz qilish» va «Chet el mamlakatlari soliq tizimi» va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqdir.

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar.

«Bojxona ishi asoslari» fani bo'yicha ma'ruza va amaliy(seminar) mashg'ulotlarida aqliy hujum, klaster, insert, texnika Pinbord, «kichik guruhchalar», «Bumerang», «Veer», taqdimot usullaridan va boshqa ilg'or pedagogik texnologiyalardan, shuningdek, axborot texnologiyalaridan faol foydalanilgan holda multimediya vositalaridan, Power point dasturi o'rnatilgan kompyuterlardan hamda Internet tizimidan foydalaniladi.

Fanga ajratilgan o'quv soatlarining o'quv turlari bo'yicha taqsimoti

t/r	Mavzular nomi	Jami soatlar	O'quv yuklama		
			Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Mustaqil ta'lim
1.	Fanning predmeti va vazifalari	6	2	2	2
2.	Markaziy Osiyoda va O'zbekistonda bojxona ishining rivojlanishi tarixi	6	2	2	2
3.	O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona organlari faoliyatining tashkil topishi va huquqiy asoslari	6	2	2	2
4.	O'zbekiston Respublikasining bojxona siyosati	8	2	2	4
5.	O'zbekiston Respublikasida bojxona nazoratining tamoyillari va shakllari	6	2	2	2
6.	Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari	8	2	2	4
7.	Bojxona to'lovlari	6	2	2	2
8.	Tovarlarning bojxona qiymati va uni aniqlash usullari	8	2	2	4
9.	Bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik	6	2	2	2
Jami		60	18	18	24

2. «Bojxona ishi asoslari» fanining asosiy mazmuni

1-mavzu: Fanning predmeti va vazifalari

O'zbekiston Respublikasi bojxona ishining umumiy tavsifi. "Bojxona ishi asoslari" fanining predmeti va uning asosiy vazifalari. "Bojxona ishi asoslari" fanini o'rganish usullari. Bojxona munosabatlarida qo'llaniladigan asosiy atama va tushunchalarni mazmuni.

2-mavzu: Markaziy Osiyoda va O'zbekistonda bojxona ishining rivojlanishi tarixi

Mamlakatlar o'rtasidagi savdo aloqalarini vujudga kelishi va bojxona xizmatining tashkil topishi. Qadimgi Sharq va O'rta Er dengizi davlatlarida bojxona munosabatlari. Qadimgi Gretsiyada bojxona ishini tashkil topishi. Misrda bojxona munosabatlarining rivojlanishi. Qadimgi Osiyo va Evropa davlatlarida bojxona munosabatlarining rivojlanishi.

O'rta asrlarda xalqaro savdo aloqalarining kengayishi va Evropada bojxona ishining tashkil topishi. Evropa davlatlarida bojxona ishini markazlashuvi. Buyuk Ipak yo'li orqali amalga oshiriladigan savdo aloqalarini rivojlantirishda Markaziy Osiyoda tashkil topgan bojxona ishining ahamiyati. Amir Temur va temuriylar saltanatida bojxona ishining yuritilishi. Amir Temur saltanatida bojxona munosabatlarida xorijiy savdogarlarga beriladigan imtiyozlar va yaratilgan sharoitlar.

Buxoro xonligida bojxona ishining yuritilishi. Buxoro xonligidagi bojxona munosabatlarining Rossiya bilan Afg'oniston o'rtasidagi savdo aloqalariga ta'siri. Xiva xonligi va Qo'qon xonligida bojxona ishining rivojlanishi. Turkiston o'lkasida savdo-sotiqni va bojxona munosabatlarini yuritilishi.

3-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona organlari faoliyatining tashkil topishi va huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Davlat Bojxona Bosh Boshqarmasining tashkil etilishi. O'zbekiston Respublikasi bojxona xizmatining Davlat Soliq Qo'mitasi tarkibidagi faoliyati.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona organlari tizimi. Davlat Bojxona Qo'mitasining funktsiyalari va boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida davlat bojxona organlarining vakolatlari, vazifalari, huquq va majburiyatlari. Davlat bojxona organlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorligi. Bojxona organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish.

4-mavzu: O'zbekiston Respublikasining bojxona siyosati

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona siyosatining mazmuni va tarkibi. Bojxona siyosatini yuritilishining zaruriyati. Mamlakat ichki va tashqi savdo aloqalarida bojxona siyosatini yuritilishining ahamiyati. Bojxona siyosati yuritilishining asosiy yo'nalishlari. Bojxona siyosatining asosiy maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekiston Respublikasida davlat iqtisodiy

siyosatining amalga oshirilishida bojxona siyosatining tutgan o'rnini va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasida bojxona siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

5-mavzu: O'zbekiston Respublikasida bojxona nazoratining tamoyillari va shakllari

Bojxona nazoratining mazmuni va shakllari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona nazoratini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi. Bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi va doiralari. Dastlabki qarorni qabul qilinishi va omillari. Bojxona nazoratini tashkil etilishining tamoyillari. Tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati ostida tashishga qo'yiladigan asosiy talablar. Tovar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tishning xuquqiy asoslari.

6-mavzu: Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari

O'zbekiston Respublikasida bojxona rejimlarining mazmuni va turlari. Bojxona rejimlariga umumiy tavsif. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida erkin muomala va reeksport uchun tovarlar chiqarish. Tovarlar eksporti va reimporti. Tovarlar tranziti. Vaqtincha olib kirish (olib chiqish). Erkin bojxona zonasi. Erkin ombor. Vaqtincha saqlash. Bojxona ombori. Bojsiz savdo do'koni. Tovarlarini bojxona xududida qayta ishlash. Tovarlarini yo'q qilish. Tovardan davlat foydasiga voz kechish. Maxsus maqsadlar uchun qo'llaniluvchi rejimlar. Bojxona rejimini tanlash va o'zgartirish tartibi. Tovarlarini olib chiqishni taqiqlash, cheklash.

7-mavzu: Bojxona to'lovlari

"Boj tarifi" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni, uning mazmuni va mohiyati. Tarif stavkalari va ularning tarkibi. Tariflarning tasniflanishi. Bojxona bojlari va ularning turlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekiston Respublikasi savdo siyosatida bojlardan foydalanish. Bojlarni o'z vaqtida to'lamaganlik yoki noto'g'ri to'langan chog'ida qo'llaniladigan choralar va jazolar. Boj imtiyozlari va preferentsiyalar. Tovarlarini tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimi. Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi tushunchalari. Jismoniy shaxslardan olinadigan yig'imlar. Bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'imlar. Boj to'lovlari hisoblab chiqish va to'lash tartibi.

8-mavzu: Tovarlarining bojxona qiymati va uni aniqlash usullari

Tovarning bojxona qiymatini aniqlashning maqsad va vazifalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida tovarning bojxona qiymatini aniqlashning jahon tajribasi. Bojxona qiymatini deklaratsiyalash tartibi. Bojxona qiymatini aniqlashning asosiy (birinchi) usuli. Aynan bir xil va o'xshash tovarlar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini aniqlashning ikkinchi va uchinchi usullari. Qiymatlarni ayirish va qo'shish asosida bojxona bahosini aniqlashning to'rtinchi va beshinchi usullari. Bojxona qiymatini aniqlashning oltinchi rezerv usuli. Tovarlarini bojxona qiymatini aniqlash usullarini qo'llanilishining zaruriyati.

9-mavzu: Bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik

Bojxona qonunchiligining maqsadi va vazifalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona organlari faoliyatida bojxona qonunchiligining ahamiyati va tutgan o'рни. Bojxona haqida qonun hujjatlarini buzganlik uchun jismoniy va yuridik shaxslar javobgarligi. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarini yuritish. Bojxona organlari surishtiruv organlari sifatida. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik. Kontrabanda tushunchasi va kontrabanda uchun javobgarlik.

3 «Bojxona ishi asoslari» fanida ma'ruza va amaliy (seminar) mashg'ulotlarini o'qitish bo'yicha ta'lim texnologiyasining kontseptual asoslari

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida respublikamizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlar - agrar, mulkiy munosabatlar, tashqi iqtisodiy, moliya-kredit tizimi va ijtimoiy sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu islohatlar orasida moliya-kredit tizimini isloh qilish alohida rol o'ynaydi. Chunki, jamiyatni barcha sohalarida faoliyati pulli munosabatlar bilan bevosita bog'liqdir, vaholanki, pulli munosabatlarni samarali ishlash mexanizmi o'z navbatida boshqa sohalariga bevosita ta'sir etadiki, bu moliya-kredit tizimini jamiyat iqtisodiy tizimidagi o'rni naqadar yuqori ekanligini ko'rsatadi. «Qattiq moliyaviy siyosatni amalga oshirish, barqaror pul muomalasini ta'minlash, soliq tizimini takomillashtirish, umumiy qilib aytganda izchil moliya-kredit siyosatini amalga oshirish iqtisodiy islohatlarimizni muvaffaqiyatli ta'minlashga xizmat qilmog'i lozim» - degan edi, - prezidentimiz I.A.Karimov².

«Bojxona ishi asoslari» fanining predmeti bojxona yig'imlar tushumini va uni tashkil etuvchi elementlarning rivojlanishi tendentsiyasini chuqur o'rganish va shu asosda byudjet tushumlari ob'ektlarini har birini alohida, shuningdek ularning umumiy hajmini ma'lum davr uchun prognozlash (istiqbolini ko'rish) hisoblanadi.

«Bojxona ishi asoslari» fanining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Bojxona munosabatlarining paydo bo'lishi va rivojlanishini;
2. Bojxona to'lovlarining mohiyatini, xususiyatlarini, bojxona siyosatini, bojxona qiymatini aniqlash va hisoblash usullarini;
3. Bojxona rejimlarini qo'llash tartibini;
4. Bojxona nazoratini o'tkazish qonun-qoidalarini va bojxona ishiga doir boshqa munosabatlarni o'rganishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar oliy ta'lim tizimi o'quv jarayonlari uchun ham yangi talablarni keltirib chiqarmoqda. Shunday talablardan biri o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hisoblanadi. Ta'lim jarayonida pedagogik va ta'lim texnologiyalaridan foydalanishdan asosiy maqsad ta'lim oluvchiga etarli darajada bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish asosida tinglovchilarda erkin va mustaqil fikr bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirish hisoblanadi. Ta'lim jarayonlariga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda ta'lim oluvchining shaxsini hurmat qilish, har bir shaxsning erkin fikr bildirishiga imkoniyat yaratish, ijod bilan shug'ullanishi va o'z-o'zini rivojlan-

² I.A.Karimov. Buyuk kelajak sari. T.: "O'zbekiston" 1998. 682 bet

tirishga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratish orqali tinglovchini shaxs sifatida mustaqil fikrlashga undaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning 14-sessiyasida so'zlagan nutqida: «Bizning oldimizda ozod fuqaro shaxsining ma'naviyatini, boshqacha aytganda, ozod har tomonlama rivojlangan, o'z xuquqlarini yaxshi biladigan, kuchi va qobiliyatiga ishonib tayanadigan, atrofdagi hodisalarga o'zining mustaqil fikri va munosabati mavjud, o'z manfaatlarini Vatan va xalq manfaatlarini bilan uyg'unlashtiradigan shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi» deb ta'kidlagan edi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish ko'p marta takrorlab o'tilgan. Bularning barchasi «Bojxona ishi asoslari» fani bo'yicha o'quv jarayonini texnologiyasini ishlab chiqishga sabab bo'ldi. Ushbu kurs bo'yicha o'quv jarayonining texnologiyasini ishlab chiqishdagi asosiy kontseptual qoidalarini quyidagilardan iborat:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Ta'lim jarayonida qatnashuvchi barcha sub'ektlarning keng qamrovli rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu jarayonda tinglovchi o'z uquv faoliyatining sub'ekti sanaladi va pedagog bilan xamkorlikda yagona ta'lim jarayonini tashkil qilishda qatnashadi hamda har bir shaxsning erkin fikr bildirishiga imkon yaratiladi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tutilililik, tizimli yondoshuv va o'zaro bog'liqlikda kabi belgilarini qamrab olishi kerak.

Faoliyatli yondoshuv. Faoliyat shaxsni rivojlantirishdagi eng muhim va hal qiluvchi vosita - asos hisoblanadi. Shu sababli ta'lim oluvchi shaxsning mustaqil fikrlashi uchun zarur sifatlarni shakllantirishda uning faoliyatini intensivlashtirish va faollashtirish, uquv jarayonida uning barcha imkoniyatlarini, sifatlarini namoyon etishiga, qarama-qarshi yoki monand fikr aytishiga sharoit yaratish lozim.

Dialog yondoshuv. Ta'lim jarayonining o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muloqat shaklida tashkil qilinishini va ularning o'zaro xamkorligi, psixologik yakdilik muhitini yaratishni taqozo qiladi. Dialogik yondoshuv asosida tashkil qilingan darsda qurilayotgan masalaning mohiyatiga etib borish, tushunish, anglash va kerak bo'lsa yangi fikrlar bilan to'ldirish imkoniyati yuzaga keladi.

Xamkorlikdagi ta'limni tashkil qilish. O'qituvchi va o'quvchi munosabatlarini demokratlashtirish, tenglik, o'zaro hurmat, xamkorlik, o'zaro yordamga asoslangan holda, faoliyat mazmunini, maqsadini va erishilgan natijalarni xamkorlikda baholaydi. Asosiy tamoillari: guruxga umumiy topshiriq, umumiy rag'batlantirish, o'zining va guruxning boshqa a'zolarining natijalariga mas'uliyat, faoliyat hamkorligi va natijaga erishish uchun teng imkoniyat yaratish.

Muammoli ta'lim. Muammoli darsning asosiy maqsadi bahs va munozara asosida ishtirokchilarning yangi, mustaqil fikrlarga kelishi, ularning turli vaziyatlarni ilmiy va amaliy taxlil etish orqali o'z fikrlarini aytib berishga o'rgatish bo'lganligi sababli, tinglovchi shaxsida erkin, mustaqil fikrlashni shakllantirish vositasi hisoblanadi. Muammoli dars mantiqiy fikrlashni, ilmiy mushoxoda kilishini, echimlarni amaliy faoliyatga ijodiy qo'llash bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantiradi va shakllantiradi.

Yangi vosita va usullarni qo'llash. Ta'lim jarayonida kompyuter va informatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ma'lumotlarni ko'rgazmali shaklda etkazib beradi.

Berilgan kontseptual qoidalarga hamda «Bojxona ishi asoslari» fanining maqsadi, vazifalari, xajmi va mazmuniga asoslangan holda ta'lim usuli va texnikasi; tashkil qilish shakli; vositasi; kommunikatsiya usullari; berilgan ma'lumotlarni nazorat qilish usul va vositalari; baxolash va nazorat qilish tartiblari aniqlandi.

Ta'lim usuli va texnikasi. Baxs-munozara, muammoli usul, «Aqliy xujum» usuli, Insert, T-sxema, Diagramma-Venna, Keys-stadi, ma'ruza (ko'rgazmali, tematik, muammoli, informatsion).

Ta'limni tashkil qilish shakli. Jamoa va guruhlar bo'yicha, dialog va polilogga asoslangan, o'zaro suhbat, xamkorlikda va bir-birini o'qitish.

Ta'lim vositasi. Darslik, ma'ruza matni, masalalar to'plami, kodoskop, grafikli chizmalar, kompyuterli va informatsion texnologiyalar.

Kommunikatsiya usullari. Bevosita o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi tezkor teskari (qarama-qarshi) aloqaga asoslanadi.

Berilgan ma'lumotlarni nazorat qilish usuli va vositalari. Kuzatish, blits-so'rov, joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalarini taxlil qilish asosida tashxis qilish.

Boshqarish vosita va usullari. O'quv mashg'ulotlari texnologik karta shaklida rejalashtirilgan, unda uquv jarayonining asosiy bosqichlari, ko'riladigan masalalari va ularni nazorat qilish (joriy, oraliq va yakuniy) tartiblari aniq ko'rsatilgan.

Baholash va nazorat qilish. Har bir o'quv mashg'uloti jarayonidagi o'qish natijalarini (o'quv topshiriqlarni bajarishi va testlarni baholash, har bir o'quv mashg'ulotdagi tinglovchining o'quv faoliyati reytingini baxolash) hamda butun o'quv kursi davomidagi (har bir tinglovchining joriy, oraliq va yakuniy natijalarini reyting tizimi orqali baxolash) natijalarni baxolash.

1.1. Ma'ruzani o'qitish texnologiyasi (ma'ruza-2soat, amaliy mashg'ulot-2-soat)

<i>Talabalar soni:</i> 62 ta	Vaqt-2 soat.
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Kirish-tematik ma'ruza-vizualizatsiya
<i>O'quv mashg'ulotining rejasi</i>	1. Fanining predmeti, vazifalari va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi. 2. Bojxona ishining mohiyati va ahamiyati. 3. Bojxona munosabatlarida qo'llaniladigan asosiy atamalar va tushunchalar.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Bojxona ishi asoslarining iqtisodiy mohiyati, zarurligi va funktsiyalari to'g'risida talabalarga bilim berish va uni kengaytirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> ➤ o'quv fanining maqsadi, vazifalari va boshqa fanlar tizimida tutgan o'rnini tushuntiradi; ➤ o'quv fanining tarkibi va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi; ➤ bojning iqtisodiy mohiyati, zaruriyati va uning belgilari bilan tanishtiradi; ➤ bojning ob'ektiv zarurligini yoritib beradi; ➤ bozor iqtisodiyoti sharoitida bojlarning bajaradigan asosiy funktsiyalari va vazifalariga xarakteristika berish; ➤ yalpi ichki mahsulotni taqsimlashda soliqlarning tutgan o'rnini tushuntirib beradi.	<i>O'quv faoliyati natijasi:</i> ➤ fanning predmetini, vazifasini, tuzilishini, bojning iqtisodiy mohiyatini, zarurligini va belgilarini aytib beradi; ➤ bojlar makroiqtisodiyotni rivojlanti-rish, bozor infratuzilmasini yaratish va boshqa umumdavlat maqsadlari uchun moliyaviy resurslar to'plash vositasi ekanligini yoritib beradi; ➤ bojlarning funktsiyalari va vazifalarining asosiy farqlariga xarakteristika beradi; ➤ daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash sharoitida bojlarning rolini ochib beradi.
<i>O'qish usullari va texnikasi</i>	Ma'ruza-vizualizatsiyasi, texnikasi: blits-so'rov, yo'naltiruvchi (fokusiru-yushie) savollar, «o'yla – juft bo'lib ishla – olgan bilimningni bo'lish», «xa-yo'q»
<i>O'qitish vositalari</i>	Lazerli proektor, ko'rgazma materiallari, axborot bilan ta'minlash.
<i>O'qish shakli</i>	Jamoa bulib ishlash, frontal ishlash, guruxlarda ishlash
<i>O'qish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Kuzatish, og'zaki nazorat o'quv topshiriqlari

Ma'ruzani o'qitish texnologiyasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish. (5 min.)	1.1. O'quv kursining asosiy mazmuni, tarkibiy tuzilishi va o'tiladigan mavzular to'g'risida qisqacha tanishtiradi. 1.2. O'quv kursi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllari va reyting ballari bilan tanishtiradi.	Eshitadi.
2-bosqich Asosiy bosqich. (65 min)	2.1. Talabalarni bilimini oshirish maqsadida yo'naltiruvchi savollar bilan murojat etadi: 1. «Bojxona ishi asoslari» fani nimani o'rgatadi, uning qanday vazifalari bor? 2. Bojxona nima va boj deganda nimani tushunasiz? 2.1. Savollarga javob berishlari uchun talabalarni juftlikka ajratadi. Blits-so'rov o'tkazadi. 2.2. Ekranga 1-slaydni chiqazib «Bojxona ishi asoslari» predmeti sxemasiga tushuncha berib o'tib, uning tarkibiy tuzilishi bilan tanishtirib va unga qisqacha yakun yasaydi. 2.3. Ekranga 2-slaydni «Bojxona ishi asoslari» fanining tizimi to'g'risidagi chizmani chiqazib, talabalarni bu kurs bo'yicha o'tiladigan mavzular bilan, reytingi bilan, shuningdek, joriy, oraliq va yakuniy ko'rsatkichlari, mezonlari bilan tanishtiradi. Asosiy adabiyotlar ro'yxati va talabalarga bo'lgan asosiy talablar bilan tanishtiradi. 2.4. Mavzuning rejasi bilan tanishtirib, bunda asosan ko'rgazmali materiallardan va yo'naltiruvchi savollardan foydalanadi: 1. Bojxona ishi asosining zarurligi nimada? 2. Bojxona boji va bojxona to'lovining bir-biridan farqi va umumiy jihatlarini ko'rsatib bering. 3. «Bojxona ishi asoslari» fanining davlat soliq xizmati uchun mutaxassislar tayyorlashdagi roli qanday? Talabalarni mavzuning asosiy maqsadiga qaratadi va yozib olishlarini taklif qilib yakun yasaydi.	Savollarga javob beradi. 1-slayd bilan tanishib, o'zlarini fikrlarini bayon etishadi. 2-slayd bilan tanishib, reyting nazorat talablarini yozib olishadi. Chizma, jadval va ko'rgazma materiallarni tuzilishi bilan tanishadilar, savollar berib aniqlaydilar. Asosiy va keraklilarini yozib oladilar.
3-bosqich. (10 min.)	3.1. Talabalarni mavzuni qanday darajada o'zlashtirganliklarini bilish uchun ularga savol bilan murojat qiladi: «Bojxona boji va bojxona to'lovidan farqi nimada?». Talabalar bilan blits-so'rov o'tkazadi. Yakuniy xulosa qiladi. 3.2. Talabalarga mustaqil bajarishlari uchun uyga vazifa beradi: jadval tuzing.	Savollarga javob beradilar. Eshitadilar aniqlaydilar va yozadilar.

Baholash mezonlari.

«Bojxona ishi asoslari» kursi bo'yicha tinglovchilar quyidagi reyting ballarida baholanadi:

- 35% - 35,0 ball – joriy baho
- 35% - 35,0 ball – oraliq baho
- 30% - 30,0 ball – yakuniy baho
- 86-100% / 86,0 – 100,0 ball – «a'lo»
- 71-85% / 71,0 – 85,0 ball – «yaxshi»
- 55-70% / 55,0 – 70,0 ball – «qoniqarli»

«Bojxona ishi asoslari» fanining predmeti bojxona siyosati, bojxona bojlari va tariflari, bojxona munosabatlarining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish hisoblanadi.

«Bojxona ishi asoslari» fanini o'rganish jarayonida analiz, sintez, tahlil etish, amaliy hujjatlar nusxalarini qiyosiy tahlil etish metodlaridan foydalaniladi.

«Bojxona ishi asoslari» fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan bojxona siyosati turlari, printsiplari va vazifalarini o'rganish;
- Bojxona qonunchiligi hujjatlarini o'rganish va tahlil etish;
- Bojxona faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinishini o'rganish;
- Bojxona bojlari, tariflari va imtiyozlarni o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasida qo'llaniladigan bojxona rejimlarini o'rganish;
- Bojxona qiymati va uni aniqlash usullarini o'rganish.

«Bojxona ishi asoslari» fani «Moliya», «Soliq nazariyasi», «Soliqlar va soliqqa tortish», «Soliq qonunchiligi asoslari» va shu kabi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liq.

Bojxona ishi O'zbekistonning tashqi va ichki siyosati tizimida ustuvor o'rinlardan birida turadi. Bir tomondan, tashqi iqtisodiy faoliyatning erkinlashtirilishi tashqi bozorga mustaqil chiqish huquqiga ega bo'lgan korxonalar, tashkilotlar va tadbirkorlar doirasini jiddiy ravishda kengaytirdi. Davlat bojxona siyosati vositalari - tarifli va notarif boshqarish vositalari orqali ularning tovarlar, ishlar va xizmatlar eksporti va importi bo'yicha faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi tomondan, ichki iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish, milliy bozorni shakllantirish, respublika byudjetining daromad qismini to'ldirish vositasi sifatida bojxona ishining ahamiyati ortdi. Bu, o'z navbatida, bojxona ishining huquqiy asosini yaratuvchi qonun hujjatlari va normativ xujjatlar tizimni ishlab chiqishni taqozo etdi. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, «Davlat bojxona xizmati to'g'risida» va «Boj tarifi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari bojxona haqidagi qonun hujjatlari tizimi asosini tashkil etadi. Qayd etilgan qonun hujjatlari va ularni rivojlantirish uchun chiqarilgan normativ hujjatlar O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlari himoya

qilinishining ishonchli mexanizmini yaratadi, iqtisodiy va siyosiy ustuvorliklarini hisobga olgan holda yagona bojxona siyosatini o'tkazilishini ta'minlaydi.

«Bojxona ishi» atamasi mazmunini aniqlash printsiptal ahamiyatga egadir. Bojxona siyosatining xususiyati va mazmunini, bojxona huquqi, uning institutlari va yuridik normalarini tushunish ko'p jihatdan ushbu atamani belgilashning puxtaligi va to'liqligiga, bojxona ishi tarkibini aniqlashga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida (2-modda) bojxona ishiga quyidagicha ta'rif beriladi: «Bojxona ishi O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish, boj to'lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruvchi, bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi va shartlaridan hamda bojxona siyosatini amalga oshirishning boshqa vositalaridan iboratdir».

Mazkur ta'rif umuman olganda bojxona ishi tushunchasini va uning tarkibiy elementlarini aniq tavsiflab beradi. Bojxona ishi ko'p rejali va juda xilma-xil vazifalarni hal etishga yo'naltirilganligi shartlanganligidan kelib chiquvchi uning o'ziga xosligi va nodirligi mana shundan iboratdir.

Bojxona ishining Bojxona kodeksida ko'rsatilganlardan tashqari tarkibiy qismlari ro'yxatiga boj tariflari vositasida tartibga solish, valyuta nazorati, bojxona ta'minoti, bojxona statistikasi va Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini yuritish, kontrabandaga va bojxona ishi sohasidagi boshqa jinoyatlarga qarshi kurash, bojxona haqidagi qonun xujjatlari buzilganligi haqidagi ishlarni ko'rib chiqish kiritilishi kerak.

Bunday yondashilgan taqdirda bojxona ishi mazmuni kengroq tushuniladi, boz ustiga uning tarkibiga kiritilgan, yuqorida aytib o'tilgan qo'shimcha elementlar Bojxona kodeksida nazarda tutilgan hamda unda etarlicha keng va batafsil tartibga solingan.

Shunday qilib, bojxona ishi tuzilmasi bojxona siyosatini amalga oshirishning quyidagi vositalari bilan ifodalanishi mumkin:

– tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish tartibi va shartlari;

– bojxona rejimlari;

– boj tariflari vositasida tartibga solish;

– bojxona rasmiylashtirilishi;

– bojxona ta'minoti;

– bojxona nazorati;

– bojxona statistikasi va tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi;

– bojxona ekspertizasi;

– kontrabandaga va bojxona ishi sohasidagi boshqa jinoyatlarga qarshi kurash;

– bojxona haqidagi qonun xujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yuritish va ko'rib chiqish.

Bojxona ishining mazkur tuzilmasi ham, albatta, batafsil emas, uni yanada tabaqalashtirish mumkin. Umuman olganda esa bojxona siyosati vositalarining keltirilgan ro'yxati O'zbekiston Respublikasi bojxona ishining hozirgi tuzilmasini aynan aks ettiradi.

Bojxona ishining yuqorida sanab o'tilgan tarkibiy qismlarining ahamiyati, roli va maqomi bir xil emas. Biroq, ular xususiyati va maqsadlariga, bojxona ishi tizimidagi o'rniga ko'ra turlicha bo'lsa ham jam bo'lgan holda uzviy birlikni tashkil etadi, chunki O'zbekiston Respublikasining yagona bojxona vazifalariga xizmat qiladi.

Bojxona ishiga, uning mazmuni va tuzilmasiga umumiy ta'rif berish munosabati bilan ushbu sohada eng ko'p qo'llaniladigan ayrim atamalar va kategoriyalarga qisqacha to'xtalib o'tish zarur. Bular quyidagi tushunchalar: *bojxona*; *bojxona organlari*; *bojxona organlari tizimi*; *bojxona xizmati*; *bojxona hududi*; *bojxona chegarasi*.

Bojxona tushunchasi turk xalqlarining «tamg'a» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, xonning moli, mol-mulkiga qo'yiladigan belgi, tamg'a, muhrni anglatgan. Keyinroq xonning yorliqlari yig'im olingandan keyin berila boshlangan va u «tamg'a» deb atalgan. U mohiyatan bozorlar va yarmarkalarda savdo qilishda undiriladigan boj edi. «Tamg'a» so'zidan boj olingan tovarga «tamg'a bosish» («tamjit») fe'li kelib chiqqan. Muhr bosgan odam bojxonachi, muhrdor, muhr bosilgan joy esa bojxona (tamojnya) deb atala boshlangan.

Bojxona hozirgi tushunchada davlatning bojxona siyosatining amalga oshchirilishi va bojxona huquqi qo'llanilishi uchun mas'ul bo'lgan hukumat xizmatini anglatadi.

Bojxona organlari - bevosita bojxona ishini amalga oshiradigan ijro etuvchi xokimiyatning huquqni muhofaza qilish organlaridir.

Bojxona organlari tizimi deganda faqat bojxona ishining moddiy komponentini - davlatning bojxona siyosatini amalga oshiruvchi ijro va farmoyish beruvchi organlarini tushunmoq kerak. Shuni ta'kidlash zarurki, qat'iy subordinatsiya mavjudligi, ma'muriy bo'ysunishning ierarxik munosabatlari boshqaruv istalgan tizimining muhim belgisi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan garchi o'z faoliyati davomida ayrim bojxona masallari hal etish bilan shug'ullanuvchi, biroq markaziy yoki mahalliy bojxona organlari bo'ysunuvida bo'lmagan bir qancha davlat va tijorat tuzilmalarini, muassasalar va tashkilotlarni bojxona organlari tizimiga kiritish mumkin emas.

Bojxona xizmati atamasi so'zining keng va tor ma'nosida qo'llanilishi mumkin. Keng ma'noda bojxona organlari jami: bojxona vazifalari amalga oshirilishida bevosita qatnashuvchi bo'g'inlar va tuzilmalar, shuningdek bojxona organlariga xizmatga qabul qilish va davlat xizmatini o'tash tartibi va huquqiy shartlari tushuniladi. Ikkinchi holatda bojxona xizmati deganda faqat davlat xizmati turi: bojxona organlarida, boshqa bo'g'inlarda (bojxona laboratoriyalari, markazlari, bojxona ixtisosidagi o'quv muassasalari va boshqa muassasalarda) davlat xizmatini o'tash tartibi va shartlari tushuniladi.

Bojxona kodeksiga (3-modda) muvofiq, O'zbekiston Respublikasining quriqlikdagi hududi, hududiy va ichki suvlar hamda ular ustidagi havo bo'shlig'i *bojxona hududini* tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida erkin bojxona zonallari va erkin omborlar bo'lishi mumkin, ularning hududlari, agar qonun xujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqarida joylashgan deb qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona hududi sarhadlari, shuningdek erkin omborlarning tegallari O'zbekiston Respublikasining *bojxona chegarasi* hisoblanadi.

Bojxona tizimi - davlatning bojxona siyosati amalga oshirilishini ta'minlovchi davlat tuzilmalari va boshqa tuzilmalarnigina emas, balki ular faoliyatining amaliy shakllarini ham nazarda tutuchi eng umumiy va jamlovchi tushunchadir.

Bojxona ishida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

1) **tovarlar** - har qanday ko'char mol-mulk, shu jumladan valyuta va valyuta boyliklari, elektr, issiqlik energiyalari va energiyaning boshqa turlari, ushbu moddaning 4-bandida qayd etilgan transport vositalaridan boshqa transport vositalari, intellektual mulk ob'ektlari;

- 2) **O'zbekiston tovarlari** - O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan tovarlar yoki O'zbekiston Respublikasi hududida erkin muomalaga chiqarilgan tovarlar;
- 3) **chet el tovarlari** - ushbu moddaning 2-bandida ko'rsatilmagan tovarlar;
- 4) **transport vositalari** - yo'lovchilar va tovarlarni tashish uchun foydalaniladigan vositalar, shu jumladan konteynerlar va boshqa transport uskunalari;
- 5) **tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi shaxslar** - tovarlar va transport vositalarining mulkdorlari, ularning sotib oluvchilari, egalari yoxud ular bilan Bojxona kodeksida nazarda tutilgan harakatlarni o'z nomidan amalga oshirish uchun qonun hujjatlariga muvofiq etarli bo'lgan boshqacha tarzda ishtirok etuvchi shaxslar;
- 6) **tashuvchi** - tovarlarni amalda olib o'tuvchi yoxud transport vositasidan foydalanish uchun mas'ul shaxs;
- 7) **deklarant** - tovarlarni olib o'tuvchi, tovarlar va transport vositalarini o'z nomidan deklaratsiyalovchi, ko'rsatuvchi va taqdim etuvchi shaxs yoki tovar olib o'tuvchi shaxs nomidan ish olib borayotgan bojxona brokeri;
- 8) **bojxona chegarasidan olib o'tish** - tovarlar yoki transport vositalarini har qanday usulda, shu jumladan xalqaro pochta jo'natmalarini yuborish, quvur transportidan hamda elektr uzatish liniyalaridan foydalanish yo'li bilan bojxona hududiga olib kirish yoki olib chiqish harakatlarini amalga oshirish. Shunday harakatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:
tovarlar yoki transport vositalari bojxona hududiga olib kirilganda, shu jumladan erkin bojxona zonalar va erkin omborlar hududidan olib kirilganda - bojxona chegarasidan amalda o'tish;
tovarlar yoki transport vositalari bojxona hududidan olib chiqilganda, shu jumladan erkin bojxona zonalar va erkin omborlar hududiga olib chiqilganda - bojxona deklaratsiyasini taqdim etish yoki tovar yoxud transport vositalarini olib chiqish maqsadini amalga oshirishga bevosita qaratilgan o'zga harakatni bajarish;
- 9) **bojxona nazorati** - qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmui;
- 10) **bojxona ta'minlovi** - bojxona organlari plombalar, muhrlar bosish, raqamli, harfli va boshqa markalar, qiyoslash belgilari qo'yish, shtamplar bosish yo'li bilan amalga oshiradigan tovarlar va transport vositalarini, binolar va boshqa joylarni qiyoslash vositasi;
- 11) **bojxona rasmiylashtiruv** - tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash maqsadida bojxona organlarining mansabdor shaxslari amalga oshiradigan operatsiyalar majmui;
- 12) **bojxona rejimi** - O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalarining maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui;
- 13) **chiqishga ruxsat berish** - bojxona organlarining bojxona rasmiylashtiruvdan o'tgan tovarlar yoki transport vositalarini shaxsning to'la ixtiyoriga berishi;
- 14) **shartli chiqarib yuborish** - shaxsning belgilangan cheklashlar, talablar yoki shartlarga rioya qilish majburiyatlarini o'z zimmasiga olishi bilan bogliq holda tovarlar va transport vositalarini chiqarib yuborish;
- 15) **iqtisodiy siyosat choralari** - tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish hamda O'zbekiston Respublikasidan olib chiqishga doir cheklavlar bo'lib, ular kvota belgilashni, litsenziyalashni, shuningdek respublika iqtisodiyotining jahon xo'jaligi bilan o'zaro hamkorligini tartibga solib turuvchi boshqa choralarni o'z ichiga oladi;

16) **dastlabki qaror** - tovarning tasnifi, uning boj qiymati, qaysi mamlakatda tayyorlanganligi, bojxona to'lovlarining miqdoriga hamda bojxona ishiga oid boshqa masalalarga taalluqli bo'lgan bojxona organi chiqargan qaror.

1-mavzu bo'yicha test variantlari:

1. Buyuk Ipak yo'lidagi boj yig'implari haqidagi dastlabki yozma eslatmalari nechanchi asrdagi manbaalardan ma'lum?

@A) VIII asrdagi arab manbaalaridan

V) VII asrdagi xitoy manbaalaridan

S) IV asrdagi arab manbaalaridan

D) VI asrdagi Xitoy manbalari

2. XV asr boshida qaysi elchi «Butun mamlakat Temur hukmronligi ostida tinch yashaydi» deb qayd etgan?

A) Sultoniya elchisi Luis Gonzales

@V) Kastiliya elchisi Ryui Gonzalec de Klavixo

S) Antaliya elchisi Kostantin Eduard

D) Frantsiya elchisi Eduard IV

3. Bojxona so'zi qaysi so'zdan kelib chiqqan?

@A) Turk xalqlarining «tamg'a» so'zidan

V) Arab xalqlarining «chebek» so'zidan

S) Arab xalqlarining «zakot» so'zidan

D) Turk xalqlarining «xiroj» so'zidan

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasi nechanchi yilda tashkil etildi?

@A) 1997 yil 8 iyulda

B) 1997 yil 11 iyulda

C) 1997 yil 30 iyulda

D) 1996 yil 10 avgustda

5. Mamlakat ichki bozorini xorijiy raqobatdan himoyalash maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar majmuasi Davlat Bojxona siyosatining qaysi turiga kiradi?

@A) Proteksionizm siyosati

B) Qisman cheklash siyosati

C) Erkin savdo siyosati

D) Savdo nazorati siyosati

6. Bojxona nazorati uchun zarur bo'lgan hujjatlar shaxslar tomonidan kamida necha yilgacha saqlanadi?

@A) 5 yil

B) 3 yil

C) 1 yil

D) 2 yil

7. O'zbekiston Respublikasi bojxona siyosatining tamoyilari kim tomonidan shakllantirilgan?

A) Davlat Bojxona Qo'mitasi raisi

@B) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

C) Davlat Soliq Qo'mitasi raisi

D)O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

8. O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona organlarining boshqaruv tuzilmasi nechta darajali tizimdan iborat?

A)3ta

@B)4ta

C)2ta

D)5ta

9. Tovar qiymatlarining 2 foizini tashkil etuvchi boj Markaziy Osiyoda nechanchi asrgacha saqlanib qoldi?

A)VIII asrgacha

@B)XIX asrgacha

C)Hozirgi davrgacha

D)XX asrgacha

10. Amir Temur xazina uchun muhim bo'lgan boj to'lovini ommalashtirish maqsadida qanday ishlarni amalga oshirdi?

@A)Buyuk Ipak yo'lidagi harakatni qayta tikladi

B)Boshqa davlatlarni bosib oldi

C)Boj miqdorini keskin tushirdi

D)Boj yig'imlarini bekor etdi

2.1. Ma'ruzani o'qitish texnologiyasi (ma'ruza-2 soat, amaliy mashg'ulot-2 soat)

Talabalar soni: 62 ta	Vaqti - 2 soat.
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Tematik axborot ma'ruza-vizualizatsiya
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Bojxona munosabatlarining paydo bo'lish tarixi. 2. O'rta asrlarda bojxona tizimining shakllanish boskichlari. 3. Markaziy Osiyoda va O'zbekistonda bojxona munosabatlarining rivojlanishi tarixi
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Bojlarning turlari va usullari to'g'risida tushuncha berish va ularni bu olgan bilimlarini mustahkamlash.	
<i>Pedagogik vazifa:</i> - Bojxonaning turlari haqida tushuncha berish; - Bojxonaning turlari bilan tanishtirish; - Boj usullari bilan tanishtirish.	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i> • Davlatning iqtisodiyotni tartibga boj siyosati nuqtai nazaridan prognozning turlarini tushuntirib beradi; • Bojxona ishi asoslari turlari to'g'risidagi tushunchalarni aytib beradi; • Bojxona ishi asoslarining tezkor va qisqa muddatli turlarining mohiyatini ochib beradi; • Bojxona ishi asoslari usullari haqida tushuncha beradi.
<i>O'qitish usullari va texnikasi</i>	Ma'ruza-vizualizatsiya, texnikasi: blits-so'rov, «o'yla – guruxda ishla – boshqalar bilan ulash» «xa-yo'q» texnikasi.
<i>O'qitish vositalari</i>	Lazerli proektor, vizual materiallar, ma'ruza matni, axborot-informatsion ma'lumotlar.
<i>O'qitish shakli</i>	«Jamoa bo'lib ishlash», tug'ri yo'naltirilgan va guruhlarda ishlash, kategorial jadval.
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya.
<i>Monitoring va baxolash</i>	Kuzatish, og'zaki nazorat, o'quv topshiriq.

1- tematik informatsion ma'ruzaning texnologik kartasi (2-soat)

Faoliyat	Faoliyatning mazmuni
-----------------	-----------------------------

bosqichlari	O'qituvchi	Talaba
1 bosqich O'quv mashg'uloti ga kirish (10 min)	1.1.Ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, uquv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi. 1.2.Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi (1- Ilova). 1.3.Har bir tinglovchiga mavzu buyicha tarqatma materiallarni tarqatadi. 1.4.Mavzu buyicha ma'ruza mashg'ulotining ma'ruza rejasiga izoh beradi.	Eshitadilar
2 bosqich Asosiy jarayon bosqichi (60 min)	2.1.Quyidagi savollarga o'ylab javob berishlarini so'raydi: 1. Bojxona munosabatlari rivojlanishining sabablari nimalardan iborat? 2. Bojxona munosabatlarini mamlakat ichki va tashqi siyosatida tutgan o'rni qanday? 3. Bojxona munosabatlarining rivojlanish xususiyatlari nimalardan iborat? 4. Markaziy Osiyo hududida bojxona munosabatlari rivojlanishining xususiyatlari nimalardan iborat? Blits-so'rov o'tkazadi. Savol-javob jarayonida aniqlashtiriladi va yo'naltiriladi.	Savollarga javob berishadi. 1-chizmani o'rganib chiqib soliqni prognoz qilish turlari va usullari bo'yicha o'z tushunchalarini savollarga javob berish yo'li bilan gapirib beradilar.
3 bosqich Yakuniy bosqich (10 min)	3.1.Mavzu buyicha umumiy xulosa qilinadi. 3.2.Guruhlar o'zaro baxolash natijasini e'lon qilishlarini so'raydi. Natijalarga izoh beradi. 3.3.Kelgusi ma'ruza «Byudjet daromadlarini shakllantirish va soliqlarni prognozlashda soliq va majburiy to'lovlar tahlili» mavzusi bo'lishini e'lon qilib, Insert usuli bo'yicha tayyorlanib kelishni topshiradi.	Guruhlar o'zaro baxolash natijalarini e'lon qilishadi. Mustaqil ishlash uchun topshiriqni yozib oladilar.

1-ilova

«Markaziy Osiyo va O'zbekistonda bo'xona ishining rivojlanishi tarixi» ma'ruzasida tinglovchilarning faoliyatini baholash mezonlari ko'rsatkichlari

Guruh ishini baholash varag'i.

Guruhlar	Baholash mezonlari							
	So'zlab berishi (aniqlilik va tushunarlik, xulosalarning asoslanganligi)				Muammoli topshiriqning bajarilishi (to'g'riligi va izchilligi)			
	A'lo 2,0- ball	Yaxshi 1,5- ball	qoniqarli 1,0-ball	qoniqarsiz 0,5-ball	A'lo 2,0- ball	Yaxshi 1,5- ball	qoniqarli 1,0-ball	qoniqarsiz 0,5-ball
1								
2								
3								
4								

2-ilova**Mustaqil ishlash uchun uyga topshiriq.**

«Markaziy Osiyo va O'zbekistonda bo'xona ishining rivojlanishi tarixi» mavzusiga insert tuzing.

Insertni belgilang va yoqlang.

V	Q	-	?

V – bilaman; Q - men uchun yangi; - - bilmayman; ? – men yana ishlashim kerak.

Kategorial jadval.

Davlat boshqaruvi nuqtai nazaridan bojning turlari.	Boshqaruv darajasi nuqtai nazaridan bojning turlari.	Bojxona ishi asoslari muddatlari bo'yicha turlari.
Ijtimoiy boj. Iqtisodiy boj. Ilmiy – texnikaviy boj.	Makrodaraja – milliy iqtisodiyot miqyosida. Mezodaraja – hududlar bo'yicha va tarmoqlar kesimida. Mikrodaraja – boj to'lovchi korxonalar miqyosida.	Tezkor boj. Qisqa muddatli boj. O'rta muddatli boj. Uzoq muddatli boj.

Guruh ishini baholash varag'i.

Guruhlar	Baholash mezonlari							
	So'zlab berishi (aniqlilik va tushunarliklik, xulosalarning asoslanganligi)				Topshiriqning bajarilishi (to'g'riligi va izchilligi)			
	A'lo 2,0- ball	Yaxshi 1,5- ball	qoniqarli 1,0-ball	qoniqarsiz 0,5-ball	A'lo 2,0- ball	Yaxshi 1,5-ball	qoniqarli 1,0-ball	qoniqarsiz 0,5-ball
1								
2								
3								
4								

2.2. Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi

Talabalar soni: 20-30	“Markaziy Osiyo va O'zbekistonda bojxona ishining rivojlanishi tarixi” Vaqt-2 soat.
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Mavzu bo'yicha olgan bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish bo'yicha amaliy mashg'ulot.
<i>O'quv mashg'ulotining rejasi.</i>	1. Bojning tezkor, qisqa va o'rta muddatli turlari. 2. Korxona ma'lumotlari asosida boj to'lovchi. 3. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida boj. 4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ko'p omilli tahlil asosida bojxona ishi asoslarini aniqlash.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Bojxona ishi asoslarining turlari va usullari to'g'risida tushuncha berish va ularni bu olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish.	
Pedagogik vazifa: - Bojxona ishi asoslarining turlari to'g'risidagi nazariy bilimlarni mustahkamlash; - Bojxona ishi asoslarining usullari ahamiyatini to'laroq tushuntirib berish;	O'quv faoliyati natijasi. Quyidagilarga tushuncha bera olishi kerak: - Bojning tezkor, qisqa va o'rta muddatli turlari. - Korxona ma'lumotlari asosida boj to'lovchi. - Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida boj. - Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ko'p omilli tahlil asosida bojxona ishi asoslarini aniqlash.
<i>O'qitish usullari va texnikasi</i>	diskussiya, bir-biridan o'rganish usuli, «koop-koop», prezentatsiya, blits-so'rov
<i>O'qitish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, markerlar, skotch, A32 qog'ozi
<i>O'qitish shakli</i>	Guruhlarda va «jamoabulib ishlash», frontal ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoit-lari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, guruhlarda ishlash usulini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya.
<i>Monitoring va baxolash</i>	Kuzatish, og'zaki, yozma nazorat, o'quv topshiriq.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni:	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish (5 min)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusini, maqsadini, o'tkazish tartibini tushuntirib, o'quv mashg'uloti gruppasi bilan ishlash texnologiyasi asosida olib borilishini e'lon qiladi. 1.2. Bojning turlari va usullari bo'yicha tinglovchilarning bilimlarini faollashtirish maqsadida savol-javob o'tkazadi. Ularga quyidagi savollar bilan murojat etadi: «Bojning asosan qanday turlari mavjud?», «Boj tushumlarining qanday usullarini bilasiz?», «Respublika Bojxona organlarida asosan qaysi usulidan foydalaniladi?». 1-2 ta talabalarning javobini eshitib, qolgan savol-javoblarni har bir gruppasi berilgan topshiriqni bajarganidan so'ng, guruxlar prezentatsiyasidan keyin davom etishini e'lon qiladi.	Eshitadilar, yozadilar. Savollarga javob beradilar.
2-bosqich Guruxlarda ishlash (20 min.)	2.1. Talabalarni 3 guruxga bo'ladi. Guruxda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi. O'quv topshirig'ini tarqatadi. Qanday o'quv natijalariga erishish mumkinligiga aniqlik kiritadi. Gurux ishini baholash ko'rsatkichlari bilan tanishtiradi. Topshiriqni bajarish jarayonida qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. (darslik, ma'ruzalar matni). Guruxlarda ishlash boshlanganligi haqida e'lon qiladi.	O'quv topshiriqlari shuningdek, baxolash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar. Topshiriqni bajarishga kirishadilar.
3-bosqich Prezentatsiya (45 min.)	3.1. Prezentatsiyani tashkillashtiradi. 3.2. Gruppalarda ishlash natijalarini gruppada gilarini o'zlari baholashlarini e'lon qiladi. 3.3. Bilimlarni birlashtiradi va asosiy e'tiborni ish faoliyatida olingan natijalarga qaratadi.	Umumiy bajarilgan ishning prezentatsiyasida qatnashadilar, to'ldiradilar, baholaydilar.

4-bosqich Yakuniy (10 min)	4.1. <i>Qilingan ishga yakun yasaydi.</i> 4.2. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi: quyidagi mavzuga esse yozish kerak «Haqiqiy erishilgan darajadan kelib chiqib boj tushumlarini tushuntirish».	4.1. Eshitishadilar, aniqlaydilar. 4.2. Topshiriqni yozib oladilar.
----------------------------------	--	--

1-ilova

Guruxda ishlash qoidalari.

- Har bir talaba guruhdoshini o'zining hurmati va e'tiborliyligi bilan eshita bilishi lozim.
- Har bir talaba faol qatnashib, berilgan topshiriqni birgalikda javobgarlik xissi bilan bajarishi lozim.
- Har bir talaba agar unga yordam kerak bo'lsa, albatta guruxdoshidan yordam so'rashi lozim.
- Har bir talaba agar undan guruxdoshi yordam so'rasa unga albatta yordam berishi kerak.
- Har bir talaba guruxlar bajargan ishni baholash natijalarida qatnashishi lozim.
- Har bir talaba tushunishi kerak: boshqalarga yordab bergan holda, o'zlari ham o'rganadilar! Xammamiz bir kemadamiz: birga suzib chiqamiz yoki cho'kib ketamiz!

3-ilova

«Stol atrofida» berilgan masalani muxokama qilib o'tkazish uchun ko'rsatma:

1. **So'zga chiquvchini fikrini e'tibor bilan, gapini bo'lmasdan, eshitish.**
2. **Agar sen uning aytgan fikr-mulxazasiga rozi bo'lmasang unda, o'z fikr-muloxazangni aytilish uchun ruxsat so'ra.**
3. Agar sen so'zga chiquvchining fikr-muloxazasi bilan rozi bo'lsang, ko'rilaotgan savol bo'yicha qo'shimcha qilishni so'ra.

Guruh ishini baholash varag'i.

Guruhlar	Baholash mezonlari							
	So'zlab berishi (aniqlilik va tushunarlik, xulosalarning asoslanganligi)				Topshiriqning bajarilishi (to'g'riligi va izchilligi)			
	a'lo 2,0- ball	yaxshi 1,5- ball	qoniqarli 1,0-ball	qoniqars iz 0,5- ball	a'lo 2,0- ball	yaxshi 1,5- ball	qoniqarli 1,0-ball	qoniqarsi z 0,5- ball
1								
2								
3								

Xalqlar va davlatlar o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalarni tartibga solishning o'ziga xos shakli sifatida bojxona ko'p asrlar muqaddam paydo bo'ldi. Tashqi savdo aloqalari haqidagi eng ilk ma'lumotlar bizga O'adimgi Misrning oltinchi sulolasi (bizning eramizgacha bo'lgan III ming yillik boshi) yodgorliklari orqali etib kelgan. Bu davrda misrliklar Finikiya shaharlari va O'izil dengiz havzasidagi erlar aholisi bilan savdo qilishgan. Keyinroq Nil vodiysi savdogarlarining savdo aloqalari ikki daryo oralig'ining quldorchilik davlatlariga ham yoyilgan.

Savdo karvonlarining harakati xavfsiz emas edi. Misrdagi Yangi podshoxlik davri (eramizgacha XVI-XII asrlar)ning tarixiy yodgorliklari ot-ulovlarni talash va savdogarlarning shikoyatlari haqida hikoya qiladi. Ko'p mablag' sarflanadigan ko'riqchilarni saqlash qimmatga tushar va hamisha ham o'zini oqlamas edi. Shu sababli karvonni qo'riqlash sarf-xarajatlarini qoplash uchun maxsus yig'imlar undirila boshlandi.

Feodallar tomonidan ularning mulki orqali o'tuvchi savdogarlardan undiriladigan soliqlar ham bojning qadimgi ko'rinishi edi. Keyinchalik ularni shaharlar ham undirib ola boshladi, davlat paydo bo'lgandan keyin esa boj xazinani to'ldirishning qulay vositasiga aylandi.

Ijtimoiy hayot murakkablashishi, shaharlar rivojlanishi, davlat va siyosiy ustqurma paydo bo'lishi, savdo hajmi va intensivligi kengayishi davomida yig'imlarning yangidan-yangi turlari, shu jumladan, savdodan va yuk keltirishdan olinadigan yig'imlar joriy etila boshlandi.

Eramizgacha III-II ming yillik oralig'ida Ashshuming (Osuriya poytaxti) foydasiga uning Kichik Osiyodagi mustamlakalaridan boj undirilgan.

Eramizgacha II ming yillik boshida deyarli butun qadimgi dunyoning markaziga aylangan Vavilonda barcha tovarlar shaharga olib kirilishida ko'zdan kechirilar va ulardan boj undirilar edi.

Boj o'zining asosiy funktsiyasi, fiskal funktsiyasini, ya'ni xazina manfaatlariga rioya qilish vazifasini ado etar ekan, boshqa soliqlar va yig'imlar bilan birgalikda davlatning mustahkamlanishiga ko'maklashdi. Davlat rivojlanishi barobarida bojlar ham rivojlandi, bojxona xizmatini tashkil etish shakllari va usullari takomillashdi.

Bojxona tarixining rossiyalik tadqiqotchisi V.A.Tsimmerman eramizdan oldingi VI asrdan boshlab Afina aholisi donni Misrdan, Sitsiliyadan, keyinroq esa Shimoliy O'ora dengiz bo'yidan olganligini qayd etadi. Xersones, Pantikapey, Feodosiya kabi shahar-poselenielar O'adimgi Gretsiyaning tashqi savdosi uchun shunchalik muhim ediki, ulardan tovar keltirilganligi va chiqarilganligi uchun boj undirilmas edi. «O'ora dengizbo'yi shaharlari mato, qurol-yarog', vino, o'simlik moyi evaziga greklarga dondan tashqari baliq, teri, qullar etkazib berar edi.

Gretsiyaning o'zida chetdan keltiriladigan tovarlardan olinadigan boj ular bahosining o'ndan birini tashkil etardi. Biroq, vaqt o'tishi bilan afinaliklar mo'tadil bojlar savdoning rivojlanishiga ko'maklashadi va ko'p daromad keltirishi mumkin degan, qarorga kelishdi. Shu sababli, eramizdan oldingi IV asrda, Demosfen davrida boj tovar bahosining yigirma, ellik, hatto yuzdan bir qismigacha qisqardi. Ayrim buyumlar — qurol-yarog', harbiy anjomlar umuman boj to'lashdan ozod etilgan. Afinaning barcha ittifoqchilari boj imtiyozlariga ega edi, ular o'z tovarlari uchun bahosining yuzdan bir qismi, qaram shaharlar yigirmadan bir qismi miqdorida boj to'lashar edi.

Boj dengiz portlarida va shahar bozorlarida yig'ilar edi. O'uruqlikdagi bojxonalar ham mavjud edi. Bojxonalardagi operatsiyalar qo'shnilar bilan dushmanlik munosabatlari mavjud

bo'lgan taqdirda chegaralar yopilganda to'xtatilar edi. Boj odatda oltin va kumush bilan to'lanardi. Boj yig'ish ayrim shaxslar yoki guruhlariga ko'tara sotilar, ular obro'li fuqarolardan bo'lgan kafillarga ega bo'lishardi.

Misrda eramizdan oldingi IV asrda hukumat Aleksandriyaga oziq-ovqat keltirilishini va misrlik ustalarning buyumlari olib chiqib ketilishini qattiq nazorat qilar edi. Chetdan keltiriladigan tovarlardan yig'im Misrning shimolida — Aleksandriya va Pelusiyada, janubda — Elefantinada undirilardi, Germopolisda ichki bojxona mavjud bo'lgan.

Karfagenda eramizdan oldingi III asrda bojlar davlat daromadining shunchalik muhim manbai ediki, karfagenlik lashkarboshi Gannibal aholi jon boshidan o'lpon olishni joriy etmasdan, quruqlikdagi va dengizdagi bojxonalarni va boj tizimini qayta tashkil etib barcha xarajatlarni qoplashi, Rim bilan muvaffaqiyatli urush olib borishi mumkin edi. Biroq, bojlarga muvaffaqiyatli ketish savdogarlarni bojxona qoidalarini chetlab o'tishga, kontrabanda harakatlariga majbur etdi, bu hol natijada Karfagen iqtisodiyotini kuchsizlantirdi.

Kontrabanda - istalgan shahar uchun xavfli hodisadir. V.A.Tsimmermannning fikricha, «Gretsiyaning turtib chiqib turgan burun va yarim orollar shaklidagi qirg'oqlarida shug'ullanish oson bo'lgan kontrabanda shunchalik uyushib va ko'payib ketdiki, Attika chegaralarida faqat bojxona qo'riqchilari, kontrabandachilar va qaroqchilar yashar edi... Gretsiyaning bu holati... uning qulashining asosiy sabablaridan biri bo'ldi».

O'adimgi Rimda ham bojxona taxminan Gretsiyadagidek sxemada rivojlandi. Eramizdan oldingi VI asrda Rimga asos solinganda davlat daromadi aholi jon boshidan olinadigan uncha ko'p bo'lmagan soliqdan iborat edi. Yuz yildan keyin podsho Ank Martsiy Ostiyada port ta'sis etdi va chetdan olib kiriladigan barcha tovarlar uchun boj tayinladi. Keyinroq ushbu boj (u portorium deb atalgan) hamda Rim, Ispaniya, Sitsiliya, Galliya va boshqa mamlakatlar o'rtasida muomalada bo'lgan tovarlar uchun soliqlar davlat xazinasi daromadining asosiy manbaiga aylandi.

Rimda daryo, bozor, ko'prik yig'implari bilan birgalikda chegara bojlari ham mavjud edi. Dastlab tovar qiymatining qirqdan biri, so'ngra o'ndan biri miqdorida boj undirildi. Savdo va xazina manfaatlari ko'shib olib borilar edi. Bojni o'ziga to'q odamlar va publikanlar deb ataluvchi suvoriylar tabaqasidan tuzilgan birlashmalar yig'ar edi. Publikanlar belgilangan badal xazinaga topshirilgandan keyin hududdan o'tib borayotgan odamlarga nisbatan haddan ortiq o'zboshimchalik bilan munosabatda bo'lishar, qurol-yarog', davlat mulki va yo'lda zarur bo'ladigan narsalardan tashqari qolgan barcha mol-mulkka boj solishar edi.

Tsitseron o'z nutqlarida Vitiniya dengiz muzofotining sobiq rimlik noibini bojxona tushidagi suiiste'molliklari uchun, ya'ni Rim viloyatidan oltin va kumush olib chiqib ketilishiga izn berganlikda, foydani bojxonachilar bilan bo'lib olishda, mol-mulkning o'zboshimchalik bilan olib qo'yilishida va o'tib borayotgan savdogarlarni hibsga olishda ayblagan edi. U nutqlaridan birida Rimning Sitsiliyadaga noibi Verras publikanlarni aldaganligini va Sirakuzadan ko'plab oltin, kumush, fil suyagi, gilam, qimmatbaho to'q qizil bo'yoq, vaza, don va asalni g'ayriqonuniy tarzda olib chiqib ketganligini isbotlab beradi.

Miloddan oddingi I asrda imperator Neron I va miloddan oldingi III asrda Aleksandr Sever jangchilar va savdogarlarga har xil imtiyozlar belgilab, tovarlarning ayrim turlariga bojlarni bekor qilib va pasaytirib, bojlar to'g'risidagi qonunlarni umumning e'tibori uchun e'lon qilish majburiyatini yuklab, publikanlarning faoliyatini Rim ma'murlari nazorati ostida tutib turishga urinishdi, biroq bu chora-tadbirlar vaziyatni tubdan o'zgartira olmadi.

Rimdagi bojxona qoidalari ichki davlat masalasigina bo'lib qolmasdan, balki xalqaro huquq mavzusi ham edi. Masalan, miloddan oldingi 509 va 348 yillarda Karfagen bilan tuzilgan

sulh to'g'risidagi traktatlarda karfagenlik va rimlik savdogarlarning moliyaviy huquqlari haqidagi qoidalar nazarda tutilgandi.

O'rta Osiyo hamda Shimoliy Afrika mamlakatlarida, shuningdek, Vizantiya davlatida hunarmandchilik va savdo ayirboshlovi VII-VIII asrlardayoq yuqori darajaga etdi. Boj yig'implari xazinani mustahkamlashning muhim vositasi bo'lib qolgan holda ba'zan savdoni tartibga solish va tovarlarni sotish uchun ishlab chiqarishni rag'batlantirishning qulay vositasiga aylandi.

Yangi asr boshida bojlarning mo'tadilligi Rim imperiyasida Xitoyning ipak mollari paydo bo'lishi imkonini berdi. Armanistondagi davlat hokimiyati III-IV asrlarda boj yordamida savdoga rahnamolik qilgani yaxshi ma'lum.

Evropada shaharlar hunarmandchilik va savdo markazlari sifatida X-XI asrlardan boshlab iqtisodiy, tashqi savdo va boj mustaqilligiga erisha boshladi.

Evropaning feodal davlatlarida boj yig'uvchilar yuqori mavqega ega edi. Buyuk Karlning kapitaliga muvofiq bojxonachilar mansabdor shaxs — grafga bo'ysunardilar. Graf ayni vaqtda katta bojxona amaldori hisoblangan.

O'rta asrlarda bojxona ishining rivojlanishi xalqaro savdoning kengayishi, davlatlar va moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarning qaror topishi bilan mustahkam aloqadorlikda davom etdi. Xristianlikning hukmronlik qilishi Evropada bojxona ishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Masalan, Strasburgda 982 yilgi maqom bilan episkopga shaharning to'rt yuqori amaldorini: mer, graf, bojxonachi va xazinachini tayinlash huquqi berilgan edi. Biroq keyinroq, 1249 yildayoq Frayburg shahrida bojxona amaldorlarini saylash va agar ular o'z vazifalariga vijdonan munosabatda bo'lmasalar, ularni lavozimdan bo'shatish huquqi fuqarolarning o'ziga berildi.

Agar ilk feodalizm davrida bojxonachilar imtiyozli oliy tabaqaga mansub bo'lgan bo'lsalar, keyinroq ushbu lavozim savdogarlar va hunarmandlar manfaatiga xizmat qiluvchi ijtimoiy lavozimga aylana bordi. Strasburglik bojxonachilar vazifasiga, masalan, eng asosiy soliqlarni undirish kirar edi, ayni vaqtda yarmarka yig'implarini qal'a boshlig'i sifatida grafning o'zi undirar edi. Strasburg ko'priklari graf va bojxonachilarning birgalikdagi mablag'lari hisobiga saqlangan, g'arblik tarixchilar yig'implar xayriya maqsadlarida — yo'llarni yaxshilash va savdo karvonlarini qo'riqlash uchun belgilanar edi deb ta'kidlashadi.

Buyuk Karl agar ularga hech bir xizmat ko'rsatilmasa, o'tib ketayotganlardan boj undirilishini taqiqlagan edi.

1157 yilda savdogarlar imperator Fridrix I ga Bambergdan Maynning quyilish joyigacha ulardan ko'plab qonunga xilof soliqdar undirilishidan, bu talon-taroj bilan teng ekanligidan shikoyat qilishadi. XIV asrda Reynda 64 ta bojxona zastavasi, Elbada — 35, Dunayda faqat O'uyi Avstriyaning o'zida 77 ta bojxona zastavasi bor edi, hatto daryoni kechib o'tish mumkin bo'lgan joylarda ham feodallar ko'prik qurishar va bu ko'priklardan o'tilgani uchun haq undirishar edi. Ba'zan savdogarlarning kemalaridan ko'prik ostidan o'tganligiga haq olish uchun daryoni arqon bilan to'sishgan. Feodal er mulklarida otlarning oyoqlari va g'ildiraklari payhon qilgan yo'ldagi maysalar va yo'sinlar, daraxtlardan uzib olingan mevalar uchun boj undirilar edi.

Parijda XII asrda shaharga olib kirishda barcha xorijiy tovarlardangina emas, balki boshqa frantsuz shaharlarining ipak, polotno, ipdan qilingan buyumlaridan, shuningdek, movut va mo'ynadan ham boj undirilar edi. Parmada 1211 yilgi maqomga ko'ra shaharga olib kiriladigan barcha jun mahsulotlar va movut magistrat tomonidan olib qo'yilar va yondirib

yuborilardi. Parlebergning 1239 yilgi poyabzal tsexi maqomida o'zga shaharlik hech kim etik sotishi yoki uni sotishga qo'ya olmasligi ko'rsatilgan.

Konstantsada 1414 yilda shaharga olib kirilgan movut faqat yarmarka vaqtidagina chakana sotilishi mumkinligi, yarmarka tugagandan keyin esa toy qilib o'rab olib chiqib ketilishi belgilab qo'yilgan. Yarmarkaga movut olib kirilganda boj uning hammasi yoki bir qismi sotilishidan qat'i nazar, barcha tovaridan undirilardi. Gamburgda 1458 yilgi maqom shahardan tashqarida tayyorlangan tovar buyumlar yilning barcha faslida ulgurji sotilishi, chakanalab esa bir yilda faqat uch kun sotilishi mumkinligini nazarda tutgan.

Shaharlar va knyazliklar o'rtasida iqtisodiy aloqalarni kengaytirish tamoyili Evropada XII-XIII asrlarda etila boshladi. Boj siyosatida davlatning tashqi chegaralarida umumiy boj tizimini ishlab chiqishga intilish mustahkamlandi. 1215 yilgi Angliya erkinliklar buyuk partiyasida Angliyaga olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarga «juda og'ir adolatsiz bojar to'lanishi» to'g'risida eslatma mavjud.

1275 yilda Angliya parlamenti qirol Eduard I ga import qilinadigan vinoga va eksport qilinadigan ingliz juniga boj belgilash huquqini berdi.

Biroq, Evropa davlatlarida bojxona markazlashuvi yana ko'p asrlar davom etdi: Angliya bilan Shotlandiya o'rtasidagi bojxonalar 1707 yilda, Angliya bilan Irlandiya o'rtasidaga zastavalar esa faqat 1823 yilda yo'q qilindi. Frantsiyada bojxona birligi 1790 yilda vujudga keldi, Avstriya esa o'z bojxona siyosatini 1775-1851 yillarda shakllantirdi. Italiyada bojxona to'siqlari 1859 yilda quladi, Germaniyaning bojxona jihatdan birlashishi esa 1842 yildan 1888 yilgacha davom etdi. Ichki davlat murakkabliklariga qaramay, savdogarlarning tashqi savdo aloqalari XV-XVIII asrlarda feodal Evropa davlatlarining merkantilizm deb atalgan yangi iqtisodiy siyosatining asosiga aylandi.

Ilk merkantilizm yoki monetarizm davrida, XV- XVIII asrlarda Ispaniya, Portugaliya, Angliya, Gollandiya, Frantsiyada ma'murlar jamiyat boyligining asosini pul tashkil etadi deb hisoblashardi. Shu sababli davlatlar xazinaga pul jamlanishini qattiq rag'batlantiruvchi qoidalarni o'rnatib, tashqi savdoga faol aralashadilar. «Muomalada oltin va kumushning juda kam miqdorda bo'lishi ularning chetga olib chiqib ketilishiga olib keldi». Mamlakatning o'z savdogarlariga kemalardan foydalanganlik uchun pul to'lashning oldini olish uchun chet el kemalarida savdo qilish taqiqlanardi: savdogarlar o'z tovarlarini chet elda sotganlari taqdirda tushumning bir qismini asl metallar va pul ko'rinishida uyga keltirish majburiyatini zimmlariga olishardi.

Xorijiy savdogarlar omborlardan, bandargohlardan, paromlardan foydalanganlik uchun pul bilan boj va yig'img'lar to'lashga majbur edilar, Angliyada esa ajnabiylarga o'zlari bilan olib kelgan butun pulni sarflash majburiyatini yuklovchi qonunlar qabul qilingan edi. Tovarlarni faqat qat'iy belgilab qo'yilgan punktlardan olib o'tish nazarda tutilgan. XV asrda Angliyaning bojxona amaldorlari Genrix IV maqomi bo'yicha pullar, tangalar ajnabiylar tomonidan olib chiqib ketilmasligini nazorat qilishga majbur bo'lganlar.

Ilk merkantilizm davri bojlari faqat moliyaviy tusga ega bo'lib, tovarlarni olib kirishda ham, olib chiqishda ham undirilardi.

XVI asrda Angliyada olib kiriladigan tovarlardan olinadigan boj 42 ming, olib chiqib ketiladigan tovarlardan olinadigan boj 185 ming funt sterlingni tashkil etardi. XIII-XV asrlarda savdogarlarning karvonlari Evropadan Hindistonga, Hindistondan Evropaga o'tadigan Misrda boj tovar qiymatining salkam 15 foizini tashkil etdi, XV asrda esa ular 35 foizga etdi va undan oshdi. Imtiyozli tarif faqat savdogarlar Pizadan etkazib beradigan temir va yog'ochga (qiymatining 10 foizi) belgilangan. Keyinroq Hindistonga Afrikani aylanib

o'tadigan dengiz yo'li ochilishi va portugaliyaliklar tomonidan Tirmuz va Adan dengiz portlari bosib olinishi tovarlarni Misr orqali olib o'tishga katta zarba berdi, bu umuman olganda mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatdi, biroq bunda bojlarning haddan ortiq ekanligi ham muayyan o'rin tutgandi.

Frantsiyada 1664 yilda boj yig'imlarining fiskal ahamiyati hali kuchli bo'lgan vaqtda boj tarifi tovarlarni keltirish bo'yicha 700 modda va olib chiqib ketish bo'yicha 900 moddadan iborat bo'lgan. Bu esa boj yig'imi mayda-chuydasigacha ishlab chiqilganligidan dalolat berardi.

Keyingi merkantilizm davrida, taxminan XVII asrdan boshlab mamlakat mustamlakalarni ezish evaziga: mustamlaka xom ashyosidan foydalanish, uning metropoliyada qayta ishlanib mahsulotga aylantirilishi, tovar buyumlarni chiqarish, olib chiqishning olib kirishdan ustunlik qilishi, savdo flotining kengayishi, ushbu operatsiyalardan xazinaga oldingiga qaraganda ko'proq mablag' tushishi hisobiga boyishi mumkin degan fikr ustunlik qila boshladi. Yangi erlarning bo'ysundirilishiga olib kelgan yangi geografik kashfiyotlar va mustamlakalarning faqat metropoliya bilan savdo qilish majburiyati boj siyosati faollashuviga ko'maklashdi. Boj tariflari Evropa davlatlariga va ularning mustamlakalariga boshqa mamlakatlarning tovarlarini olib kirishni taqiqlay boshladi, chunki bu narsa vatan sanoatining rivojlanishiga to'sqinlik qilar edi. Shuningdek, boshqa mamlakatlarning raqobatlashuvchi sanoat tarmoqlari rivojlanishi uchun foydalanishi mumkin bo'lgan xom ashyoning olib chiqib ketilishi taqiqlana boshlandi. Jz mamlakatidan tayyor buyumlarni olib chiqib ketuvchi savdogarlarga imtiyozli boj tariflari belgilangan.

Tovarni chetga olib chiqqanlik uchun (buning misoli keyinroq keltiriladi) mukofotlar joriy etish, tajribali ishchilarning mamlakatdan ko'chib ketishi taqiqlanishi to'g'risidagi qonunlar qabul qilinadi. Ba'zan, istisno tariqasida, tayyor tovarlarni boshqa mamlakatlardan olib kirishga ruxsat berilardi, biroq bu metropoliyada pul ko'payishiga olib kelishi mumkinligi shart qilib qo'yilardi, masalan, ushbu tovarlarni foydasi bilan uchinchi mamlakatlarga qayta sotish mumkin edi.

Agar ilk merkantilizm davrida savdo kapitali faqat savdo bilan shug'ullangan bo'lsa — pul savdogarlar tomonidan sotish uchun chet elga chiqariladigan tovarlarga qo'yilgan pul foyda bilan orqaga qaytgan bo'lsa, so'nggi merkantilizm davrida savdo kapitali ishlab chiqarishni ham o'zlashtirib oladi — pul faqat pul uchun emas, balki boshqa mamlakatlarning xom ashyosi uchun olib chiqiladigan tovarlarga qo'yiladi, xom ashyo esa yangi tovarlar ishlab chiqarish uchun olib kiriladi, so'ngra bu tayyor mahsulotlarni chiqarishdan dastlabki tovarni pulga sotishdan ko'ra ko'proq foyda olinadi.

G'arbiy Evropada kapitalistik munosabatlar rivojlanishi davomida Angliya, Gollandiya, Daniya, Ispaniya, Shvetsiya, Frantsiyada Ost-Indiya, Angliya va Frantsiyada Vest-Indiya, Angliyada Rossiya bilan savdo qilish uchun Moskva kompaniyalari kabi kudratli savdo kompaniyalari paydo bo'ladi, savdoni siqib oluvchi ombor joylari bekor qilinadi.

XVII-XVIII asrlardagi kapitalistik davlatlarning boj siyosati savdo manfaatlarini ifodalab aktiv savdo balansini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ayni vaqtda fiskal tusga ega bo'lgan yuqori miqdordagi bojlardan importni cheklash uchun foydalanilar edi.

Sanoat kapitalizmi rivojlanishi davrida (XVIII asr oxiridan boshlab) boj siyosati yagona yuqori proteksionistik (homiylk) bojlari yordamida milliy sanoat barpo etilishiga ko'maklashdi.

XX asrdan bopshab boj siyosati vositalaridan iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish uchun sotish bozorlari ustidan monopoliya o'rnatish uchun kurashda foydalanila boshlandi. 30-40-yillarda qayta ishlab chiqarishning jahon buhronlari munosabati bilan (1929-1933 va 1937-

1938 yillar) bojxona siyosati haddan tashqari proteksionistik tusga ega bo'ldi va olib kirish bojlari oshishida ifodalandi.

G'arbiy Evropa mamlakatlarining Ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki davrdagi bojxona siyosati bojxona to'siqlarini zaiflashtirishga qaratildi, chunki ushbu mamlakatlar vayron bo'lgan xalq xo'jaligini tiklash uchun iste'mol tovarlari va asbob-uskunalariga qattiq etishmovchilikni o'z boshidan kechirayotgan edi. Sharbiy Evropa mamlakatlarida tiklash davrining tugallanishi, sanoat ishlab chiqarishining o'sishi, milliy mahsulotni sotish bilan bog'liq qiyinchiliklar bir qancha tovarlarni import qilishda bojxona to'siqlari qattiqashtirilishiga olib keldi.

Kanada 1974 yil dekabrda proteksionistik maqsadlarda AO'Sh dan go'sht mahsulotlari keltirilishiga cheklash joriy qilgandi, AO'Sh ushbu mahsulotlarning Kanadadan import qilinishiga qattiq kvota belgiladi, bu hol Kanada iqtisodiyotiga 100 million dollar zarar etkazdi, AO'Sh ko'rgan zarar esa 10 baravar kam bo'ldi.

AQSh 1975 yilda eksport qiluvchi mamlakatlar tomonidan neft narxining oshirilishiga javoban Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti a'zosi bo'lgan davlatlarni tarif preferentsiyalaridan mahrum qildi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning bojxona siyosati iqtisodiy va siyosiy mustaqillikni ta'minlash manfaatlari, milliy iqtisodiyotni mustahkamlash va rivojlantirish maqsadlarida olib boriladi. Ular aniq ifodalangan proteksionistik tusga egadir. Masalan, olib kiriladigan mashina va asbob-uskunalar, kimyoviy tovarlar va materiallardan eng kam stavkalarda bojar undiriladi. O'ishloq xo'jaligi mahsulotlari, odatda bojsiz import qilinadi. Kiyim-bosh va uy-ro'zg'or buyumlariga oshirilgan stavkalar qo'llaniladi. Zeb-ziynat buyumlari va alkogolli ichimliklarga eng yuqori stavkalarda boj solinadi.

Tarkibiga soliqlar va bojlarni undirish ham kiradigan moliyaviy-iqtisodiy tizimning puxta faoliyat ko'rsatishi har qanday tuzumda davlat mavjud bo'lishining iqtisodiy asosi hisoblanadi.

Akademik B.Ahmedovning fikriga ko'ra bojxona organlari bunday tizimning bir qismi sifatida Markaziy Osiyoda qadim zamonlardan boshlab mavjud bo'lgan. Chunki ko'p ming yillab Sharqni sharb bilan bog'lagan Buyuk Ipak yo'li Markaziy Osiyo hududidan o'tgan. O'rta dengizdagi Suriyaning Antioxiya (yoki Antaliya) porti uzoq vaqt Ispaniya, Portugaliya, Venetsiyadan tovarlarni tashuvchi kemalarga xizmat qilgan. Bu kemalar Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoy va Yaponiyaga yo'l olganlar.

Buyuk Ipak yo'li orqali amalga oshiriladigan savdoga qaysidir darajada aloqador bo'lgan barcha davlatlarning bojxona organlari tajribasini umumlashtiruvchi qoidalar asrlar davomida takomillashtirildi va maqbul holga keltirildi. Agar qaysidir davlat yoki shahar bojxona qoidalarini qattiqashtirsa, bojar va yig'implarni haddan tashqari ko'paytirsa, karvonlar ularni chetlab o'tishining yo'li bor edi. Birgina Markaziy Osiyoda Buyuk Ipak yo'lining bir necha shoxobchasi mavjud bo'lgan. Ushbu karvonlar chetlab o'tgan davlatlar esa anchagina daromadidan mahrum bo'lishar, chunki yo'llarda karvonlar muntazam qatnar edi.

Buyuk Ipak yo'lidagi boj yig'implari haqidagi dastlabki yozma eslatmalar VIII asrdagi arab manbalaridan ma'lum. Ko'p asrlar davomida boj miqdori o'zgarishsiz bo'lib, u tovar qiymatining 2 foizini tashkil etgan (Bunday boj XIX asrgacha saqlanib qoldi. Buxoro, Qo'qon va Xivadan Rossiyaga qatnovchi karvonlardan 2,5 foiz miqdorida boj olinardi). Bu barchani qoniqtiruvchi maqbul variant deyish mumkin. Karvonlar yo'lida ko'plab

davlatlar joylashgani hisobga olinsa, katta miqdordagi boj savdogarlarni xonavayron qilishi, bu bilan ushbu davlatlarni kafolatli daromaddan mahrum qilishi mumkin edi.

Ushbu daromadning xazina uchun ahamiyatini tushungan hukmdorlar qulay yo'llar bilan, obod karvonsaroylar qurishdi, karvonlarni xavf-xatardan qo'riqlash chora-tadbirlarini ko'rishdi. XIV-XV asrlarda Amir Temur va temuriylar faoliyati buning misoli bo'lishi mumkin. Amir Temur oldingi yuz yilliklardan oxiri yo'q urushlar va ko'chmanchilar bosqinlari tufayli deyarli to'xtab qolgan Buyuk Ipak yo'lidagi harakatni qayta tikladi.

XV asr boshida Amir Temur saroyida bo'lgan Kastiliyaning elchisi Ryui Gonzales de Klavixo o'zining Samarqandga qilgan to'rt oylik sayohatida «butun mamlakat Temur xukmronligi ostida tinch yashaydi», deb qayd etgan.

Temuriylar davrida ulkan saltanatda yo'llar ancha yaxshi holatda saqlangan. Yo'lni har bir kunlik masofasida karvonsaroylar bo'lib, ularda savdogarlarni qurol-yarog' osgan otliq qo'riqchilar otryadi kutib olar, ular savdogarlarni keyingi dam olish joyiga kuzatib qo'yishga shay turishar edi. «Ofisi» uzoq vaqt Sultoniya bo'lgan vatikanlik arxiepiskop Ioann Amir Temur tomonidan savdogarlarga berilgan imtiyozlarni qayd qiladi: «Temur xorijiy savdogarlarga xayrihohlik bilan munosabatda bo'lar va butun saltanatida ularga qulay sharoitlar va xavfsizlikni yaratib bergan. ... Agar unga qarashli erlarda qaysidir savdogarni tunashsa, o'sha erning hukmdori savdogarga yo'qotgan narsasini ikki barobar qilib qaytarib berar, bundan tashqari ushbu summani Temurga besh barobar miqdorida to'lardi».

Akademik B.Ahmedov bu davrda karvonlarni qo'riqlash zimmasiga kiradigan bojxona puxta ishlaganligini qayd qilar ekan, quyidagi misolni keltiradi. Bu voqea Boburning otasi temuriyzoda Umarshayx Andijonda hukmronlik qilgan davrda yuz beradi. Besh yuz kishilik ot ulovli katta karvon ko'p yuk bilan Xitoydan qaytar edi. Tog'da yo'lovchilar qor bo'roniga yo'liqib, qalin qor ostida qolishadi. Faqat ikki kishi tirik qoladi va Andijonga kelib yuz bergan falokatdan xabar beradi. Umarshayhning amri bilan karvon ortgan yuklar qor ostidan kavlab olinadi va merosxo'rlar topilmaguncha ishonchli qo'riqlanadi. Merosxo'rlarni esa faqat Andijondan emas, balki butun Xuroson, Eron va Iroqdan izlashga to'g'ri keladi. Amir Temur davrida ehtimolki undan ham ilgari ayrim boj imtiyozlari mavjud bo'lgan. Masalan, «qizil mol» bojdani ozod qilingan edi. Bunday tovarlar ularga ilova qilingan xujjatlar, ya'ni rahnomalar oddiy muhr bilan emas, balki shohona qizil muhr bilan tasdiqlanganligi bois «qizil mol» deb atalgan. Bu esa mollarni xukmdorga in'om qilishga mo'ljallanganligini anglatardi. O'sha davr qoidalariga ko'ra, sovg'alardan boj undirilmagan.

Albatta, tuzuklarni buzish hollar ham bo'lib turardi. Masalan, ayrim savdogarlar rahnomadan foydalanib, «qizil yorliq»da ko'rsatilgan moldan boshqa mollarga ham boj to'lamaslikka urinishar edi. Ayrim hollarda qaroqchilar o'zlarini boj yig'uvchi qilib ko'rsatishar edi. Bundan tashqari Amir Temur saltanati parchalanib ketgandan keyin mayda davlatlarning hukmdorlari yoki ularga buysunuvchilar yuz yillab amal qilgan boj qoidalariga xilof qilishar edi. 1621 yilda savdogarlar bilan safardosh bo'lgan Moskvalik elchi Ivan Xoxlovning esdaliklarida qayd qilinishicha, daryo bo'yida savdogarlarni 60 chog'li bojxonachilar to'xtatgan va 9 qo'y, 2 ta ot, 100 botmon arpa berishni talab qilishgan.

Tarixchilarning guvohlik berishicha, Markaziy Osiyoda erdan xiroj va tanob, tovardan esa zakot undirilgan. Qur'onga muvofiq, har bir musulmon mol-mulkning qirqdan

bir qismini zakot qilar edi. Zakot shuningdek kelayotgan va ketayotgan har bir karvondan ham undirilar, shu sababli zakotchilar karvonlar harakatini sergaklik bilan kuzatib turishardi. Shahardan o'tadigan har qanday savdogar zakot olinadigan saroyga to'xtab o'tishi shart bo'lgan. Bu erda uning tovaridan 2,5 foizli boj undirilar edi. Bundan tashqari savdogar har bir tuya hisobiga yorliq yozilganligi uchun ham haq to'lagan. Bu yorliq tovar xonlikning qolgan barcha aholi yashaydigan joylaridan erkin o'tishiga kafolat berar edi. Har bir mustaqil mulkda zakot undirilar edi. Amudaryoning janubiy qirg'og'ida deyarli har bir shahar boj undirish huquqini o'zida saqlab qolgan. Ular zakotni ko'pincha qonun bo'yicha emas, balki o'z bilganlaricha belgilashardi. Afg'onistonda esa 2,5 foiz emas, balki 20 foiz miqdorida zakot undirilgan.

Ko'chmanchilardan zakot naturada undirilardi. Har qirq bosh moldan bittasi zakot sifatida olingan. Zakotchi yiqqan butun mol-mulk xonning xazinasiga kelib tushgan. Zakotchilarga savdo ishlari bo'yicha favqulodda huquqlar berilgan edi. Ular davlat manfaatlariga asoslanib, tovarlarni olib kirish va olib chiqishni ta'qiqlashi, hatto biror bir oqlovchi sabab bo'lsa, ularni musodara qilishi ham mumkin edi.

XIX asr oxirida bozor munosabatlari rivojlanishi bilan birgalikda bojxona siyosati yangi bozorlari egallab olishga yordam beruvchi vositalardan biriga aylandi.

Buxoro xonligining katta qismini inglizlar o'z nazorati ostida tutib turgan Afg'oniston bilan chegarasida bojxonalar tashkil etildi. O'lkaning Afg'oniston bilan savdo qilish uchun maxsus tashkil etilgan bojxona birlashmasiga kiruvchi boshqa tumanlaridan chiquvchi tovarlar mana shu bojxonadan o'tar edi. Afg'oniston bilan savdo-sotiqda fiskal maqsadni ko'zlamagan ushbu birlashma tovarlarning ayrim turlari mazkur mamlakatga olib kiritilganligi uchun maxsus mukofotlar tayinlangan, shunday qilib, Peshovar va Kobul orqali Afg'onistonning shimoliy qismiga va Badaxshonning bir qismiga kirib keluvchi Angliya va Hindiston tovarlari bilan raqobat qilish uchun qulay shart-sharoitlar sun'iy ravishda yaratilgan. Afg'on bozorini qo'lga kiritish unchalik qiyin emasdek tuyulardi: yo'l yo'qligi sababli Afg'onistonning Badaxshon viloyatiga, masalan, «ingliz mollari shunchalik oz miqdorda kelar ediki, bu nafaqat Badaxshonning o'zida, balki Saroy va Chebek orqali Rustak va Fayzobod shaharlariga, bu shaharlardan inglizlar qo'l ostidagi erlarga olib o'tiladigan ingliz tovarlariga nisbatan sifatli va arzon tovarlar uchun mahalliy bozorlarni ochib qo'yar edi».

Tovarlar (manufaktura, kerosin, gugurt, qand, shakar) ko'zdan kechirish uchun Samarqand ombor bojxonasiga taqdim etilishi kerak bo'lgan. Bu erda tovarlarga maxsus tamg'alar bosilar va tovarlar savdogarlar tomonidan Afg'oniston-Buxoro chegarasida joylashgan Karki, Kalif, Chushkaguzar, Termiz, Ayjan, Saroy va Chebekdagi chegara bojlari orqali olib o'tilardi. Bu erda bojxonachilar tamg'a bosilgan joylarni ko'zdan kechirishar, tamg'ani olib qo'yishar va tovarni chet elga chiqarishar edi. Tovar haqiqatda Buxorodan tashqariga olib chiqib ketilganligining isboti hisoblangan tamg'a esa bojxonachilar tomonidan Samarqandga qaytarilar edi. Bu erda tovarning egasi o'ziga tegishli mukofotni olgan.

Tovar uchun beriladigan mukofotning salmog'i ko'plab savdo firmalarini o'ziga jalb qilgan. Ular Samarqand, Buxoro, Karkida o'z idoralarini tashkil etib, faoliyatlarini yildan-yilga rivojlantirishdi. Masha shu tufayli chegara bojxonalari orqali ip gazlama tovarlar, shakar va kerosin ko'p miqdori o'tila boshlandi.

Biroq bojxona birlashmasi o'z maqsadiga to'la erishishga muvaffaq bo'lmadi. Savdo jilovini o'z qo'lida ushlab turgan buxorolik, afg'onistonlik mayda savdogarlar

mukofotlarda foydalanish imkoniyatidan mahrum edi. Ular gazlamani Buxoroning chegara shaharlarida sotib olishar, biroq bunday mol qonunga ko'ra Samarqand bojxonasining tamg'asi bo'lmasa mukofotlanmas edi.

Buxoro bojxonalari hatto tamg'a qo'yilgan tovarlardan ham boj yig'uvchining hohishiga va vijdoniga bog'liq miqdorlarda boj yig'ishardi. «... Bojgirlar har bir joydan 4 tadan 5 gacha rupiy (bir rupiy - 45 tiyin), amloqdorlar (uezd boshliqlari) esa Amudaryo-dan o'tganlik uchun 4-6 rupiy, ichiga havo to'ldirilgan hayvon terisidan yasalgan solni tortib boruvchi har bir ot uchun bir tomonga o'tishdan 4-5 rupiy va har bir odam olib o'tilganligi uchun alohida 2 rupiy undirishgan».

Savdogarlar o'tadigan bekliklarda har bir tuya yoki otdan o'lpon undiriladi, agar yo'l bir nechta beklikdan (Kitob, Shahrisabz, shuzor, Hisor, Qo'rg'on-tepa) o'tishi hisobga olinsa, ustama xarajatlar ancha sezilarli bo'lar va beriladigan mukofotlarning yarmiga yoki hatto hammasiga teng bo'lar edi.

Ma'lumki, Buxoro hukumati o'z vaqtida Afg'onistonga olib ketiladigan tovarlarni bojdan ozod qilish haqida farmoyish chiqargan bo'lib, biroq bu farmoyish Buxoro devonxonasidan tashqariga chiqmadi.

Lekin shunga qaramay, bojxona birlashmasi davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalari kengayishida o'z ahamiyatiga ega bo'ldi.

Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin Trukiston general-gubernatorligi tashkil etildi. 1893 yilda Rossiyada 11 ta chegara okrugi tashkil etildi. Turkiston okrugi o'shalaridan biri bo'ldi. Turkiston okrugida 16 ta bojxona organi mavjud edi. 1895 yilda Termiz shahrida Pattakesar bojxonasi tashkil etildi. Unda asosan Afg'onistondan keltiriladigan tovarlardan boj undirilgan. Har yili ushbu bojxona posti orqali 2500 dan ziyod sayohatchi o'tardi. U paytlari Afg'oniston hududi orqali Markaziy Osiyoga ko'plab kontrabanda tovari ham o'tkazilgan.

1917 yildan keyin ichki va tashqi savdo xalq Komissarligida 8 ta bojxona okrugidan iborat bojxona boshqarmasi tashkil etilib, Turkiston okrugi shulardan biri edi. 1925 yilda bojxona boshqarmasi Bojxona bosh boshqarmasiga aylantirildi. Uning tarkibida bojxonaning 11 ta inspektorlik organlari va 266 ta bojxona bo'lib, ularda 5710 nafar xodim ishlar edi. O'sha yili Termiz shahridagi Pattakesar bojxonasi Termiz bojxonasiga aylantirildi. Xalq komissarliklari vazirliklarga aylantirilgandan keyin bojxona bosh boshqarmasi Tashqi savdo vazirligi tarkibida qoldi.

1986 yilda Bojxona bosh boshqarmasi SSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Davlat bojxona nazorati Bosh boshqarmasiga aylantirildi.

Toshkent shahri sobiq SSSR janubiy darvozasi hisoblanib, xorijdan uchib kelgan samolyotlar Toshkentda to'xtab o'tar edi. Yangi havo yo'llari ochilishi munosabati bilan 1959 yil 14 aprelda Toshkent aeroportida Termiz bojxonasiga bo'ysunuvchi bojxona posti tashkil etildi. Toshkent postida hammasi bo'lib 3 ta xodim ishlagan. Ularga V.N.Novikov rahbarlik qilar edi. 1970 yillarda tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishi munosabati bilan ushbu post Toshkent bojxonasiga, 1988 yilda esa O'zbekiston Respublikasi bojxonasiga aylantirildi.

1988-89 yillarda Samarqand, Buxoro, Namangan, Andijon, Qarshi, Guliston, Jizzax, Qo'qon, Navoiy, Urganch, Chirchiq, Olmaliqda bojxona postlari ishga tushdi. 1990 yil oxiri va 1991 yil boshida Samarqand, Farg'ona va Nukus postlari bojxonalariga aylantirildi va O'zbekiston Respublikasi Bojxona boshqarmasiga bo'ysundirildi. U paytlari bojxona ishlari Moskvadan turib boshqarilar, barcha rahbar xodimlar markazdan tayin-

lanardi. Bojxona tomonidan musodara qilingan tovar moddiy boyliklar va boj tushumlari Moskva ixtiyoriga yuborilgan.

Bojxona organlarining respublika davlat nazorati va boshqaruvining mustaqil tuzilmasi sifatida shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi 1997 yil 8 iyuldagi Farmani respublika bojxona ishi tarixidagi muhim hujjat bo'ldi. Mazkur farmonga muvofiq, Davlat soliq qo'mitasining Bojxona bosh boshqarmasi negizida Davlat bojxona qo'mitasi tuzildi. Tarixda birinchi marta bojxona organlariga huquqni muxofaza qilish tashkiloti huqiqi berildi.

2-mavzu bo'yicha test variantlari:

1. Buxoro xonligining qaysi chegarasida inglizlarga bojlar tashkil etildi?
A)Turkmanistonda
B)Tojikistonda
@C)Afg'onistonda
D)Kozog'istonda
2. 1893 yilda 16 ta bojxona organi Rossiyaning qaysi okrugida mavjud edi?
A)Qozog'iston
B)O'zbekiston
@C)Turkiston
D)Qirg'iziston
3. Bojxona siyosatini ishlab chiqarish huquqi kimning vakolatiga kiradi?
@A)Oliy Majlis
B)Vazirlar Mahkamasi
C)Davlat Bojxona Qo'mitasi
D)Moliya vazirligi
4. 1980-1990 yillarda O'zbekistonda qanday bojxona siyosati qo'llanildi?
A)Proteksionizm siyosati
B)Erkin savdo siyosati
@C)Teskari proteksionizm
D)Ichki savdo siyosati
5. Xalqaro savdo yo'llaridagi eng oxirgi cheklov nima deyiladi?
A)«Xalqaro kelishuv»
@B)«Savdo urushi»
C)«Xalqaro tendentsiya»
D)«Erkin savdo syosati»
6. Tovarlarni olib o'tuvchi, tovarlar va transport vositalarini o'z nomidan deklaratsiyalovchi, ko'rsatuvchi va taqdim etuvchi shaxs yoki tovar olib o'tuvchi shaxs nomidan ish olib borayotgan bojxona brokeri qanday nomlanadi?
A)Tashuvchi
@B)Deklarant
C)Bojxona organi xodimi
D)Rezident

7. O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalarining maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmuasi ... deyiladi.

A)Bojxona nazorati

B)Bojxona tizimi

@C)Bojxona rejimi

D)Bojxona kiymati

8. Bojxona nazorati ostida mamlakat chegarasidan olib o'tiladigan import va eksport tovarlar mol-mulk va qimmatbaho buyumlardan belgilangan stavkalarda undiriladigan pul yig'imi qanday nomlanadi?

@A)Bojxona boji

B)Bojxona to'lovlari

C)Bojxona yig'imi

D)Bojxona qiymati

9. Mazkur davrda shakllangan va boshqaruv maqsadlariga muvofiq keluvchi tizimning bo'g'iniligi va uning bojxona organlari o'rtasidagi aloqa shakllari qanday nomlanadi va boshqaruv tuzilmasi nechta darajali tizimdan iborat?

@A)Davlat Bojxona Qo'mitasining tashkiliy tuzilmasi va u 2 ta darajali tizimdan iborat

B)Davlat Bojxona Qo'mitasining tashkiliy tuzilmasi va u 4 ta darajali tizimdan iborat

C)Davlat Bojxona Qo'mitasining tashkiliy tuzilmasi va u 6 ta darajali tizimdan iborat

D)Davlat Bojxona Qo'mitasining tashkiliy tuzilmasi va u 5 ta darajali tizimdan iborat

10. Bojxona siyosatining ilmiy kontseptsiyasini ishlab chiqishda qanday tahlil turlarini amalga oshirish kerak?

A)Iqtisodiyotdagi ahvol va maqsadlar tahlili

B)Bojxona boshqaruvi dastklari qo'llanishining tahlili

C)Iktisodiy va moliyaviy taxlil

@D)Hammasi to'g'ri

3-MAVZU	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BOJXONA ORGANLARI FAOLIYATINING TASHKIL TOPISHI VA HUQUQIY ASOSLARI
----------------	--

3.1. Ma'ruzani o'qitish texnologiyasi (ma'ruza-2 soat, amaliy mashg'ulot-2 soat)

<i>Tinglovchilar soni: 62 ta</i>	Vaqt-2 soat.
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Informatsion-vizual ko'rgazmali ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Bojxona organlari tizimi. 2. Davlat bojxona organlarining vakolatlari. 3. Davlat bojxona organlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorligi.
<i>Ma'ruzaning maqsadi:</i> Byudjet daromadlarini shakllantirish va boj to'lovlar tahlili to'g'risidagi bilimni chuqurlashtirish.	
<i>Pedagogik vazifa:</i> • Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar daromadlari tasnifi bilan tanishtirish; • Hududlar bo'yicha soliq tushumlari tahlili to'g'risida tushuncha berish; • Boj tushumlarining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ko'rsatib berish;	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i> Talaba bilishi kerak: • O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetini shakllantirishda bojlarning tutgan o'rnini aniqlab beradi; • Boj va to'lovlarni prognoz qilishning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini yoritib beradi; • Davlat byudjeti daromadlari shakllanishida hududlarning tutgan o'rni haqida aytib bera oladilar; • Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida boj tushumlarining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilib bera oladilar.
<i>O'qitishning usuli</i>	Ma'ruza, blits-so'rov va diskussiya usuli;
<i>O'qitish vositasi</i>	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proektor, diagramma va grafiklar.
<i>O'qitishning shakli</i>	Jamoa bo'lib va guruhlarda ishlash
<i>O'qitish shartlari</i>	Ma'ruza o'qish uchun kerakli texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
<i>Monitoring va baho</i>	Kuzatish, og'zaki, yozma, nazorat, o'quv topshiriqlari.

Informatsion-vizual ko'rgazmali ma'ruzaning texnologik kartasi

1-mashg'ulot

Ish tartibi	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talabalar
1-bosqich. Tayyorgarlik (10 min)	1.1. Ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi. 1.2. Ma'ruzani o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi. 1.3. Ma'ruza mashg'ulotining tayanch iboralari va rejasiga izoh beradi.	Eshitadi va yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy qism (60 min.)	2.1. Ma'ruzaning birinchi savoli buyicha davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar daromadlari tasnifi bilan tanishtiradi. Talabalarni darsga qiziqishlarini oshirish uchun ular bilan qisqa blits-so'rov o'tkazadi. 1. Davlat byudjeti va uning daromadlari haqida tushunchalaringizni ayting. 2. Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar daromadlari tarkibini aytib bering. Savollarga javob berishni tashkil etish uchun talabalarni ikkitadan qilib tayyorgarlik ko'rishlarini aytadi. 2.2. O'quv mashg'ulotining ish rejasiga asosan ikkinchi savol buyicha ma'ruza qiladi, tayanch ma'lumotlarni ekranga chiqaradi (2 savol – «Hududlar bo'yicha soliq tushumlari tahlili»). Tayanch ma'lumotlarga izoh beradi, tushuntiradi va mazmunini ochib beradi. Yozib olishlarini taklif qiladi. 2.3. Ekranga o'quv mashg'ulotining uchinchi savoli buyicha tayanch ma'lumotlarini chiqarib ma'ruzani davom ettiradi (3 savol – «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida soliq tushumlarining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar»).	2.1.Eshitadilar Savollarga javob beradi. 2.2.Eshitadilar va yozib oladilar
3-bosqich. Yakuniy qism (10 min.)	3.1. Mavzuda qo'yilgan savollar va ulardan chiqqan muammolarni qanday hal qilinganligini o'qituvchi yakun yasaydi (xulosa qiladi) va echilmagan muammolar ustida ishlash lozimligini aytadi. 3.2. Kelgusi mavzu amaliy mashg'ulot bo'lishligini va u buyicha keys-stadi bo'lishini e'lon qiladi va tayyorgarlik ko'rish lozimligi tushuntiriladi.	Talabalar eshitadilar va yozib oladilar.

3.2 Amaliy mashg'ulotni texnologik o'qitish

Tinglovchilar soni: 31	Vaqt-4 soat
O'quv mashg'ulotining shakli	Keys-stadi usulidan foydalanib amaliy mashg'ulot o'tkazish
Mashg'ulot rejasi	1. Mavzuning mazmuniga kirish. Savollarni muxokama qilish: - Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona organlari faoliyatining huquqiy asoslari nimalardan iborat. - Davlat bojxona organlarining vazifalari nimalardan iborat. - Davlat bojxona organlari qanday huquqlarga ega. - Davlat bojxona organlarining majburiyatlari mavjud. - Davlat bojxona organlari o'z faoliyatini amalga oshirishida qanday davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlik qiladi va bu hamkorlikning ahamiyati qanda. 2. Keysning echimini topish buyicha individual ishlash. 3. Keysning echimi buyicha taqdimot. 4. Mashg'ulot buyicha yakuniy xulosa kilish.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Byudjet daromadlarini shakllantirish va bojlarni va to'lovlar tahlili to'g'risida olgan nazariy bilimlarni masalalar echish (keys-stadi) orqali mustahkamlash.	
Pedagogik vazifa: • o'tilgan nazariy savollarni mustahkam lash; • muammoni aniqlash va uni hal qilish bo'yicha individual, guruhlardagi bilim va ko'nikma hosil qilish; • mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi;	O'quv faoliyatining natijasi: Talaba bilishi kerak: • Mavzu bo'yicha nazariy bilimlarni mustahkamlaydi va ularga izoh bera oladi; • muammoni aniqlaydi va uni xal qila oladi; • mantiqiy fikrlay oladi; • mustaqil boshqaruv qarorini qabul qilish ko'nikmasi shakllanadi va o'tilgan mavzuni to'liq o'zlashtirganlik darajasini baholaydi.
O'qitish usullari	Keys-stadi usulidan foydalanilgan amaliy mashg'ulot.
O'qitish vositalari	Tarqatma material, Davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, topshiriqlar va doska.
O'qitish shakli	Individual va guruhda ishlash usuli.
O'qitish sharti va sharoitlari	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
Monitoring va baho	Kuzatish, og'zaki, yozma, nazorat, o'quv topshiriq

Keys-stadili amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Ish jarayonlari	Faoliyat mazmuni:	
	O'qituvchi	talabalar
Tayyorlanish bosqichi	Talabalarni keys-stadi bo'yicha Mashg'ulot o'tkazishga tayyorlaydi va ularga tarqatma materiallar beradi. Talabalarni materiallar bilan tanishtiradi. (1-ilova).	Keysning mazmuni bilan tanishadilar va uning echimini topadilar.
1-bosqich (8 min)	1.1. Ushbu mashg'ulotning mazmuni, maqsadlari, u o'tkaziladigan va tanishib chiqadilar. 1.2. Yuridik slajdlarning foydalanilishini ta'kidlaydi. 1.3. Keys-stadining maqsadi (1-ilova) haqida ma'lumot beradi. 1.4. Keys-stadining mazmuni, o'tkazish shakli va baholash mezonlari bilan tanishtiradi. 1.5. Har bir tinglovchiga mavzu buyicha tarqatma materiallarni tarqatadi va individual ishlash uchun topshiriqlar beradi. 1.6. Tinglovchilarni 4 guruxga xech kanday mezonsiz taqsimlaydi va spikerni tayinlaydi.	1.1. Eshitadilar. 1.2. Tanishib chiqadilar.
2-bosqich Asosiy (62 min)	2.1. Kuyidagi blits-savollarga o'ylab javob berishlarini suraydi: (2-ilova) Blits-so'rov o'tkazadi, savol-javob jarayonida aniqlashtiriladi va yunaltiradi. 2.2. Keys-stadining mazmuni, o'tkazish shakli va baholash mezonlari bilan tanishtiradi. 2.3. Har bir tinglovchiga mavzu buyicha tarqatma materiallarni tarqatadi va individual ishlash uchun topshiriqlar beradi. 2.4. Tinglovchilarni 4 guruxga xech kanday mezonsiz taqsimlaydi va spikerni tayinlaydi.	2.1.Savollarga javob beradilar. 2.2.Eshitadilar. 2.3.Tarqatma materiallar bilan tanishib chiqadilar. 2.4.Toshiriqni keys-stadi usulidan foydalanib bajaradi va yoqlaydi.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. Mavzuda qo'yilgan savollar va ulardan chiqqan muammolarni qanday hal qilinganligini o'qituvchi yakun yasaydi (xulosa qiladi) va echilmagan muammolar ustida ishlash lozimligini aytadi. 3.2. Kelgusi mavzu e'lon qilinadi va unga tayyorgarlik ko'rish uchun mustakil lozimligi tushuntiriladi.	Eshitishadi va yozib olishadi

Vaziyatni tahlil qilish varag'i

Tahlil bosqichi nomi	Tahlil bosqichi Mazmuni	Tahlil natijasi	Baholash ko'rsatkichlari va mezon	
			Ko'rsatkichi	mezon, %
1. Vaziyat tahlili	1. Berilgan vaziyatni o'rganish va masalani echish uchun zarur ma'lu motlarni aniqlash? 2.Keysdagi holat larni oydinlash tirish: Nima yuz berayapti?		Lo'ndalik	5%
2. Muammoni shakllantirish	Muammo mazmunini so'zlarda aks ettirish		Maksimal darajada qisqa ifodalash, 9-10 ko'p bo'lmagan so'z	10%
3. Boj tushumlariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash	Boj tushumlariga ta'sir etuvchi omillarni sanab berish.		Maksimal darajada qisqalik	10%
4.Byudjet daromadlari shakllanishiga baho berish	Byudjet daromadlari tarkibini o'rganib, uning shakllanishini tahlil qilish.		Aniqlik	40%
5. Hududlar bo'yicha boj tushumlari tahliliga baxo berish	Hududlar bo'yicha boj potentsialini aniqlash mezonlarini tahlil qilish		Qiska, lo'nda va aniqlik	15%
6. Echimni shakllantirish	Mamlakat va uning hududlari bo'yicha soliq potentsialiga baxo berish.		Aniqlik, qarorni asoslanganligi	20%

Guruh ishini baholash varag'i.

Guruhlar	Baholash mezonlari							
	So'zlab berishi (aniqlilik va tushunarlik, xulosalarning asoslanganligi)				Muammoli topshiriqning bajarilishi (to'g'riligi va izchilligi)			
	A'lo 2,0-ball	Yaxshi 1,5-ball	qoniqarli 1,0-ball	Qoniqarsiz 0,5-ball	A'lo 2,0-ball	Yaxshi 1,5-ball	Qoniqarli 1,0-ball	Qoniqarsiz 0,5-ball
1								
2								
3								
4								

1997 yil O'zbekiston Respublikasida bojxona ishi uchun burilish yili bo'ldi. Bojxona ishini takomillashtirish, uning huquqiy negizini xalqaro normalarga muvofiqlashtirish jarayoni uni tashkil etishga tizimli-tarkibiy, funktsional o'zgartirishlar kiritishni taqozo etar edi. Shu sababli bojxona ishini tashkil qilishni yaxshilash, yagona bojxona siyosatini o'tkazish, respublika bojxona organlarining tezkorligini hamda ular faoliyatining samaradorligini oshirish, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashda ularning rolini kuchaytirish, shuningdek bojxona ishi sohasidagi xalqaro xamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasini tashkil etish to'g'risida» 1997 yil 8 iyuldagi PF-1815-son Farmoni e'lon qilindi.

Ushbu Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Bojxona bosh boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tashkil qilinib, u bevosita O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysundirildi. Qoraqalpog'iston respublikasi, viloyatlari va Toshkent shahrida ishlab turgan bojxona xizmatlari negizida O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining hududiy boshqarmalari tuzildi.

Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi 1997 yil 29 avgustdagi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlari Mahkamasining 1997 yil 30 iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 374-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, ixtisoslashtirilgan bojxona komplekslari va bojxona postlari bojxona organlari hisoblanadi.

Bojxona organlari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, boshqa qonun xujjatlariga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Davlat bojxona qo'mitasi o'z vakolatlari doirasida yagona boj siyosati o'tkazilishini, bojxona ishlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini, bojxona organlari tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona organlari qonunchilikka muvofiq o'z faoliyatini joylardagi davlat organlaridan mustaqil ravishda amalga oshiradilar.

Davlat bojxona qo'mitasining qonunchilikka muvofiq o'z vaoklatlari doirasida qabul qilgan qarorlari, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Bojxona organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlari hisoblanadi va davlat byudjeti mablag'laridan ta'minlanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan va o'z nomi bitilgan muhrga ega.

Davlat bojxona qo'mitasining funktsiyalariga quyidagilar kiradi:

- Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida yagona bojxona siyosati amalga oshirilishining huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning amalda qo'llanilishini ta'minlash, bojxona ishi sohasida qonun xujjatlari va normativ xujjatlar loyihalari tayyorlanishida qatnashish;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari ishlab chiqilishida qatnashish, belgilangan tartibda va o'z vakolatlari doirasida bojxona masalalari bo'yicha xalqaro bitimlar va shartnomalar tuzish;

- respublikaning bojxona xududida davlat xavfsizligini, jamoat tartibi, inson hayoti va salomatligi himoya qilinishi, atrof muhim muxofazasi bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishiga ko'maklashish;

- belgilangan tartibda bojxona nazorati amalga oshirilishini ta'minlash va uning shakllarini takomillashtirish;

- bojxona qonunchiligiga va o'z vakolatlari doirasida – soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

- bojxona tartibga solish vositalari qo'llanilishini ta'minlash, bojxona-tarif mexanizmi ham shu jumlagi kiradi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tarifli tartibga solish usullari, kvotalash normalari, litsenziyalash va deklaratsiya taqdim etish ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida belgilangan tartibda qatnashish;

- bo'jlar, soliqlar va boshqa to'lovlar davlat byudjetiga o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini ta'minlash;

- o'z vakolatlari doirasida valyuta nazoratini amalga oshirish;

- bojxona statistikasi uslubiyatini takomillashtirish, bojxona ishi sohasida statistika ma'lumotlari to'planishi, ularga ishlov berilishi va tahlil qilinishini tashkil etish, respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish, tashqi savdo va to'lov balansini mustahkamlash bo'yicha prognoz hisob-kitoblarini amalga oshirish va takliflarni ishlab chiqish;

- bojxona ishi sohasidagi faoliyat to'g'risida axborot to'planishi tizimini ishlab chiqish va jori etish, shuningdek bojxona statistika ma'lumotlarini tegishli idoralar va manfaatdor organlarga taqdim etish;

- kontrabandaning, bojxona qonunchiligining, o'z vakolatlari doirasida soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish va ularga barham berish chora-tadbirlarini mustaqil ravishda yoki huquqni muhofoza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlab chiqish, shuningdek xalqaro terrorizmga va O'zbekiston aeroportlarida xalqaro aviatsiyasi faoliyatiga g'ayriqonuniy aralashishga qarshi kurashishga ko'maklashish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qo'llash;

- bojxona organlari vakolatiga tegishli bo'lgan ishlar bo'yicha surishtiruvlar olib borish va qonunchilikka muvofiq bojxona qoidalarini buzilishi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish;

- yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan qonunchilikka nazarda tutilgan bojxona qoidalarini buzilganligi uchun ta'sir ko'rsatish choralari belgilangan tartibda qo'llash;

- giyohvandlik vositalari, psixotrop va portlovchi moddalar, qurol-yarog' respublikaning bojxona chegarasi orqali g'ayriqonuniy olib o'tilishining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va qo'llash;

- respublikaning va xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan birgalikda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar nazorat ostida etkazilib berilishini amalga oshirish;

- Milliy xavfsizlik xizmati va ichki ishlar organlari bilan o'zaro hamkorlikda qonunchilikda belgilangan tartibda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;

- Aybdorlarni javobgarlikka tortish to'g'risidagi masalani hal etish bojxona organlar vakolatlari doirasidan tashqariga chiqqanda qonun buzilishlari faktlar bo'yicha materiallarni tergov, sud organlari va boshqa organlarga topshirish;

- bojxona organlarining mansabdor shaxslar tomonidan qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, bojxona organlari mansabdor shaxslarining xatti-xarakatlari va qarorlari ustidan tushgan shikoyatlar va e'tirozlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish;

- bojxona organlariga yuklangan vazifalar va funktsiyalar amalga oshirilishini ta'minlovchi ilmiy-texnik xizmatlar, laboratoriyalar, o'quv markazlari, boshqa korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish;

- bojxona organlari xodimlarini, shuningdek davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun bojxona rasmiylashtirishi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

- bojxona omborlari va erkin omborlar, bojsiz savdo do'konlari, bojxona brokerlari va bojxona tashuvchilari, tovarlarga bojxonaxududidan tashqarida, bojxona xududida yoki bojxona nazorati ostida ishlov berish ustidan nazoratni amalga oshirish, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda faoliyatning sanab o'tilgan turlarini amalga oshirish xuquqqa ruxsatnomalar berish;

- xalqaro bojxona va savdo tashkilotlarida qatnashish, xorijiy davlatlarning bojxona organlari, bojxona ishi masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, qonunchilikda belgilangan tartibda xorijiy mamlakatlarning bojxona xizmatlari bilan axborotni o'zaro ayirboshlash;

- bojxona organlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, tashqi savdo yuklarini bojxona rasmiylashtirishi uchun punktlar tarmog'ini va bojxona infratuzilmasining boshqa ob'ektlarini kengaytirish ham shu jumlagi kiradi;

- Davlat bojxona qo'mitasining moddiy yordam, ijtimoiy himoya qilish, bojxona organlarini rivojlantirish va ko'zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg'armasiga tushadigan mablag'lari hisobiga respublikada bojxona ishini rivojlantirish chora-tadbirlarini mablag' bilan ta'minlash.

Davlat bojxona qo'mitasiga qonun xujjatlarga binoan boshqa funktsiyalar ham yuklatilishi mumkin.

Boshqaruv tuzilmasi har qanday tizimning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun muhim ahamiyatga egadir.

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi deganda maskur davrda shakillangan va boshqaruv maqsadlariga muvofiq keluvchi tizimning to'g'iniligi, uning organlari o'rtasidagi aloqa shakillari tushuniladi.

Respublika bojxona organlarining tuzilmasi boshqaruvning to'rt darajali tizimidan iborat bo'lib, markaziy apparat (Davlatbojxona qo'mitasi), Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari (DBQB), ixtisoslashtirilgan bojxona komplekslari (IBK) va bojxona postlarini o'z ichiga oladi.

Davlat bojxona qo'mitasi markaziy apparat, DBQB, IBK yuridik shaxs hisoblanadilar, bank muassasalarda hisob-kitob, joriy va boshqa hisobvaraqaqlariga, shu jumladan valyuta hisobvaraqaqlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasvirlangan va o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladilar.

Davlat boshqaruvi organining tashkiliy tuzilmasi (ichki tuzilma) – uning huquqiy va tashkiliy jihatidan nisbatan mustaqil va alohid, o'zaro bog'liq bo'linmalarining jamidir, ularning har biri alohida va ular barchasi birgalikda bojxona organlari vakolatiga kiruvchi vazifalar hal etilishini ta'minlaydi.

O'rinbosar va rejim va kadrlar bo'yicha birchi o'rinbosari, Davlat bojxona qo'mitasining rahbar bo'g'inini rais, raisning birinchi o'rinbosari, ikki ay'at tashkil etadi.

Davlat bojxona qo'mitasi raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tayinlanadi va keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasida tasdiqlanadi.

Davlat bojxona qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, DBQB va IBK boshliqlari Davlat bojxona qo'mitasi raisining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori bilan tayinlanadilar.

Rais Davlat bojxona qo'mitasiga boshchilik qiladi, o'z o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarini tasdiqlaydi, Davlat bojxona qo'mitasiga yuklangan vazifalarning bajarilishi va u o'z funktsiyalarini amalga oshirishi uchun shaxsan javob beradi. U Davlat bojxona qo'mitasi organlari tizimiga umumiy rahbarlikni ta'minlaydi, Davlat bojxona qo'mitasi markaziy apparati, DBQB va IBK shtat jadvalini tasdiqlaydi.

Rais bundan tashqari:

- DBQ, DBQB va IBK tarkibiy bo'linmalari to'g'risida nizomni tasdiqlaydi;
- Zarurat bo'lganda DBQ markaziy apparati, DBQB va IBK ning tasdiqlangan tuzilmalarini belgilangan xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritadi;

- bojxona organlarining kontrabanda, bojxona qonunchiligini buzish to'g'risidagi ishlar bo'yicha surishtiruv olib boruvchi, bojxona qoidalarini buzilishi to'g'risidagi ishlarni olib boruvchi va ularni ko'rib chiquvchi mansabdor shaxslari ro'yxatini belgilaydi.

- DBQ mansabdor shaxslari, ishchi va xizmatchilarni rag'batlantirish va jazolash to'g'risidagi qarorlar qabul qiladi.

- o'z vakolatlari doirasida bojxona organlarining mansabdor shaxslariga maxsus unvonlar beriladi.

- o'z vakolatlari doirasida buyruqlar, yo'riqnomalar va normativ xujjatlar chiqaradi, shu jumladan, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha jismoniy va yuridik shaxslar bajarishi majbur bo'lgan buyruqlar, yo'riqnomalar va normativ xujjatlar chiqaradi. Ularning bajarilishini tekshirishni tashkil etadi.

- Bojxona organlarining o'rnak ko'rsatlatgan xodimlarini va bojxona ishiga faol ko'maklashgan fuqarolarni mukofatlash va O'zbekiston Respublikasining faxriy unvonini berish, ko'krak nishonlari, faxriy yorliqlar va rag'batlantirishning boshqa turlari bilan mukofotlash to'g'risidagi takliflar kiritadi.

- qonunchilik tomonidan o'z vakolatiga kiritilgan boshqa masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

DBQ raisi yordamchi va kotibiyatga ega bo'ladi.

Raisning birinchi o'rinbosari qo'mitaning tashkiliy – inspektorlik boshqaruvlari, huquqiy boshqarmasi shini yuritadi. Unga ommaviy axborot vositalari bilan aloqa bog'lash bo'limi, Markaziy bojxona eksport laboratoriyasi, Milliy kinologiya markazi bevosita bo'ysunadi.

DBQ raisining o'rinbosarlaridan biri bojxona nazorati, bojlarni tariflar bilan tartibga solish va to'lovlar, bojxona siyosati, tahlil va kompyuterlashtirish, valyuta nazoratini boshqarish bilan shug'ullanadi.

DBQ raisi o'rinbosarlaridan ikkinchisi moliya-iqtisodiyot boshqarmasi, moddiy-texnika boshqarmasi, ashyoviy ta'minot, qurol-yarog' va transport, kopital qurilish va bojxona ob'ektlardan foydalanish, nazorat va aloqaning texnika vositalari uchun javob beradi.

DBQ raisining rejim va kadrlar bo'yicha o'rinbosarlari kadrlar boshqarmasi, o'quv markazi, tashqi aloqalar departamenti va maxsus qism ishini bajaradi.

DBQ raisi bojxona organlari oldiga qo'yilgan vazifalarni tezkorlik bilan hal qilish maqsadida bir qancha vaifalarni o'z o'rinbosarlari o'rtasida qayta taqsimlashi mumkin.

Davlat bojxona qo'mitasi topshirilgan ish uchastkasidagi ishlarning ahvoli uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligini belgilagan holda, organlarning mazkur tizimiga rahbarlik qilishining barcha masalalarini qilish etishda kollegiyalik yakkaboshchilik qo'shib olib borish asosida o'z ishini tashkil etadi.

Kollegiallik organi shakllantirish tartibida, rahbarlikni tashkil etishda, rahbar bo'g'inlar o'rtasida vakolatlarni taqsimlashda ishning tashkiliy huquqiy shakllarida, bojxona syosatini amalga oshirishda muhim masalalarini hal etishda davlat etilgan qo'mitaning murakkab va ko'p qirrali faoliyatiga muvofiq keladigan qarorlar qabul qilinishi tartibida o'z ifodasini topadi. Kollegiallik ko'p organlari bilan bog'liq bo'lgan umumiy rahbarlik masalalarini hal etishda ko'plab kishilarning tajribasi va bilimidan keng foydalanish imkonini beradi. Bu kollegial muhokama va ijodiy munozara jarayonida murakkab masalar yuzasidan to'g'ri qarorlar qabul qilinishi imkonini beradi. Kollegial ish topshirilgan ish uchastkalari uchun rais va hay'at a'zolarining shaxsiy javobgarligi bilan qo'shib olib boriladi.

Shu maqsadda Davlat bojxona qo'mitasi Qo'mita raisi – Xay'at raisi uning o'rinbosarlari va DBQ ning boshqa xodimlaridan iborat tarkibda 9 kishidan iborat xay'at tashkil etadi.

Xay'at a'zolarining shaxsiy tarkibi DBQ Raisining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

DBQ Xay'atining ish tartibi uning Raisi tomonidan belgilanadi.

Xay'at qarorlari DBQ Rais buyruqlari bilan amalga oshiriladi.

Xay'atning boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qabul qilingan qarorlari DBQ raisi hamda tegishli vazirliklar va idoralar rahbarlarining qo'shma buyruqlari bilan amalga oshiriladi.

Bojxona organlari faoliyatini takomillashtirish, ularni ilmiy, ijtimoiy va moddiy-texnika rivojlantirish, kadrlar bilan ta'minlash, boshqaruv qarorlari va tavsiyalarni kelishgan holda ishlab chiqish uchun DBQ da kengashlar va komissiyalar tashkil etiladi, ular to'g'risidagi nizomlar DBQ raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Organlar boshqaruvi faoliyati xususiyatlari va hajmi ular apparatining tuzilmasida namoyon bo'ladi. Davlat qo'mitasi butun faoliyati natijalari ko'p jihatdan organning ichki tuzilishiga, uning ayrim qismlari tuzilishiga, vakolatlarning taqsimlanishiga, tarkibiy bo'linmalarning o'zaro munosabatlariga bog'liq bo'ladi.

DBQ ning tarkibiy bo'linmalari qo'mitaning ishchi apparati hisoblanadi. Ularning faoliyati xilma-xil bo'lib, butun organ funktsiyasining o'ziga xosligiga bog'liqdir. Bu bo'linmalar turli materiallarni tayyorlaydi, DBQ ga tegishli boshqa faoliyatni amalga oshi-

radi, jumladan, muvofiqlashtirish tusidagi funktsiyalarni bajaradi, maslahatlar, xulosalar beradi, loyihalarni ekspertizadan o'tkazadi, qo'mita xujjatlari loyihalarini, xokimiyat va boshqaruvning yuqori organlariga takliflarni tayyorlaydi. Shu munosabat bilan ular hech bir ko'rsatma berishga haqli emas. Ular tomonidan takliflar va yo'riqnomalar, uslubiy ko'rsatmalar va boshqa me'yoriy xujjatlar loyihalari tayyorlanadi. Ular rais yoki qo'mita xay'ati tomonidan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi. Biroq, ular ushbu bo'linmalar vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha bojxona siyosatining ayrim masalalarini maslahatlashish va ishlab chiqish uchun ilmiy-tadqiqot institutlari, tashkilotlar, davlat boshqaruvi boshqa organlarining mutaxassislarini jalb qilishlari, boshqarmalar (bo'limlar) vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha kengashlar chaqirishlari va o'tkazishlari mumkin, ushbu kengashlarda qatnashish uchun vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning vakillarini jalb qilishlari, ulardan ushbu boshqarmalar va bo'limlar uchun zarur barcha materiallarni olishlari mumkin.

Davlat bojxona qo'mitasi markaziy apparatidan tashqari Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari va ixtisoslashtirilgan bojxona komplekslari apparati mavjud bo'lib, ular ham o'z tuzilmasiga ega. mazkur tuzilma ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi boshlig'i, DBQB boshlig'ining birinchi o'rinbosari, DBQB boshlig'ining ikki o'rinbosaridan iboratdir.

DBQB boshlig'i umumiy rahbarlikdan tashqari bojxona organlari xavfsizligi xizmati, kotibiyat, kadrlar bo'limi, yuridik xizmat, navbatchi qism xizmati, ommaviy axborot vositalari bilan aloqa guruhi ishini yuritadi.

DBQB boshlig'ining birinchi o'rinbosariga bojxona nazoratini tashkil etish, bojxona to'lovlari, bojxona statistikasi va tahlil bo'limlari bevosita bo'ysunadi.

DBQB boshlig'ining o'rinbosarlaridan biri kontrabandaga va bojxona qoidalariga buzilishlariga qarshi kurashish, bojxona tekshirishlari, valyuta nazorati bo'limlari ishi uchun javob beradi.

Bojxona o'rinbosar buxgalteriya hisobi va nazorat, moddiy-texnika ta'minoti, ashyoviy ta'minot, qurol maslahatlar va transport, kapital qurilish a bojxona ob'ektlaridan foydalanish, nazorat va aloqaning texnik vositalari bo'limlari ishiga bevosita rahbarlik qiladi.

Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari bojxona komplekslari va postlari:

- bojxona kompleksi (posti) boshlig'i;
- bojxona kompleksi boshlig'ining o'rinbosari – navbatchilar boshlig'i;
- kontrabandaga va bojxona qoidalariga buzilishlariga qarshi kurashish guruhi;
- bojxona nazoratini tashkil etish guruhi;
- bojxona to'lovlari guruhi;
- bojxona statistikasi va tahlil guruhi;
- ekspert;
- kinolog;
- tezkor guruhdan iborat bo'ladi.

Bojxona haqidagi qonunlar buzilishi haqida ishlar bo'yicha davlat bojxona organlari surishtiruv organlari hisoblanadi. Ushbu norma qonunchilikda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 38-«Surishtiruv organlari» moddasida mustahkamlangan. Qonunchilik bojxona tekshirishlari bo'linmasini surishtiruv organlari sirasiga kiritadi. Bu

ular da jinoiy ishlar qo'zg'ash va o'z vakolatlari doirasida tergov olib borish huquqi mavjudligini anglatadi.

Bojxona organlari xodimlari prokuratura, sud va militsiya xodimlari singari davlat xokimiyati vakillari hisoblanadi. Ular Jinoyat va Jinoyat protsessual kodekslari normalari-ga amal qilib, bojxona organlari vakolatiga kiritilgan huquqbuzarliklar bo'yicha zarur te-zkor-qidiruv choralarini o'tkazishga, jinoyat belgilari mavjud bo'lgan taqdirda jinoiy ish qo'zg'ashga, surishtiruv olib borishga haqlidirlar.

Bojxona organlari qonuniylikka rioya qilgan hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklari buzilishiga yo'l qo'ymagan holda faqat bojxona jinoyatlarini aniqlash maqsa-dida tezkor-qidiruv ishini yuritishga vakolatli ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Bunda boshqa jinoyatlarning aniqlanishi axborotni ushbu jinoyatlarni tekshirish vakolatiga kiradigan huquqni muhofaza qilish organlariga berishga olib keladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish;

- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va o'z vakolati doirasida uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;

- bojxona siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

- bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish;

- bojxona to'lovlarini undirish;

- bojxona nazoratidan o'tkazilishi kerak bo'lgan tovarlar va transport vositalari shunday nazoratdan o'tkazilishini ta'minlash;

- bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishining, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, uni aniqlash va ularga chek qo'yish;

- tashqi iqtisodiy faoliyatga doir bojxona statistikasini hamda tovar nomenklaturasini yuritish;

- O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining bojxona ishiga oid qismidan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga egadir:

- tovarlar va transport vositalarini, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, jismoniy shaxslarning o'zini ko'zdan kechirish;

- yuridik va jismoniy shaxslardan ko'zdan kechirish uchun tovarlar va transport vositalarini, shuningdek zarur hujjatlarni taqdim etishni talab qilish;

- valyuta nazoratini amalga oshirish;

- moliya, bank va boshqa tashkilotlardan, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslardan eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish bilan bogliq bo'lgan axborot va hujjatlarni hamda qonun hujjatlarida belgilangan boshqa axborotni olish;

- bojxona nazoratidan o'tkazish maqsadida tovarlar hamda boshqa buyumlardan na-muna va nusxalar olish;

- bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar saqlanayotgan hududlarga va binolarga belgilangan tartibda kirish;

–bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishiga doir materiallarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish hamda jismoniy va yuridik shaxslarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish;

–bojxonaga oid huquqbuzarliklarning bevosita predmeti bo'lgan tovarlar va transport vositalarini qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda ushlab turish hamda olib qo'yish;

–eksport qilinishi man etilgan buyumlar va mahsulotlar o'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketilayotganda: shuningdek aktsiz markalari qo'yilmagan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilganda, transportirovka (xalqaro tranzit bundan mustasno) qilinganda va saqlanganda ularni musodara etish to'grisida qaror qabul qilish;

–surishtiruv o'tkazish va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;

–bojxonaga oid huquqbuzarliklarni aniqlashga xizmat qiladigan texnikaviy va maxsus vositalarni qo'llash.

Bojxona organlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadirlar.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona organlarining quyidagi majburiyatlari mavjud:

Bojxona organlari:

–yagona davlat bojxona siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etishga;

–bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, bojlar to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilishga;

–davlat xavfsizligini, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning hayoti va sogligini himoya qilish, atrof muhitni muhofaza etish chora-tadbirlari amalga oshirilishiga ko'maklashishga;

–bojxona haqidagi qonun hujjatlarini qo'llanish bo'yicha belgilangan tartibda uslubiy ko'rsatmalar va normativ hujjatlar ishlab chiqish hamda ularni nashr etishga;

–yuridik va jismoniy shaxslarni tovarlar va transport vositalarini olib o'tish hamda bojxona chegarasidan o'tish vaqtidagi huquqlari va majburiyatlari to'grisida o'z vaqtida xabardor qilishga;

–faoliyat turlari bilan shugullanish huquqini beradigan maxsus ruxsatnomalarni (litsenziyalarni) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berishga;

–o'z xizmat vazifalarini bajarishlari natijasida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan davlat siri va tijorat siri hisoblangan axborotni oshkor etmaslikka majburdirlar.

Bojxona organlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni ham bajaradilar.

Bojxona organlari o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni davlat boshqaruvining boshqa organlari va davlat hokimiyati mahalliy organlari bilan hamkorlikda bajaradilar. Mazkur organlar bojxona nazoratini amalga oshirish hamda bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishiga qarshi kurashda bojxona organlariga ko'maklashishlari shart.

Bojxona organlari o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida boshqa organlar va tashkilotlar bilan aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha mavjud materiallar to'grisidagi axborotni, shuningdek boshqa axborotni qonun hujjatlarida va bitimlarda belgilangan tartibda o'zaro almashadilar.

Bojxona organlari o'z vakolatlari doirasida chiqaradigan hamma uchun majburiy tusdagi normativ hujjatlar tegishli vazirliklar, idoralar bilan kelishilishi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Bojxona organlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'z vakolatlariga kiradigan ayrim harakatlarning boshqa organlar va tashkilotlar tomonidan bajarilishiga yo'l qo'yadilar.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlari:

– xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan byudjet oldidagi majburiyatlarning bojxona to'lovlariga oid qismining bajarilishi to'grisidagi bojxona organlarining xulosasiga binoan ana shu sub'ektlarning hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlarini yopishlari mumkin;

– belgilangan muddatlarda to'lanmagan bojxona to'lovlari va jarima summalarini xo'jalik sub'ektlaridan so'zsiz tartibda undirib olish to'grisidagi bojxona organlarining farmoyishlarini (inkasso topshiriqlarini) bajaradilar;

– xo'jalik sub'ektlarining so'mlardagi mablaglari etishmasa va valyuta hisobvaraqlarida mablaglari mavjud bo'lsa, bojxona organlarining taqdimnomasiga binoan mazkur valyuta mablaglarini valyuta birjasida sotish kunidagi kurs bo'yicha byudjet oldidagi qarzni qoplash uchun zarur hajmlarda so'zsiz sotishni amalga oshiradilar.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning aybi bilan bojxona to'lovlari va jarima summalarini to'lash kechiktirilgan bo'lsa, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yoki bojxona organlarining bojxona to'lovlarini o'tkazish yoki qaytarish to'grisidagi topshiriqlari bank yoki moliya-kredit muassasalarining aybi bilan bajarilmagan bo'lsa (bajarish kechiktirilgan bo'lsa), xo'jalik sub'ektlaridan, bank yoki moliya-kredit muassasalaridan belgilangan tartibda penya undiriladi.

3-mavzu bo'yicha test variantlari:

1. Qanday bojxona siyosati turi horijiy raqobatchilarga qarshi proteksionistik choralar ko'rinishida mahalliy tadbirkorlarni himoya qilish, milliy kompaniyalar va firmalar shakllanishi paytida juda zarur?

- A) Qisman cheklash siyosati
- @B) Proteksionizm siyosati
- C) Teskari proteksionizm siyosati
- D) Ichki savdo siyosati

2. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududida tovar ayriboshlashni tartibga solish, samarali bojxona nazoratini ta'minlash, iqtisodiyotni rivojlantirishni rag'batlantirish va mamlakat ichki bozorini himoya qilish bojxona siyosatining hisoblanadi.

- @A) Asosiy maqsadlari
- B) Asosiy funktsiyasi
- C) Asosiy vazifalari
- D) Asosiy printsiplari

3. Ishlab chiqargan tovarlari jahon bozorida etakchi mavqeiga ega bo'lsa, o'zining tovarlari sifatidan va raqobatbardoshligidan xavotirda bo'lmagan mamlakat tomonidan bojxona siyosatining qanday turi o'tkaziladi?

- @A)Erkin savdo siyosati
- B)Taqchil bozorni to'ldirish siyosati
- C)Proteksionizm siyosati
- D)Ichki savdo siyosati

4. Davlatning bojxona siyosatini amalga oshirilishini ta'minlovchi davlat tuzilmalari va boshqa tuzilmalarnikiday emas, balki ular faoliyatining amaliy shakllarini ham nazarda tutuvchi eng umumiy va jamlovchi tushuncha ...

- A)Bojxona tizimidir
- B)Bojxona boshqaruvi tizimidir
- @C)Bojxona siyosatidir
- D)Bojxona chegarasida amalga oshiriladi

5. Bojxona postida bojxona organi xodimlari chegaradan o'tayotgan fuqaroni qancha muddatgacha ushlab turishi mumkin?

- @A)72 soatgacha
- B) 24 soatgacha
- C) Vaqti chegaralanmagan
- D) 12 soatgacha

6. Bojlar, soliqlar va boshqa to'lovlar davlat byudjetiga o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini ta'minlash bu DBQ ning ...

- @A)Funktsiyasi
- B)Vakolati
- C)Vazifasi
- D)Printsipi

7. «Bojxona ishi asoslari» fanini o'rganish jarayonida qanday metodlardan foydalanadi?

- A)Analiz, sintez, taxlil qilish, induktsiya, deduktsiya
- B)Tahlil etish, amaliy hujjatlar nusxasini qiyosiy tahlil etish
- @C)Hammasi to'g'ri
- D)Iqtisodiy taxlil

8. O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasi qaysi yuqori hukumat organiga bo'ysunadi?

- A)Oliy Majlis
- @B)Vazirlar Mahkamasiga
- C)Moliya Vazirligiga
- D)Senatga

9. Tekshirish davomida bojxona organlari qaysi biriga xaqldirlar?

- A)Binoni muhrlash
- B)Barcha moliyaviy hujjatlar bilan tanishish
- C)Mol-mulklarni ko'zdan kechirish
- @D)Hammasi to'g'ri

10. Bojxona nazoratining muayyan shakllaridan ozod qilish Bojxona Kodeksning nechanchi moddasida ko'rsatilgan?

- A)43-moddasida
- @B)50-moddasida
- C)53-moddasida
- D)51-moddasida

4 MAVZU	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BOJXONA SIYOSATI
----------------	--

4.1. Ma'ruzani o'qitish texnologiyasi (ma'ruza-2 soat, amaliy mashg'ulot-2 soat)

Tinglovchilar soni: 30-40	Vaqt-2 soat.
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza – diskussiya
Ma'ruza rejasi	1. Bojxona siyosatining mohiyati. 2. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona siyosatini amalga oshirish yo'nalishlari. 3. Bojxona siyosatining asosiy vazifalari va printsiplari.
<i>Ma'ruzaning maqsadi:</i> Boj to'lovchilar guruhlariga bo'yicha boj tushumlari tahlili haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish.	
Pedagogik vazifa: 1. Boj to'lovchilarni guruhlash xususiyatlari bilan tanishtirish; 2. Boj to'lovchi yuridik shaxslarni faoliyat turlariga qarab guruhlash mezonlarini yoritib berish; 3. Jismoniy shaxslar boj tushumlarining tahlili haqida tushuncha berish.	O'quv faoliyatining natijasi: Talaba bilishi kerak: 1. Boj to'lovchilarni guruhlash mezonlarini bilish. 2. Faoliyat turlariga qarab yuridik shaxslar boj tushumlarini tahlil etish. 3. Jismoniy shaxslar boj tushumlarining tahlilini amalga oshirish.
O'qitishning usuli	Ma'ruza, diskussiya. blits-so'rov, aqliy hujum usuli;
O'qitish vositasi	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proektor, diagramma va grafiklar.
O'qitishning shakli	Jamoa va guruhlarda ishlash
O'qitish shartlari	Ma'ruza o'qish uchun kerakli texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Monitoring va baho	Kuzatish og'zaki, yozma, nazorat va o'quv materiallari

Informatsion-vizual ko'rgazmali ma'ruzaning texnologik kartasi

Ish tartibi	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talabalar
1-bosqich. Tayyorgarlik (5 minut)	1.1.Ma'ruza savollarini tushuntirish uchun 5 ta talabani maruzachi qilib tayinlaydi. Ular «O'zbekiston Respublikasining bojxona siyosati» bo'yicha ekspert bo'lishlarini aytadi.	1.1.Eshitadi-lar va yozib oladi.
2-bosqich. Kirish (5 min.)	2.1. Ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi. Ma'ruza shakli diskussiya usulida bo'lishini e'lon qiladi. Ma'ruza mashg'ulotining tayanch iboralari va rejasiga izoh beradi.	2.1. Eshitadilar
3-bosqich. Axborot (60 min.)	3.1.Bilimlarni faollashtirish uchun blits-so'rov o'tkazadi: 1. Boj to'lovchilar kimlar va ular qanday guruhlanadi? 2. Mulkchilik shakliga qarab boj to'lovchilar qanday guruhlanadi? 3. Faoliyat turlariga qarab boj to'lovchilar qanday guruhlanadi? 4. Jismoniy shaxslardan boj tushumlari haqida gapiring. 1) Talabalarga axborot dokladini eshitishni taklif qiladi va ma'ruzachiga so'z beriladi. 2) Javoblarni eshitadi, qo'shimcha qiladi va savollar beradi. 3)Mavzuning asosiy ma'nosini tushuntiradi va xulosa qiladi. Diskussiyani olib borishda ko'rgazmali material-lardan foydalanadi.	3.1.Javob beradilar. Ma'ruza mavzusini eshitadilar, muhoka-ma qiladilar. Jamo'a bo'lib savol-larga javob topadilar.
4 bosqich Yakunlovchi (10 min.)	4.1. O'quv mavzusining mazmuniga yakun yasaydi: 4.2. Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi: «O'zbekiston Respublikasining bojxona siyosati» mavzusida esse yozib kelishlarini ay-tadi.	4.1.Eshitadilar. 4.2.Yozib oladilar.

4.2 Amaliy mashg'ulotni texnologik o'qitish.

<i>Tinglovchilar soni: 30</i>	Vaqti-2 soat
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Muammoli amaliy mashg'ulot.
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	Mavzuning mazmuniga kirish. Savollarni muxokama qilish: 1. Bojxona siyosatining umumiy xususiyatlari nimalardan iborat. 2. Proteksionizm siyosati deganda nima tushuniladi. 3. Bojxona siyosati qanday yo'nalishlarda amalga oshiriladi. 4. Bojxona siyosatining asosiy vazifalari nimalardan iborat. 5. Bojxona siyosatining printsiplari nimalardan iborat. Mashg'ulot buyicha yakuniy xulosa qilish.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Boj to'lovchilar guruhlariga bo'yicha boj tushumlari tahlili to'g'risida olgan nazariy bilimlarni masalalar echish va savol-javoblar orqali mustahkamlash.	
<i>Pedagogik vazifa:</i> • o'tilgan nazariy savollarni mustahkam lash; • muammoni aniqlash va uni hal qilish bo'yicha individual, guruhlardagi bilim va ko'nikma hosil qilish; • mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi;	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i> Talaba bilishi kerak: - Boj to'lovchilarni guruhlash tartibini tushuntirib beradi; - Faoliyat turlariga qarab yuridik shaxslarning soliq tushumlarini tahlil etish tartibini aytib beradilar; - Byudjet daromadlarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tahlili tartibini ko'rsatib beradilar.
<i>O'qitish usullari</i>	Muammoli seminar, diskussiya, blits-savol, taqdimot.
<i>O'qitish vositalari</i>	Tarqatma material, A32 qog'oz varag'i, skotch, materiallari va doska.
<i>O'qitish shakli</i>	Individual va guruxda ishlash usuli.
<i>O'qitish sharti va sharoitlari</i>	Guruhda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya.

O'zbekiston Respublikasi suveren davlat sifatida qaror topgan paytdan boshlab mustaqil ichki va tashqi siyosat olib bormoqda va xalqaro darajada teng huquqli sub'ekt sifatida ish ko'rmogda. Mintaqaviy va jahon darajasida qarorlarni ishlab chiqishda uning nuqtai-nazari tobora ko'proq hisobga olinmogda.

Respublikamizda olib borilayotgan samarali ichki va tashqi siyosat, uning jahon hamjamiyatida o'zining mavqeini, davlatlararo munosabatlar yo'nalishlarida o'zaro foydali hamkorlik qilishida muhim ahamiyat kasb etmogda.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati ichki siyosat bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqadordir. Mustaqil tashqi siyosat olib borish, ko'plab davlatlar bilan har tomonlama hamkorlik qilish, tashqi siyosatning xalqaro darajada tan olingan printsiplari va asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish ichki siyosatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, respublikadagi ilg'or qayta o'zgartirishlarga, bozor munosabatlari rivojlanishiga, demokratik muassasalar mustaxhamlashishiga ko'maklashadi.

Mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin O'zbekiston oldida birinchi marta uning ichki va tashqi siyosatining ajralmas qismi bo'lgan o'z bojxona siyosatini mustaqil ishlab chiqish va olib borish imkoniyati vujudga keldi. O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksining 1-moddasida qayd etilishiga ko'ra «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi hisoblanuvchi yagona bojxona siyosati amalga oshiriladi».

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona siyosatining asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida samarali bojxona nazoratini hamda tovarlar ayirboshlashni tartibga solishni ta'minlashdan, iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantirishdan, ichki bozorni himoyalashdan iboratdir.

Bojxona siyosatini ishlab chiqish vakolati Oliy Majlisga tegishlidir. Bu dunyo davlatchiligi amaliyotiga to'liq muvofiq keladi. Ushbu amaliyotga muvofiq, davlat siyosatini belgilash huquqi davlat hokimiyatining qonunchilik bazasida mustahkamlangan. Bojxona siyosatiga umumiy rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi.

Bojxona siyosati - bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni dinamik amalga oshirish maqsadida mamlakat ichida va tashqi iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirish va himoya qilishga qaratilgan bojxona siyosati sohasida qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish tusidaga chora-tadbirlar tizimidir.

Bu O'zbekiston bojxona siyosatining eng umumiy ta'rifidir. Ushbu ta'rifni aniqlashtirish uchun davlat ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi sifatida bojxona siyosatini ko'rib chiqamiz.

Bojxona siyosati bilan davlatning ichki va tashqi siyosati o'zaro bog'liqligi yaqqol ko'rinib turadi.

Birinchidan, bojxona siyosati davlat ichki iqtisodiy siyosatining tarkibiy elementi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida u yangi iqtisodiy ukld shakllanishining muhim omili, iqtisodiy hayotning bozor munosabatlariga monand ilg'or shakllarini barpo qilishning vositasi hisoblanadi. Bojxona siyosati boj tariflari yordamida na tariflarsiz boshqarish vositalaridan foydalanib, ichki iqtisodiy siyosatning quyidagi bir qancha asosiy vazifalarini hal etishga qaratiladi:

- milliy iqtisodiyotning har tomonlama rivojlanishini rag'atlantirish;
- ichki bozorni himoya qilish;
- tarkibiy qayta o'zgartirishlar amalga oshirilishiga ko'maklashish;

– byudjetning daromad qismini shakllantirish.

Bojxona vositalari - huquqiy, boj tariflari, tashkiliy, bojxona nazorati va boshqa vositalarning ahamiyatini pasaytirib ko'rsatish va ularga bo'lgan e'tiborni susaytirish mamlakat iqtisodiy manfaatlariga jiddiy zarar etkazishi va siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlar yo'lidagi harakatga to'sqinlik qilishi mumkin.

Ikkinchidan, bojxona siyosati ichki siyosatning tarkibiy qismi sifatida o'z xususiyatiga ko'ra davlat manfaatlarini, korxonalar, tadbirkorlar, fuqarolarning huquqlarini himoya qiluvchi huquqni muhofaza qilish organi hisoblanadi. U ichki bozorga tashqaridan buzg'unchi unsurlar kirib kelishidan himoya qilishga da'vat etilgandir.

Bojxona siyosatining huquqiy mudofaza qiluvchi funktsiyasi bojxona nazorati vositalaridan samarali foydalanishga asoslanadi. Bunday vositalarga quyidagilar kiradi:

– bojxona nazorati maqsadida bojxona nazorati zonalarini tashkil etish, bojxona nazoratiga ko'maklashish va uni amalga oshirish uchun mutaxassislar va ekspertlarni jalb qilish;

– bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarning tekshirilishi;

– tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirish, shaxsiy buyumlarni ko'zdan kechirish, hisob-kitob tizimini tekshirish, vaqtincha yuk saqlanadigan omborlar va joylar hududini, bojxona omborlarini ko'zdan kechirish;

– bojxona nazoratining tanlab tekshirish printsiptini qo'llash, g'ayriqonuniy zarar etkazilishiga yul qo'ymaslik.

Uchinchidan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona siyosati O'zbekiston tashqi siyosatining ajralmas qismi sifatida davlatimizning tashqi iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash va amalga oshirish maqsadlariga xizmat qiladi, uning tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishning asosiy vositalaridan biridir.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida samarali bojxona siyosati milliy iqtisodiyotni jahon bozori kon'yunkturasiining keskin o'zgarishlaridan himoya qilishga, uning jahon xo'jaligiga qo'shilishiga faol ko'maklashishga da'vat etilgandir. O'zbekistonning bojxona ishi sohasida hamkorlikda qatnashishi ushbu yo'nalishdagi juda muhim qadam hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona siyosati jahondagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodii shart-sharoitlar nisbatan tez o'zgarayotganligini hisobga olib, dinamik, harakatchan, moslashuvchan bo'lishga, ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi jahon xo'jaligiga qo'shilayotgan bir sharoitda gap iqtisodiy suverenitet, vatan iqtisodiyotini rag'batlantirish, mamlakatning tub manfaatlariga rioya qilish to'g'risida borar ekan, etarlicha barqaror bo'lishga da'vat etilgandir. Bunga bojxona siyosati o'z rivojlanishining umumiy asoslangan kontseppiyasiga tayangandagina erishish mumkin.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona siyosati tamoyili uch elementga asoslanadi.

1. Iqtisodiyotdagi ahvolni tahlil qilish. Oqilona bojxona siyosati ana shundan boshlanadi. Tahlil makrodarajada - mamlakat iqtisodiyotining ahvoli, uning byudjetga, to'lov balansi va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni o'rganish, aniq, bozorlar darajasida esa, talab va taklif nisbatini, milliy va xorijiy taklifni, tovarlarning sifat tavsifini, raqobatni va jazolarni o'rganish asosida amalga oshiriladi. Tahlil davomida hal etilmagan muammolar aniqlanadi, ularni hal etish, salbiy hodisalarni bartaraf etish yoki bartaraf etmaslikning muqobil oqibatlari baholanadi.

2. Maqsadlarni tahlil qilish. U barcha imkoniyatlarni aniqlashdan, ya'ni maqsadlarni umumlashtirishdan boshlanadi, so'ngra har bir maqsadning xususiyati aniqlanadi. Ushbu maqsadlar dastlabki, bevosita yoki pirovard, miqdorli yoki sifatli, qisqa muddatli yoki o'rta muddatli maqsadlar bo'linadi. Ayrim maqsadlarga bir vaqtning o'zida turlicha tavsiflar berilishi mumkin. Bunday holda zamonaviy vaziyatdan kelib chiqqan holda ularning asosiylarini ko'rsatish zarur. Maqsadlar shuningdek ularning iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish ko'lamlari va xarajatlarning miqdor ko'rsatkichlari, institutsional, moliyaviy va kadrlar ta'minoti, imkoniyatlari bo'yicha ham farqlanadi. So'ngra maqsadlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar aniqlanadi, ular uyg'un, betaraf yoki nizoli bo'lishi mumkin.

3. Bojxona orqali tartibga solish vositalari qo'llanishini tahlil qilish. Bojxona siyosati kontseptsiyasini ishlab chiqishda ayrim tartibga soluvchi vositalar qo'llanilishi shartlarini, ayrim vositalarning birgalikda qo'llanilishi darajasini, ularning maqsadga muvofiqligini, ularni qo'llashdan ko'riladigan qo'shimcha samaralarni, tartibga solish vositalari samara-dorligini va ularni zarurligining etarlicha asoslanganligini aniqlash muhimdir.

Bojxona orqali tartibga solishda bir-birini to'ldiruvchi, biroq, turlicha asosga ega bo'lgan vositalar guruhidan - ma'muriy va iqtisodiy vositalardan foydalaniladi. Ma'muriy vositalar hukumat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga asoslanadi, ular moliyaviy rag'batlantirish chora-tadbirlari, moddiy manfaatdorlik yoki tartibga soluvchi organlarning jazo jarimalari bilan bog'liq bo'lmaydi, ya'ni ular tovarlar va sarmoya aylanishining iqtisodiy shart-sharoitlarini emas, balki ular harakatining tashqi imkoniyatini belgilaydi.

Tartibga solishning klassik ma'muriy vositalari uch turga bo'linadi: taqiqlash, ruxsat berish va majburlash. Masalan, davlat organlari u yoki bu tovar (qurol-yarog', alkogol, dori-darmonlar) importini ta'qiqlashi, tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarini bojxona nazoratidan o'tishga majbur qilishi mumkin va boshqalar. Ta'qiqlash, ruxsat berish va majbur qilish litsenziya berilishi yoki uni berish rad etilishi, qonunlar va qonunlar asosida hujjatlar qabul qilinishi orqali amalga oshiriladi.

Tartibga solishning tarifsiz usullari ma'muriy usullar hisoblanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- tashqi iqtisodiy bitimlarni litsenziyalash va kvotalash;
- tovarlar mamlakat hududiga olib kirish yoki chiqishga doir bo'lgan cheklashlar;
- tovarni sertifikatlash;
- import uchun to'lovlar rejimida mustahkamlangan cheklashlar;
- milliy tarkibiy, texnik va sanitariya talablari oqibati hisoblangan cheklashlar;
- davlatning import operatsiyalarida qatnashishi bilan bog'liq cheklashlar va boshqalar.

Bojxona orqali tartibga solishning iqtisodiy vositalariga eng avvalo boj tarifi hamda eksport va import tovarlariga soliq solish tegishlidir. Ular bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida markaziy o'rinda turadi.

O'zbekiston qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan yangi bojxona tarifi xalqaro normalarga to'liq javob beradi va xalqaro Konventsiya tomonidan joriy etilgan tovarlarni ta'riflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimiga asoslanadi. Ushbu hujjatning qo'llanishi O'zbekistonning xalqaro savdo tizimida to'la huquq bilan qatnashishi uchun shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Bojxona orqali tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalari bojxona ittifoqlari va bojxona konventsiyalarida qatnashish, erkin savdo zonalari tashkil etish, bojxona

nazoratining davlat organlari tarmog'ini barpo etish, bojxona faoliyatining zarur qonunchilik normalarini qabul qilish orqali amalga oshiriladi.

Bojxona siyosati kontsepsiyasi ishlab chiqilishi bojxona orqali tartibga solishning real amaliyotidan oldinda borishi kerak, ya'ni u aniq maqsadlar qo'yilishi va ular amalga oshirilishigacha iqtisodiyotdagi ahvol o'zgartirishini anglangan zaruriyati sifatida shakllantirilishi kerak. Agar kontsepsiya davlat boshqaruv apparatining iqtisodiy-siyosiy eksperimentlari jarayonida shakllansa bojxona siyosatidan orqada qolishi ham mumkin.

Ko'plab mamlakatlarning tadbirkorlari o'z milliy bozorlariga xorijiy raqobatchilarni kiritmaslik maqsadida turli chora-tadbirlarni qo'llaydilar. Ularning ko'zlagan manfaati xorijiy raqobat bo'lishiga imkon bermaydi, ishlab chiqarishni doimiy ravishda yangilashga, chiqimlarni pasaytirishga, tovarlar va xizmatlar sifatini oshirishga majbur qiladi.

Iste'molchilarni esa ko'proq yaxshi va arzon mollarga ega bo'lish qiziqtiradi, tovarning kelib chiqishi va uni kim ishlab chiqarishi ular uchun u qadar muhim emas.

Ushbu vaziyat jahonning ko'plab mamlakatlarida iqtisodiy va siyosiy ixtirolarning doimiy manbai hisoblanadi. Hukumat o'z iqtisodiy siyosatini shunday ishlab chiqishi kerakki, mamlakat bozorlarida import tovarlari paydo bo'lishidan ushbu mamlakat yutib chiqishi kerak.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida davlat tovarlar olib kirilishi (olib chiqilishi)ni cheklashi yoki aksincha ragbatlantirishiga bog'liq ravishda iqtisodiy va bojxona siyosatining to'rtta asosiy turi farqdanadi.

1. Qisman cheklashlar siyosati ichki bozorga tovarlarning muayyan turlari, masalan, mamlakat mafkurasi va aholining turmush tarziga zid bo'lgan kino va video mahsulotlari, bosma nashrlar kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida o'tkaziladi.

2. Proteksionizm siyosati ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoya qilish. Odatda, u eksport ishlab chiqarishni u yoki bu darajada importning o'rnini bosishni rag'batlantirish bilan birga qo'shib olib boriladi. Basharti, milliy ishlab chiqarish raqobatga bardoshli bo'lmasa, tadbirkorlik tuzilmalarining qistovi bilam davlat tomonidan qabul qilinadi. Proteksionizm – milliy tovar ishlab chiqaruvchilariga alohida imtiyozli sharoitlar yaratib berishdir, bu esa milliy iqtisodiyotda turlicha oqibatlar olib kelishi mumkin.

Bir tomondan, importning cheklanishi iste'molchilarga va umuman mamlakatga zarar etkazadi, chunki xalqaro mehnat taqsimoti afzalliklaridan foydalanilmaydi. Yuqori bojlar solinishi orqali milliy ishlab chiqaruvchilarga vujudga keltiriladigan imtiyozli shartlar texnologik jihatdan eskirgan ishlab chiqarish konservatsiya qilinishiga olib kelishi mumkin (monopoliya samarasi).

Ikkinchi tomondan, xorijiy raqobatchilarga qarshi proteksionistik choralar ko'rilishida mahalliy tadbirkorlarni himoya qilish milliy kompaniyalar va firmalar shakllanishi paytida juda zarurdir. Bu xo'jalik yuritishning yangi shakllariga o'zini saqlab qolish, kuch to'plash imkonini beradi.

Misol uchun, yapon avtomobilsozligining shiddatli muvaffaqiyati ko'p jihatdan hukumat hozir mashhur bo'lgan «Mazda», «Nissan», «Toyota» firmalari qaror topishi sharoitida o'tkazgan proteksionizm siyosati bilan izohlanadi. 1932 yilda hukumat hali uncha o'zini tutib olmagan avtokompaniyalarni avtomobil industriyasining amerikalik gigantlardan himoya qilish uchun xorijiy mashinalar va extiyot qismlar importiga doir bojlarni keskin oshirdi. Bu mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlari bilan uning fuqarolari ayrim guruhlarini manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatga klassik misol bo'la oladi.

Agar xalqaro savdodan va xalqaro mehnat taqsimotida qatnashishdan bugun mamlakat deyarli hamma vaqt yutib chiqsa, uning fuqarolarining ayrim guruhlar bundan zarar ko'rish mumkin va ular «milliy iqtisodiyot»ni himoya qilishni talab qiladilar.

Mazkur muammo, agar arzon va sifatli xorijiy mahsulotga eshik ochib qo'yiladigan bo'lsa, ko'plab tarmoqlar ichki bozorda import tovarlar bilan raqobatlasha olmaydigan MDHda juda keskin bo'lib turibdi. Bunda ko'plab korxonalar sinadi va yopiladi, ularda ishlaganlar esa yashash uchun boshqa imkon qidirishadi. Masalan, 1992 yildayoq Estoniyadan import qilingan go'sht Rossiyaning mahalliy fermalari mahsulotidan arzon bo'lgan vaziyat vujudga keldi (ayniqsa Estoniyaga qo'shni bo'lgan Pskov viloyatidagilar uchun). Rossiya shaharlari aholisi uchun import go'shti iste'mol qilish foydali bo'lgan bo'lur edi, biroq u holda Rossiya chorvachiligi o'z tovari sotiladigan bozordan mahrum bo'lardi va o'z xarajatlarini tezlikda pasaytirish imkoniga ega bo'lmaganligi sababli xonavayron bo'lardi. Shunga o'xshash vaziyat engil va oziq-ovqat sanoati, maishiy elektrotexnika va boshqa tarmoqlar uchun ham realdir. MDH bozori davlat tomonidan tartibga solish, eng avvalo bojlar (tariflar) bilan tartibga solish chora-tadbirlari yordamida import tovarlari keng kirib kelishidan uzoq vaqt qo'riqlanishi ehtimoli mavjud.

Proteksionizm siyosati rivojlanayotgan mamlakatlarda ayniqsa keng qo'llaniladi. Undan tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirishda, importning o'rnini bosish maqsadida milliy sanoatni qo'llab-quvvatlashda foydalaniladi.

3. Erkin savdo siyosati («fritrederlik») - tashqi savdoda cheklashlarni eng oz darajada kamaytirish. Odatda, u bozorda etakchi mavqega ega bo'lgan, o'z tovarlarining raqobatga bardoshlilikidan xavotirda bo'lmagan mamlakatlar tomonidan o'tkaziladi.

Bojxona siyosati ko'p darajada olib kirilayotgan mahsulot ichki ishlab chiqarish bilan raqobatlasha olmaydigan yoki muhim tarmoqlar uchun xom ashyo hisoblangan mamlakatlarda ham erkin savdoga yunaltirilgan bo'ladi. Agar import ichki ishlab chiqarish bilan raqobatga kirishmasa, mamlakatning siyosiy kuchlari u xaridorga imkoni boricha arzonroq etib borishi haqidagi fikrga kelishadi. Hech bir narsani himoya qilishning hojati bo'lmaganda proteksionizm o'zini oqlamaydi. Shunga o'xshash xorijiy ishlab chiqarish bilan raqobatlashayotgan tarmoqlarga nisbatan tarmoq uchun muhim xom ashyo hisoblangan tovar, garchi bundan istisnalar bo'lsa ham, odatda bojdand ozod qilinadi (yoki u juda oz bo'ladi).

4. Taqchil bozorni to'ldirish siyosati - «teskari proteksionizm». Ushbu siyosat milliy bozor nihoyatda taqchil bo'lgan taqdirdagina samarali bo'ladi.

Ushbu strategiya unsurlaridan 80-yillar oxiri 90-yillar boshlarida O'zbekistonda xorijiy tovarlarni jalb qilish maqsadida foydalanildi. Ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi eski, rejali aloqalarning barham topishi, yangi mustaqil davlatlarni tushkunlikka solib qo'ygan ishlab chiqarishning pasayishi deyarli barcha tovar bozorlarida taqchillikni keltirib chiqardi. Import bojlarining bekor qilinishi, imtiyozli kredit berish va boshqa choralar 1995 yil o'rtalariga kelib taqchillik muammosi kun tartibidan olib tashlanishiga ko'maklashdi.

Biron-bir siyosatni joriy etish shartlari, ular barcha tovarlar va bozorlar bo'yicha o'tkazilsa, qattiq bulishi mumkin. Agar bu ayrim tovarlar va bozorlar bo'yicha o'tkazilsa, shart-sharoitlar yumshoq bo'lishi mumkin.

Yumshoqlik ko'pchilik davlatlarga o'z faoliyatida bir qancha tashqi iqtisodiy strategiyalarni birga qo'shib olib borish imkonini beradi, Masalan, umumiy bozor mamlakatlari bir-birlari bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosida proteksionizmni

ma'qul ko'rishadi, ayni vaqtda boshqa ko'pchilik davlatlarga nisbatan erkin savdo strategiyasi tanlangan. AQSh ko'plab tovarlar bo'yicha Yaponiyaga nisbatan erkin savdo printsiplarini qo'llaydi, biroq bu mamlakatlar o'rtasida avtomobilsozlikda o'zaro protekcionizm mavjuddir, u ko'pincha «savdo urushlari»ga olib keladi.

«Savdo urushi» - xalqaro savdo yo'llaridagi eng oxirgi cheklovdir. U o'zida ikki mamlakat hukumatlari tomonidan ularning ichki bozorlariga bir-birlarining tovarlari kirib kelishini o'zaro cheklash choralari qabul qilinishini ifodalaydi.

Masalan, 1992 yil sentyabr oyida AQSh va Xitoy mana shunday urush yoqasiga kelib qoldi. XXRning AQShdan import qilinadigan tovarlar yuliga to'g'ridan-to'g'ri taqiqlar, kvotalar, litsenziyalar, sifat standartlariga rioya qilishga nisbatan oshirilgan talablar ko'rinishida belgalanadigan to'siqlarni olib tashlashni rad etishi bunga sabab bo'ldi. Agar xitoyliklar AQSh bilan savdoda sezilarli ustunlikka erishmagan bo'lganlarida Xitoy ma'murlarining bunday hatti-harakatiga munosabat bunchalik keskin bo'lmasligi mumkin edi. 1991 yilda Xitoy tomoni AQShga o'zlari sotib olganga nisbatan 12,7 mlrd. dollarlik ko'p tovar sotgan. Aynan mana shu holat AQSh hukumatining rasmiy vakillaridan birini quyidagicha bayonot berishga majbur qildi: «Xitoy xalqaro savdo tizimida tezlik bilan eng muhim mamlakatga aylanmoqda. Biz bunday savdo darajasiga ega bo'lgan mamlakatga o'z qoidalari bilan o'ynash imkonini bera olmaymiz. Agar ular eksportdan foyda olishmoqchi bo'lsa, importga ham ruxsat berishlari kerak».

Ushbu nuqtai nazarga muvofiq, AQSh Xitoyga ushbu mamlakatdan import qilinadigan tovarlarning keng doirasiga (yiliga salkam 4 milliard dollarlik) olgunchalik yuqori bojlar belgilash niyatini e'lon qildi. Bunga ko'ra, Xitoy tovarlarining narxлари Amerika bozorida ikki baravar oshishi kerak edi. Bunga javoban xitoylik ma'murlar bunday holatda ular ham Amerika tovarlariga, shu jumladan, kompyuterlar, samolyotlar, avtomashinalar va boshqalarga ana shu miqdorda, ya'ni 4 mlrd. dollarlik jazo tariqasidagi boj tariflari joriy etishlari haqida bayonot berishdi.

«Savdo urushlari»ning uzoq yillik tajribasi eng rivojlangan mamlakatlarni bunda har ikkala tomon mag'lubiyatga uchrayajagi, yaxshisi «jangovor harakatlar» boshlanib ketishiga yo'l qo'ymaslik haqidagi fikrga olib keldi. Bu xalqaro savdoda eksportni ixtiyoriy cheklashni tug'dirdi.

AQSh va Yaponiya arzon yapon avtomobillari eksporti tufayli doimiy ravishda «savdo urushi» yoqasida turadi. AQSh iqtisodiyotida avtomobil sanoati an'anaviy ravishda alohida o'rin tutishini hisobga olganda buning atrofida hissiyotlar qanchalik qaynashini tasavvur qilish qiyin emas. Yapon avtomobilsozlari o'z mashinalarining AQShga sotilishi to'liq taqiqlanishi xavfining oldini olish uchun o'z mahsulotining Amerikaga eksport qilinishiga cheklash joriy qilishga rozi bo'lishdi, Yaponiya hukumati esa Amerika tovarlari importiga cheklashni susaytirdi.

O'zbekiston Respublikasining o'z mustaqil bojxona siyosatini amalga oshirishi Bojxona kodeksining 1-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan.

Har qanday faoliyat unga aniq va to'g'ri rioya qilish istalgan natijalar berishi mumkin bo'lgan priptsiplarga, ya'ni ushbu faoliyat oldiga oldindan qo'yilgan maqsadlarga asoslanadi. Maqsadlarning o'zi esa, o'z navbatida, vazifalarda aniqlashtiriladi. Bu vazifalar bojxona siyosatining turli-tuman vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Bojxona siyosati muayyan maqsadlar, printsiplar va vazifalarni o'z ichiga oluvchi kontseptsiyaga asoslanadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona siyosatining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- milliy iqtisodiyotning tarkibiy qayta qurilishiga ko'maklashish;
- mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi;
- bozorning mavjud bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- mamlakatning savdo va to'lov balansini mustahkamlash;
- davlat byudjeti daromadlarining o'sishi;
- davlatning savdo siyosiy negizlari mustahkamlanishi;
- xorijiy davlatlar va ular ittifoqlarining kamsituvchi hatgi-harakatlariga qarshilik ko'rsatish;
- korxonalar, tashkilotlar va tadbirkorlarning tashqi bozorga chiqishini ta'minlash.

Ushbu vazifalarning ayrimlarini, eng avvalo, bojxona siyosatining iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishni rag'batlantirishga yo'naltirilganligini ko'rib chiqamiz.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarkibiy qayta qurish raqobat ta'siri ostida yuz berayotgan sarmoya va ishchi kuchining tarmoqlararo oqimi asosida amalga oshiriladi. Ko'rgazmali bo'lishi uchun birmuncha sxematik bo'lgan, biroq bozor rag'batlari ta'siri ostida namoyon bo'luvchi tarkibiy qayta qurish jarayonini aniq aks ettiruvchi misolni ko'rib chiqamiz.

Aytaylik, qaysidir milliy iqtisodiyotda ikki tarmoq: foyda normasi 8 foizni tashkil etuvchi **A** tarmog'i va foyda normasi 16 foiz bulgan **B** tarmog'i mavjud. **A** tarmog'i **B** tarmog'iga qaraganda kam rentabelli, chunki unda ishlab chiqarish chiqitlari yuqori. Mamlakatning ichki bozoriga o'z tovarlari bilan kirib keluvchi xorijiy raqobatchilarda esa ishlab chiqarish chiqimlari **A** tarmoqqa nisbatan past va tegishli foyda normasi, deylik, 16 foizdir. Xorijiy raqobatga dosh berolmagan **A** tarmog'i protektsionistik chora-tadbirlar belgilanishi maqsadida davlatga ta'sir ko'rsatishi tushunarli.

Ushbu vaziyatga davlat ta'sirining ikkita mumkin bo'lgan variantini ko'rib chiqamiz.

Birinchi variant - bojxona himoyasi mavjud emas, savdoning mutlaq erkinligi rejimi amal qiladi. Istalgan investitsiya echimi foyda normasining eng yuqori bo'lishidan kelib chiqadi. **B** tarmog'i kapital qo'yilmalari uchun jozibaliroq bo'ladi. **A** tarmog'ida reinvestitsiya faoliyati sekinlashadi, ayni vaqtda **B** tarmog'i o'ziga sarmoyani jalb qila boshlaydi.

Sarmoyaning oqishidan keyin ish kuchining **A** tarmoqdan **B** tarmoqga ko'chishi yuz beradi. Erkin savdo sharoitlarida ishlab chiqarish resurslaridan samaraliroq foydalaniladi. Mana shu narsa bozor sharoitlarida milliy iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish hisoblanadi.

A tarmoq qayta qurila olmas ekan, unda bitta yo'l qoladi, ya'ni davlatdan importga bojxona cheklovlari joriy etilishini so'rash. Bu ikkinchi variant - bojxona himoyasi rejimi bo'ladi. Bunday rejim sharoitida savdo erkinligi birmuncha cheklanadi. Bojxona to'lovlari, kvotalar va bojxona siyosatining boshqa vositalari yordamida import tovar narxi sun'iy ravishda oshiriladi. Bu esa **A** tarmog'iga, o'z navbatida mahsulotga narxlarni oshirish imkonini beradi. Natijada uning rentabelligi, aytaylik, 8 punktga oshadi, bu esa summada 16 foizni tashkil etadi. Bir xil rentabellik sarmoya va ish kuchining tarmoqlararo ko'chishi to'xtatilishini anglatadi. Shakllangan iqtisodiy tuzilmaning o'ziga xos konservatsiyasi yuz beradi. Birmuncha ilg'or **B** tarmog'ining rivojlanishiga kenglik berish o'rniga davlat qoloq **A** tarmog'ini sun'iy ravishda qo'llab-quvvatlaydi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojning ishlab chiqarish tuzilmasiga ta'sirining keltirilgan nazariy modeli bozor munosabatlari sharoitlarida tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish foydasiga yana bir dalildir. Biroq amaliyotda hammasi bunday onson emas. Erkin savdoning o'zaro foydaliligiga qaramay, xalqaro ayirboshlashni erkinlashtiril-gandan ko'rilgan ijobiy samara hamkorlar o'rtasida vaqt jihatidan noteng taqsimlanadi. Dastlab bunday samarani kuchli tomon, so'ngra kuchsiz tomon oladi. Ushbu vaqtinchaliklar quyidagi holatlar natijasi hisoblanadi. Kuchli iqtisodiyotda tuzilma, odatda, ko'p darajada xalqaro mehnat taqsimoti talablariga muvofiq keladi, kuchsiz iqtisodiyotda, tabiiyki kam darajada muvofiq keladi. Mana shuning uchun ham kuchli iqtisodiyot ichki bozor himoyasi susaytirilishidan darhol foyda oladi. Kuchsiz iqtisodiyot esa qayta qurishning muayyan davrini bosib o'tishi kerak, sarmoya va ishchi kuchining tarmoqlararo ko'chishi faollashishini, tarmoq shuningdek investitsiyalarni takror ishlab chiqarish va texnologik tuzilmalari maqbullashishini kutishi lozim, bu narsa so'zsiz ijtimoiy muammolar keskinlashishi bilan birgalikda yuz beradi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida, odatda, milliy ishlab chiqaruvchilarning xorijiy ishlab chiqaruvchilar bilan teng huquqli raqobati uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lmaydi. Erkin bozor kuchlarining harakati mahsulot importi bilan raqobatlashuvchi milliy ishlab chiqaruvchilarning xonavayron bo'lishiga olib keladi hamda ish bilan ta'minlanishni pasaytiradi, mahsulotni pirovard qayta ishlovchi tarmoqlarni emiradi va bu bilan iqtisodiyotning xom ashyoviy yunaltirilganligini konservatsiyalaydi. Bu tarkibiy qayta qurish jarayonlarini bojxona siyosati vositalari bilan davlat tomonidan tartibga solishni taqozo etadi.

Proteksionistik chora-tadbirlar milliy sanoatning mustahkamlanishiga ko'maklashadi. Amaliyotning ko'rsatishicha mamlakatlarda proteksionistik chora-tadbirlarning vaqtincha joriy etilishi o'zini oqlashini ko'rsatadi, chunki ular tug'ilib kelayotgan o'z industriyasi tajriba to'playotgan va ishlab chiqarish chiqimlari tarifga tayanmasdan import mahsulot raqobatiga qarshi turish imkonini beruvchi darajagacha pasaygan paytda ushbu vaqt mobaynida zamonaviy sanoat mahsulotlari importini jilovlab turadi.

Jahonning yangi rivojlangan ko'pchilik mamlakatlari industrilashtirishni proteksionizmdan boshlashdi va erkin savdoga asta sekin o'tishdi. Ushbu yo'lda ular aralash savdo rejimlariga ega bo'lishdi, ya'ni eksport qiluvchilarni eksport subsidiyalari orqali rag'batlantirish, maqsadli kreditlar, shuningdek ishlab chiqarish asbob-uskunalari va yarim tayyor mahsulotlar importining soliqlardan ozod qilinishi. Ayni bir vaqtda ular tayyor sanoat tovarlari importiga 30-70 foiz tariflar belgilashdi.

Ushbu mamlakatlar hukumatlari, shuningdek rivojlaiishni jadallashtirishga maqsadli va subsidiyalik kreditlarni tanlangan tarmoqlarga berish, foydaning o'sishi va ishlab chiqaruvchi sarmoya samarasi maqsadlarida depozitlar va kreditlar buyicha nisbatan past foiz stavkalari belgilash, importning o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni himoya qilish, amaliy tadqiqotlarga davlat investitsiyalari, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar va korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ularga alohida ustunlik berish, tashqi bozorlarni o'rganish bo'yicha tashkilotlarni rivojlantirish va eksport tovarlarni oldinga siljitish orqali muntazam ravishda aralashib turishdi. Tanlangan tovarlar bo'yicha eksport bozorlarini egallash strategiyasi sarmoyaning va ko'nikmalarning yuqori sur'atlarda jamlanishi, rissurslardan samarali foydalanish hamda mehnat unumdorligining o'sishi bilan birga qo'shib olib borildi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish va yangi tarmoqlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlash zaruriyatidan tashqari, o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda importga doir boj tariflarini tartibga solish vositalaridan foydalanilishi maqsadga muvofiq keladigan bir qancha sabablar mavjuddir. Ulardan biri - byudjetni to'ldirish bo'yicha bojxona siyosati oldida turgan vazifadir. Davlat byudjeti daromadi manbai sifatida tarif himoyasidan foydalanish foyda keltirishi va hatto iqtisodiy siyosatning boshqa vositalariga nisbatan samaraliroq vosita bo'lishi mumkin. Aholining turmush darajasi past bo'lgan yosh, mustaqil davlat uchun hukumatning ijtimoiy ehtiyojlarni soliqlar yig'ish hisobiga ta'minlashga qodir emasligi asosiy muammo bo'lishi mumkin. Mavritaniya kabi kambag'al mamlakat, agar yuqumli kasalliklar, qishlok xo'jalik erlarining melioratsiyasi, boshlang'ich ta'limni rivojlantirish, milliy mudofani mustahkamlash ustidan nazorat kabi xizmatlar hajmini ko'paytirish imkoniga ega bo'lsa, ko'prok ijtimoiy afzalliklarga ega bo'ladi. Ayni vaqtda, o'tish iqtisodiyotidagi ko'pchilik mamlakatlarning ma'muriy resurslari daromad soliqlarini samarali yig'ishini ta'minlash uchun etarlicha emas, ularda umumiy soliq madaniyati past.

Ushbu mamlakatlarda amal qiluvchi soliq tizimi samaradorligi, modomiki ishlab chiqarish, iste'mol, daromad va mulkni ishonchli belgilash va nazorat qilish imkoniyati hali yo'q ekan, ta'minlanishi mumkin emas.

Bunday hollarda import bojlari milliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qilish usuligina emas, balki davlat daromadlarining g'oyatda muhim manbaiga ham aylanadi. Shu sababli ko'p jihatdan milliy daromad darajasi past bo'lgan mamlakatlar davlat byudjetining 1/4 dan 3/5 gacha qismi bojlar hisobiga ta'minlanadi. Davlat daromadlari boj tizimiga bog'liqligining ushbu ulushi rivojlangan mamlakatlar uchun xuddi shunday ko'rsatkichdan ustundir. Garchi, yosh davlatlarning iqtisodiy siyosati amalda bayon qilingan qonuniyatdan farqlansa ham, fakt faktligicha qoladi. Ushbu mamlakatlarda tarif iqtisodiy siyosatning muqobil tadbirlariga qaraganda katta ijtimoiy afzalliklarni ta'minlashga qodirdir.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida yangi bojlar joriy etishning ehtimol tutilgan oqibatlariga baho berilar ekan, import qiymatining qisqarishi eksport qiymatining xuddi shu taxlit qisqarishiga olib kelishini hisobga olish zarurdir.

Eksport uchun ishlab chiqarishda import qilinadigan xom ashyo, materiallar, ehtiyot qismlar va boshqalardan foydalaniladi. Import tovarlariga va ularning o'rni bosuvchi mahalliy tovarlarga narxlar o'sishiga olib keluvchi savdo to'siqlari eksport tovarlarining ishlab chiqarish chiqimlarini oshiradi. Misol sifatida neft importiga kvotalar joriy etilishi natijasida (1959-1973 yy.) AQShga olib kelinadigan kimyoviy mahsulotlar narxining o'sishini, shuningdek po'lat import qilinishiga cheklashlar tufayli Amerika avtomobillari narxlari o'sishi tamoyilini keltirish mumkin. Binobarin, importni cheklash Amerika tovarlarining narxga raqobatbardoshligini muayyan darajada pasaytirishga va ularni jahon bozoridan siqib chiqarishga olib keladi.

Importga cheklashlar joriy etilganda qolgan mamlakatlar javob choralari ko'rishlari mumkin. Hukumatlar hamma joyda import tomonidan raqobatdan himoyalashni talab qiluvchi ayrim tarmoqlarning bosimiga duch keladi. Agar O'zbekiston avtomobillar importiga qattiq cheklashlar joriy etar ekan, boshqa mamlakatlar hukumatlariga proteksionistik talablarga, ayniqsa respublikadan avtomobillarni eksport qilishga nisbatan, qarshi turish qiyinroq bo'lar edi. Javob choralari O'zbekistondan eksportning yanada qisqarishiga olib kelur edi.

O'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda importga nisbatan cheklash siyosati uchun va unga qarshi keltirilgan dalillar o'z-o'zidan nazariy shart-sharoitlarga asoslanadi va aniq miqdoriy baho bermaydi. Aniq bir mamlakat uchun amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida maxsus iqtisodiy tadqiqotlar zarurdir, ular asosida o'ziga xos shart-sharoitlarni va mazkur milliy xo'jalik rivojlanishi maqsadlarini hisobga oluvchi bojxona siyosatini ko'rish mumkin.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida, har qanday holatda bojxona siyosatining bir kontseptsiyasidan boshqasiga o'tish asta-sekin amalga oshirilishi kerak. Bojlar bilan himoyalangan tarmoqlarda firmalar ular pasaytirilishi to'g'risida oldindan ogohlantirilsa, u holda kapital qo'yilmalar va ish o'rinlarining qisqarishi xonavayronlikka olib kelmaydi. Asosiy sarmoyaning tabiiy eskirishi, odatdagi (bir tomonlama) kadrlar qo'nimsizligi o'z-o'zidan xorijiy raqobat ta'siri ostida ishlab chiqarishning qisqarishiga olib kelishi mumkin. Boshqa so'z bilan aytganda, asta-sekinlik barcha tarkibiy chiqimlarni yo'qqa chiqarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi bojxona siyosatining printsiplari Jahon Bojxona Tashkiloti hujjatlarida qayd qilingan bojxona siyosatining xalqaro tajribasiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekistonning tashqi va ichki siyosatining asosiy printsiplariga asoslanadi.

1. Xalqaro huquq normalarining ichki davlat normalariga qaraganda ustunligini tan olish printsipti. Bunda bojxona qonun hujjatlarida xalqaro huquq normalarining ichki davlat normalariga qaraganda ustunligini tan olishidan iboratdir (O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksining 4-moddasining 3-qismi). O'zbekiston jahon hamjamiyatiga qo'shilar ekan, o'z qiyofasini yo'qotmaslikka intiladi, bunda xalqaro huquqiy normalar va standartlarga rioya qilishga tayyordir. O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkilotiga, Jahon Bojxona Tashkilotiga va boshqalarga a'zo bo'lib kirishi O'zbekiston xalqaro hamjamiyatning ajralmas qismiga aylanganligini, bojxona ishi sohasida muhim jahon muammolarini hal qilishda faol ishtirok etish uchun katta imkoniyatlar ochilganligini anglatadi.

2. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan bojxona siyosati yagonaligi printsipti. U joylarda turlicha bojxona siyosati o'tkazilishidan voz kechishni, O'zbekiston Respublikasining butun bojxona hududiga yagona bojxona siyosati tatbiq etilishini anglatadi.

3. Ikki tomonlama va ko'p tomonlama aloqalar o'rnatilishi va rivojlanishi printsipti. Ushbu printsipti O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi sohasida xalqaro hamkorlikda faol ishtirok etishga intilishi orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida bojxona ishi umumqabul qilingan xalqaro normalar va amaliyot bilan uyg'unlashish va birxillashish yo'nalishida rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik chuqurlashishi tarafdoridir.

4. O'z milliy davlat maifatlari yuqoriligi sharoitida o'zaro manfaatlar va savdo engilliklarini har tomonlama hisobga olish printsipti. Ayrim iqtisodiy muammolarni hal etish, mustaqil iqtisodiy siyosat o'tkazish va bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun chuqur islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotning barqarorlashuvi, rivojlanish sur'atlari muayyan darajada hozircha ijtimoiy-siyosiy vaziyatga va qo'shni mamlakatlardagi iqtisodiy vaziyatga bog'liqdir. Bojxona siyosati, agar u hamkor davlatlarning joriy manfaatlarini hisobga olsa, muayyan murosalariga borsa, o'z samaradorligini oshiradi. Biroq davlatlarning milliy xavfsizligi manfaatlarini shubha ostiga qo'yilishi kerak emas.

5. Kamsitmaslik printsiipi. Davlat o'z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida bojxona siyosati vositalari orqali ko'pincha u yoki bu milliy bozorda cheklash choralaridan foydalanadi. Ushbu choralar kamsitmaslik shaklida amalga oshirilishi kerak, ya'ni barcha qatnashuvchi davlatlarga nisbatan o'tkazilishi, ayrim mamlakatlarga nisbatan tanlab o'tkazilmasligi zarur.

6. Bir tomonlama xarakatlarning qabul qilinmasligi. Milliy bozorni himoya qilish bo'yicha qarorlar ko'p tomonlama maslahatlashuvlardan keyin qabul qilinishi kerak.

Demokratizm printsiipi. Bojxona siyosatini ishlab chiqishda va uni amalga oshirishda demokratizm printsiipi bojxona ishi sohasida fuqarolarning, xo'jalik sub'ektlarining huquqlari himoya qilinishi ta'minlanishini taqozo etadi. Bojxona organlari ularga yuklangan vazifalarni bajarishda jamoat tartibini himoya qilish buyicha chora-tadbirlar amalga oshirilishiga, aholining axloqiyligi, insonning hayoti va sog'lig'i, hayvonlar va o'simliklar muhofazasi, atrof va tabiiy muhit himoyasi, tashqaridan olib kiriladigan tovarlardan milliy iste'molchilarni himoya qilishga ko'maklashadi.

4-mavzu bo'yicha test variantlari:

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasini yuritish bu Davlat Bojxona Qo'mitasining..

- A)Huquqi
- B)Majburiyati
- @C)Vazifasi
- D)Printsiipi

2. Hozirgi vaqtda O'zbekiston qanday bojxona siyosatini olib boryapti?

- A)Qisman cheklash siyosati
- @B)Proteksionizm siyosati
- C)Erkin savdo siyosati
- D)Ichki savdo siyosati

3. Bojxona Xalqaro Konventsiyasining 4-5 moddalarida ...

A)Qo'mitani tashkil etish va uning funktsiyalari, vazifalari
@B)Rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan xalqaro konventsiyaning qo'llanilishi, ularga texnik ko'maklashish

- C)Kengash qo'mitasi tomonidan ishlab chikilgan tuzatishlar
- D)Konventsiyaga tuzatishlar kiritish tartibi to'g'risida

4. O'zida tasniflash va kodlashtirish tizimidan iborat puxta tizimni ...

- @A)Tovar momenklaturasi
- B)Tovar klassifikatsiyasi
- C)Tovar assortimenti
- D)Tovar sifati buyicha turlari

5. Bojxonada ishlab chiqarilgan tovarni aniklashning xukukiy asosi keltirilgan manbalari?

- A)Xalqaro Soliq Kodeksi
- B)Xalqaro Bojxona Kodeksi
- @C)«Boj tarifi to'g'risida»gi Qonuni
- D)«Ikki yoqlama soliqqa tortish to'g'risida»gi Qonuni

6. Xalqaro Bojxona konventsiyasi necha yil davomida ishlab chiqarilgan va necha moddadan iborat?

- A) 5 yil, 10 modda
- B) 8 yil, 16 modda
- @C) 10 yil, 20 modda
- D) 10 yil, 26 modda

7. Xalkaro Bojxona Konventsiyasiga tuzatishlar kiritish vakolatiga kaysi davlat yoki tashkilot ega?

- A) Xalqaro savdo tashkiloti
- B) AQSh
- C) Rivojlangan 7 ta davlat, ya'ni ettilik
- @D) BMT

8. Bojxona Kodeksiga binoan imtiyozlarning birinchi guruhiga kimlar kiradi?

- A) Investorlar
- B) Eksportyorlar
- @C) Xorijiy davlat diplomatik vakolatxonasi xodimlari
- D) Rezidentlar

9. Xorijiy shaxslarga imtiyozlar berish O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksining qaysi boblarida ko'rsatilgan?

- A) 11-12 boblar
- @B) 12-13 boblar
- C) 12 bob
- D) 13-14 boblar

10. Diplomatik agentlarga beriladigan boj imtiyozlari Bojxona Kodeksining nechan-chi moddasida berilgan?

- @A) 118-moddasida
- B) 120-moddasida
- C) 122-moddasida
- D) Bunday modda mavjud emas

4.1. Ma'ruzani o'qitish texnologiyasi (ma'ruza – 2 soat)

Talabalar soni: 40 ta		Vaqti - 2 soat
O'quv mashg'ulotining shakli		Ma'ruza-koferentsiya
Ma'ruza rejasi		1. Bojxona nazoratining umumiy qoidalari. 2. Tovarlarni bojxona nazorati ostida saqlash va realizatsiya qilish. 3. Tovarlarni va transport vositalarini bojxona nazorati ostida tashish. 4. Amalga oshirilishini nazorat qilish bojxona organlariga yuklatilgan faoliyat turlari bilan shug'ullanish xuquqini beruvchi ruxsatnomalar.
Mashg'ulotning maqsadi: Bojxona nazoratining tamoyillari va shakllari bo'yicha bilimga ega bo'lish.		
Pedagogik vazifa: • Bojxona nazoratining tamoyillari tartibini o'rgatish; • Bojxona nazoratini shakllari haqida tushuncha berish; • Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona nazoratining zarurligi haqida tushuncha berish;		O'quv faoliyatining natijasi: • Bojxona nazoratining tamoyillari tartibi haqida gapirib beradi. • Bojxona nazoratining shakllarini aytib beradi. • Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona nazoratining zarurligi haqida tartibini tushuntirib beradi.
O'qitish usullari va texnikasi		Ma'ruza-konferentsiya texnikasi: diskussiya usuli, bir-biridan o'rganish blits-so'rov
O'qitish vositasi		Doklad tizimi, o'quv daftarlari, ko'rgazma materiallari (doklad qiluvchi tomonidan slayd-prezentatsiya), lazerli proektor, axborot bilan ta'minlash.
O'qitishning shakli		Frontal, jamoa bo'lib ishlash
O'qitish shart-sharoitlari		Ma'ruza o'qish uchun kerakli texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Monitoring va baxolash		Kuzatish, og'zaki nazorat, o'quv topshiriqlari
Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotig'akirish (10 min.)	1.1. Ma'ruza-konferentsiyasini olib boruvchi bilan tanishtirib, o'quv faoliyatida rejalashtirilgan ishning maqsadi bilan tanishtiradi. 1.2. Ma'ruza-konferentsiyasini diskussiya shaklida olib borilishini e'lon qiladi va doklad mavzularini eslatib o'tadi (1-ilova) va	Eshitadi va yozib oladi.

	diskussiya o'tkazish tartibi bilan tanaishtirib, «Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari» jadvalini ekranga chiqazadi (2-ilova). Qatnashuvchilarni ish faoliyatini baholash uchun ekspert guruxini tashkillashtiradi.	
2-bosqich. Asosiy qism (60 min.)	2.1. Talabalarni tayyorgarlik doklidlari va xabarlar bilan chiqishlarini tashkil etadi. E'tibor bilan materiallar mazmunini ochib berilishi logikasini kuzatadi. Agar ko'rilayotgan materialni taxlil qilish kerak bo'lib qolsa, dokladchi talabani vaqtincha bir necha vaqtga to'xtatib, seminarini jamoa bilan xal qilishga o'tkazadi. - savollar beradi (3-ilova); - dokladni asosiy xolini aniqlaydi; - aytib o'tilgan fikr-muloxazalarga o'zining qiziqishini ko'rsatadi. Xar bir dokladning xal qilinishidan keyin, ularni umumlashtirgan xoldi yakun yasaydi.	2.1. Dokladchi dokladini o'qiydi. Taqrizchi dokladni ijobiy va salbiy tomonlarini belgilab boradi. Opponentlar o'z fikrlarini bayon etib, savollar berishadi. 2.2. Qatnashuvchilar diskussiya qilib umum jamoa bilan dokladni mazmunini xal qilishadi. Ekspertlar dokladchilarni, taqrizchilarni va opponentlarni baholashadi.
3-bosqich. Yakuniy qism (10 min.)	3.1. Olingan o'quv natijalarni umumlashtirib, yakun yasaydi va faol qatnashganlarni maqtab o'tadi. 3.2. Mustaqil tayyorlash uchun uyga vazifa beradi.	Talabalar eshitadi va yozib oladi.

Diskussiya qatnashuvchilarning baholash mezonlari va ko'rsatkichlari.

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (ballarda)	Ma'ruzchilar (F.I.Sh.)			
	1	2	3	4
1. Dokladning mazmuni (1,5):				
- mavzuga mos kelishligi (0,5);				
- ketma-ketligi, logikasi va tushuntirish-ning aniqligi (0,5);				
- natijalarni aniq shakllantirish (0,5).				
2. Ko'rsatiladigan axborot vositalaridan foydalanish-(0,4)				
3. Reglamentga rioya qilish (0,1)				
Jami:				
	Taqrizchilar (F.I.Sh)			
	1	2	3	4
1.Dokladga qo'shimcha qilish(0,5)				
2.Dokladni ijobiy-kuchli tomonlarini ko'rsata bilish(0,6)				
2.Dokladni salbiy-kuchsiz tomonlarini ko'rsata bilish(0,6)				
3. Reglamentga rioya qilish (0,3)				
Jami:				
	Opponent/diskussiyada qatnashuvchi (F.I.O)			
	1	2	3	4
1. Savollar:				
- soni (har biri uchun 0,1)				
- mazmunga yaqinligi (0,3)				
2. Qo'shimcha (1,0)				
Jami:				

Bojxona nazorati bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan quyidagi yo'llar bilan o'tkaziladi:

- bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish;
- jismoniy va mansabdor shaxslarni ogzaki so'rab-surishtirish;
- bojxona ko'rigidan o'tkazish;
- tovarlar, transport vositalari, binolar va boshqa joylarni bojxona tomonidan qiyoslash;
- tovarlar va transport vositalarini hisobga olish;
- bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar va transport vositalari turishi mumkin bo'lgan yoxud nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyat amalga oshirilayotgan hududlar, binolar va boshqa joylarni tekshirish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda. Bojxona nazorati o'tkazilayotganida inson, hayvonot va o'simliklar hayoti va sogligi uchun xavfsiz bo'lgan hamda tovarlar va transport vositalariga ziyon etkazmaydigan texnikaviy va boshqa vositalar qo'llanilishi mumkin.

Bojxona nazoratini o'tkazish qoidalari qonun hujjatlarida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan hamda shartli chiqarib yuborilgan tovarlar va transport vositalari bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozim.

Bojxona organlari erkin bojxona zonalari va erkin omborlarda turgan tovarlar ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bojxona nazoratini amalga oshirishga haqlidir.

Bojxona organlari bojxona hududidan bojxona organining ruxsatisiz chiqib ketgan transport vositalarini majburiy ravishda to'xtatish, dengiz, daryo va havo kemalarini majburiy ravishda orqaga qaytarishga haqlidir, chet el kemalari va boshqa davlatlarning hududida turgan kemalar bundan mustasno.

Bojxona nazorati: bojxona xududiga olib kirishda - tovarlar va transport vositalari bojxona chegarasini kesib o'tgan paytdan e'tiboran; bojxona xududidan tovarlar va transport vositalarini olib chiqishda - bojxona deklaratsiyasi qabul qilib olingan paytdan e'tiboran boshlanadi.

Bojxona nazorati, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlar va transport vositalari saqlangan bojxona rejimiga muvofiq chiqishga ruxsat berilgan paytdan e'tiboran yoxud ular bojxona chegarasini kesib o'tgan paytdan e'tiboran tugallanadi.

Bojxona nazorati zonalari bojxona chegaralari bo'ylab, bojxona rasmiylashtiruvchi joylarida, bojxona organlari joylashgan erlarda va bojxona organlari tomonidan belgilanadigan boshqa joylarda tuziladi.

Bojxona nazorati zonalarini tuzish va belgilash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Bojxona nazorati zonalarida ishlab chiqarish, tijorat faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshirishga, shuningdek ularning chegaralari orqali transport vositalari, tovarlar va shaxslarni olib o'tishga bojxona organlarining ruxsati bilan va nazorati ostida yo'l qo'yiladi.

Bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi yoki nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslar bu organlarga ro'yxati va taqdim etish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadigan hujjatlar va ma'lumotlarni topshiradilar.

Bojxona nazoratini amalga oshirish uchun bojxona organlari banklardan, boshqa moliya-kredit muassasalaridan va xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan eksport-import oper-

atsiyalari hamda nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyatning boshqa turlariga doir ma'lumotlarni olishga haqlidir.

Bojxona nazorati uchun zarur bo'lgan hujjatlar shaxslar tomonidan kamida uch yil saqlanishi lozim.

Tovarlar va transport vositalarini bojxona ko'rigidan o'tkazish tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tishning qonuniyligini aniqlash, ularni hisobga olish, boj, soliqlar, yigimlar olish, shuningdek olib kirish, olib chiqish va tranzit qilish taqiqlangan tovarlar bojxona chegarasi orqali o'tishining hamda bojxona hududi orqali tranzit tartibida o'tishining oldini olish uchun bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tovarlar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirish paytida hozir bo'lishga haqlidir, bojxona organlari mansabdor shaxslarining talabiga ko'ra esa tekshirish paytida hozir bo'lishlari va bojxona organlarining mansabdor shaxslariga zarur yordam ko'rsatishlari shart.

Tovarlar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega shaxs bo'lmagan taqdirda, transport vositasini boshqaruvchi shaxs bojxona maqsadlari uchun vakolatli shaxs deb hisoblanadi.

Tovarlar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar yo'qligida bojxona organlari quyidagi hollarda tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirishga haqli:

- ular tovarlar va transport vositalari taqdim etilganidan so'ng o'n kun o'tganidan keyin kelmagan bo'lsa;
- davlat xavfsizligi, jamoat tartibiga, inson hayoti va sogligiga, hayvonot va o'simliklar, atrof tabiiy muhitga, O'zbekiston Respublikasining badiiy, tarixiy va arxeologik boyliklari saqlanishiga xavf mavjud bo'lganda va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa holatlarda;
- tovarlar xalqaro pochta jo'natmalari orqali yuborilgan bo'lsa; tovarlar va transport vositalari ular joylashtirilgan bojxona rejimini buzgan holda bojxona hududida qoldirilgan bo'lsa.

Shaxsni ko'zdan kechirish bojxona chegarasi orqali o'tayotgan yoxud bojxona nazorati zonasida yoki xalqaro aloqa uchun ochiq aeroportning tranzit zonasida turgan jismoniy shaxs qonun hujjatlarini buzish ob'ektlari hisoblanuvchi tovarlarni o'z yonida yashiryapti va ko'rsatmayapti deb hisoblashga asoslar bo'lgan taqdirda, bojxona organi mansabdor shaxsining qaroriga binoan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Bojxona nazorati ostida bo'lgan hujjatlar, tovarlar, transport vositalari, binolar va boshqa joylarni bojxona qiyoslashidan o'tkazish ularga plombalar, muhrlar qo'yish, raqamli, harfiy va boshqa markalar bosish, qiyoslash belgilarini qo'yish, shtamplar bosish, namunalar va nusxalar olish, tovarlar va transport vositalarini ta'riflash, ularning chizmalarini tayyorlash, masshtabli tasvirlar, fotosuratlar, illyustratsiyalar tayyorlash, tovarlarga ilova qilingan va boshqa hujjatlardan hamda o'zga qiyoslash vositalaridan foydalanish orqali ta'minlanadi.

Qiyoslash vositalari faqat bojxona organlari tomonidan yoki ularning ruxsati bilan o'zgartirilishi, olib tashlanishi yoki yo'q qilinishi mumkin, tovarlar va transport vositalarining yo'q bo'lib ketishi, ularga qayta tiklab bo'lmaydigan darajada putur etkazilishi yoki ularning jiddiy buzilishi xavfi tugilgan hollar bundan mustasno. qiyoslash vositalari o'zgartirilganligi, olib tashlanganligi yoki yo'q qilinganligi to'grisida bojxona organlariga

darhol ma'lum qilinadi va bunday xavf mavjud bo'lganligini isbotlovchi dalillar taqdim etiladi. Bojxona nazorati ostida bo'lgan hujjatlar, tovarlar, transport vositalari, binolar va boshqa joylarni bojxona qiyoslashidan o'tkazish ularga plombalar, muhrlar qo'yish, raqamli, harfiy va boshqa markalar bosish, qiyoslash belgilarini qo'yish, shtamplar bosish, namunalar va nusxalar olish, tovarlar va transport vositalarini ta'riflash, ularning chizmalarini tayyorlash, masshtabli tasvirlar, fotosuratlar, illyustratsiyalar tayyorlash, tovarlarga ilova qilingan va boshqa hujjatlardan hamda o'zga qiyoslash vositalaridan foydalanish orqali ta'minlanadi.

Qiyoslash vositalari faqat bojxona organlari tomonidan yoki ularning ruxsati bilan o'zgartirilishi, olib tashlanishi yoki yo'q qilinishi mumkin, tovarlar va transport vositalarining yo'q bo'lib ketishi, ularga qayta tiklab bo'lmaydigan darajada putur etkazilishi yoki ularning jiddiy buzilishi xavfi tugilgan hollar bundan mustasno. qiyoslash vositalari o'zgartirilganligi, olib tashlanganligi yoki yo'q qilinganligi to'grisida bojxona organlariga darhol ma'lum qilinadi va bunday xavf mavjud bo'lganligini isbotlovchi dalillar taqdim etiladi.

Bojxona organlari bojxona nazorati ostida turgan tovarlar va transport vositalarini, shuningdek boj to'lovlari to'lanmagan yoki boj to'lovlari yuzasidan bojxona imtiyozlari berilgan tovarlarni inventarizatsiyadan o'tkazishga haqlidir.

Bojxona organlari qonun hujjatlariga muvofiq shaxslarning nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyatini tekshirishga haqlidir.

Bojxona organlari bojxona nazoratini o'tkazishda, qoida tariqasida, nazoratning qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash uchun etarli bo'lgan shakllarini qo'llaydilar.

Bojxona nazoratining ayrim shakllarini qo'llamaslik yoki ulardan ozod qilish shaxslar qonun hujjatlariga rioya etish majburiyatidan ozod qilinishini bildirmaydi.

Zarurat bo'lganda bojxona organlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, bojxona nazoratining Bojxona kodeksida belgilangan barcha shakllaridan foydalanishlari mumkin.

Bojxona nazoratining muayyan shakllaridan ozod qilish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarining shaxsiy bagaji, agar mazkur shaxslar xizmat vazifalarini bajarish bilan bogliq holda O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o'tayotgan bo'lsalar, bojxona tekshiruvidan ozod qilinadi.

Chet el harbiy kemalari, jangovar va harbiy-transport havo kemalari, shuningdek o'zi yurib kelayotgan harbiy texnikasi bojxona tekshiruvidan ozod qilinadi.

Tovarlar va transport vositalari chiqishiga ruxsat berilganidan keyin, agar qonun hujjatlari buzilgan deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, tovarlar va transport vositalari bojxona nazoratidan o'tkazilishi mumkin.

Ko'rsatib o'tilgan hollarda bojxona organlari tovarlar va transport vositalari mavjudligini tekshirishga, ularni takroran bojxona tekshiruvidan o'tkazishga, bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni qayta tekshirishga, ushbu tovarlar bilan amalga oshiriladigan tashqi iqtisodiy va keyingi tijorat operatsiyalariga daxldor hujjatlar va boshqa ma'lumotlarni tekshirishga haqlidir. Tekshirish deklarant turgan joyda, ko'rsatib o'tilgan operatsiyalarga bevosita yoki bilvosita aloqasi bo'lgan yoki zarur hujjatlarga ega bo'lgan har qanday boshqa shaxs turgan joylarda o'tkazilishi mumkin. ruquqbuzarlik aniqlangan taqdirda shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Bojxona organlarining mansabdor shaxslari xizmat guvohnomasi asosida bojxona nazoratidan o'tkazilishi kerak bo'lgan tovarlar va transport vositalari, bojxona nazorati uchun zarur bo'lgan hujjatlar mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan yoxud nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yuklangan faoliyat amalga oshirilayotgan hudud va binolarga kira olish huquqiga ega, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida yoki xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Bojxona organlari bojxona nazoratini o'tkazishda yordam ko'rsatish uchun qonun hujjatlariga muvofiq mutaxassislar va ekspertlarni jalb etishi mumkin.

Bojxona omborlari va erkin omborlar - tovarlarni bojxona nazorati ostida saqlashga mo'ljallangan, maxsus ajratilgan va jihozlangan binolar yoki boshqa joylardir. Boshqa tovarlarga zarar etkazishi mumkin bo'lgan yoki alohida shart-sharoitlarda saqlanishi talab etiladigan tovarlar faqat maxsus moslashtirilgan omborlarga joylashtirilishi lozim.

Bojxona ombori O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi yoxud bojxona organi tomonidan ta'sis etiladi. Erkin ombor O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi tomonidan ta'sis etiladi. Bojxona omborlari saqlash sharoitlariga ko'ra tovarlarni vaqtincha saqlash va (yoki) bojxona ombori rejimlarida saqlash uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Bojxona omborlari foydalanish mumkinligi jihatidan har qanday shaxslar foydalaniishi uchun ochiq bo'lishi hamda muayyan shaxslar, qoida tariqasida, ombor egalari foydalanishi uchun mo'ljallangan yopiq omborlar bo'lishi mumkin.

Bojxona omborlari va erkin omborlarni ochish tartibi hamda ularga qo'yiladigan talablar qonun hujjatlarida belgilanadi. Bojxona omborlari va erkin omborlar - tovarlarni bojxona nazorati ostida saqlashga mo'ljallangan, maxsus ajratilgan va jihozlangan binolar yoki boshqa joylardir. Boshqa tovarlarga zarar etkazishi mumkin bo'lgan yoki alohida shart-sharoitlarda saqlanishi talab etiladigan tovarlar faqat maxsus moslashtirilgan omborlarga joylashtirilishi lozim.

Bojxona ombori O'zbekiston Respublikasining yuridik va (yoki) jismoniy shaxsi yoxud bojxona organi tomonidan ta'sis etiladi.

Erkin ombor O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan ta'sis etiladi.

Bojxona omborlari saqlash sharoitlariga ko'ra tovarlarni vaqtincha saqlash va (yoki) bojxona ombori rejimlarida saqlash uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Bojxona omborlari foydalanish mumkinligi jihatidan har qanday shaxslar foydalaniishi uchun ochiq bo'lishi hamda muayyan shaxslar, qoida tariqasida, ombor egalari foydalanishi uchun mo'ljallangan yopiq omborlar bo'lishi mumkin.

Bojxona omborlari va erkin omborlarni ochish tartibi hamda ularga qo'yiladigan talablar qonun hujjatlarida belgilanadi.

Bojxona omborlari va erkin omborlarning egalari quyidagilarga majburlar:

- 1) omborlarni bojxona nazoratini ta'minlash maqsadida jihozlash;
- 2) tovarlarning asralishini ta'minlash;
- 3) saqlashga qo'yilgan tovarlar va transport vositalarini olish imkoniyatini istisno etish, bojxona nazorati bundan mustasno;
- 4) bojxona nazorati amalga oshirilishiga to'sqinlik qilmaslik;
- 5) hisob-kitob ishlarini yuritish hamda saqlab turilgan tovarlar va transport vositalari to'grisida bojxona organlariga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda hisobotlar taqdim etish;
- 6) litsenziya shartlariga rioya etish;

7) bojxona organlarining qonuniy talablarini bajarish va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ado etish. Bojxona omborlari va erkin omborlar egalari boshqa tovarlar va transport vositalarini joylashtiruvchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlari shartnoma asosida quriladi.

Bojxona omborlarining egalari bo'lgan bojxona organlarining bojxona omborlariga tovarlar va transport vositalarini joylashtiruvchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlari qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bugungi kunda, ya'ni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida vaqtincha saqlash rejimiga joylashtirilgan tovarlar:

- ombor egasi tomonidan, tovarlarga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan boshqa shaxs va ularning vakillari tomonidan ko'zdan kechirilishi va o'lchab chiqilishi mumkin. Bojxona organining ruxsati bilan tekshirish va qiyoslash uchun tovarlardan namunalar hamda nusxalar olinishi mumkin;

- ularning o'zgarmas holatda saqlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan operatsiyalar amalga oshirilishi, shu jumladan shikastlangan o'rovi tuzatilishi mumkin.

Bojxona ombori rejimiga joylashtirilgan tovarlar ustida ularning asralishini ta'minlash, bojxona organining ruxsati bilan sotishga va tashishga tayyorlash bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilishi mumkin. Operatsiyalarning ro'yxati hamda ularni amalga oshirish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi.

Erkin omborga joylashtirilgan tovarlar bilan ishlab chiqarish va tijorat operatsiyalarini Bojxona kodeksiga muvofiq amalga oshirishga yo'l qo'yiladi, ularni chakana sotish bundan mustasno. Ushbu tovarlar uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ayrim taqiq va cheklovlar belgilab qo'yilishi mumkin.

Bojxona organlari Bojxona kodeksi va boshqa qonun hujjatlarining qoidalariga rioya etmagan ayrim shaxslarga tovarlar bilan operatsiyalar o'tkazishni taqiqlab qo'yishlari va ularning tovarlardan foydalanishini rad etishlari mumkin.

Bojxona ombori va boj olinmaydigan savdo do'koni egalari omborda saqlanayotgan va do'konda realizatsiya qilinayotgan tovarlar hamda transport vositalarining boj to'lovlari to'lanishi uchun javobgar bo'ladilar, ushbu moddada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Agar bojxona ombori egasi bilan tovarlar va transport vositalarini vaqtincha saqlash rejimiga joylashtiruvchi shaxs o'rtasidagi shartnomada ushbu shaxsning boj to'lovlarini to'lash uchun javobgarligi nazarda tutilgan bo'lsa, ular solidar javobgar bo'ladilar.

Bojxona organining roziligi bilan boj to'lovlarini to'lash uchun javobgarlik tovarlarni bojxona ombori rejimida saqlash uchun joylashtirgan shaxs zimmasiga yuklanishi mumkin.

Agar bojxona organi bojxona omborining egasi bo'lsa, tovarlar va transport vositalarini shu omborga joylashtirgan shaxs boj to'lovlarini to'lash uchun javobgar bo'ladi, bunday shaxs bo'lmagan taqdirda - ularning mulkdori yoki egasi hisoblanuvchi shaxs javobgar bo'ladi. Agar erkin omborga joylashtirilgan tovarlardan boj to'lovlarini undirilsa, to'lovlar to'lanishi uchun ularni omborga joylashtirgan shaxs javobgar bo'ladi.

Bojxona ombori va erkin ombor, shuningdek boj olinmaydigan savdo do'koni quyidagi hollarda tugatiladi:

- egalari xohishiga ko'ra; litsenziyalarning amal qilish muddati o'tganida;
- litsenziyalar bekor qilinganida yoki ularning amal qilishi tugatilganida;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Tugatish to'grisidagi qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran bojxona omborida yoki erkin omborda yoxud boj olinmaydigan savdo do'konida turgan tovarlarni saqlash vaqtincha saqlash rejimiga muvofiq amalga oshiriladi.

Litsenziya bekor qilinganida tovarlar bojxona ombori yoki erkin ombor yoxud boj olinmaydigan savdo do'koniga joylashtirilgan sanadan e'tiboran qayta bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi lozim, ularning egalaridan esa, saqlab turganlik evaziga bojxona organlari tomonidan ta'sis etilgan bojxona omborlari uchun belgilangan miqdorda tovarlarning tugatilayotgan omborda yoki magazinda turgan butun davri uchun bojxona yigimlari undiriladi.

Litsenziya chaqirib olinganida litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran tovarlar qayta bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi lozim, ularning egalaridan esa, saqlab turganlik evaziga bojxona organlari tomonidan ta'sis etilgan bojxona omborlari uchun belgilangan bojxona yigimlari undirila boshlaydi.

Bojxona ombori va erkin ombor, boj olinmaydigan savdo do'koni tugatilganda, shuningdek bojxona ombori, boj olinmaydigan savdo do'koniga berilgan litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilganda tovarlarni saqlashga joylashtirishga hamda ularni realizatsiya qilishga yo'l qo'yilmaydi. Bunday hollarda tovarlarni bojxona ombori va erkin ombordan, shuningdek boj olinmaydigan savdo do'konidan chiqarish Bojxona kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi.

Erkin omborga berilgan litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilganda chet el tovarlarini omborga joylashtirish boj, soliqlar to'langan va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilgan holda amalga oshiriladi, boj, soliqlardan ozod qilish yoxud ularni qaytarish esa O'zbekiston tovarlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

Tugatilayotgan bojxona ombori va boj olinmaydigan savdo do'konida bo'lgan tovarlar va transport vositalari vaqtincha saqlash rejimida turishining umumiy muddati uni tugatish to'grisidagi qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran ikki oydan, erkin omborda esa - olti oydan oshmasligi lozim.

Bojxona nazorati ostida turgan, shu jumladan bojxona hududi orqali tranzit rejimida olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalari yuk jo'natuvchi bojxona organidan yuk kelib tushuvchi bojxona organiga ushbu tovarlar va transport vositalarini tashish uchun qabul qilgan yuk tashuvchining javobgarligi ostida tashilishi mumkin.

Yuk kelib tushuvchi bojxona organiga topshirilishi lozim bo'lgan hujjatlar qaysi tovarlar va transport vositalariga tegishli bo'lsa, o'sha tovarlar va transport vositalari bilan bir xil tartibda etkaziladi.

Tashuvchi quyidagi hollarda tovarlar va transport vositalarini tashish uchun qabul qilmaslikka haqli:

- bojxona va transport hujjatlari belgilangan tartibni buzgan holda rasmiylashtirilgan bo'lsa;

- bojxona tomonidan transport vositasiga va tovarlar joylangan o'rov-idishlarga qo'yilgan ta'minlov choralari tashilayotgan tovarlarga ana shu ta'minlov choralari buzmasdan tegish imkoniyatini istisno etmasa.

Tovarlar, transport vositalari va ularga oid hujjatlarni tashish uchun qabul qilib olgan tashuvchi:

- ularni jo'natuvchi bojxona organi tomonidan belgilangan manzilga, yo'nalishda va muddatda, tabiiy eskirish yoxud normal tashish va saqlash sharoitlaridagi kamayish

oqibatidagi o'zgarishlarni istisno etganda, ularning o'rov-idishlari yoki holatini o'zgartirmasdan, eltib berishdan boshqa maqsadda foydalanmasdan etkazib berishi;

- tovarlar, transport vositalari va ularga oid hujjatlarni yuk kelib tushadigan bojxona organida ko'rsatishi, bu organ mansabdor shaxslarining talabiga binoan esa - tovarlar va transport vositalarini amalda taqdim etishi;

- bojxona nazorati ostida turgan tovarlar bilan bir vaqtda boshqa tovarlarni tashimasligi shart.

Yuk eltib beriladigan joyiga etib kelganidan keyin tashuvchi bojxona organining ruxsatisiz tovarlar va transport vositasini to'xtash joyida qarovsiz qoldirish, to'xtash joyini o'zgartirish, yo'lovchilarni tushirish, tovarlar bilan biron-bir ortish-tushirish va o'rash-joylash operatsiyalarini o'tkazish, qiyoslash vositalarini o'zgartirish, olib tashlash yoki yo'q qilish huquqiga ega emas.

Agar tashuvchi, yo'lovchilarning va transport vositasi ekipajining hayoti hamda sogligi chinakam xavf ostida qolganligini, tovarlar va transport vositasining yo'q qilinishi, qaytarib bo'lmaydigan tarzda qo'ldan ketishi yoki jiddiy buzilishi xavfi mavjud bo'lganligini isbotlasa, ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlaridagi talablarni buzganlik uchun javobgarlik yuzaga kelmaydi. Ko'rsatilgan talablar buzilishiga sabab bo'lgan holatlar to'grisida tashuvchi darhol bojxona organini xabardor qilishi shart.

Agar tashuvchi yoxud uning transport vositasi Bojxona kodeksining talablariga rioya etilishini kafolatlay olmasa, bojxona organi transport vositasi faqat tegishlicha jihozlangan yoki bojxona kuzatuviga olingan yoxud bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlovchi garov summalari kiritilgan yoki tovarlar bojxona tashuvchisi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashilgan taqdirdagina tovarlarning bojxona nazorati ostida olib o'tilishiga yo'l qo'yishga haqli. Ayrim toifadagi tovarlarni tashuvchilar uchun qonun hujjatlarida boshqacha talablar belgilanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarining but saqlanishi uchun tashuvchi javobgar bo'ladi.

Tovarlar bojxona organining ruxsatisiz berib yuborilgan, yo'qotilgan yoki yuk kelib tushadigan bojxona organiga eltib berilmagan taqdirda, tashuvchi, tegishli ravishda erkin muomalaga yoki eksportga chiqarish rejimlarida to'lanishi lozim bo'lgan boj to'lovlarini to'lashi shart, tovarlar halokat yoki engib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida yo'q bo'lgan yoxud qaytarib bo'lmaydigan tarzda qo'ldan ketgan, yoxud kamomad tabiiy eskirish yoki normal tashish va saqlash sharoitida kamayish tufayli yuzaga kelgan yoxud organlar yoki mansabdor shaxslarning qonunga xilof xatti-harakatlari natijasida egalikdan chiqib ketgan hollar bundan mustasno. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'y bergan bunday hollar O'zbekiston Respublikasining diplomatiya vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanishi lozim.

Falokat yuz bergan yoki engib bo'lmas kuch ta'sir etgan taqdirda tashilayotgan tovarlar transport vositasidan tushirilishi mumkin. Bu holda tashuvchi tovarlarning but saqlanishini ta'minlash va ulardan biron-bir tarzda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslik uchun zarur choralarni ko'rishi, ishning holatlarini, tovarlar va transport vositalarining qaerda ekanligini eng yaqin bojxona organiga darhol xabar qilishi, tovarlarning eng yaqin bojxona organiga tashib keltirilishini yoki bojxona organining mansabdor shaxslari tovarlar turgan joyga olib kelinishini ta'minlashi shart.

Bojxona organi bunday hollarda bojxona nazoratini ta'minlash uchun ko'riladigan chora-tadbirlarni belgilaydi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan chora-tadbirlar ko'rilishi munosabati bilan tashuvchining qilgan xarajatlari bojxona organi tomonidan qoplanmaydi.

Ushbu modda qoidalari Bojxona kodeksi 84 - moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan dengiz, daryo yoki havo kemalari O'zbekiston Respublikasi hududida noiloj to'xtash yoki qo'nishga majbur bo'lgan hollarda ham qo'llaniladi.

Bojxona tashuvchisi tovarlar tashishni bojxona kuzatuvini qo'llamagan va bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlovchi garov summalarini kiritmagan holda bojxona nazorati ostida amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxsidir.

Bojxona tashuvchisi Bojxona kodeksi asosida tashuvchiga nisbatan qo'yiladigan talablarga rioya etishi, shuningdek:

- bojxona tashuvchisini ro'yxatga olgan bojxona organining faoliyat zonasidagi bojxona rasmiylashtiruv joyiga juda bo'lmaganda bitta transport vositasi 24 soat ichida etib kelishini ta'minlay oladigan zarur miqdordagi maxsus jihozlangan transport vositalariga ega bo'lishi;

- bojxona nazorati ostida tashishlarning hisobini yuritishi va bojxona organlariga tegishli hisobot taqdim etishi shart.

Bojxona tashuvchisining tovarlarni jo'natuvchi bilan o'zaro munosabatlari shartnoma asosida yo'lga qo'yiladi.

Yuridik shaxslarning bojxona tashuvchisi sifatidagi faoliyati ustidan nazorat olib borish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Bojxona organi O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslariga bojxona ombori, boj olinmaydigan savdo do'koni, erkin omborni ta'sis etish uchun besh yil muddatga litsenziya beradi. Litsenziya besh yildan kam muddatga faqat litsenziya talabgorining arizasiga binoan berilishi mumkin.

Agar bojxona ombori bojxona organlari tomonidan ta'sis etilsa, litsenziya olish talab qilinmaydi.

Bojxona ombori, boj olinmaydigan savdo do'koni, erkin omborni ta'sis etish uchun berilgan litsenziya bojxona organi yoki sud tomonidan bekor qilinishi, uning amal qilishi esa to'xtatib turilishi yoki tugatilishi mumkin.

Bojxona ombori, boj olinmaydigan savdo do'koni, erkin omborni ta'sis etish uchun litsenziya berish, uni qayta rasmiylashtirish, litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish, amal qilishini to'xtatib turish va tugatish, shuningdek litsenziyani bekor qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash va tovarlarni bojxona nazorati ostida qayta ishlash uchun litsenziya quyidagi shartlar bilan beriladi:

- olib kirilgan tovarlarni qayta ishlash mahsulotlarida qiyoslash mumkin bo'lsa, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno;

- qayta ishlash O'zbekiston tovarlarini qayta ishlash mahsulotlari ko'rinishida olib chiqishga yoxud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishga yordam bersa;

- bojxona ishi to'grisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash yuzasidan bojxona organlari belgilashi mumkin bo'lgan boshqa talablar bajarilgan bo'lsa.

Tovarlarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun litsenziya quyidagi shartlar bilan beriladi:

- qonun hujjatlarida o'zgacha tartib nazarda tutilmagan hollarda bojxona organi qayta ishlash mahsulotlari olib chiqilgan tovarlar qayta ishlash natijasida vujudga kelganini aniqlash mumkin deb hisoblasa;

– tovarlarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti manfaatlariga zarar etkazmasa.

Yuridik shaxs bojxona brokeri sifatida faoliyat olib borish huquqini beradigan litsenziyani olishi uchun quyidagilar talab etiladi:

- shtatda bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisga ega bo'lish;
- o'z faoliyatini sugurtalash shartnomasini tuzish; bunday faoliyatni amalga oshirish uchun moddiy-texnika jihozlariga ega bo'lish;
- bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni aniq va to'liq aks ettiruvchi hisob-kitoblar va hisobotlar yuritilishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarga ega bo'lish;
- qonun hujjatlarida belgilangan boshqa talablarga javob berish.

Bojxona tashuvchisi sifatida faoliyat olib borish huquqini beradigan litsenziyani olish uchun quyidagilar talab etiladi:

- bojxona tashuvchisi ro'yxatga olingan bojxona organining faoliyat zonasidagi bojxona rasmiylashtiruvi joyiga juda bo'lmaganda bitta transport vositasi 24 soat ichida etib kelishini ta'minlay oladigan maxsus jihozlangan transport vositalariga ega bo'lish;
- o'z faoliyatini sugurtalash haqida shartnoma tuzish; qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablarga javob berish.

Agar litsenziya belgilangan tartibni buzgan holda yoki litsenziya to'liq bo'lmagan yoxud noto'g'ri ma'lumotlar asosida berilgan bo'lib, ular litsenziya berish to'grisida qaror qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, litsenziya bekor qilinadi. Bekor qilish to'grisidagi qaror litsenziya berilgan sanadan e'tiboran amal qiladi.

Litsenziyaning bekor qilinishi to'g'risidagi qaror mazkur qarorni qabul qilgan bojxona organi tomonidan litsenziyatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay asoslangan dalillar bilan etkaziladi. Litsenziyat litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarorni olgan kundan e'tiboran o'n kun ichida litsenziya bojxona organiga qaytarilishi va yo'q qilinishi kerak.

Litsenziyaning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

- litsenziyat litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganda;
- yuridik shaxs tugatilganda tugatilgan paytdan e'tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganida qayta tashkil etilgan paytdan e'tiboran, uning o'zgartirilishi bundan mustasno;
- yakka tartibdagi tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi tugatilganda;
- yakka tartibdagi tadbirkorning muomala layoqati belgilangan tartibda cheklanganda yoki u muomalaga layoqatsiz deb topilganda;
- litsenziyat litsenziya talablari va shartlarini muntazam ravishda yoki bir marotaba qo'pol ravishda buzganda;
- litsenziyat litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishiga olib kelgan holatlarni bojxona organi belgilagan muddatda bartaraf etmaganda;
- bojxona organining litsenziya berish to'g'risidagi qarorining qonunga xilofligi aniqlanganda;
- litsenziyaning amal qilish muddati tugaganda.

Litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qaror mazkur qarorni qabul qilgan bojxona organi tomonidan litsenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay asoslangan dalillar bilan etkaziladi. Litsenziat litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qarorni olgan kundan e'tiboran o'n kun ichida litsenziya bojxona organiga qaytarilishi va yo'q qilinishi kerak.

Bojxona organining litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qarori ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi lozim.

Tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran litsenziyaning amal qilishi tugatiladi.

Litsenziya amal qilishining tugatilishi sud tomonidan asossiz deb topilgan hollarda bojxona organi litsenziat oldida u ko'rgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi.

Litsenziyaning amal qilishi bojxona organining qaroriga binoan quyidagi hollarda to'xtatib turilishi mumkin:

- litsenziat litsenziya talablari va shartlarini buzganligi aniqlanganda;
- bojxona organining litsenziat zimmasiga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini yuklovchi qarorlari litsenziat tomonidan bajarilmaganda;
- yuridik shaxs qayta tuzilganda litsenziyani qayta rasmiylashtirish muddatiga.

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qaror mazkur qarorni qabul qilgan bojxona organi tomonidan litsenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay asoslangan dalillar bilan etkaziladi.

Bojxona organi litsenziat tomonidan litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etishi uchun muddat belgilashi shart. Ko'rsatilgan muddat olti oydan oshib ketishi mumkin emas.

Litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilishiga olib kelgan holatlarni litsenziat bartaraf etgan taqdirda, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turgan bojxona organi ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilganligi to'g'risidagi tasdiqnomani olgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddat ichida litsenziyaning amal qilishini tiklash to'g'risida qaror qabul qilishi shart.

Litsenziya berish to'g'risidagi takroriy ariza litsenziyani bekor qilish yoki litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risida qaror chiqarilgan kundan e'tiboran ikki yil o'tganidan keyin buning uchun asos bo'lgan sabablar bartaraf etilgan taqdirda ko'rib chiqilishi mumkin.

Bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassisning malaka attestati besh yilga beriladi.

Bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassisning malaka attestati bojxona organi tomonidan bekor qilinishi yoki uning amal qilishi to'xtatib turilishi yoxud tugatilishi mumkin.

Bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassisning malaka attestati, agar bunday attestat belgilangan tartibni buzgan holda berilgan bo'lsa yoki attestat uni berish to'g'risidagi qarorning qabul qilinishida muhim ahamiyat kasb etgan, biroq to'liq bo'lmagan yoxud noto'g'ri ma'lumotlar asosida berilgan bo'lsa, bekor qilinadi. Bekor qilish to'g'risidagi qaror malaka attestati berilgan sanadan e'tiboran amal qiladi.

Bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassisning malaka attestati amal qilishi bojxona organi tomonidan:

– bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisga nisbatan bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risida qo'zg'atilgan jinoyat ishi mavjud bo'lgan taqdirda olti oygacha bo'lgan muddatga;

– bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis o'z majburiyatlarini insof bilan bajarganligiga shubha qilish uchun etarli asoslar bo'lgan taqdirda ikki oygacha bo'lgan muddatga to'xtatib turilishi mumkin.

Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisning malaka attestati amal qilishi quyidagi hollarda ham to'xtatib turiladi:

– bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis sifatida foydalanish uchun u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda;

– bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis bilan mehnat shartnomasi tuzgan bojxona brokeri tomonidan bojxona brokeri sifatida faoliyat yuritish shartlariga rioya etilmaganda;

– bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis bilan mehnat shartnomasi tuzgan yuridik shaxs tugatilgan yoki qayta tashkil etilganda.

Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisning malaka attestati amal qilishi to'xtatib turilishiga sabab bo'lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda malaka attestatining amal qilishini to'xtatib turgan bojxona organi mazkur holatlar bartaraf etilganligi to'g'risida tasdiq olingan kundan e'tiboran uch kunlik muddat ichida attestatning amal qilishini tiklash to'g'risida qaror qabul qilishi shart.

Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisning malaka attestati amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

– bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis o'zining malaka attestati amal qilishini tugatish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganda;

– bojxona organi tomonidan belgilangan muddat ichida bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisning malaka attestati amal qilishi to'xtatib turilishiga sabab bo'lgan holatlar bartaraf etilmaganda;

– bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisning malaka attestati amal qilishi muddati tugaganda.

Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisning malaka attestati amal qilishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran bunday attestatning amal qilishi tugatiladi.

Sudning qaroriga binoan ham bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisning malaka attestati bekor qilinishi yoki uning amal qilishi tugatilishi mumkin.

Malaka attestati berish to'g'risidagi takroriy ariza malaka attestati bekor qilingan, uning amal qilishi tugatilgan kundan e'tiboran olti oy o'tganidan keyin, buning uchun asos bo'lgan sabablar bartaraf etilgan taqdirda yoki sud belgilagan muddat o'tganidan keyin ko'rib chiqilishi mumkin.

Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisning malaka attestatini berish, attestatni bekor qilish, uning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish tartibi, shuningdek bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassislarga qo'yiladigan talablar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Litsenziya, malaka attestati berganlik uchun, shuningdek ularni qaytadan ro'yxatdan o'tkazganlik yoki amal qilishini tiklaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorlarda yigimlar undiriladi.

Litsenziya bekor qilingan, chaqirib olingan yoki malaka attestati bekor qilingan, litsenziyaning amal qilishi tugatilgan, haqiqiy emas deb topilgan taqdirda ko'rsatib o'tilgan yigimlar qaytarilmaydi.

5-mavzu bo'yicha test variantlari:

1. Tovarlarini tavsiflash, kodlashtirish va ularga boj stavkalarini belgilash qaysi tizim orqali amalga oshiriladi?

- @A)Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi
- B)Tashqi iqtisodiy faoliyatni soliqqa tortish tizimi
- C)Soliq to'lovchining identifikatsion raqami
- D)Bojxona Kodeksi

2. «Boj tarifi to'g'risida»gi Qonunning 19-moddasiga binoan qanday tovarlar bahol-anayotgan tovarlar bilan bir xil, ya'ni xuddi shuningdek tovarlar hisoblanadi?

- A)Fizik xususiyatlari, sifati va bozordagi qadri bir xil bulgan
- B)Qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi, ishlab chiqaruvchisi bir xil bo'lgan
- @C)A va V
- D)To'g'ri javob yo'q

3. Sotiladigan tovar birligidan chegirib tashlanadigan komponentlar «Boj tarifi tugrisida»gi konunning nechanchi moddasida keltirilgan?

- @A)20-modda
- B)21-modda
- C)22-modda
- D)23-modda

4. Tovarlar va transport vositaarining qonun hujjatlarida belgilanadigan bojxona qiymatini xisoblashda qaysi soliq va yig'imlar asos bo'ladi?

- @A)Aktsiz solig'i va bojxona yig'imi
- B)QQS va bojxona yig'imi
- C)Daromad solig'i va bojxona boji
- D)Faqat boji undiriladi.

5. Bojxona to'lovlari qaysi vaqtda to'lanadi?

- A)Deklaratsiya to'ldirilguncha
- B)Deklaratsiya to'ldirilgandan so'ng
- S)Deklaratsiya to'ldirish bilan bir vaqtda

@D)A va S javoblar to'g'ri

6. Bojxona to'lovini bo'lib yoki kechiktirib to'lash imkoniyati kodeksning qaysi moddasida ko'rsatilgan?

- A)101 moddasida
- @B)111 moddasida
- C)123 moddasida
- D)98 moddasida

7. Kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilgandan so'ng qancha muddat ichida to'lanadi?

- A)3 oy
- B)6 oy
- @C)2 oy

D)1 oy

8. Aktsiz markalari nima uchun joriy qilinadi?

A)tamg'alash uchun

@B)Soliq to'lash uchun

C)Sifatini aniqlash uchun

D) Xech narsani belgilamaydi

9. Bojxona tartiblari amalga oshirilganligi uchun undiriladigan yig'imlar nimaga asosan belgilanadi?

A)@Eng kam oylik mikdoriga asosan

B)Soliq stavkalariga asosan

C)Mahsulotning xajmiga asosan

D)Mahsulot turiga asosan

10. O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarga boj to'lashga nisbatan o'zaroviylik yoki bir tomonlama tartibda imtiyoz berilishi qanday nomlanadi?

@A)Preferentsiya

B)Deferentsiya

C)Demping

D)Integratsiya

Talabalar soni: 35 ta		Vaqti-2 soat	
O'quv mashg'ulotining shakli		Bir-biridan o'rganish usulini qo'llagan holda axborot ma'ruzasi	
Ma'ruza rejasi		1. Bojxona rejimlari haqida tushuncha va ularni qo'llanilishi. 2. Bojxona munosabatlarida tovarlar va transport vositalarini deklaratsiyalash tartibi. 3. Deklarantning huquq va majburiyatlari. 4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekistonda bojxona rejimlari takomillashtirish masalalari.	
Mashg'ulotning maqsadi: Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari to'g'risida bilimga ega bo'lish.			
Pedagogik vazifa: ➤ Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari bilan tanishtirish; ➤ Respublikamiz tashki iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish, xalqaro bojxona tashkilotlari bilan hamkorlikni yanada taraqqiy ettirishga va takomillashtirishga sabab bo'luvchi bojxona siyosatini yuritishni o'rganish. ➤ Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona organlari faoliyatining xuquqiy asoslarini xalqaro bojxona xuquqi normalari asosida yanada takomillashtirish.		O'quv faoliyatining natijasi: ➤ Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari turlarini aniqlab beradi; ➤ Respublikamiz tashki iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish, xalqaro bojxona tashkilotlari bilan hamkorlikni yanada taraqqiy ettirishga va takomillashtirishga sabab bo'luvchi bojxona siyosatini yuritishni o'rganadi; ➤ Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona organlari faoliyatining xuquqiy asoslarini xalqaro bojxona xuquqi normalari asosida yanada takomillashtirish tushuntirib beradi;	
O'qitish usullari va texnikasi		Ma'ruza, bir-biridan o'rganish, «koop-koop» texnikasi, insert, blits-so'rov.	
O'qitish vositasi		Ma'ruzalar matni, prezentatsiya uchun A32 , marker, skotch, ekspert qog'ozlari, slaydlar, lazerli prektor, axborot bilan ta'minlash	
O'qitish shakli		Frontal, jamoa bo'lib ishlash, guruhlarga bo'lib ishlash	
O'qitish shart-sharoitlari		Gruppa bilan ishlash uchun kerakli texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya	
Monitoring va baxolash		Kuzatish, og'zaki, yozma nazorat, test.	
Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi		Talaba
1-bosqich. O'quv	1.1. E'lon qiladi: mavzuni, maqsadini, o'quv mashg'ulotini o'tkazish rejasi va uning rejadagi		Eshitadi, yozib oladi va mavzu

mashg'ulotig akirish (10 min.)	natijalarini. 1.2. Eslatib o'tadi: Insert usulini qo'llagan holda mavzuni mustaqil ma'ruzalar matnidan o'qish. Talabalarga tayanch iboralarini aytib, ularga tushuncha berishni so'raydi. Blitz-so'rov o'tkazadi. 1.3. Ma'ruzalar matnini mustaqil o'qish natijasida, Insert metodini qo'llagan xolda talabalarda qanday savollar hosil bo'lganligini aniqlab A32 varag'ini qo'llagan holda doskada ularni yozib boradi. Talabalarni hech qanday mezonisiz 4-guruxga bo'ladi.	bo'yicha tayanch iboralarini aytishadi. Hosil bo'lgan savollarni so'rashadi.
2-bosqich. Asosiy qism (55 min.)	2.1. O'tiladigan mavzudagi savollarni guruxlarga bo'lib berilishi va guruxlar o'zlari «ekspert» vazifasini bajarishlarini e'lon qiladi. Ekspert qog'ozlarini tarqatib (1-ilova) – bir vaqtni o'zida prektor yordamida ulardagi yozuvni ekranga chiqazadi, tushuntiradi va xuddi shunday yo'l bilan talabalarni bajarilgan ishning natijasini baholash ko'rsatkichlari va kriteriyasi bilan tanishtirib o'tadi. (2-ilova). Gruppalarda ishlash boshlanganligi haqida e'lon qiladi. 2.2.Prezentatsiyani tashkil qiladi: 1)maslahatchi/arbitr sifatida ishtirok etadi; 2)gapirayotgan liderlarga va gruppaga a'zolariga Insert jadvali natijalari bo'yicha yozilgan savollardan foydalangan holda savollar bilan murojat qiladi; 3)har bir gruppaning chiqishidan keyin xulosa qiladi va talabalarni e'tiborini mavzudagi asosiy masalaga qaratadi. 2.3.Talabalarni o'quv materialini o'zlashtirganlik darajasini tekshirish maqsadida ularga savollar bilan murojat qiladi. (3-ilova).	Topshiriq b-n tanishishadi, natijalarni aniqlashtirishadi, savollar berishadi. Gruppalarda (2-min) ishlashadi: jamoa bo'lib yoki aloxida minigruppalar bo'lib savollarga javoblar tayyorlashadi (bunda albatta savollarni jamoa bo'lib hal qilishadi). Ko'rsatish materialini tayyorlashadi. Prezentatsi bilan chiqishadi (8min). Savollarga javob berishadi.
3-bosqich. Yakuniy qism (10 min.)	3.1. Olingan natijalarni umumlashtirib, faol qatnashgan talabalarni maqtab o'quv faoliyatiga yakun yasaydi. Talabalarni o'quv faoliyatida olgan bilimlarini kelgusi kasbiy-xunarlarida kerakliyligini belgilaydi. 3.2. Mustaqil ishlashlari uchun topshiriq beradi: 1)o'zlarini tekshirish uchun og'zaki savollarga	Mustaqil tayyorlash uchun topshiriqni eshitadi, yozib oladi. Doklad uchun mavzu tanlashadi va diskussiyani

	javob berish (4-ilova); 2)ushbu mavzudan amaliy-diskussiya mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish. Doklad uchun mavzular tarqatib, taqrizchilarni, opponentlarni tayinlab, diskussiyaning o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.	o'tkazish tartibini xal qilishadi.
--	--	---------------------------------------

1-ilova

Ko'rsatkichlar va baholash mezonlari.

Grup pa	Savolni ma'nosi (to'liqligi, aniq ochib berilganligi)	Natija (o'rni ochib beril- gan, kategori- yasi aniqlangan)	Gruppaning faolligi (qo'shimcha qilish, savollar berish, javo- blar)	Ballar	Baho 2-3-«a'lo» 1-2-«yaxshi» 0,5-1-«q-li»
	(1,2)	(1,2)	(0,6)	(3,0)	
1					
2					
3					
4					

2-ilova(6.1)

Nazorat savollari

1. Bojxona rejimlari deganda nimani tushunasiz?
2. Bojxona rejimlarining qanday turlari bor?
3. Bojxona rejimlarini qo'llanilishini tushuntirib bering?
4. Bojxonada tovarlar va transport vositalarini deklaratsiyalash deganda nimani tushunasiz?
5. Deklaratsiyalash shakllarini ayting?
6. Tovarlarni va transport vositalari qayerda deklaratsiyalanadi?
7. Deklaratsiyalar qanday muddatlarda topshiriladi?
8. Deklarantning xukuk va majburiyatlarini sanang?

6.2. Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi

Talabalar soni: 35 ta		«Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari» vaqti-2 soat
O'quv mashg'ulotining shakli		O'z bilimini chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
Mashg'ulot rejasi		1. Bojxona rejimlari haqida tushuncha va ularni qo'llanilishi. 2. Bojxona munosabatlarida tovarlar va transport vositalarini deklaratsiyalash tartibi. 3. Deklarantning huquq va majburiyatlari. 4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekistonda bojxona rejimlari takomillashtirish masalalari.
Mashg'ulotning maqsadi: Bojxonada yig'ma jadvallar tuzish tartibi to'g'risidagi bilimni chuqurlashtirish shuningdek, qo'shimcha materiallardan va berilgan uquv axborotlaridan to'g'ri foydalanish.		
Pedagogik vazifa: ➤ Mavzu bo'yicha olgan bilimlarini tizimlashtirish, mustaxkamlash va chuqurlashtirish. ➤ O'quv kitoblari bilan mustaqil ishlash, olgan bilimlarini kengaytirish, birlashtirish, taxlil qilishni o'rgatish.		O'quv faoliyatining natijasi: Talaba bilishi kerak: ➤ Bojxonada yig'ma jadvallarni tuzish va ularning turlarini aniqlab beradi; ➤ Hududlar, korxonalar hamda boj turlari bo'yicha yig'ma jadvallar tuzish tartibini tushuntirib beradi; ➤ Korxonalarning faoliyat turlari, mulk shakllari va boshqa belgilariga ko'ra yig'ma jadvallar tuzish tartibini tushuntirib beradi.
O'qitish usullari va texnikasi		Bir-biridan o'rganish, amaliy mashg'ulotlar echish, prezentatsiya.
O'qitish vositasi		O'quv materiallari, prezentatsiya uchun A32 qog'ozi, markerlar, skotch.
O'qitishning shakli		Jamoa bo'lib ishlash, gruppalarda va juft bo'lib ishlash.
O'qitish shartlari		Texnik vositalar bilan ta'minlangan gruppalarda ishlash uchun auditoriya.
Monitoring va baxolash		Kuzatish, og'zaki, yozma nazorat, test
Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (5 min.)	1.1. Mavzuni, uni maqsadini, o'quv mashg'ulotining natijalarini va uni o'tkazish bo'yicha rejani e'lon qiladi. 1.2. Ko'rgazmali materiallardan foydalanib talabalarga mavzuni qisqa qilib qaytaradi. 1.2. Talabalarni bilimni oshirish uchun ularga o'rganilayotgan mavzu yuzasidan uchta taklifni etishlarini aytib blits-savol-javob o'tkazadi.	Eshitadi va yozib oladi. Savollarga javob berishadi.

2-bosqich. Individual ishlash (15 min.)	2.1. Testlarni 2 ta guruxga tarqatadi va test boshlanganligi to'g'risida e'lon qiladi. (1-ilova). Javoblar varag'ini yig'ib oladi. 2.2. Talabalar bilimini mustaxkamlash va chuqurlashtirish maqsadida keyingi ish gruppalarda olib borilishi haqida e'lon qiladi.	Testni echib, ishlarini topshiradilar.
3-bosqich Jamo bo'lib ish- lash. (55min)	3.1. Qatnashuvchilarni guruxlarga bo'ladi. 3.2. Xar bir gurux o'ziga topshirilgan masalani qo'shimcha ma'lumotlardan (4-ilova) foydalangan holda echib va uni natijasini prezentatsiya qilish uchun aniq qilib varaqqa yozishi kerakligini tushuntiradi. 3.3. Ekspert varaqchalarini har bir gruppaga tarqatadi (2-ilova) va natijalarni baholash mezonlarini e'lon qiladi. (3-ilova). 3.4. Gruppalar berilgan masalani echishgandan so'ng prezentatsiya qiluvchi talabani o'qituvchini o'zi tayinlashini e'lon qiladi va har bir grupp qatnashuvchisini olgan bahosi umumiy grupp uchun olingan baho bilan tenglashtirilishi to'g'risida tushuntiradi. 3.5. Prezentatsiyani va gruppalar ishini natijasini baholashni tashkillashtiradi. 3.6. Agar gruppaning javobi qoniqarli bo'lmasa unda javobni to'ldirishni taklif etadi. 3.7. Olingan bilimni umumlashtirib, taxlil qiladi va to'g'ri javobni beradi.	Berilgan topshiriqni bajari-shadi. Bajargan ishlar-ini prezentatsiya qili-shadi (5 minutga-cha). Qolgan tala-balar savollar ber-ib, javobni to'ldirib ishtirok etishadi va baholashadi
4-bosqich. Yakuniy qism (5 min.)	4.1. Amaliy mashg'ulot bo'yicha qo'yilgan masalani echilganligiga yakun yasaydi, baholaydi va rag'batlantiradi. 4.2. Kelgusi darsda 7-mavzu: «Yuridik shaxslardan olinadigan bojxona to'lovlari» bo'yicha ma'ruza bo'lishini e'lon qilib, uni Insert usulida o'qib, mustaqil tayyorlanib kelishlarini tushuntiradi.	Talabalar eshitadi va yozib oladi, aniqlaydi.

Bajarilgan topshiriqni natijalari: ko'rsatkichlari va mezonlari

Gru ppa	Javobni aniqligi, to'liqligi (1.0)				Kurgazmalig iga (0,5)				Gruppadagi har bir qatnashu- vchini faol- ligiga (0,5)				Ballarni umumiys i	Umumi y balni 3ga bo'liganl igi	Gruppaning umumiy bahosi
	1	2	3	4	1	2	3		1	2	3	4	6,0	2,0	
1															
2															
3															
4															

Individul bahosi test uchun javob bahosi bilan baravar (1 ball) va gruppalarni bahosi (2 ball). Umumiy amaliy mashg'ulot uchun maksimum baho – 3ball: 2,2 – 3 ballgacha «a'lo»; 1,2 - 2 balgacha «yaxshi»; 0,5 – 1,1 balgacha «qoniqarli»; 0 – 0,5 balgacha «yomon».

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish ularning bojxona rejimlariga muvofiq amalga oshiriladi. Quyidagi turdagi bojxona rejimlari (bundan buyon matnda rejim) belgilanadi:

- 1) erkin muomalaga chiqarish (import);
- 2) reimport;
- 3) eksport;
- 4) reeksport;
- 5) tranzit;
- 6) vaqtincha olib kirish (olib chiqish);
- 7) vaqtincha saqlash;
- 8) bojxona ombori;
- 9) erkin bojxona zonasi;
- 10) erkin ombor;
- 11) boj olinmaydigan savdo do'koni;
- 12) bojxona hududida qayta ishlash;
- 13) bojxona nazorati ostida qayta ishlash;
- 14) bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash;
- 15) yo'q qilish;
- 16) davlat foydasiga voz kechish.

Shaxs, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlar va transport vositalarining xususiyati, miqdori, qaysi mamlakatda ishlab chiqarilgani yoki qaysi maqsadga mo'ljallanganligidan qat'i nazar, istalgan rejimni tanlashga yoki uni boshqasiga o'zgartirishga haqli.

Rejimlarning qo'llanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Erkin muomalaga chiqarish. Erkin muomalaga chiqarish shunday rejimki, bunda bojxona hududiga olib kirilgan tovarlar ularni ushbu hududdan olib chiqib ketish majburiyatisiz bu erda doimiy qoladi.

Rejim import bojlarini, soliqlarni va boshqa boj to'lovlarini to'lashni, iqtisodiy siyosat choralari va hamda boshqa chora-tadbirlarga rioya etishni nazarda tutadi.

Reimport. Reimport shunday rejimki, bunda eksport rejimida bojxona hududidan olib chiqilgan O'zbekiston tovarlari import bojlarini, soliqlarni to'lamasdan, shuningdek ularga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda ushbu moddaning ikkinchi qismida belgilangan muddatlarda qayta olib kiriladi.

Olib chiqilgan paytdan boshlab o'n yil ichida bojxona hududiga qaytarib olib kirilgan, tabiiy eskirish yoxud normal tashish va saqlash sharoitlarida kamayish oqibatidagi o'zgarishlar hamda qonun hujjatlarida belgilanadigan boshqa hollarni istisno etganda, olib chiqilgan paytda qanday bo'lsa, shunday holatda turgan tovarlar reimport rejimiga joylashtiriladi.

Tovarlarni eksport rejimida olib chiqilayotganda to'langan eksport boji va soliqlar summasi, bu tovarlar olib chiqilgan paytdan boshlab uch yil ichida reimport rejimida qaytarib olib kirilgan taqdirda, bojxona organining taqdimnomasi bo'yicha qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda qaytariladi.

Tovarlar reimport qilinganda tovarlarni olib o'tayotgan shaxs tovarlarni olib chiqish chogida to'lov tarzida yoki boshqa imtiyozlar tufayli olgan summalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaytaradi.

Eksport. Eksport shunday rejimki, bunda tovarlar bojxona hududidan tashqariga ularni ushbu xududga qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqiladi. Eksport rejimiga joylashtirilgan tovarlar O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida Bojxona kodeksida nazarda tutilgan hollarda bu xududdan tashqariga amalda olib chiqib ketilmagan holda turishi mumkin.

Tovarlarni eksport rejimida olib chiqish eksport boji va boshqa bojxona to'lovlari to'langan, iqtisodiy siyosat choralari rioya etilgan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablar bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi.

Eksport rejimida olib chiqilayotganda tovarlar soliqlardan ozod etiladi yoxud to'langan soliqlar summasi qonun hujjatlariga muvofiq qaytarilishi lozim.

Tovarlar eksport rejimida chiqarilayotganda tovarlar bojxona hududidan tashqariga, tovarlar holatining tabiiy eskirish yoki normal tashish va saqlash sharoitlarida kamayish oqibatidagi o'zgarishlarni istisno etganda, bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kunda qanday bo'lsa, shunday holatda olib chiqilishi lozim.

Reeksport. Reeksport shunday rejimki, bunda chet el tovarlari bojxona hududidan olib chiqiladi.

Agar tovarlar bojxona organiga keyinchalik reeksport rejimida olib chiqib ketishga mo'ljallangan tovar sifatidagina ma'lum qilingan bo'lsa, ular bojxona hududiga olib kiritilayotganda import bojlari, soliqlar hamda iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmaydi. Bunday tovarlarni amalda olib chiqish bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kundan boshlab olti oydan kechiktirmay amalga oshiriladi. Amalda olib chiqib ketilmagan taqdirda import bojlari, soliqlar, shuningdek ular yuzasidan foizlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lanadi.

Tovarlar reeksport rejimida olib chiqilayotganda eksport bojlari, soliqlar undirilmaydi, olib chiqish chogida amal qilib turgan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Tovarlar reeksport rejimida olib chiqilayotganda to'langan import bojlari va soliqlar qaytarilishi va ayni bir paytda quyidagi talablarga rioya etilishi lozim:

- reeksport qilinayotgan tovarlar olib kirilgan paytda qanday bo'lsa, shunday holatda bo'lsa, tabiiy eskirish yoki normal tashish va saqlash sharoitlarida kamayish oqibatidagi o'zgarishlar bundan mustasno;

- reeksport rejimida tovarlarni olib chiqish ular olib kirilgan paytdan boshlab ikki yil ichida amalga oshirilayotgan bo'lsa;

- reeksport qilinayotgan tovarlardan daromad olish maqsadida foydalanilmagan bo'lsa.

Tranzit. Tranzit shunday rejimki, bunda tovarlar O'zbekiston Respublikasining ikki bojxona organi o'rtasida, shu jumladan chet davlat xududi orqali, boj, soliqlar undirilmadan, shuningdek tovarlarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanmasdan bojxona nazorati ostida olib o'tiladi.

Tovarlarni tranzit rejimida O'zbekiston Respublikasi hududi orqali olib o'tish bojxona organining ruxsati bilan istalgan yo'llar va yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Vaqtincha olib kirish (olib chiqish). Vaqtincha olib kirish (olib chiqish) shunday rejimki, bunda bojxona hududida yoki undan tashqarida tovarlardan bojdan, soliqlardan to'la

yoki qisman ozod etilgan holda va tovarlarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmasdan foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Vaqtincha olib kirish (olib chiqish) rejimiga joylashtiriladigan tovarlar o'zgartirmasdan qaytarilishi lozim, tabiiy eskirish yoxud normal tashish va saqlash sharoitlarida kamayish oqibatidagi o'zgarishlar bundan mustasno.

Vaqtincha olib kirish (olib chiqish) rejimiga joylashtiriladigan tovarlarni boj va soliqlar to'lashdan to'la yoki qisman ozod qilish qonun hujjatlarida belgilanadi.

Tovarlarni vaqtincha olib kirish (olib chiqish) rejimiga joylashtirishga, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ularni qayta olib chiqish yoki qayta olib kirish majburiyati taqdim etilgan, bojxona to'lovlari to'lanishi ta'minlangan, tovarlarning aynanligi ta'minlangan taqdirda bojxona organining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.

Vaqtincha olib kirish (olib chiqish) rejimiga joylashtirilmaydigan tovarlarning ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Tovarlarni vaqtincha olib kirish (olib chiqish) rejimiga joylashtirish mumkin bo'lgan muddat. Tovarlarni vaqtincha olib kirish (olib chiqish) rejimiga joylashtirish mumkin bo'lgan muddat bojxona organlari tomonidan bunday olib kirish (olib chiqish)ning maqsadlari va holatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi va uzaytiriladi, biroq tovarlar bunday rejimda turishining umumiy muddati ikki yildan oshmasligi kerak. Tovarlarning ayrim toifalari uchun qonun hujjatlariga muvofiq ancha uzoqroq muddatlar belgilanishi mumkin.

Tovar belgilangan muddat tugagunga qadar unga nisbatan vakolati bo'lgan shaxs tomonidan bojxona hududidan tashqariga olib chiqilishi yoki u erga olib kirilishi yoxud boshqa bojxona rejimiga joylashtirilishi lozim. Bu talablarga rioya etilmagan taqdirda tovar bojxona organi egalik qiladigan bojxona omboriga vaqtincha saqlash rejimiga joylashtiriladi.

Agar tovarlar halokat oqibatida yoki engib bo'lmas kuch ta'sirida yo'q bo'lganligi yoki mutlaqo yo'qolganligi, tabiiy eskirishi yoki normal tashish va saqlash sharoitida kamayishi tufayli etishmasligi yoxud chet davlat organlari yoki mansabdor shaxslarining O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga xilof xatti-harakatlari natijasida shaxsning egaligidan chiqib ketganligi O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatiya vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari tomonidan tasdiqlansa, tovarlarni vaqtincha olib chiqqan va ularni belgilangan muddatda qaytarib olib kirmagan shaxs bojxona organlari oldida javobgar bo'lmaydi.

Vaqtincha saqlash. Vaqtincha saqlash shunday rejimki, bunda olib kirilgan tovarlar va transport vositalari bojxona organiga taqdim etilgan paytdan boshlab chiqarishga ruxsat berilgunga qadar tanlangan rejimiga muvofiq bojxona omborida boj, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmasdan vaqtincha saqlanadi. Bojxona kodeksiga muvofiq vaqtincha saqlash rejimiga boshqa tovarlar va transport vositalari ham joylashtirilishi mumkin.

Tovarlar va transport vositalarini vaqtincha saqlash rejimiga joylashtirishda qisqa deklaratsiya qo'llaniladi.

Tovarlarning vaqtincha saqlash rejimida turish muddati ikki oydan oshmasligi lozim, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Vaqtincha saqlash rejimiga joylashtirilgan tovarlar bilan qilinadigan operatsiyalar ro'yxati va ularni amalga oshirish tartibi Bojxona kodeksida belgilanadi.

Bojxona ombori. Bojxona ombori shunday rejimki, bunda olib kirilgan tovarlar saqlash davrida import boji, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmasdan bojxona nazorati ostida saqlanadi, eksport rejimida olib chiqishga mo'ljallangan tovarlar esa bojxona nazorati ostida Bojxona kodeksining 26-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar berilgan holda saqlanadi.

O'zbekiston Respublikasiga olib kirish, O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit olib o'tish man etilgan tovarlar hamda ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadigan boshqa tovarlar bojxona ombori rejimiga joylashtirilishi mumkin emas.

Tovarlar bojxona ombori rejimida uch yil mobaynida turishi mumkin. Ushbu muddat tovarlarning ayrim toifalari va ayrim shaxslar uchun qonun hujjatlari bilan cheklanishi mumkin, lekin u bir yildan kam bo'lmasligi kerak.

Belgilangan muddat tugagunga qadar tovarga nisbatan vakolatga ega bo'lgan shaxs tomonidan tovarni boshqa bojxona rejimiga joylashtirish so'ralishi kerak. Bu talablarga rioya etilmagan taqdirda, tovar bojxona organiga qarashli bojxona omboriga vaqtincha saqlash rejimiga joylashtiriladi.

Bojxona ombori rejimiga joylashtirilgan tovarlar bilan qilinadigan operatsiyalar ro'yxati va ularni amalga oshirish tartibi Bojxona kodeksida belgilanadi. Bojxona ombori shunday rejimki, bunda olib kirilgan tovarlar saqlash davrida import boji, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmasdan bojxona nazorati ostida saqlanadi, eksport rejimida olib chiqishga mo'ljallangan tovarlar esa bojxona nazorati ostida Bojxona kodeksining 26 - moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar berilgan holda saqlanadi.

O'zbekiston Respublikasiga olib kirish, O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit olib o'tish man etilgan tovarlar hamda ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadigan boshqa tovarlar bojxona ombori rejimiga joylashtirilishi mumkin emas.

Tovarlar bojxona ombori rejimida uch yil mobaynida turishi mumkin. Ushbu muddat tovarlarning ayrim toifalari va ayrim shaxslar uchun qonun hujjatlari bilan cheklanishi mumkin, lekin u bir yildan kam bo'lmasligi kerak.

Belgilangan muddat tugagunga qadar tovarga nisbatan vakolatga ega bo'lgan shaxs tomonidan tovarni boshqa bojxona rejimiga joylashtirish so'ralishi kerak. Bu talablarga rioya etilmagan taqdirda, tovar bojxona organiga qarashli bojxona omboriga vaqtincha saqlash rejimiga joylashtiriladi.

Bojxona ombori rejimiga joylashtirilgan tovarlar bilan qilinadigan operatsiyalar ro'yxati va ularni amalga oshirish tartibi Bojxona kodeksida belgilanadi.

Agar tovarlarni amalda chetga olib chiqish vaqtida to'lovlardan ozod qilish yoki to'langan summani qaytarish nazarda tutilgan bo'lsa, bojxona ombori rejimiga joylashtirilgan va eksport rejimiga ko'ra olib chiqishga mo'ljallangan tovarlar bojdand, soliqlardan ozod qilinadi yoxud to'langan summalar qaytariladi. Bu tovarlar bojxona ombori rejimiga joylashtirilgan kundan boshlab uch oydan kechikmay olib chiqilishi lozim.

Tovarlar belgilangan muddatlarda amalda olib chiqilmagan taqdirda boj, soliqlar, shuningdek ularning foizlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda to'lanadi.

Erkin bojxona zonasi va erkin ombor. Erkin bojxona zonasi va erkin ombor shunday rejimlarki, bunda chet el tovarlari muayyan hududlar va joylarda boj, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmasdan joylashtiriladi va ishlatiladi, O'zbekiston tovarlari esa

eksport rejimiga muvofiq olib chiqishda qo'llaniladigan shartlarga ko'ra joylashtiriladi va ishlatiladi.

Erkin bojxona zonasi va erkin ombor rejimlari qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Tovarlar erkin bojxona zonasi va erkin ombor rejimlarida cheklanmagan muddatlargacha turishi mumkin.

Erkin bojxona zonalari va erkin omborlarda, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlar bilan ishlab chiqarish va tijorat operatsiyalarini bajarishga yo'l qo'yiladi, ularning chakana savdosi bundan mustasno.

Bojxona kodeksining va boshqa qonun hujjatlarining qoidalariga rioya etmayotgan ayrim shaxslarga bojxona organlari tovarlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishni taqiqlab qo'yishi hamda erkin bojxona zonalari va erkin omborlarga moneliksiz kirib chiqishni rad etishi mumkin.

Erkin bojxona zonasi rejimi amal qilayotgan hududda binolar, imoratlar va inshootlar barpo etishga bojxona organi bilan kelishgan holda yo'l qo'yiladi.

Erkin bojxona zonasi va erkin ombor rejimlarida turgan tovarlarni erkin muomalaga yoki eksportga chiqarish rejimlariga joylashtirganda, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, boj, soliqlar hamda iqtisodiy siyosat choralari tovarlarning kelib chiqishiga qarab qo'llaniladi.

Tovarning kelib chiqishi to'grisidagi sertifikat bo'lmagan taqdirda tovarga: olib chiqilayotganda eksport boji, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanish maqsadlarida O'zbekiston tovari deb, boshqa maqsadlarda esa chet el tovari deb qaraladi.

Erkin bojxona zonasi yoki erkin ombor rejimlariga joylashtirilayotgan va eksport rejimida O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqishga mo'ljallangan tovarlar, agar tovarlarni amalda olib chiqishda eksport boji va soliqlardan ozod qilish yoki to'langan summalarni qaytarish nazarda tutilgan bo'lsa, eksport bojidan, soliqlardan ozod qilinadi yoxud to'langan summalar qaytariladi. Bunday tovarlarni amalda olib chiqish boj, soliqlar qaytarilgan yoki ulardan ozod qilingan kundan boshlab olti oydan kechiktirmay amalga oshirilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqilishi lozim bo'lgan tovarlar erkin bojxona zonalari hududidan va erkin omborlardan bojxona hududiga qaytarilganda yoxud belgilangan muddatlarda ular amalda olib chiqib ketilmagan taqdirda, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda boj, soliqlar, shuningdek ularning foizlari to'lanadi.

Boj olinmaydigan savdo do'koni. Boj olinmaydigan savdo do'koni shunday rejimki, bunda tovarlar bojxona hududining bojxona organlari Bojxona kodeksiga muvofiq belgilaydigan joylarida boj, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmasdan bojxona nazorati ostida turadi hamda realizatsiya qilinadi.

Boj olinmaydigan savdo do'koni rejimiga bojxona hududiga olib kirish hamda undan olib chiqish va O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilish taqiqlangan tovarlar joylashtirilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinishi cheklangan tovarlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boj olinmaydigan savdo do'koni rejimida realizatsiya qilinishi mumkin.

Boj olinmaydigan savdo do'koni rejimiga joylashtirilgan tovarlar boj olinmaydigan maxsus savdo do'konlarida realizatsiya qilinadi.

Tovarlarni qayta ishlash. Tovarlarni qayta ishlashga quyidagilar kiradi:

– tovarlarni bevosita qayta ishlash yoki ularga ishlov berish, shu tovarlarning va foydalanilayotgan boshqa tovarlarning yo'qoladigan o'ziga xos xususiyatlarini qayta ishlash mahsulotlarida saqlab qolgan holda;

– yangi tovarlarni tayyorlash, shu jumladan tovarlarni ularning asosiy xususiyatlarini qayta ishlash mahsulotlarida saqlab qolgan hodda montaj qilish, yig'ish yoki qismlarga ajratish;

– tovarlarni ta'mirlash, shu jumladan ularni tiklash, yangilash va tartibga keltirish, ularning shikastlangan yoki eskirib qolgan tarkibiy qismlarini (elementlarini) almashtirish yoki tiklash, shuningdek nuqsonlarini bartaraf etish;

– tovarlarni qayta ishlashga yordam beradigan yoxud bunday ishni engillashtiradigan boshqa tovarlardan to'liq yoki qisman foydalanish.

Ayrim tovarlarga nisbatan qayta ishlash rejimidan foydalanishga doir cheklovlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Tovarlarni qayta ishlash uchun ruxsatnoma ariza beruvchining yozma murojaatiga asosan bojxona organi tomonidan quyidagi hollarda beriladi:

– tovarlarni ularning qayta ishlash mahsulotlarida qiyoslash mumkin bo'lsa, qonun hujjatlarida belgilanadigan hollar bundan mustasno;

– qayta ishlash jarayonining texnik-iqtisodiy asoslari vakolatli organ bilan kelishilgan bo'lsa;

– tovarlarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga zarar etkazmasligi haqida vakolatli organning xulosasi bo'lsa;

– alohida xususiyatga ega bo'lgan tovarlar ro'yxatiga kiritilgan tovar yoki qayta ishlash mahsulotini olib kirish va olib chiqish uchun vakolatli organning maxsus ruxsatnomasi bo'lsa;

– bojxona ishi haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlashga doir boshqa talablar bajarilgan bo'lsa.

Tovarlarni qayta ishlash uchun ruxsatnoma berish yoki bunday ruxsatnoma berishni rad etish haqidagi qaror uni qabul qilish uchun barcha zarur hujjatlar olingan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida bojxona organi tomonidan qabul qilinib, ariza beruvchi bu haqda yozma ravishda xabardor etiladi.

Tovarlarni qayta ishlash uchun ruxsatnoma berish, agar ariza beruvchi tomonidan lozim darajada rasmiylashtirilmagan hujjatlar taqdim etilgan bo'lsa yoki taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri yoxud buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar bo'lsa, shuningdek Bojxona kodeksi talablariga rioya etilmagan boshqa hollarda rad etilishi mumkin.

Tovarlarni qayta ishlash uchun ruxsatnoma berish rad etilgan taqdirda, bojxona organi bu haqda ariza beruvchini rad etish sabablarini hamda ariza beruvchi ko'rsatilgan sabablarni bartaraf etib, hujjatlarni takroriy ko'rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin bo'lgan muddatni ko'rsatgan holda yozma ravishda xabardor qiladi.

Tovarlarni qayta ishlash uchun ruxsatnoma berish rad etilishiga asos bo'lgan sabablarni ariza beruvchi bartaraf etgan bo'lsa, hujjatlarni takroriy ko'rib chiqish ariza va barcha zarur xujjatlar olingan kundan e'tiboran o'n kundan oshmaydigan muddat ichida bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi.

Bojxona hududida qayta ishlash. Bojxona xududida qayta ishlash shunday rejimki, bunda tovarlar O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga import bojlari, soliqlar

to'lanmagan va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanmagan holda bojxona nazorati ostida qayta ishlash uchun olib kirilib, keyinchalik qayta ishlash mahsulotlari olib chiqiladi yoki ular o'zga rejim ostida joylashtiriladi.

Bojxona hududida qayta ishlash rejimi ostida har qanday tovarlar joylashtirilishi mumkin, ana shunday rejim ostida joylashtirilishi qonun hujjatlari bilan taqiqlangan tovarlar bundan mustasno.

Chet ellik yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida olingan O'zbekiston tovarlari bojxona hududida qayta ishlash rejimi ostida joylashtirilishi mumkin. Mazkur tovarlar O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga amalda olib chiqib ketilmagan holda eksport rejimi ostida joylashtirilib, keyinchalik bojxona hududida qayta ishlash rejimida deklaratsiyalanadi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirilgan tovarlar va qayta ishlash mahsulotlari ularni olib chiqish paytida eksport bojlari va soliqlardan ozod qilinadi. Mazkur tovarlar va qayta ishlash mahsulotlariga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmaydi.

Qayta ishlash mahsulotlari erkin muomalaga chiqarilganda import bojlari va soliklar qayta ishlash uchun foydalanilgan tovarlarning qiymati hamda ularga nisbatan qo'llanilgan to'lovlar stavkalariga qarab to'lanadi.

Qayta ishlash mahsulotlarini O'zbekiston tovarlari bilan almashtirishga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda yo'l qo'yiladi.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash. Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash shunday rejimki, bunda tovarlar eksport bojlari, soliqlar to'lanmagan va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanmagan holda qayta ishlash uchun olib chiqilib, keyinchalik qayta ishlash mahsulotlari erkin muomalaga chiqarish rejimida olib kiriladi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida erkin muomalada bo'lgan har qanday tovarlar bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimi ostida joylashtirilishi mumkin, olib kirilishi (olib chiqilishi) qonun hujjatlari bilan taqiqlangan tovarlar bundan mustasno.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimidan quyidagi hollarda foydalanish mumkin emas:

- agar tovarlarni olib chiqish import bojlari va soliqlarning to'langan summalarini qaytarishni, import bojlari va soliqyaardan ozod qilishni yoki olib chiqish chog'ida to'lovlar olishni talab qilish uchun asos bo'lsa;

- import bojlari va soliklardan ozod etishning amal qilib turgan vaqti mobaynida, agar uning amal qilishi tovarlarni erkin muomalaga chiqarishda ularni qayta ishlash uchun olib chiqilgunga qadar foydalanilgan bo'lsa;

- qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda.

- qayta ishlash mahsulotlarini chet el tovarlari bilan almashtirishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi.

Olib kirilayotgan qayta ishlash mahsulotlarini erkin muomalaga chiqarish rejimida bojxona rasmiylashtiruvi chog'ida import bojlari va soliklar qayta ishlash qiymatiga hamda qayta ishlash mahsulotlariga nisbatan qo'llaniladigan bojlar va soliqlar stavkalariga qarab to'lanadi.

Qayta ishlash uchun olib chiqilgan tovarlar qaytarib olib kirilganda import bojlari va soliklar to'lanmaydi.

Qayta ishlash mahsulotlari, agar qayta ishlashdan maqsad olib chiqilgan tovarlarni qonun hujjatlari yoki shartaomaga binoan beg'araz ta'mirlashdan iborat bo'lganligiga

bojxona organi belgilangan tartibda ishonch hosil qilsa, import bojlari va soliqlardan ozod qilinadi, tovarlarni erkin muomalaga dastlabki chiqarishda nuqsoni mavjudligi hisobga olingan hollar bundan mustasno.

Tovarlarni qayta ishlash uchun olib chiqqan va tovarlarni qaytarmagan yoki qayta ishlash mahsulotlarini belgilangan muddatda olib kirmagan shaxs Bojxona kodeksi 23-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hollarda javobgar bo'lmaydi.

Tovarlarni qayta ishlash muddati bojxona organi tomonidan belgilanadi va bu muddat ikki yildan ortiq bo'lishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tovarlarning ayrim toifalariga nisbatan qayta ishlashning bir muncha uzaytirilgan muddatlarini belgilashi mumkin.

Tovarlarni qayta ishlash muddatini belgilashda tovarlarni qayta ishlash jarayoni qancha davom etishi va qayta ishlash mahsulotlarini tasarruf etish hisobga olinadi.

Tovarlarni qayta ishlash muddati tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash rejimi ostida yoki bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimi ostida joylashtirilgan kundan e'tiboran, tovarlar alohida tovar turkumlari qilib olib kirilganda (olib chiqilganda) esa tovarlarning birinchi turkumi tegishli rejim ostida joylashtirilgan kundan e'tiboran o'ta boshlaydi.

Tovarlarni qayta ishlash mahsulotlarida bojxona maqsadlari uchun qiyoslash ishlab chiqarishda foydalaniladigan xom ashyo, materiallar va butlovchi buyumlar haqidagi, shuningdek qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi texnologiyalar haqidagi mufassal ma'lumotlarni taqdim etish yo'li bilan yoki qayta ishlash vaqtida bojxona nazoratini olib borish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bojxona hududida tovarlarni qayta ishlash mahsulotlarida qiyoslashga nisbatan qo'yiladigan talablar O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Tovarlarni qayta ishlash mahsulotlarida qiyoslash quyidagi hollarda talab etilmaydi:

- qayta ishlash chog'ida ishlab chiqarishning uzluksiz turkumlariga taalluqli texnologiya jarayonidan foydalanilayotgan bo'lsa;

- qayta ishlash chog'ida qayta ishlash amalga oshirilayotgan mamlakatdan boshqa mamlakatlarning bojxona hududida xuddi shunday va (yoki) ayni bir xil qayta ishlash mahsuloti ishlab chiqarilishini istisno etuvchi noyob texnologiya jarayonidan foydalanilayotgan bo'lsa.

Olib kirilayotgan qayta ishlash mahsulotlarini qiyoslash uchun bojxona organlari tovarlarning ishlab chiqarilgan joyi haqidagi sertifikatlardan, shuningdek mazkur tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqarida qayta ishlashga taalluqli boshqa hujjatlardan foydalanishlari mumkin.

Qayta ishlash mahsulotlarining chiqishi normasi muayyan miqdordagi tovarlarni qayta ishlash natijasida hosil bo'ladigan qayta ishlash mahsulotlarining miqdori yoki ularning foizdagi ifodasidir. qayta ishlash mahsulotlarining chiqishi normasi qayta ishlash uchun ruxsatnoma berilayotganda qayta ishlash amalga oshiriladigan sharoitlarni hisobga olgan holda bojxona organlari tomonidan belgilanadi yoki ular bilan kelishib olinadi. qayta ishlash mahsulotlarini tavsiflash, ularning sifati va miqdori qayta ishlash mahsulotlarining chiqishi normalari asosida belgilanadi.

Ekspert tashkilotlarining xulosalari asosida bojxona organlari qayta ishlash mahsulotlari chiqishining majburiy normalarini, agar bu bojxona maqsadlarida zarur bo'ladigan bo'lsa yoki tovarlarni qayta ishlashni amalga oshirishga yordam beradigan bo'lsa, belgilashga haqli.

Qayta ishlash mahsulotlarining chiqishi normalari qayta ishlash uchun beriladigan ruxsatnomada ko'rsatiladi.

Tovarlarni qayta ishlashga ruxsatnoma olgan shaxs tovarlarni qayta ishlashni Bojxona kodeksining 34-moddasiga muvofiq belgilangan muddat tugaydigan kundan kechiktirmasdan:

- bojxona hududida qayta ishlash rejimidan foydalangan taqdirda - qayta ishlash mahsulotlarini, qayta ishlanmagan tovarlar qoldiqlari va tovarlarni qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan chiqindilarni O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqqan holda;

- bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimidan foydalangan takdirda - qayta ishlash mahsulotlarini, qayta ishlanmagan tovarlar qoldiqlari va tovarlarni qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan chiqindilarni O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirgan holda tugallashi shart.

Qayta ishlash olib kirilgan tovarlar, ularni qayta ishlash mahsulotlari va chiqindilarni erkin muomalaga chiqarish rejimida, olib chiqilgan tovarlar, ularni qayta ishlash mahsulotlari va chiqindilarni esa, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, Bojxona kodeksida belgilangan shartlar asosida eksport rejimida joylashtirish bilan tugallanishi ham mumkin. Tovarlarni qayta ishlashga ruxsatnoma olgan shaxsning arizasiga binoan bojxona organi tovarlar, ularni qayta ishlash mahsulotlari va chiqindilarni bojxona hududida qayta ishlash rejimining yoki bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimining amal qilishini tugallashga, agar buning uchun sabablar asosli deb topilgan bo'lsa hamda basharti ayni shu rejimlar talablariga rioya etiladigan bo'lsa, ruxsat berishi mumkin. Bunday holda qayta ishlash rejimlarining amal qilishi yangi rejimlarning amal qilishi muddatiga to'xtatib qo'yiladi.

Qayta ishlash mahsulotlarini bojxona chegarasi orqali bir necha turkum qilib olib o'tishda qayta ishlash mahsulotlari miqdorining ruxsatnomada ko'rsatilganiga muvofiqqligini tekshirib turish vaqti-vaqti bilan, ammo uch oyda kamida bir marta va qayta ishlash mahsulotlarining oxirgi turkumi bojxona chegarasi orqali olib o'tilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshirilishi mumkin. Agar ana shunday tekshirib ko'rish natijasida qayta ishlashga ruxsatnoma olgan shaxs bojxona to'lovlarini to'lashi shart bo'lsa, bunda mazkur to'lovlarning summasiga, basharti bu summalar ularni to'lash zarurligi haqida bojxona organi tomonidan qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n qun ichida to'lanadigan bo'lsa, penya hisoblab chiqarilmaydi.

Yo'q qilish. Yo'q qilish shunday rejimki, bunda chet el tovarlari boj, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda bojxona nazorati ostida yo'q qilinadi, shu jumladan ular foydalanish uchun yaroqsiz holga keltiriladi.

Tovarlarni yo'q qilishga bojxona organining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi. Ruxsatnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi.

Tovarlarni yo'q qilish manfaatdor shaxs tomonidan o'z hisobidan amalga oshiriladi.

Tovarlarni yo'q qilish natijasida hosil bo'lgan chiqindilar bojxona nazorati ostida turgan chet el tovarlari sifatida tegishli rejimga joylashtiriladi.

Yo'q qilib tashlash uchun ruxsatnoma berish rad etilgan taqdirda tovarlar ularni olib kirgan shaxs hisobidan O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketiladi.

Davlat foydasiga voz kechish.

Davlat foydasiga voz kechish shunday rejimki, bunda shaxs tovarlarga nisbatan boj, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda ulardan davlat foydasiga voz kechadi.

Tovarlarni davlat foydasiga voz kechish rejimiga joylashtirishga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bojxona organining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.

Tovarlardan davlat foydasiga voz kechish davlatning xarajatlar qilishiga sabab bo'lmaydi.

Tovarlar va transport vositalari muayyan bojxona rejimiga joylashtirilguniga qadar qisqa deklaratsiya qo'llanilishi mumkin.

Bojxona organining ruxsati bilan qisqa deklaratsiya sifatida transport, tijorat hujjatlari va boshqa hujjatlardan, shu jumladan xalqaro tashishlarni amalga oshirish chogida qo'llaniladigan, chet tillarda tuzilgan hujjatlardan foydalanilishi mumkin.

Qisqa deklaratsiya tashuvchi tomonidan tovarlar va transport vositalarini ko'rsatish bilan bir vaqtda yoki bojxona organining ruxsati bilan tovarlar va transport vositalari ko'rsatilganidan keyin yigirma to'rt soat ichida topshiriladi.

Agar tovarlar ko'rsatilgan muddat ichida muayyan bojxona rejimiga joylashtirilsa, qisqa deklaratsiya topshirilmaydi.

Tashuvchi tomonidan qisqa deklaratsiya topshirish vakolati berilgan shaxs bo'lmasa, kapitan, haydovchi yoki transport vositasini boshqaruvchi boshqa shaxs bojxona organlari uchun shunday shaxs deb hisoblanadi.

Tashuvchining vakili qisqa deklaratsiyani rasmiylashtirishda bojxona organlariga yordam ko'rsatishi shart.

Qisqa deklaratsiyaning shakli va unda ko'rsatilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning ro'yxati va uni berish tartibi bojxona organlari tomonidan belgilanadi.

Olib kirilgan tovarlar va transport vositalari muayyan bojxona rejimiga joylashtirilguniga qadar ular uchun, shu jumladan boj to'lovlari to'lanishi uchun bojxona organlari oldida tashuvchi javobgar bo'ladi, Bojxona kodeksi 84 - moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hol bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan yoki bojxona rejimi o'zgartirilayotgan tovarlar va transport vositalari, shuningdek boshqa tovarlar va transport vositalari uchun qonun hujjatlarida belgilangan hollarda bojxona organiga deklaratsiya topshirilishi lozim.

Deklaratsiyalash tovarlar va transport vositalari to'grisidagi, ular joylashtiriladigan bojxona rejimlari haqidagi aniq ma'lumotlarni, bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni belgilangan shaklda bayon etish orqali amalga oshiriladi.

Deklaratsiyalashning shakli va tartibi, shuningdek bojxona deklaratsiyasida ko'rsatiladigan ma'lumotlarning ro'yxati qonun hujjatlarida belgilanadi.

Tovarlar uchun bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilayotgan bojxona organiga deklaratsiya topshiriladi.

Tovarlar tashiydigan transport vositalari tovarlar bilan bir vaqtda deklaratsiyalanadi.

Yuksiz transport vositalari va yo'lovchilar tashiyotgan transport vositalari O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasini kesib o'tish vaqtida deklaratsiyalanadi.

Dengiz, daryo va havo kemalari o'zi etib kelgan O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidagi port yoki aeroportda yoxud o'zi jo'nab ketgan O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidagi port yoki aeroportda deklaratsiyalanadi.

Bojxona deklaratsiyasi bojxona organlari tomonidan belgilangan muddatlarda topshiriladi. Bu muddatlar tovarlar va transport vositalari ko'rsatilgan kundan e'tiboran o'n besh kundan oshmasligi lozim.

Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlardagi tovarlarni qo'l yuki va bagaj holida bojxona chegarasidan olib o'tishda bojxona deklaratsiyasi tovarlarni ko'rsatish bilan bir vaqtda topshiriladi.

Bojxona hududiga kirib kelayotgan transport vositalari O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasini kesib o'tganidan keyin ko'pi bilan uch soat, bojxona hududidan chiqib ketayotgan transport vositalari esa O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasini kesib o'tishiga ko'pi bilan uch soat qolganida deklaratsiyalanadi.

Ushbu moddada ko'rsatilgan muddatlar bojxona organlari belgilaydigan tartibda va shartlarda uzaytirilishi mumkin.

Bojxona organi bojxona deklaratsiyasini qabul qilishni rad etishga haqli emas.

Bojxona deklaratsiyasi qabul qilinganligi rasmiylashtirilgan paytdan boshlab u yuridik ahamiyatga molik faktlardan dalolat beruvchi hujjatga aylanadi.

Bojxona deklaratsiyasini taqdim etish bilan bir vaqtda bojxona organiga boshqa zarur hujjatlar ham topshiriladi. Bojxona organi bojxona deklaratsiyasi va taqdim etilgan hujjatlarda bayon etilgan ma'lumotlarni tekshirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olishga haqli. Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar va qo'shimcha ma'lumotlar ro'yxati qonun hujjatlarida belgilanadi.

Bojxona organi etishmayotgan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish muddatlarini belgilashga haqli.

Bojxona organining ruxsati bilan xalqaro tashishlarda qo'llaniladigan chet tillarda tuzilgan hujjatlar taqdim etilishi mumkin.

Bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlar bojxona organining ruxsati bilan deklarant tomonidan o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi, topshirilgan bojxona deklaratsiyasi esa qaytarib olinishi mumkin.

O'zgartirish, to'ldirish yoki qaytarib olish faqatgina: bojxona deklaratsiyasini tekshirish boshlanguniga qadar; tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirish boshlanguniga qadar; ko'rsatilgan ma'lumotlarning noto'g'ri ekanligi bojxona organi tomonidan aniqlanguniga qadar amalga oshirilishi mumkin. Bojxona deklaratsiyasini o'zgartirish yoki to'ldirish uning amal qilish doirasini kengaytirishi yoki toraytirishi mumkin emas. Bojxona organlarining mansabdor shaxslari o'z tashabbusi bilan, shaxsning topshirigi yoki iltimosiga binoan yozma bojxona deklaratsiyasini to'ldirishga, bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'zgartirish yoki to'ldirishga haqli emas, bojxona organlarining vakolatiga kiritilgan ma'lumotlarni bojxona deklaratsiyasiga kiritish hollari, shuningdek agar mashinada ishlov berish uchun foydalaniladigan kodli ma'lumotlar bojxona deklaratsiyasida kodsiz ko'rinishda mavjud bo'lsa, kodli ma'lumotlarni o'zgartirish yoki to'ldirish bundan mustasno.

Agar deklarant alohida sabablar tufayli batafsil bojxona deklaratsiyasini taqdim eta olmasa, bojxona organi qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda muvaqqat yoki to'liq bo'lmagan bojxona deklaratsiyasini taqdim etish uchun ruxsat berishga haqli, bunda muvaqqat yoki to'liq bo'lmagan bojxona deklaratsiyasida bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan asosiy ma'lumotlar bayon etilishi va etishmayotgan ma'lumotlar bojxona organi belgilaydigan muddatlarda taqdim etilishi shart qilib qo'yiladi.

Ayni bir shaxs tomonidan ayni bir xil tovarlar va transport vositalari muntazam ravishda olib o'tilsa, bojxona organi muayyan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan barcha tovarlar va transport vositalariga bitta bojxona deklaratsiyasi berilishiga ruxsat etishi mumkin.

Davriy bojxona deklaratsiyasini topshirish hollari va tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Bojxona organlari tovarlar va transport vositalarini deklaratsiyalashning soddalashtirilgan tartibini belgilab qo'yishga haqli.

Tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi shaxs yoki bojxona brokeri deklarant bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxsi deklarant bo'lishi mumkin, jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali notijorat maqsadlarida tovarlar olib o'tish hollari va bojxona organlari belgilaydigan boshqa hollar bundan mustasno.

Deklarant, u bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi shaxs yoki bojxona brokeri bo'lishidan qat'i nazar, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha vazifalarni bajaradi va to'liq javobgar bo'ladi.

Deklarant bojxona deklaratsiyasini topshirgunga qadar bojxona nazorati ostida tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirishga, bojxona organining ruxsati bilan namunalar va nusxalar olishga haqli. Agar tovarlarga doir bojxona deklaratsiyasida hisobga olingan bo'lsa, namunalar va nusxalar olinganida ular haqida alohida bojxona deklaratsiyasi taqdim etilmaydi.

Tovarlar va transport vositalarini deklaratsiyalash chogida deklarant:

- Bojxona kodeksida nazarda tutilgan tartibga muvofiq tovarlar va transport vositalarini deklaratsiyalashga va bojxona organiga bojxona deklaratsiyasini topshirishga;
- bojxona organining talabiga binoan deklaratsiyalanayotgan tovarlar va transport vositalarini ko'rsatishga;
- bojxona organiga bojxona rasmiylashtiruv uchun zarur bo'lgan hujjatlar va qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishga;
- bojxona to'lovlarini to'lashga; bojxona organlariga bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda yordam berishga majburdir.
- qonun hujjatlarida deklarantning boshqa huquq va majburiyatlari ham nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Bojxona brokeri o'zini vakil qilgan shaxs hisobidan va uning topshirig'iga binoan bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha operatsiyalarni o'z nomidan o'tkazuvchi hamda bojxona ishi sohasida boshqa vositachilik vazifalarini bajaruvchi O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxsidir.

Bojxona brokeri bilan uni vakil qilgan shaxsning o'zaro munosabatlari shartnoma asosida yo'lga qo'yiladi.

Bojxona brokerining bojxona organlari oldidagi huquqlari va majburiyatlari uni vakil qilgan shaxs bilan tuzilgan shartnomada cheklab qo'yilishi mumkin emas.

Yuridik shaxs bojxona brokeri sifatida faoliyat olib borish uchun:

- xodimlar shtatida bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassisga ega bo'lishi;
- Bojxona kodeksi 100-moddasi ikkinchi qismining beshinchi xatboshisida nazarda tutilgan hollarda fuqarolik javobgarligini sug'urtalash haqida shartnoma tuzishi shart.

Yuridik shaxslarning bojxona brokeri sifatidagi faoliyati ustidan nazorat olib borish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassis bojxona organi tomonidan berilgan bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassisning malaka attestati bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi - deklarant bilan mehnat shartnomasi tuzgan va shu deklarant nomidan bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha harakatlarni amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasining jismoniy shaxsidir.

Deklarant bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassisning bojxona organlari oldidagi majburiyatlarini cheklab qo'yishi mumkin emas.

Bojxona kodeksida bayon etilgan bojxona rejimlaridan biri vaqtincha olib kirish (olib chiqish) bojxona rejimi bo'lib bugungi kunda bu rejimda tovarlarni rasmiylashtirishda ma'lum muammolar mavjud. Bu muammolar mustaqillikning dastlaki kunlaridan boshlab davom etib kelmoqda.

Bojxona kodeksida vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga kiritilgan tovarlar va transport vositalarini rasmiylashtirish masalalari keng yoritilmagan va juda qisqa ta'rif berilgan, moddalarda rasmiylashtirish qoidalari to'liq aks ettirilmagan.

Vaqtincha olib kirish rejimiga joylashtirilgan tovarlarni boj va soliqlar to'lashdan to'la yoki qisman ozod qilish kanday va qaysi holatlarida amalga oshirilish anik ko'rsatilmagan.

Bugungi kunga qadar, ushbu bojxona rejimini muvofiklashtiruvchi, uning qonun-qoida va tartiblarni o'zida anik jamlab turuvchi yo'riqnoma io'lab chikilgan bo'lsada, vakolatli organlardan ro'yxatdan o'tkazilmagan. Bu xol vaktincha olib kirayotgan (olib chikilayotgan) tovarlar va transport vositalarini rasmiylashtirishga bojxona xodimlarining o'z vazifalarini okilona bajarishda va anik karor kabul qilishlarida kiyinchiliklar tugdirmokda, shuningdek yuridik hamda jismoniy shaxslar oldida ma'lum muammolarning kelib chikishiga sabab bo'lmokda.

Kiota Konventsiyasiga 31ta ilova kiritilgan bo'lib, ularning xar biri bojxona faoliyatining ma'lum bir soxalarini, masalan, erkin muomala uchun bojxona tekshiruv, bojxona tranziti, yo'lovchilarning bojxonada rasmiylashtirilishi kabilarni kamrab oladi. Konventsiya axdlashuvchi tomonlarning bir-birlariga katta imtiyozlar berishidagi xukuklarini ham kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Butunjaxon Bojxona Tashkilotiga va Evropa hamjiiyatiga a'zo mamalakatlar o'rtasidagi sherikchilik va hamkorlik to'g'risidagi Shartnomaga a'zo bo'lganligi sababli bojxona konunlarini yukoridagi konventsiya tartiblaridan kelib chikkan xolda, unga moslashtirib ishlab chikishi va uni ko'llashi mumkin. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Kiota Konventsiyasiga a'zo emas.

O'zbekiston Respublikasidagi "Tashki iktisodiy faoliyat to'g'risida"gi, "Erkin iktisodiy zonalar to'g'risida"gi va boshka ko'plab konunlar bojxona ishiga u yoki bu darajada daxildordir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan u yoki bu masalalar bo'yicha konun kuchiga ega bo'lgan karorlar ham kabul kilinishi mumkin va ular ham bojxona soxasining xukukiy manbaliridan sanaladi.

Mazkur Konventsiyada bojxona rejimlari, ularni o'zgatirish tartiblari juda keng va tushunarli xolda belgilangan. Ushbu konventsiyaning taxriri kabul kilingan, lekin kuchga kiritilmagan, chunki uni kuchga kiritish shartlaridan biri bu konventsiyaga 63ta davlat a'zo bo'lib kirishi zarurligidir. Shundagina, bu konventsiya kuchga kiritiladi. Ushbu shartlarning bajarilishi va konventsiyaning kuchga kirishi 5-6 yilga cho'zilishi mumkin.

Bugungi kunda Kiota Konventsiyasining yangi taxririga atigi 10 davlat a'zo bo'lgan xolos. Rivojlangan davlatlar AKSh, Frantsiya, Germaniya va shunga o'xshash davlatlarning birortasi ham bu konventsiyaga a'zo bo'lganicha yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Butunjaxon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishi borasida ishlar davom ettirilmokda va Kiota Konventsiyasiga a'zo bo'lish ham aynan bunga hamoxang bo'ladi. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi xukumati va Davlat Bojxona Ko'mitasi raxbariyati tomonidan sa'y-xarakatlar olib borilmokda.

Vaktincha olib kirish (olib chikish) bojxona rejimi bo'yicha muammolarni echishda O'zbekiston Respublikasining 1990 yil 26 iyundagi "Vaktincha olib kirish xakida"gi Istanbul Konventsiyasiga a'zo bo'lishi maqsadga muvofik bo'lardi.

Konventsiyaning 13 nizomi mavjud bo'lib, biror bir davlat yoki bojxona xududi mazkur Konventsiyasiga ko'shilish yoki rasmiy tasdiklash to'g'risida izox bermasdan uni imzolashda, rasmiy tasdiklashda o'zi kabul kiladigan Nizomni ko'rsatadi, bunda "A" Nizomni va kamida yana bitta nizomni kabul kilishi lozim. U keyinchalik bir yoki bir necha boshka Nizomlarni kilishi to'g'risida depozitariylarni xabardor kilishi mumkin.

"Vaktincha kirish" bojxona rejimi borasida amaliyotda ma'lum kiyinchiliklarga duch kelinayotganligi bu soxada mavjud konun va me'yoriy aktlarni kayta ko'rib chikishni takazo etadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bu ko'yidagi yo'nalishlarda olib borilishi zarur:

1. Respublikamiz tashki iktisodiy alokalarni yanada rivojlantirish, xalkaro bojxona tashkilotlari bilan hamkorlikni yanada tarakkiy ettirishga va takomillashtirishga sabab bo'luvchi bojxona siyosatini yuritish.

2. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona organlari faoliyatining xukukiy asoslarini xalkaro bojxona xukuki normalari asosida yanada takomillashtirish.

3. "Bojxona tartiblarini soddalashtirish va muvofiklashtirish to'g'risida"gi 1973 yil 18 mayda imzolangan Kiota Konventsiyasiga O'zbekiston Respublikasining a'zo bo'lib kirishi borasidagi olib borilayotgan sa'y-xarakatlarni davom ettirish va unga a'zo bo'lshga erishish.

4. Vaktincha olib kirish (olib chikish) bojxona rejimi bo'yicha muammolarni tezrok xal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 1990 yil 26 iyundagi "Vaktincha olib kirish xakida"gi Istanbul Konventsiyasiga a'zo bo'lib kirishini ta'minlash.

5. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona konunchiligi yaratilish davrida O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lishi kutilayotgan Xalkaro xukuk normalari va konventsiyalar talablarini nazarda tutgan xolda ishlab chikilshi zarur, bu xolat bojxona konunchiligiga kayta o'zgartirishlar kiritilishi muammosini kamaytiradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda "Biz davlat kudratiga, xokimiyat va boshkaruvga karab emas, aksincha ularning ish tizimi kanchalik samara berayotganiga, ular faoliyatining konuniy asoslari kay darajada shakllanishiga karab baxo berishimiz kerak".

6-mavzu bo'yicha test variantlari:

1. Boj tarifi mexanizmni qo'llash davomida quyidagi asosiy vazifalar hal etiladi:
A)Imtiyoz, stavka, jarima
@B)Regulyativ, savdo - siyosiy, fiskal
C)Import bojlari, eksport bojari, vositachilik xaqi
D)harajatlar takibi
- 2.Import bojlarining yangi stavkalari qachon belgilangan?
A)1998 yil 24 fevral
@B)1998 yil 1 mart
C)1998 yil 21 mart
D)1998 yil 1 aprel
3. Eksport va import bojlaridan tashqari qonunda yana qanday bojlar nazarda tutilgan?
A)Mavsumiy - doimiy
B)Alohida - unikal
@C)Mavsumiy - alohida
D)Doimiy - unikal
4. «Boj tarifi to'g'risidagi» qonun qachon qabul qilingan?
@A)1997 yil 29 avgust
B)1997 yil 31 avgust
C) 1997 yil 7 dekabr
D)1997 yil 27 dekabr
5. Ilg'or rivojlangan davlatlarning aksariyatida asosan nechta bojxona rejimi amal qiladi?
A)10-18
B) 12-20
C) 13-19
@D)14-21
6. Import kiluvchi bojxona organining qarorida norozi bo'lgan taqdirda qanday chora ko'rish huquqiga ega?
@A)Yuqori turuvchi bojxona sud organiga shikoyat qilish
B)Sud organiga shikoyat qilish
C)Soliq, valyutaga oid jinoyat va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash departamenti
D)Prokuraturaga
7. Eksport va erkin muomalaga chiqarish (import) rejimlar bo'yicha Nizomla Adliya Vazirligida qachon ro'yxatdan o'tgan?
A)829-rakam bilan 1998 yil 1 yanvar
B)730 rakam bilan 1999 yil 25 may
@C)834-rakam bilan 1999 yil 3 noyabr
D)874-rakam bilan 2000 yil 24 iyul
8. «O'zbekiston Respublikasi hududida tamaki mahsulotlarga va sipirtli ichimliklarga aksiz markalarini joriy etish tartibi to'g'risidagi» 285 son qaror nechanchi yilda qabul qilindi?
A) 1995 yil 28 avgust

@ B) 1996 yil 14 avgust

C) 1996 yil 5 sentyabr

D) 1995 yil 10 sentiyabr

9. Oritqcha to'lovlar yoki undirilgan qo'shilgan qiymat solig'i shaxsning yozma arizasiga muvoffik necha kunda qaytarilishi yoki bo'lg'usi to'lovlar hisobiga o'tkazilishi lozim?

@A) 30 kun

B) 15 kun

C) 10 kun

D) 45 kun

10. Quyidagilarning qaysi biri bojxona siyosatining asosiy vazifalari hisoblanadi?

A) Bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish.

@B) Milliy iqtisodiyotning tarkibiy qayta qurilishiga ko'maklashish

C) Yagona davlat bojxona siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish.

D) Bojxona to'lovlarini undirish.

7.1. Ma'ruzani o'qitish texnologiyasi (ma'ruza-2 soat, amaliy mashg'ulot-2 soat)

<i>Tinglovchilar soni: 35-70 ta</i>	Vaqt-2 soat.
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Insert, T-sxema usullari bilan o'tiladigan axborot- ko'rgazmali ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Boj tarifini shakllantirishning mohiyati va xususiyatlari. 2. Bojxona to'lovlarining mohiyati va turlari. 3. Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.
<i>Ma'ruzaning maqsadi:</i>	Bojxona to'lovlari to'g'risidagi bilimni huqurlashtirish.
<i>Pedagogik vazifa:</i> - Bojxona to'lovlari haqida tushuncha berish va davlat byudjetini shakllantirishdagi salmog'i bilan tanishtirish; - Bojxona to'lovlarini to'lovchilari va boj ob'ekti bilan tanishtirish; - Bojxona to'lovlari stavkasi haqida tushuncha berish; - Bojxona to'lovlari belgilangan imtiyozlar bilan tanishtirish;	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i> Talaba bilishi kerak: - O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetini shakllantirishda bojxona to'lovlari tutgan o'rnini aniqlab beradi; - Bojxona to'lovlarini to'lovchilarini va bojning ob'ektini aytib beradi; - Bojxona to'lovlari stavkalarini aytib bera oladilar; - Bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlarni tahlil qilib bera oladilar; - Bojxona to'lovlari hisoblash va to'lash muddatlarini ko'rsatib beradilar;
<i>O'qitishning usuli</i>	Ma'ruza, blits-so'rov, T-sxema, Insert va diskussiya usuli;
<i>O'qitish vositasi</i>	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proektor, diagramma va grafiklar.
<i>O'qitishning shakli</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash
<i>O'qitish shartlari</i>	Ma'ruza o'qish uchun kerakli texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
<i>Monitoring va baho</i>	Kuzatish, og'zaki, yozma, nazorat, o'quv topshiriqlar.

Informatsion-vizual ko'rgazmali ma'ruzaning texnologik kartasi

Ish tartibi	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talabalar
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi. 1.2. Ma'ruzani o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi. 1.3. Ma'ruza mashg'ulotining tayanch iboralari va rejasiga izoh beradi.	1.1. Eshitadi va yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy qism (60 min.)	2.1. Ma'ruzaning birinchi savoli buyicha savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromad solig'ining iqtisodiy mohiyatini ochib beradi. O'quv mashg'ulotining ish rejasiga asosan birinchi savol buyicha ma'ruza qiladi, tayanch ma'lumotlarni ekranga chikaradi. Tayanch ma'lumotlarga izoh beradi, tushuntiradi va mazmunini ochib beradi. Darsda talabalarning faolligini oshirish maqsadida blits-so'rov o'tkazadi. 1. Boj tarifini shakllantirishning mohiyati va xususiyatlari nimalardan iborat? 2. Bojxona to'lovlarining mohiyatini tushuntirib bering? 3. Bojxona to'lovlarining qanday turlari mavjud? 4. Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi qanday? 2.2. Ekranga o'quv mashg'ulotining ikkinchi savoli buyicha tayanch ma'lumotlarini chiqarib ma'ruzani davom ettiradi (2s – «Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromad solig'i ob'ekti va manbalari»). Soliq ob'ektga e'tibor qilishi lozimligini tushuntiradi. (2-ilova) 2.3. Ma'ruzani o'qishda davom etadi va ekranga o'quv mashg'ulotining uchinchi savoli buyicha tayanch ma'lumotlarini chiqaradi 2.4. Ma'ruzaning to'rtinchi savoli buyicha tayanch ma'lumotlarga izoh beradi, tushuntiradi va mazmunini ochib beradi. (4-ilova) Talabalarga T-sxema usulidan foydalanishlarini aytadi. (5-ilova) 2.5. O'quv mashg'ulotining ish rejasiga asosan	2.1. Eshitadilar. Savollarga javob beradilar. 2.2. Eshitadi-lar va yozib oladilar. 2.3. Eshitadilar va yozib oladilar. beradi. 2.4. Yozib oladilar. T-sxema usulidan foydalanib bajaradi va qo'laydi. 2.5. Savollarga

	beshinchil savol buyicha ma'ruza qiladi, tayanch ma'lumotlarni ekranga chikaradi. Tayanch ma'lumotlarga izoh beradi, tushuntiradi va mazmunini ochib beradi. (6-ilova) Insert usulini qo'llab mavzuga yakun yasash mumkinligini aytadi. Insert usulidan foydalanish qoidasi bilan tanishtiradi. Insert jadvalini tarqatadi. (7-ilova) Insertni belgilash uchun ma'lumotlar. (8-ilova)	javob beradilar. Insert usulidan foydalanadilar.
3-bosqich. Yakuniy qism (10 min.)	3.1. Mavzuda qo'yilgan savollar va ulardan chiqqan muammolarni qanday hal qilinganligini o'qituvchi yakun yasaydi (xulosa qiladi). Darsda faol qatnashgan talabalarni baholaydi. (9-ilova) 3.2. Kelgusi ma'ruzaga yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rib kelishlarini aytadi.	Eshitadilar va yozib oladilar.

7.2 Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi

Tinglovchilar soni: 20 ta		7-mavzu - 2 soat.	
O'quv Mashg'ulotining shakli		Amaliy mashg'ulot	
O'quv Mashg'ulotining rejasi.		1. Boj tarifini shakllantirishning mohiyati va xususiyatlari. 2. Bojxona to'lovlarining mohiyati va turlari. 3. Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.	
O'quv mashg'ulotining maqsadi:		Bojxona to'lovlari tug'risidagi bilimlarini mustahkalash va chuqurlashtirish.	
Pedagogik vazifa: - Boj tarifini shakllantirishning mohiyati va xususiyatlari tushuntirib berish; - Bojxona to'lovlarining mohiyati va turlari ko'rib chiqish; - Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi aytib berish;		O'quv faoliyati natijasi: • Boj tarifini shakllantirishning mohiyati va xususiyatlari tushuntirib berish tug'risidagi nazariy bilimni egallaydi; • Bojxona to'lovlarining mohiyati va turlari o'zlashirib oladilar; • Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi bilib oladilar.	
O'qitish vositalari		Ma'ruza matni, darslik, kompyuter texnologiyasi, ekspert varaklari, grafiklardan foydalanish.	
O'qitish usullari		Amaliy mashg'ulot, bir-biridan o'rganish usuli;	
O'qitish shakli		Guruhlarda va «jamo bo'lib ishlash» usuli.	
O'qitish shart-sharoitlari		Texnik vositalar bilan ta'minlangan, guruhlarda ishlash usulini qo'llash mumkin bulgan auditoriya.	
Ish jaraenlari	Faoliyat mazmuni:		
	O'qituvchi	Tinglovchi	
1-bosqich (5 min)	1.1. O'quv mashgulotining mavzusini, maqsadini, o'tkazish tartibini va natijasini e'lon kiladi. 1.2. Bojxona to'lovlarini iqtisodiy mohiyati, bojxona tizimida tutgan o'rni va ahamiyati buyicha tinglovchilarning bilimlarini faol-lash tirish maqsadida savol-javob o'tkazadi.	Eshitadi	

2-bosqich Asosiy (65 min)	2.1. Muammoli o'qitish uslubidan foydalanib: - Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash tartibini aniqlang, aniqlash muammosi. T-sxemaga solib aniqlash. - Bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi bo'yicha insertni to'lg'azing	1 va 2 topshiriqlarni echishda tinglovchilar qanday muammolar borligi va ularni hal qilish yo'llarini aytib beradi. 3-toshiriqni T-sxema usulidan va insert usulidan foydalanib bajaradi va yoqlaydi. Ilova 1
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. Mavzuda qo'yilgan savollar va ulardan chiqqan muammolarni qanday hal qo'ilinganligini o'qituvchi yakun yasaydi (xulosa qiladi) va echilmagan muammolar ustida ishlash lozimligini aytadi. 3.2. Kelgusi mavzu e'lon qilinadi va unga tayyorgarlik ko'rish uchun mustaqil ishlash lozimligi tushuntiriladi. Texnologik o'qitishda ilgari ko'rsatilgan texnologik vositalar, texnik vositalar va darsni o'tkazishdagi umumiy uslublar qo'llaniladi.	Eshitishadi va yozib olishadi

6-Ilova (7.2)

Bojxona to'lovlarini aniqlang va qaysilar kirmasligini T-sxemaga yozib chiqing.

Soliq ob'ekti	Soliq ob'ekti emas
1.	1.
2.	2.
3.	3.
4.	4.
5.	5.
6.	6.

1. Boj tarifi
2. Boj tarifi turlari
3. Bojxona to'loalari
4. Bojxona boji
5. Bojxona yig'imi
6. Aktsiz solig'i
7. Qo'shilgan qiymat solig'i

Mavzu bo'yicha ma'ruzada tinglovchilarning faoliyatini baholash mezonlari ko'rsatkichlari:

F.I.Sh.	Baholash	Mezonlar			
		O'tilgan ma'ruza ma'lumotlarini bilishi	Faolligi (savol, javob va qo'shimchalar)	Muammoni echish bo'yicha fikrlar	Jami ball
	Ballar	0,8	0,6	0,6	2
	%	40	30	30	100

Insertni belgilang va yoqlang.

V	Q	-	?

V – bilaman; **Q** - men uchun yangi; **-** - bilmayman; **?** – men yana ishlashim kerak.

1. Bojxona to'lovlarining stavkasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tabaqalashtirilgan holda belgilanadi.
2. Bojxona to'lovlari to'lovchilari yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib xisoblanadi
3. Bojxona to'lovlari to'lovchisini aniqlashda asosiy mezon bo'lib yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik to'g'risidagi guvoxnomada ko'rsatilgan korxona faoliyatining kodi xisoblanadi. Bunda korxonaning ixtisoslanishi XXTUT asosiy kodiga to'g'ri kelishi kerak. Agar korxonaning faoliyati XXTUT kodiga to'g'ri kelmasa, u o'z faoliyati kodini qonun xujjatlarida belgilangan tartibda statistika organlarida qayta ro'yxatdan o'tkazishga va ushbu toifadagi korxonalar (faoliyat turlari) uchun belgilangan tegishli boj to'lashga majbur.

“Boj tarifi to’g’risida”gi qonun boj tarifini shakllantirish va qo’llanish tartibini, shuningdek O’zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan olib o’tilayotgan tovarlardan boj undirish qoidalarini belgilaydi.

“Boj tarifi to’g’risida”gi qonunning asosiy vazifalari O’zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiyoti bilan samarali integratsiyalashuvi uchun shart-sharoit yaratish va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Boj tarifi-bojxona chegarasidan olib o’tiladigan, O’zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining Tovar nomenklaturasi (bundan keyin matnda Tovar nomenklaturasi deb yuritiladi) printsiplari va qoidalariga muvofiq holda bir tizimga solingan tovarlarga nisbatan qo’llaniladigan boj stavkalarining to’plamidir.

Tovar nomenklaturasi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Boj - O’zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan tovarlar olib o’tilayotganda bojxona organlari tomonidan undiriladigan to’lov.

O’zbekiston Respublikasida import boji, eksport boji, mavsumiy va alohida (maxsus, antidemping, kompensatsiya) boj qo’llaniladi. Alohida bojlarning qo’llanilish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O’zbekiston Respublikasida boj stavkalarining quyidagi turlari qo’llaniladi:

- boj undiriladigan tovarlarning bojxona qiymatiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan advalor stavkalar;
- boj undiriladigan tovarlar birligi uchun belgilangan miqdorda hisoblanadigan xos stavkalar;
- bojning advalor hamda xos turlarini o’z ichiga oladigan aralash stavkalar.

Agar O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boj tarifi to’grisidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo’lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo’llaniladi. Import boji xalqaro shartnomalarga muvofiq belgilanadi.

O’zbekiston Respublikasi savdo-iqtisodiy aloqalarda eng ko’p qulaylik berish tartibini qo’llayotgan mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar uchun undiriladigan import boji stavkalarining eng kam yoki eng ko’p miqdori qonun hujjatlarida belgilab qo’yiladi.

Savdo-iqtisodiy aloqalarda eng ko’p qulaylik berish tartibi nazarda tutilmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yoki qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi aniqlanmagan tovarlar uchun undiriladigan import bojining stavkalari ikki baravar oshiriladi, ushbu qonunga muvofiq O’zbekiston Respublikasi tomonidan tarif preferentsiyalari beriladigan hollar bundan mustasno.

Import va eksport bojining stavkalari O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda joriy etiladi.

Mavsumiy bojlar O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanib, tovarlar olib kirish va olib chiqishni tezkor tartibga solish uchun qo’llaniladi. Bunda boj tarifida nazarda tutilgan boj stavkalari qo’llanilmaydi. Mavsumiy bojlar ular belgilangan vaqtdan e’tiboran olti oydan ortiq amal qilishi mumkin emas.

Maxsus bojlar, basharti, o’xshash yoki bevosita raqobat qiluvchi tovarlar bojxona hududiga O’zbekiston Respublikasidagi tovar ishlab chiqaruvchilarga ziyon etkazadigan yoki ziyon etkazishi mumkin bo’lgan miqdorda va shartlarda olib kirilayotgan bo’lsa, himoya chorasi sifatida, shuningdek boshqa davlatlar tomonidan qilinayotgan O’zbekiston

Respublikasining huquqlarini cheklovchi va manfaatlarini kamsituvchi boshqa harakatlarga javob chorasi sifatida qo'llaniladi.

Dempingga qarshi bojlar quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- tovarlar bojxona hududiga ularning olib chiqilgan davlatda ayni vaqtda amalda bo'lgan real qiymatidan past narxda olib kirilsa, agar bunday olib kirish O'zbekiston Respublikasining shunga o'xshash tovarlarni ishlab chiqaruvchilariga moddiy ziyon etkazsa yoki etkazish xavfini tugdirsa yoxud O'zbekiston Respublikasida xuddi shunday tovarlar ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki kengaytirishga to'sqinlik qilsa;

- tovarlar bojxona hududidan uning O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda amalda bo'lgan real qiymatidan past narxda olib chiqilayotgan bo'lsa, agar bunday olib chiqish O'zbekiston Respublikasining shunga o'xshash tovarlarni ishlab chiqaruvchilariga moddiy ziyon etkazsa yoki etkazish xavfi bo'lsa yoxud O'zbekiston Respublikasining ishlab chiqaruvchilari o'rtasida normal raqobat o'rnatilishiga to'sqinlik qilsa.

Kompensatsiya bojlari quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga ishlab chiqarish yoki olib chiqish paytida bevosita yoxud bilvosita subsidiyalardan foydalanilgan tovarlar olib kirilsa, agar bunday olib kirish O'zbekiston Respublikasining o'xshash tovarlar ishlab chiqaruvchilariga moddiy ziyon etkazsa yoki etkazish xavfi bo'lsa yoxud O'zbekiston Respublikasida xuddi shunday tovarlar ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki kengaytirishga to'sqinlik qilsa;

- bojxona hududidan ishlab chiqarish yoki olib chiqish paytida bevosita yoxud bilvosita subsidiyalardan foydalanilgan tovarlar olib chiqilsa, agar bunday olib chiqish O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga moddiy ziyon etkazsa yoki etkazish xavfi bo'lsa.

Alohida bojlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat boshqaruvi organlari tashabbusi bilan o'tkaziladigan tekshiruv natijalariga binoan qo'llaniladi.

Alohida bojlarning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har bir holat bo'yicha maxsus belgilanadi va ularning miqdori tekshiruv natijasida aniqlangan bahoni demping tarzida arzonlashtirishga, subsidiyalar va aniqlangan zarar miqdoriga mutanosib bo'lishi kerak.

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tishda va Bojxona kodeksida nazarda tutilgan boshqa hollarda quyidagi bojxona to'lovlari to'lanadi:

- boj;
- qo'shilgan qiymat soligi;
- aktsiz soligi;
- bojxona hududida qayta ishlash rejimidan va bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimidan foydalanish bilan bog'liq ruxsatnomalarni berganlik uchun yig'imlar;
- bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisning malaka attestatini berganlik, bunday attestatni qayta rasmiylashtirganlik va uning amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun yig'imlar;
- bojxona rasmiylashtiruvi uchun bojxona yigimi;
- tovarlarni saqlaganlik uchun bojxona yigimi;
- tovarlarni bojxona kuzatuviga olganlik uchun bojxona yigimi;
- dastlabki qarorni qabul qilganlik uchun haq.
- qonun hujjatlarida boshqa bojxona to'lovlari ham belgilanishi mumkin.

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga qonun hujjatlariga muvofiq boj, qo'shilgan qiymat soligi va aktsiz soligi solinadi.

Tovarlar qaytarib olib chiqilgan taqdirda ilgari to'langan boj, qo'shilgan qiymat soligi va aktsiz soligi summolari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qaytarilishi lozim. Quyidagi harakatlar uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorlarda bojxona yigimlari undiriladi:

- tovarlar va transport vositalarini, shu jumladan kuzatuvchisiz bagajda, xalqaro pochta jo'natmalari va yuklarda olib o'tilayotgan notijorat maqsadlaridagi tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazganlik uchun;

- tovarlar va transport vositalarini belgilangan joylardan tashqarida va bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazganlik uchun;

- tovarlar va transport vositalarini bojxona organlari egaligidagi bojxona omborlari va vaqtincha saqlash omborlarida saqlaganlik uchun;

- tovarlarni bojxona kuzatuviga olganlik uchun.

Tovarlar va transport vositalarining qonun hujjatlarida belgilanadigan bojxona qiymati bojni, aktsiz soligini va tegishli boj yigimlarini hisoblab chiqarish uchun asos bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat soligini hisoblab chiqarish uchun tovarning bojxona qiymati asos bo'lib, unga to'lanishi lozim bo'lgan boj, aktsizga tortiladigan tovar bo'yicha esa, aktsiz soligining summasi ham qo'shiladi.

Bojxona to'lovlari deklarant tomonidan to'lanadi. har qanday manfaatdor shaxs, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, to'lovchining o'rniga bojxona to'lovlarini to'lashga haqli.

Bojxona to'lovlari bojxona deklaratsiyasi qabul qilingunga qadar yoki qabul qilinishi bilan bir vaqtda to'lanadi. Tovarlar notijorat maqsadlari uchun olib o'tilayotganda bojxona to'lovlari bojxona deklaratsiyasini qabul qilish bilan bir vaqtda to'lanadi. Bojxona to'lovlarini to'lash muddatining o'tishi bojxona deklaratsiyasini topshirish muddati tugaganidan keyingi kundan boshlanadi.

Bojxona to'lovlari bojxona organiga, xalqaro pochta jo'natmalarida yuborilayotgan tovarlarga nisbatan esa, - aloqa korxonalariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda to'lanadi.

Bojxona to'lovlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi jismoniy shaxslar tomonidan olib kirilayotgan tovarlardan olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i, boj va yig'imlar o'rniga yagona bojxona to'lovi to'lashni nazarda tutuvchi bojxona to'lovlarini undirishning soddalashtirilgan tartibini belgilashi mumkin. (o'zR 30.08.2002 y. qonuni taxriridagi qism)

To'lovchiga bojxona organining qaroriga asosan to'lovlarni kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati, bojxona to'lovlarining to'lanishi Bojxona kodeksining 111-moddasida nazarda tutilgan tartibda ta'minlangan taqdirda, berilishi mumkin.

Bojxona to'lovlarini to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kundan boshlab ikki oydan oshmasligi lozim.

Kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilgan taqdirda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda foizlar undiriladi.

Ishlab chiqaruvchi korxonalarga eksport maxsuloti ishlab chiqarish maqsadida foydalaniladigan import qilinayotgan moddiy-texnika resurslari uchun qo'shilgan qiymat soligi bo'yicha uni to'lashni foiz undirilmagan xolda to'qson kunlik muddatga kechiktirish imkoniyati beriladi.

Moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga, fermer xo'jaliklariga, shuningdek yuridik shaxs maqomidagi dehqon xo'jaliklariga o'z ehtiyojlari uchun import qilayotgan uskunalar, xom ashyo va moddiy resurslar uchun bojxona to'lovlari to'lashni (bojxona rasmiylashtiruvi uchun bojxona yig'implari bundan mustasno) foiz undirilmagan holda to'qson kunlik muddatga kechiktirish imkoniyati beriladi.

Bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlayotgan shaxslarga bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilmaydi. Bojxona to'lovlarini to'lash tovarlar va transport vositalarini garovga qo'yish, uchinchi shaxsning kafolati yoxud tegishli summalarni bojxona organining depozit hisobvaragiga o'tkazish yo'li bilan ta'minlanadi.

Garovga qo'yuvchi bojxona organining roziligisiz garov narsasini tasarruf etishga haqli emas. Garovga qo'yilgan tovarlar va transport vositalari, agar bojxona organi boshqacha qaror qabul qilmasa, garovga qo'yuvchining egaligida qoladi. Garovni rasmiylashtirish va undiruvni garov narsasiga qaratish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlovchi omil sifatida bankning yoki O'zbekiston Respublikasida bank operatsiyalarini o'tkazish huquqiga ega bo'lgan boshqa moliya-kredit muassasasining kafolatidan foydalanish mumkin.

Tovarlar erkin muomala yoki eksport uchun bojxonaning chiqarish rejimlariga muvofiq chiqariladigan hollarda to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining summasi bojxona organining depozit hisobvaragiga o'tkaziladi. Summalar depozit hisobvaragida saqlangan vaqt uchun foizlar qo'shilmaydi. Tegishli summalarni depozit hisobvaragiga o'tkazish va ularni qaytarish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Bojxona kodeksiga muvofiq to'lanmagan bojxona to'lovlari bojxona organi tomonidan so'zsiz tartibda undiriladi, tovarlarni notijorat maqsadlarida olib o'tadigan jismoniy shaxslardan undiriladigan to'lovlar bundan mustasno bo'lib, ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undiriladi. To'lanmagan bojxona to'lovlari, to'lamaganlik fakti qachon aniqlanganligidan qat'i nazar, undirilishi lozim. Qarzdorlik vaqti uchun boqimonda summasidan qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda so'zsiz tartibda penya undiriladi.

Bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlangan yoki to'lovchida pul mablaglari bo'lmagan taqdirda undiruv qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining, shuningdek bojxona rejimlariga muvofiq qaytarilishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining summolari qaytarilishi yoxud to'langan paytdan boshlab yoki bunday to'lovlar undirilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida to'lovchining talabnomasi bo'yicha qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bo'lgusi to'lovlar hisobiga o'tkazilishi lozim. Bojxona to'lovlari qaytarilganda ular uchun foizlar to'lanmaydi.

7-mavzu bo'yicha test variantlari:

1. Dempingga qarshi bojlar qaysi hollarda qo'llaniladi?

@A)Tovarlar bojxona hududida ular olib chiqilagn davlatda ayni vaqtda amalda bo'lgan asl qiymatidan past narxda olib kirilsa

B)Tovarlar bojxona hududidan davlatda ayni vaqtda amalda bo'lgan asl qiymatidan yuqori narxda olib chiqilayotgan bo'lsa

C)Tovarlar ichki bozorda tashqi bozorga nisbatan arzon sotilayotgan bo'lsa

D)Chetdan olib kirilayotgan tovarlar.

2. Valyuta cheklashlari yordamida valyutani sotib olish va sotish orqali valyuta kursini tartibga solish tizimi -

A)Diskont siyosat

B)Fiskal siyosat

C)Bojxona siyosati

@D)Diviziya siyosati

3. Qanday bojlar avtonom bojar deyiladi?

@A)Hukumat organlarining bir tomonlama harakati natijasida vujudga keladigan bojar

B)Ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalarga asoslangan holda ishlab chiqiladigan bojar

C)Imtiyozlarga ega bulgan bojar

D)Hukumat tomonidan stavkasi va tarifi o'rnatilgan bojar

4. Advalor tarifi bu -

A)Imtiyozlar berilgan tarif

B)Nolli norif ya'ni xech kandy stavka kullanilmaydi

@C)Import kilinadigan tovarlar kiymatiga foizlarda belgilanadigan boj

D)Import kilinadigan tovarlarga katiy belgilangan boj

5. Jahon Bojxona kodeksi qachon qabul qilingan?

A)1970 yil 11 yanvar

B)1975 yil 26 oktiyabr

@C)1979 yil 12 aprel

D)1980 yil 10 dekabr

6. Boj qiymatini belgilashning to'g'riligi ustidan nazorat qilish qaysi organ tomonidan amalga oshiriladi?

A)O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi

@B)O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari

C)O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qumitasi

D)O'zbekiston Respublikasi Bojxona Qo'mitasi

7. «Boj tarifi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qachon amalga kiritildi?

A)1996 yil 2 dekabr

B)1992 yil 1 sentyabr

C)1998 yil 20 noyabr

@D)1998 yil 1 yanvar

8. Bojxona qiymatini belgilovchi quyidagi usullarini ketma-ketligini to'g'ri joylashtiring:

1. Olib kiriladigan tovar yuzasidan tuzulgan bitim kiymatiga karab baxolash usuli

2. Rezerv usuli
3. Qiymatlarni chegirib tashlash usuli
4. Aynan bir xil tovar yuzasidan tuzulgan bitim kiymatiga karab boxolash usuli
5. Qiymatlarni kushish usuli
6. O'xshash tovar yuzasidan tuzulgan bitim kiymatiga karab boxolash usuli

A)1,5,6,3,2,4

B)5,1,2,4,6,3

@C)1,4,6,3,5,2

D)1,4,5,3,6,2

9. Qaysi hollarda birinchi usul (olib kiriladigan tovar yuzasidan tuzulgan bitim kiymatiga karab baxolash usuli)ni qo'llab bo'lmaydi?

A)Tovar bepul etkazib berilgan bo'lsa

B)Tovar konsignatsiya shartlari asosida etkazib berilgan bo'lsa

C)Tovar vositasi orqali etkazib berilgan bo'lsa

@D)Barcha javoblar to'g'ri

10. Aynan bir xil tovarlar deganda qaysi belgilari mos kelishi zarur?

A) Fizik xususiyati, ishlab chiqaruvchisi, sifati

B) Sifati va bozordagi qadri, ishlab chiqarilgan mamlakat

@C)Ishlab chiqaruvchisi, sifati, bozordagi qadri, fizik xususiyati

D) Fizik xususiyati, ishlab chiqarilgan mamlakat

8- MAVZU	TOVARLARNING BOJXONA QIYMATI VA UNI ANIQLASH USULLARI
-----------------	--

8.1. Ma'ruzani o'qitish texnologiyasi Ma'ruza – 2 soat, amaliy mashg'ulot – 2 soat

<i>Tinglovchilar soni: 40-60 ta</i>	<i>Vaqt-2 soat.</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Informatsion-ko'rgazmali ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Bojxona qiymati haqida tushuncha va uni belgilash usullari. 2. Olib kiriladigan tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish usuli. 3. Aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baholash usuli. 4. O'xshash tovar yuzasidan o'tkazilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish usuli. 5. Qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona bahosini chiqarish usuli. 6. Qiymatlarni qo'shish asosida bojxona bahosini chiqarish usuli. 7. Rezerv usul.
<i>Ma'ruzaning maqsadi:</i> Tovarlarining bojxona qiymati va uni aniqlash usullari to'g'risidagi bilimni chuqurlashtirish.	
<i>Pedagogik vazifa:</i> • tovarlarning bojxona qiymati va uni aniqlash usullari haqida tushuncha berish; • Olib kiriladigan tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish usuli bilan tanishtirish; • Aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baholash usuli haqida tushuncha berish; • O'xshash tovar yuzasidan o'tkazilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish usuli bilan tanishtirish; • Qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona bahosini chiqarish usulini ko'rsatib berish;	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i> Talaba bilishi kerak: • tovarlarning bojxona qiymati va uni aniqlash usullari haqida tushuncha berishni aniqlab beradi; • Olib kiriladigan tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish usuli bilan tanishtirish haqida izoh beradi; • Aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baholash usuli haqida aytib beradilar; • O'xshash tovar yuzasidan o'tkazilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish usuli bilan tanishtirish aytib beradi; • Qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona bahosini chiqarish usulini ko'rsatib beradilar;
<i>O'qitishning usuli</i>	Ma'ruza-vizualizatsiya, texnikalar: Insert va blits-so'rov;
<i>O'qitish vositasi</i>	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proektor, diagramma va grafiklar.

<i>O'qitishning shakli</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash
<i>O'qitish shartlari</i>	Ma'ruza o'qish uchun kerakli texnik vositalar bilan ta'minlangan va guruh bo'lib dars o'tishga mo'ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Kuzatish, og'zaki, yozma, nazorat, o'quv topshiriqlari.

Ma'ruzaning texnologik kartasi
1-mashg'ulot

Ish tartibi	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talabalar
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi. 1.2. Ma'ruzani o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi. 1.3. Ma'ruza mashg'ulotining tayanch iboralarini va rejasiga izoh beradi.	Eshitadilar va yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy qism (60 min.)	2.1. Ma'ruzaning birinchi savoli buyicha Bojxona qiymati haqida tushuncha va uni belgilash usullari bo'yicha izoh qaratadi. Talabalarni darsga qiziqishlarini oshirish uchun ular bilan blits-so'rov o'tkazadi. 1. Bojxona qiymati deganda nimani tushinasiz? 2. Bojxona qiymati va uni belgilash usullari nima hisoblanadi? 3. Bojxona bahosini aniqlash usullari haqida tushuncha bering? 4. Bitim qiymati nima?	2.1.Eshitadilar. Savollarga javob beradilar. Eshitadilar va yozib oladilar. Yozadilar, savollarni aniqlaydilar va savol beradilar. Tekstni o'qib chiqadilar, vazifani bajaradilar va insert jadvalini to'lg'azadilar.
3-bosqich. Yakuniy qism (10 min.)	3.1. Mavzuda qo'yilgan savollar va ulardan chiqqan muammolarni qanday hal qilinganligini o'qituvchi yakun yasaydi (xulosa qiladi) va echilmagan muammolar ustida ishlash lozimligini aytadi. 3.2. Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi: 1) Mavzudagi savollarga puxta tayyorgarlik ko'rib kelish kerakligini aytadi. 2) Amaliy darsda T-sxema bo'lishini e'lon qilinadi va unga tayyorgarlik ko'rish lozimligi tushuntiriladi.	3.1.Eshitadilar. 3.2.Yozib oladilar

Informatsion-vizual ko'rgazmali ma'ruzaning texnologik kartasi
2-mashg'ulot

Ish tartibi	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talabalar
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi. 1.2. Ma'ruzani o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi. 1.3. Ma'ruza mashg'ulotining tayanch iboralari va rejasiga izoh beradi.	Eshitadilar va yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy qism (60 min.)	2.1. Ma'ruzaning birinchi savoli buyicha Bojxona qiymati haqida tushuncha va uni belgilash usullari bo'yicha izoh qaratadi. Talabalarni darsga qiziqishlarini oshirish uchun ular bilan blits-so'rov o'tkazadi. 1. Bojxona qiymati deganda nimani tushinasiz? 2. Bojxona qiymati va uni belgilash usullari nima hisoblanadi? 3. Bojxona bahosini aniqlash usullari haqida tushuncha bering? 4. Bitim qiymati nima?	2.1.Eshitadi-lar. Savollarga javob beradilar. Eshitadi-lar va yozib oladilar. Yozadilar, savollarni aniqlaydi-lar va savol beradilar. Tekstni o'qib chiqadilar, vazifani bajaradilar va insert jadvalini to'lg'azadilar.
3-bosqich. Yakuniy qism (10 min.)	3.1. Mavzuda qo'yilgan savollar va ulardan chiqqan muammolarni qanday hal qilinganligini o'qituvchi yakun yasaydi (xulosa qiladi) va echilmagan muammolar ustida ishlash lozimligini aytadi. 3.3. Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi: 3) Mavzudagi savollarga puxta tayyorgarlik ko'rib kelish kerakligini aytadi. 4) Amaliy darsda T-sxema bo'lishini e'lon qilinadi va unga tayyorgarlik ko'rish lozimligi tushuntiriladi.	3.1.Eshitadilar. 3.2.Yozib oladilar

8.2 Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi

<i>Tinglovchilar soni: 25 ta</i>	Vaqt - 2 soat
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	«Doira atrofida» bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish uchun mo'ljallangan amaliy mashg'ulot
<i>O'quv mashg'ulotining rejasi.</i>	1. Bojxona qiymati haqida tushuncha va uni belgilash. 2. Olib kiriladigan tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish. 3. Aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baholash usuli. 4. Aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baholash. 5. Qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona bahosini chiqarish usuli. 6. Qiymatlarni qo'shish asosida bojxona bahosini chiqarish usuli.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Talabalarning tovarlarning bojxona qiymati va uni aniqlash usullari haqida bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish.	
<i>Pedagogik vazifa:</i> • Bojxona qiymati haqida tushuncha va uni belgilash to'g'risidagi nazariy bilimlarni mustahkamlash; • Olib kiriladigan tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini to'laroq tushuntirib berish; • Aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baholash usuli ko'rib chiqish; • Qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona bahosini chiqarish usuli aytib beradi; • Qiymatlarni qo'shish asosida bojxona bahosini chiqarish usuli to'g'risidagi bilimlarni mustahkamlash;	<i>O'quv faoliyati natijasi:</i> Talaba bilishi kerak: • Bojxona qiymati haqida tushuncha va uni belgilash to'g'risidagi nazariy bilimni egallaydi; • Olib kiriladigan tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini beradilar; • Aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baholash usulini aytib beradilar; • Qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona bahosini chiqarish usuli ni aytib bera oladilar; • Qiymatlarni qo'shish asosida bojxona bahosini chiqarish usulini aytib beradilar.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, darslik, skotch, A32 qog'oz varag'i.
<i>O'qitish usullari</i>	Birgalikda bilim olish, diskussiya, texnikalar: taqdimot, blits-so'rov, «Doira atrofida», grafik organayzer;
<i>O'qitish shakli</i>	Guruhlarda va «jamo bo'lib ishlash» usuli.
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, guruhlarda ishlash usulini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya.

Monitoring va baho		Kuzatish, nazorat, yozma, og'zaki, o'quv topshiriqlari.
Ish jarayonlari	Faoliyat mazmuni:	
	o'qituvchi	Talabalar
1-bosqich Kirish (5 min.)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusini, maqsadini, o'tkazish tartibini va natijasini e'lon qiladi. 1.2. Bojxona qiymati haqida tushuncha va uni belgilash usullari buyicha talabalarning bilimlarini faollashtirish maqsadida blits-so'rov o'tkazadi. 1. Bojxona qiymati deganda nimani tushunasiz? 2. Bojxona qiymatini belgilashning qanday usullari bor?	1.1. Eshitadilar 1.2. Savollarga javob beradilar.
2-bosqich Bilimni faollashtirish (5 min.)	2.1. Qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona bahosini chiqarish usuli buyicha talabalarga savol beradi. Savol «Bojxona bahosi tushunchasini aytib bering?». Berilgan javoblarni eshitadi va mavzuning yoritilishini guruh bo'lib ko'rib chiqish kerakligini aytadi. 2.2. Mavzuni muhokama qilish «Doira atrofida» bo'lishini e'lon qiladi. «Doira atrofida» ishlash qoidasi bilan tanishtiradi.(1-ilova)	2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i tushunchasini aytadilar. 2.2. Eshitadilar va savol beradilar.
3-bosqich Guruhda ishlash juftlik da (10 min.)	3.1. Talabalarni guruhlariga bo'ladi. «Doira atrofida» muhokama qilish uchun tarqatma materiallar beradi, savollarni taqsimlaydi (2-ilova). Eslatadi, hech qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkin emas. Baholash varag'ini tarqatadi. (3-ilova). 3.2. Guruh ishini boshlanganligini e'lon qiladi, zarur bo'lganda maslahat berishini aytadi.	3.1. O'quv vazifasi, qoidalar va natija kartochkasi bilan tanishib chiqadilar. 3.2. Vazifani bajaradilar, taqdimot varag'ini to'lg'azadilar.
4 –bosqich «Doira atrofida» muhokama qilish (55 min.)	4.1. Jamoa bo'lib muhokama qilishni uyushtiradi. Mavzuni yoritilishiga, xulosa qilinishiga e'tibor beradi va baholaydi.	4.1. Guruh liderlari jamoa fikrini birlashtiradi. Ishtirokchilar qo'shimcha qiladilar, savol beradilar.

5 –bosqich Yakunlash (5 min)	5.1. Mavzuda qo'yilgan savollar va ulardan chiqqan muammolarni qanday hal qilinganligini o'qituvchi yakun yasaydi (xulosa qiladi) va echilmagan muammolar ustida ishlash lozimligini aytadi. Darsda aktiv qatnashgan talabalarni taqdirlaydi. 5.2. Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi: Mavzudagi savollarga puxta tayyorgarlik ko'rib kelish kerakligini aytadi. Mavzuni yoritilishiga, xulosa qilinishiga e'tibor beradi va baholaydi.	5.1.Eshitadilar. 5.2.Eshitadilar.
------------------------------------	---	---

1-ilova (8.2)

«Doira atrofida» mavzularni muhokama qilish qoidalari.

1. So'zga chiquvchining fikrini e'tibor bilan eshitish va unga halaqit bermaslik kerak.
2. Uning fikriga qo'shilmasang o'z fikringni bildirish uchun ruhsat so'ra.
3. So'zga chiquvchining fikriga qo'shilsang, mavzuni to'laroq yoritishi kerak bo'lsa, qo'shimcha qilishni taklif qil.

2-ilova(8.2)

«Doira atrofida» muhokama qilish uchun savollar.

1. Bojxona qiymati deganda nimani tushunasiz?
2. Bojxona qiymatini belgilashning qanday usullari bor?
3. Olib kiriladigan tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish usuli mohiyati nimalardan iborat?
4. Aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baholash usuli deganda nimani tushunasiz?
5. O'xshash tovar yuzasidan o'tkazilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish usuli qanday usul?
6. Qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona bahosini chiqarish usuli qanday usul?

Natijalarni baholash varag'i

Yakka baholash (1 ball) va guruhda ishlash bahosi (2 ball). Amaliy mashg'ulotda maksimal baho – 3 ball: 2,2 -3 balgacha – «a'lo»; 1,2 - 2 balla – «yaxshi»; 0,5 – 1,1 – «qoniqarli»; 0-0,5 ballov – «qoniqarsiz».

Savol nomeri va guruh lar	Javob (1 ball)	Boshqalarg a savol 0,2 ball	Qo'shimcha 0,2 ball	Qo'shimc ha ishlar (sxema, jadval va boshqalar 0,6 ball	Jami ballar 2 ball
1					
2					
3					
4					
5					
6					
7					
8					
9					
10					
11					

Olib kelinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash undirilishi bojxona organlariga yuklatilgan bojxona boji, yigimlar va boshka tulovlarni xisoblash, shuningdek, bojxona statistikasini yuritish, bojxonaga doyr boshka maqsadlarda tovarlar qiymatini belgilash, shu jumladan, bojxonaga oid xukukbuzarliklar uchun O'zbekiston Respublikasi konunlarida nazarda tutilgan choralarning qo'llanilishi uchun real bazani (negizni) aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Bundan tashkari, tovarlarning bojxona qiymatini belgilash tizimidan valyuta nazoratini amalga oshirish uchun zarur bulgan axborotlarni to'plash va taxlil etish maqsadida ham foydalanilishi mumkin.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekiston Respublikasida joriy etiladigan tovarlarning bojxona qiymati xalkaro amaliyotda qo'llaniladigan bojxonada baxolashning umumiy koidalariga asoslanadi.

Bojxona qiymati deklarant tomonidan O'zbekiston Respublikasi bojxona organiga tovarni bojxonada rasmiylashtirish paytida bayon kilinadi (deklaratsiyalanadi). Bojxona qiymatining deklaratsiyalanishi bojxona qiymati deklaratsiyalarining belgilangan shakllari (BKD-1 va BKD-2 shakllari) buyicha amalga oshiriladi. Bunda bojxona qiymati deklaratsiyasi bojxona qiymati 1000 AQSh dollariga teng yoki undan kam bulgan tovarlarga doyr bitimlar uchun tuldirilmaydi. BKD tuldirilmaydigan tovarlar yuzasidan bojxona qiymati schyot-fakturalar, invoyslar, tovartransport yukxatlari va tovarlarning bojxona qiymatini anik belgilashga imkon beradigan boshka xujjatlardan foydalanib belgilanadi.

Tovarning bojxona qiymati deklarant tomonidan bojxona qiymatini belgilashning keltirilgan usullariga binoan belgilanadi.

Bojxona qiymatining tugri belgilanishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining tovarni bojxonada rasmiylashtirishni amalga oshiruvchi bojxona organlari amalga oshiradi.

Tovarlarning bojxona qiymatini belgilash kuyidagi usullarni izchil tartibda qo'llash yuli bi-lan amalga oshiriladi:

- olib kirilayotgan tovar yuzasidan tuzilgan bitimning qiymatiga karab bax,olash;
- aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga karab baxolash;
- uxshash tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga karab baxrlash;
- qiymatlarni chegirib tashlash asosida;
- qiymatlarni kushish asosida;
- rezervdagi usul.

Olib kelinadigan tovarga doyr bitim qiymati buyicha baxrlash usuli bojxona qiymatini belgilashning asosiy usuli x,isoblanadi. Mabodo asosiy usuldan foydalanish mumkin bulmasa, sanab utilgan usullarning keyingilari izchil tartibda qo'llaniladi. Bunda, agar oldingi usuldan foydalanish yuli bilan bojxona qiymatini belgilab bulmasa, xar bir nav-batdagi usul qo'llaniladi.

Qo'llanishdagi izchilligi deklarantning xoxishiga kura uzgartirilishi mumkin bulgan 4 va 5-usullardan tashkari, boshka usullarni qo'llashdagi kursatilgan izchillik uzgartirilishi mumkin emas.

Qiymatli negizdagi bitimlar uchun 1-usul olib kelinadigan tovarga doyr bitim qiymati buyicha baxolash bojxona qiymatini belgilashning asosiy usuli xisoblanadi.

2 va 3-usullar ilgari 1-usulga kura baxolangan xuddi shuningdek yoki shunga uxshagan tovarlarga doyr bitim baxrsidan bojxona qiymatini belgilash uchun asosiy baza sifatida foydalanishga asoslangan. Bunda deklarant amalda mavjud bulgan savdo

bitimlarining narxi va tovarlarning O'zbekiston Respublikasi chegarasi orkali olib utilishlari haqidagi xujjatlar asosida tasdiqlangan ma'lumotni qo'llaydi.

1997 yilda qonunning tegishli moddalarida ko'rsatilgan, O'zbekiston Respublikasi SIF-chegarasi shartlari asosida olib kelingan tovarlar 1998 yilning birinchi choragida xuddi shuningdek va shunga o'xshagan tovarlar sifatida qo'llanilishi mumkin.

Qiymatlarni chegirish va qo'shish asosidagi usullar (4 va 5-usullar) bojxona qiymatini hisob-kitob qilishning printsiplari jihatdan boshqacha negizini nazarda tutadi: 4-usul tovarlar dastlabki xolati o'zgartirilmasdan (yoki, mabodo qayta ishlashning tovarlar narxiga ta'siri belgilanishi mumkin bo'lsa, qayta ishlangan xolatida) sotiladigan narxga asoslanadi; 5-usul tovar eksport qilingan mamlakatda uning ishlab chiqarilishi va olib chiqib ketilishiga ketgan xarajatlar haqidagi ma'lumotlarga asoslanadi. Bunday usullarning qo'llanilishi zarur axborotni olishdagi muayyan qiyinchiliklar bilan bog'liqligi sababli ularni qo'llanish izchilligi deklarant tomonidan o'zgartirilishi mumkin.

6-usul rezerv usul hisoblanadi, chunki u bojxona qiymatini belgilash uchun bundan oldingi usullardan xech birini qo'llab bo'lmaganida qo'llaniladi. Bu usulga ko'ra bojxona qiymati bojxona organlarida mavjud bo'lgan narxlarga oid axborotga asoslanadi. Bojxona xizmatlari bojxona qiymati deklaratsiyalarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va bir tizimga solishni ta'minlashi zarur. Mabodo bojxona xodimi import qilinadigan tovarlarning bojxonadagi baxolanishini mustaqil amalga oshiradigan bo'lsa, u, shuningdek, 1-5-usullar shartlarini tavlqin qilishda jiddiy qayshqoqlikni nazarda tutadigan 6-rezerv usulidan foydalanishi ham mumkin.

To'lov bevosita yoki bilvosita bo'lishi va valyuta haqidagi amaldagi qonunlarga zid kelmaydigan xar qanday shaklda amalga oshirilishi mumkin. Sotuvchining xaridor oldidagi qarzini uzish hisobiga import tovarlarning etkazib berilishi bilvosita to'lovga misol sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Ana shu talabga muvofiq ravishda bojxona qiymati faqat uning bojxona qiymati deklaratsiyasida ko'rsatilgan hamma elementlari tegishli xujjatlar bilan tasdiqlanganida 1-usulga ko'ra aniqlanishi mumkin, shu jumladan:

a) bitim narxi tovar etkazib beriladigan tovarga xaq to'lash uchun schyot yoki hisob-faktura orqali;

b) bitim qiymatiga qo'shimcha hisoblanmalar – to'lov, tovarga ilova qilinadigan, tijoratchilik xujjatlari orqali;

v) xarajatlarning xisobdan chiqariladigan (chiqarib tashlanadigan) summolari – to'lov, tovarga ilova qilinadigan tijoratchilik, bojxonaga doir xujjatlar orqali.

1-usul xujjatlar asosida tasdiqlanmaydigan xollarda qo'llanilishi mumkin emas.

Tovarning u eksport qilingan mamlakatdan chegara orqali O'zbekiston Respublikasiga olib o'tilishi va xaridordan ana shu tovar o'rniga pullik hisob-kitoblar (to'lovlar)ning qabul qilingan shakllariga muvofiq, teng keladigan pul summasini yoki tovarni olish uchun asos bo'ladigan, qiymatga doir baholash yoki uning hisob-kitob usulini o'z ichiga olgan shartnoma (kontrakt) ning mavjudligi 1-usulni qo'llanish sharti hisoblanadi.

Misol – xaridorlar qatori mavjudligida bojxona qiymatining belgilanishi.

Sotuvchi: 1-xaridor: 2-xaridor: 3-xaridor

(A) Xitoy (B) Kanada (V) AQSh (S) O'zbekiston 10000\$ 15000\$ 20000\$?

Tovar Xitoydagi sotuvchidan Kanada va AQShdagi sotuvchilar orqali O'zbekistonga kelib tushadi va erkin muomalaga chiqarish uchun deklaratsiya qilinadi. Bunda bitim narxi quyidagi tarzda o'zgaradi:

A dan B ga - 10000 AO'Sh dollari;

B dan V ga - 15000 AO'Sh dollari;

V dan S ga - 20000 AO'Sh dollari.

Xaridorlar qatori mavjudligida tovarni O'zbekiston Respublikasining bojxona xududida erkin muomalaga o'tkazadigan shaxsning xarid narxi bitim narxi sifatida olinadi. Ushbu misolda 3 (S)-xaridorning 20000 AqSh dollariga teng xarid narxini bitim narxi sifatida qabul qilish kerak bo'ladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan qoidalarni hisobga olgan xolda 1 -usul qiymatga doir negizga ega bo'lmagan tashqi iqtisodiy bitimlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas:

a) tovarning bepul etkazib berilishi.

Misol: sotuvchi xaridorga namuna sifatida 5 ta kresloni etkazib berdi. Bu xolda oldi-sotdi shartnomasi yo'qligi (bo'lmaganligi) sababli;

b) tovar konsignatsiya shartlari asosida etkazib berilgan. Etkazib beruvchi o'z agentiga bir turkum kartoshkani etkazib beruvchi uchun foydaliroq, shartlar asosida sotish uchun etkazib beradi. Bu xolda agent kartoshkani sotib olmaydi, ya'ni uning egasiga aylanmaydi; kartoshkani sotishdan foydani etkazib beruvchi oladi (agentga uning sotishga doir xarajatlari va ish xaqi to'lanishi xisobga olingan xolda);

v) tovarning vositachiga sotilmasdan vositachi orqali etkazib berilishi. Yuridik shaxs bo'lgan kompaniya Belgiyada joylashgan va Toshkentda o'z nomidan faoliyat ko'rsatmaydigan o'z filialiga ega. Ular o'rtasidagi tovar etkazib berilishi oldi-sotdi bitimi tushunchasiga kirmaydi;

d) tovarlarning barter yoki kompensatsion operatsiyalar doirasida etkazib berilishi, agar tovarlar narxi ko'rsatilmagan bo'lsa;

e) tovarlarning ijara shartnomalari (lizing) bo'yicha etkazib berilishi. Bu xolda tovarga mulkchilik qilish xuquqi ijaraga beruvchidan ijarachiga o'tmaydi, mulkdor tovardan foydalanganlik xuquqi uchun foydaning bir qismini oladi va tovarni muayyan vaqtdan so'ng uning egasiga (ijaraga beruvchiga) qaytarishi mumkin;

j) tovarlarning vaqtinchalik olib kelish maqsadida etkazib berilishi. Masalan, mulkdor (etkazib beruvchi) tomonidan muayyan vaqtdan so'ng etkazib beruvchiga qaytarilishi lozim bo'lgan mashina iste'molchiga vaqtinchalik olib kelish shartlari asosida etkazib beriladi;

k) tovarlarning kontraktda nazarda tutilgan kafolatlar xisobiga etkazib berilishi. Etkazib berilgan uskuna uchun kafolat muddati davomida ayrim mexanizmlar ishdan chiqdi. Ularni almashtirish uchun yangi detallar etkazib beriladi.

Tovarlarining tasarruf etilishi yoki ulardan xaridor tomonidan foydalanilishiga doir cheklashlar.

Import qiluvchining olib kelinadigan tovarlarga doir xuquqlariga nisbatan muayyan cheklashlar mavjud bo'lganida 1-usul qo'llanilmaydi. Shu sababli 1-usulning qo'llanilishiga imkon bermaydigan cheklashlarni va ushbu usulning qo'llanilishi ruxsat qilinadigan cheklashlarni aniq farqlay bilish zarur.

Konunchilikka ko'ra xaridorning baxolanayotgan tovarlarga doir xuquqlariga nisbatan cheklashlar mavjud bo'lganida ham 1-usulning qo'llanilishi ruxsat etiladigan cheklashlarning faqat uchta turi belgilangan:

a) O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra

belgilangan cheklashlar. Bunday xolda quyidagi tarzdagi cheklashlar nazarda tutiladi: masalan, muayyan tovarni import qilish xuquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasiga nisbatan cheklashlar va xokazo. Jumladan, yadroviy, kimyoviy, zaxarlovchi moddalar, giyoxvandlik moddalari importi faqat qat'iy cheklangan doiradagi tashkilotlarga ruxsat etiladi;

b) tovarlar qaytadan sotilishi mumkin bo'lgan jug'rofiy mintaqaga doir cheklashlar. Bunday xolda tovarning qaytadan sotilishi bo'yicha ayrim shaxslar uchun xududiy cheklashlar nazarda tutiladi. Masalan, sotuvchi tovarni O'zbekiston xududida o'z sotuvchilariga sotadi va butun xududni ularning har birida bittadan aloxida sotuvchi mavjud 10 ta qismga bo'ladi. Bunda sotuvchilarning har biri tovarni faqat muayyan xududda sotishi mumkinligi to'g'risidagi shart qo'yiladi;

v) tovar qiymatiga jiddiy ta'sir qilmaydigan cheklashlar. Agar narxga jiddiy ta'sir etadigan shart mavjudligi xaqida bayon qilinsa, unda 1-usulning qo'llanilishi faqat bunday shart natijasida narxning miqdoriy o'zgarishi xujjatlar asosida belgilangan xoldagina mumkin bo'ladi. Agar narxga miqdoriy ta'sir qilishni belgilash va xujjatlar asosida tasdiqlash mumkin bo'lmasa, unda baxolashning boshqa usullariga o'tish kerak bo'ladi.

Masalan, sotuvchi tibbiy apparatni xaridor undan O'zbekiston Respublikasida faqat xayriya maqsadlarida foydalanadi, degan shart bilan sotadi. Bunday xolda 1-usul qo'llanilishi mumkin emas, chunki xaridorning tovardan foydalanish xuquqiga nisbatan cheklash mavjud va bu xildagi shart bitim qiymatiga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun baxolashning boshqa usullari qo'llanilishi kerak.

Cheklashlarning 1-usuldan foydalanish imkoniyatiga ta'sir etishi nuqtai nazaridan olganda, bunday cheklashlarni baxolashdagi asosiy mezon - u yoki bu shartning bitim qiymatiga ta'sir etish darajasidir. Cheklash bitim narxiga jiddiy ta'sir qilmaydigan holda u 1-usulning qo'llanilishiga to'sqinlik qilmaydi.

Agar xaridor xuquqiga nisbatan yana qandaydir boshqa cheklashlar mavjud bo'lsa, unda 1-usul qo'llanilmaydi.

Sotuv yoki narx bojxona qiymatining belgilanishiga to'sqinlik qiladigan qandaydir shartlar yoki muloxazalar predmeti bo'la olmaydi.

Bunday shart shuni nazarda tutadiki, tovar narxining uning sotilishi yoki etkazib berilishidagi tovarning qiymatiga ta'sirini belgilash mumkin bo'lmagan shartlarga bog'liq, bo'lmaydigan xollarda ham 1-usul qo'llanilishi mumkin.

Bunday, holda bitim shartlarini ko'rib chiqishda, shuningdek, umumiy qabul qilingan tusga ega bo'lgan va tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha qatnashchilariga tegishli bo'ladigan (yoki ularga taqdim etilishi mumkin bo'lgan) etkazib berish shartlarini va tanlangan tusdagi hamda umumiy qabul qilinmagan etkazib berish shartlarini farqlay bilish lozim.

Quyida tashqi iqtisodiy faoliyatda mavjud bo'lgan, 1-usul qo'llanilishi ruxsat etiladigan tovar etkazib berishning umumiy qabul qilingan shartlari keltirilmoqda:

- tovar etkazib berishlarning barcha umumiy qabul qilingan shartlari (avvalo, INKOTERMS-1990 ga kiritilgan etkazib berish shartlaridir);

- bitimlarni tuzish va tovar etkazib berilishini amalga oshirishning «ekspertni jalb etish (ekspert xulosasi mavjudligi) sharti bilan xarid qilish», «tovarni muayyan sanagacha etkazib berish sharti bilan xarid qilish» singari umumiy qabul qilingan shartlari, shuningdek, tashqi savdo operatsiyalari uchun umumiy qabul qilingan xisoblanadigan va bitim narxiga ta'sir qilmaydigan (tovar soniga qarab, mazkur sotuvchining «ishonchliligi»

sababli chegirmalar qilish va shu kabi chegirmalar turlari) boshqa shartlar. Masalan, agar mazkur xaridorga tovarni xar doim ayni shu sotuvchidan sotib olganligi uchun tovar qiymatidan chegirma qilinishi umumiy qabul qilingan amaliyot xisoblanadigan bo'lsa, unda bunday chegirma va binobarin, bitim qiymati e'tirof etilishi lozim va 1-usul qo'llanilishi mumkin;

- xaridorning sotuvchiga O'zbekiston Respublikasida tayyorlangan texnik ishlanmalar yoki chizmalarni taqdim etishi;

- xaridorning u import «qiladigan tovarlarning sotilishiga doir qandaydir harakatlarni o'z hisobidan (ehtimol, hatto sotuvchi bilan kelishuvga ko'ra) amalga oshirish, masalan, xaridor xaqini to'laydigan reklamaga oid faoliyat.

Bitimning tuzilishida, agar baxolanadigan tovarlar qiymatini belgilashga va binobarin, bitim qiymatining bo'xona maqsadlari uchun qabul qilinishiga to'sqinlik qiladigan shartlar bitim shartlari sifatida ilgari surilgan bo'lsa, bunday xolda 1-usulning qo'llanilishi mumkin bo'lmaydi. quyidagilar ana shunday shartlarga kiradi:

- sotuvchi import qilinadigan tovarlarga narxni xaridor, shuningdek, muayyan miqdorlardagi boshqa turdagi tovarlarni ham tovarning xar bir turiga narx ko'rsatilmasidan sotib oladi degan shart asosida belgilaydi. Masalan, 5000 pul birligi summasidagi charm buyumlari etkazib berilyapti. Etkazib beruvchi import qiluvchining qiymati noma'lum bo'lgan 2 ming juft poyabzalni ham qo'shimcha ravishda sotib olishini shart qilib qo'yadi;

- import qilinadigan tovarlar narxi ana shunday tovarlar xaridorining import qilinadigan tovarlarning sotuvchisiga sotadigan boshqa tovarlarning narxi yoki narxlariga bog'lik bo'ladi. Masalan, sotuvchi 1000 pul birligi summasidagi elektr tovarlarini sotayapti. Xaridor esa ushbu sotuvchiga bunday tovarlarni ishlab chiqarish uchun releni sotayapti. Bunda sotuvchi relening narxi - 10000 pul birligi degan shartni qo'yadi. Shunday qilib, elektr uskunalari narxi rele narxining ta'siri «sinovidan o'tadi»;

- narx import qilinadigan tovarlarga aloqasi bo'lmagan haq to'lash shakli negizida belgilanadi. Masalan, import qilinadigan tovarlar sotuvchi tayyor mahsulotlarning muayyan miqdorini olish sharti asosida etkazib beradigan yarim tayyor mahsulotlardan iborat bo'ladi. Sotuvchi 10000 pul birligiga yog'och-taxta sotayapti. Xaridor yog'och-taxtadan jami 1000 dona stolni ishlab chiqaradi. Sotuvchi shunday shart qo'yadi: xaridor yog'och-taxta uchun haq, to'lash hisobiga 500 ta stolni etkazib beradi, stollar qiymati belgilanmagan;

- oldi-sotdi shartnomasi faqat ushbu sotuvchidan sotib olish shartini nazarda tutadi;

- oldi-sotdi shartnomasi bitim qiymatini tovarlarni uzaro sotish (etkazib berish) sharti asosida belgilaydi,

Bunday shartlar mavjud bo'lganida ularning bitim qiymatiga ta'sir qilgan yoki qilmaganligini va bunday ta'sirni miqdoriy jihatdan belgilash mumkin yoki mumkin emasligini aniqlash kerak bo'ladi. Faqat shartning qiymatga ta'siri miqdoriy jixatini belgilash mumkin bo'lsa va bayon qilingan narx xaqiqatda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narx bo'ladigan bo'lsagina, 1-usulni qo'llash mumkin.

Tovarlarining qandaydir tarzda keyinchalik qayta sotilishi, xaridor tomonidan tasarruf etilishi yoki foydalanilishidan olingan tushumning hech qandayismi, agar faqat qiymatning lozim darajadagi o'zgartirilishi amalga oshirilmasa, bevosita yoki bilvosita sotuvchiga o'tmaydi. Mabodo tuzilgan shartnoma shartlariga ko'ra xaridor tovarning qayta sotilishi, tasarruf etilishi yoki foydalanilishidan so'ng olingan tushumning bir qismini sotuvchiga o'tkazishi kerak bo'lsayu, lekin bunday kism miqdori yoki uni belgilash usuli

shartnomada ko'rsatilmagan holda 1-usulni qo'llanish mumkin emas. Biroq, agar shartnoma shartlariga ko'ra tushumning beriladigan qismi miqdorini hisoblab chiqish mumkin bo'lsa, unda bojxona qiymati ikki bosqichda belgilanadi: birinchi bosqichda bojxona qiymati tovar olib kelinishi paytida

1 -usulga ko'ra belgilanadi va uning chiqarilishi bojxona organining belgisi qo'ilib belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Tovarning sotilishi, tasarruf etilishi yoki foydalanilishidan so'ng import qiluvchi olingan summa miqdori va sotuvchiga beriladigan summa xaqidagi hujjatlarni taqdim etadi. Ana shu ma'lumotlar asosida bojxona qiymati va bino-barin, olinishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlari summasi o'zgartiriladi.

Import qiluvchi va eksport qiluvchi o'zaro bir-biriga bog'liq shaxslar bo'lmagan xolatlarda, ularning bog'liqligi bitimning qiymatiga ta'sir qilmagan va bu deklarant tomonidan tasdiqlangan xollar bundan mustasnodir.

Qonunning 18-moddasiga muvofiq shaxslar quyidagi xollarga muvofiq, kelganida o'zaro bir-biriga bog'liq deb xisoblanadi:

- bitim katnashchilaridan bittasi (jismoniy shaxs) yoki bitim qatnashchilaridan birining mansabdor shaxsi ayni bir vaqtda bitimda qatnashayotgan boshqa shaxsning mansabdor shaxsi bo'lsa;

- bitim katnashchilari korxonaga birgalikdagi egalik qiluvchi shaxslar bo'lsa;

- bitim qatnashchilari mehnat munosabatlari orqali o'zaro bog'liq bo'lsa;

- bitim qatnashchilaridan biri bitimda qatnashayotgan boshqa shaxs ustav kapitalining ovoz xuquqini beruvchi kamida besh foiziga teng bo'lgan ulush (pay) yoki aktsiya egasi bo'lsa;

- bitimning xar ikkala qatnashchisi bevosita yoki bilvosita uchinchi shaxs nazorati ostida bo'lsa;

- bitim qatnashchilari birgalikda bevosita yoki bilvosita uchinchi shaxsni nazorat qilsalar;

- bitim qatnashchilaridan biri bitimda qatnashayotgan boshqa shaxsning bevosita yoki bilvosita nazorati ostida bo'lsa;

- bitim qatnashchilari yoki ularning mansabdor shaxslari qarindoshlar bo'lsalar.

Sotuvchi bilan xaridorning o'zaro bog'liqligi, shuningdek, bunday bog'liqlikning bitim narxiga ta'siri xaqidagi ma'lumotlar deklarant tomonidan ko'rsatiladi.

Sotuvchi bilan xaridor o'rtasida aloqa mavjudligining o'zi bitimning bayon qilingan qiymatini tan olmaslik va 1-usulni qo'llashni rad qilish uchun asos bo'la olmaydi.

Bunday xolda o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lgani yoki bo'lmagani va uning bitim qiymatiga ta'sir qilgani yoki qilmaganini aniqlash zarur. Agar ta'sir aniqlanmagan bo'lsa, unda bitim qiymati bojxona organi tomonidan qabul qilish mumkin bo'lgan qiymat sifatida qabul qilinadi. Agar bojxona organida qiymatga ta'sir mavjud bo'lgan deb hisoblash uchun asos bo'lsa, unda bojxona organlari bu xaqda import qiluvchiga (deklarantga) xabar qiladi va unga bunday emasligini isbotlash va bayon qilingan qiymatni hujjatlar asosida tasdiqlash uchun imkon beradi.

Shubha tug'iladigan barcha xollarda tegishli bitimga doir ma'lumotlar bojxona organlari tomonidan xisobga olib qo'yiladi.

Sotuvchi bilan xaridor o'rtasida o'zaro bog'liqlik bo'lgan xollarda bojxona organlari quyidagicha asosiy xarakatlarni amalga oshiradi:

1) Bundan ilgari shu firma bilan bitimlar bo'lgan-bo'lmaganligi va ular yuzasidan qanday muloxazalar bo'lganligini tekshirish; bojxona organida mavjud bo'lgan ushbu bitimga bevosita yoki bilvosita tegishli, axborotni tahlil etish.

Bojxona organlari zarur axborotga ega bo'lgan o'zaro bog'liq bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi xuddi shuningdek yoki shunga o'xshagan bitimlar yoxud 4 yoki 5-usullarga ko'ra belgilangan bojxona qiymati bilan nazoratli taqqoslashlarni mustaqil ravishda amalga oshirishi mumkin. Mabodo bunday axborot o'zaro bog'liqlik bitim qiymatiga ta'sir qilmagan deb xulosa chiqarish uchun etarli bo'ladigan xolda bayon qilingan qiymat bojxona organi tomonidan deklarantdan qo'shimcha axborotni so'ramasdan qabul qilinadi va bojxona qiymatini belgilash uchun 1-usul qo'llaniladi. Bundan keyin boshqa tekshiruv o'tkazilmaydi.

2) Bunday o'zaro bog'liqlikning tovar qiymatiga ta'sirini taxlil etish. Taxlil etish jarayonida sotuvchi bilan xaridorning tijorat munosabatlarining tusi va tashkil etilishi; tovarni sotish shartlari; buyurtmalar qay tarzda berilganligi; tovar qiymati qanday xisoblangani, narxning qanday belgilangani va xisob varaqqa yozilgani; xaq to'lash qay tarzda amalga oshirilgani, to'lovlarning qanday o'tkazilganligi va shu kabilar ko'rib chiqiladi.

Mabodo tekshiruv (taxlil etish) jarayonida sotuvchi bilan xaridor garchi o'zaro bog'liq shaxslar bo'lsada, ularning bir-biridan tovarlarni sotib olishi va sotishi ular o'rtasida go'yo bunday bog'liqlik bo'lmagani xolda sodir etiladigani tarzdagi kabi yuz berishi aniqlansa, unda bunday o'zaro munosabatlar qiymatga ta'sir qilmagan deb qabul qilinadi. Masalan, agar qiymatning ushbu sanoat tarmog'idagi narxni belgilashga doir oddiy amaliyotga muvofiq yoki sotuvchining sotish narxini u bilan bog'liq, bo'lmagan xaridorlarga sotishidagi kabi yo'l bilan tayinlashi aniqlansa, unda bu xol kontragentlarning o'zaro munosabatlari qiymatga ta'sir ko'rsatmaganligini tasdiqlaydi.

Mabodo tekshiruv sotuvchi bilan xaridorning o'zaro bog'liqligi bitim qiymatiga ta'sir qilmaganligini tasdiqlasa, bunday qiymat qabul qilish uchun mumkin deb e'tirof etiladi va bojxona qiymatini belgilash uchun 1-usul qo'llaniladi. Aks xolda 2-6-usul-lar qo'llaniladi.

3) Deklarantga o'zaro bog'liqlikning bitim qiymatiga ta'siri bo'lmaganligini isbotlash imkoniyatini berish va deklarant taqdim etgan dalillarni ko'rib chiqish;

4) Mabodo bojxona organida deklarant bayon qilgan bitim qiymatini qabul qilmaslikka asos bo'lgani holda bunday asoslarni yozma ravishda bayon qilish va asoslash; import qiluvchining talabiga ko'ra unga tegishli ma'lumotnomani taqdim etish;

5) Import qiluvchining xoxishiga ko'ra shaxslar o'zaro bog'liqligining bitim qiymatiga ta'sirining tahlili natijalarini kutib o'tirmasdan bojxona qiymatini belgilashning boshqa usullariga o'tish;

6) Ushbu firmani maxsus hisobga olib qo'yish.

Shuni hisobga olish kerakki, bojxona organi o'zaro bog'liqlik mavjudligi va uning bitim qiymatiga ta'siri yuzasidan etarli asoslangan shubxalar bo'lmaganida firmani maxsus nazorat ostiga olib qo'yishi mumkin. Bunday nazorat firmaning boshqa bitimlarni rasmiylashtirishidagi faoliyatini kuzatish uchun kerak va faqat ana shundan keyin zarur bo'lganida va zarur axborotlar to'planganida tekshiruv o'tkaziladi.

Shuni nazarda tutish kerak bo'ladiki, tekshiruvning o'tkazilishi va o'zaro bog'liq shaxslar o'rtasidagi bitim xolatlarini o'rganish sotuvchi bilan xaridor o'rtasida o'zaro bog'liqlik aniqlangan hamma holatlarda ham amalga oshirilavermaydi. Bu tarzdagi o'rganish faqat bojxona organida qiymatning qabul qilish uchun maqbulligi yuzasidan etarli asoslangan shubhalar mavjud bo'lganidagina talab etiladi. qiymatning qabul qilish

uchun maqbulligi yuzasidan bojxona organida shubha uyg'onmaganida bunday narx import qiluvchiga qo'shimcha axborotlarni so'rab murojaat qilmasdan qabul qilinadi (masalan, agar bojxona organi bundan ilgari mazkur kontragentlar o'rtasidagi mavjud aloqani o'rgangan yoki ular haqida-gi zarur ma'lumotlarga ega bo'lsa, shunday qilinadi).

Mabodo bojxona organida sotuvchi bilan xaridorning o'zaro bog'liqligi munosabatlari hususida shubha uyg'onsa, unda deklarant o'zaro bog'liqlikning bitimga ta'sir qilmaganligi va u bayon qilgan qiymatning xaqiqatan ham to'langanligini isbotlash xuquqiga ega bo'ladi. o'zaro bog'liq, shaxslar o'rtasidagi bitim qiymatining qabul qilish uchun maqbul deb e'tirof etilishi va unga nisbatan 1-usulning qo'llanilishi mumkin bo'lishi uchun deklarant u bayon qilgan qiymatning xaqiqatan ham to'langanligi yoxud baxolanayotgan to-varlar bo'yicha bitim qiymatining quyidagilarga juda yaqinligini xujjatlar asosida tasdiqlashi lozim:

a) xaridorlar bilan bog'liq bo'lmagan (ya'ni, o'zaro bog'liq bo'lmagan shaxslar) sotuvchilar tomonidan xuddi shuningdek yoki shunga o'xshagan tovarlar sotilishidagi bitim qiymatiga;

b) xuddi shuningdek yoki shunga o'xshagan tovarlarning 4-usulga ko'ra xisoblab chiqilgan bojxona qiymatiga;

v) xuddi shuningdek yoki shunga o'xshagan tovarlarning 5-usulga ko'ra hisoblab chiqilgan bojxona qiymatiga;

g) shu paytgacha bojxona organi qabul qilgan «nazoratli» qiymatga.

Bunday taqqoslashlar faqat deklarant tashabbusiga ko'ra amalga oshiriladi va baholanadigan tovarlarga doir bitim shartlariga solishtirib ko'rish maqsadida qo'llaniladi. Taqqoslashlar o'tkazilishida taqqoslanadigan bitimlar shartlaridagi farqlarni hisobga olib zarur o'zgartirish qilinishi lozim.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bitimning bir qiymati yoki bojxona qiymatining boshqa qiymatga qanchalik «juda yaqinligini» belgilashda qator omillarni e'tiborga olish kerak bo'ladi. Bunday omillar import qilinadigan tovarlar tusini; tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini; tovar import qilinadigan mavsumni, shuningdek, farqning qiymatda tijorat mohiyatiga ega yoki ega emasligi faktini hisobga olishi zarur. Bunday omillarning turli xollarda bir xil bo'lmasligi uchun universal andoza, masalan, qayd qilingan foiz kabi andozaning qo'llanilishi xar bir aloxida holda mumkin bo'lmaydi. Masalan, bir xildagi tovarga tegishli holatda qiymatlardagi unchalik jiddiy bo'lmagan farq, qabul qilinmasligi mumkin, ayni bir vaqtda esa boshqa bir xildagi tovarga tegishli holatda qiymatlardagi ancha jiddiy farqning bemalol qabul qilinishi ham mumkin.

Shunday qilib, har bir alohida holatda maxsus tekshiruv o'tkazilishi va ushbu ishga tegishli vaziyat asosida qaror qabul qilinishi lozim.

Ko'rib chiqilayotgan bitim shartlarining muvofiqligini hisobga olgan holda bojxona qiymatini aniqlashning 1-usuli qo'llanilishi mumkinligi belgilanganidan so'ng bayon qilingan qiymatning o'zgartirilishi qonunning 14-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

haqiqatan ham to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan qiymatning, ya'ni xaridor sotuvchiga haqini to'lagan amaldagi xarajatlarning belgilanishi xar doim bojxona qiymatini belgilash uchun asosiy nuqta bo'ladi.

har qanday xolda ham deklarant bitim qiymatini tasdiqlash uchun BKD-1ni to'ldirishda, haqi to'langani yoki yo'qligidan qat'i nazar, sotuvchining ushbu tovarga haq to'lanishi uchun taqdim etgan hisobvaraqqni taqdim qilishi shart.

Agar bojxonada rasmiylashtirish paytigacha tovarga haq to'lanishi amalga oshirilgan bo'lsa, unda sotuvchi taqdim etgan va xaridor xaqini to'lagan xisobvaraqlar uning isboti sifatida taqdim qilinadi. Bunda xaridorning haqi to'langan hisobvaraqlar, bo'yicha foydalangan amaldagi chegirmalari (masalan, to'lov shartlariga ko'ra chegirmalar) hisobga olinadi.

Mabodo yukning bojxonada rasmiylashtirilishi paytigacha xaridor sotuvchi taqdim etgan hisobvaraqlarning haqini to'lamagan bo'lsa, unda bojxona organiga haqi to'lanmagan hisobvaraqlar taqdim etiladi va shu hisobvaraqlar bo'yicha BKD-1 shaklida ko'rsatilgan summaning hisobvaraqlardagi summaga muvofiqligi tekshiriladi. haqi to'lanmagan hisobvaraqlar bo'yicha to'lov shartlariga doir chegirmalar e'tirof etilmaydi. hisobvaraqlarning haqi to'langanidan keyin bojxona qiymatining o'zgartirilishi amalga oshirilishi mumkin.

Hisobvaraqlar bo'lmaganida 1-usul qo'llanilmaydi va bojxona qiymatining belgilanishi boshqa usullarga ko'ra amalga oshiriladi. Mabodo taqdim etilgan hisobvaraqlar bojxona organida shubha uyg'otsa unda bojxona organi bitim qiymatini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlarni talab qilishi shart.

Bojxona organi deklarant taqdim etgan hujjatlarga binoan bitim qiymatini e'tirof qilganidan so'ng tovarning bojxona qiymatini hisob-kitob qilish uchun unga qo'shimcha hisoblanmalar yoki chegirmalarni belgilashi zarur. Bitim qiymati tarkibi tovarni etkazib berish shartlariga bog'liq bo'ladi.

Faqat qonunning 18-moddasida belgilangan xarajatlarning qiymatiga qo'shimchalar sifatida kiritilishi mumkin:

- a) tovarni bojxona xududiga olib kiradigan joygacha etkazish harajatlari, jumladan;
 - tashish qiymati (xarajatlari);
 - yuklash, tushirish, qaytadan yuklash va tushirib, boshqasiga yuklash xarajatlari;
 - sug'urta summasi.
- b) xaridor qilgan xarajatlarning:
 - komission brokerlik rag'batlantirish haqlari, tovarlarni sotib olishga doir komission haqlar bundan mustasno;
 - agar konteynerlar va (yoki) boshqa ko'p marta ishlatiladigan tara baxrlanadigan tovarlar bilan bir butun xolida ko'rib chiqiladigan bo'lsa, ular qiymati;
 - urash qiymati, shu jumladan, o'rash materiallari va o'rashga doir ishlar qiymati;
- v) sotuvchi xaridorga bevosita yoki bilvosita bepul yoki kamaytirilgan qiymati bo'yicha etkazib beradigan xizmatlar va boshqa tovarlar qiymati;
- g) xaridor baxrlanadigan tovarlarning sotilishi shartlari sifatida bevosita yoki bilvosita amalga oshirishi kerak bo'lgan intellektual mulk ob'ektlaridan foydalanganlik uchun litsenziya to'lovi va boshqa to'lovlari;
- d) olib kelingan tovarni keyinchalik qandaydir qaytadan sotish, tasarruf etish yoki foydalanishdan olinadigan tushumning sotuvchiga bevosita yoki bilvosita to'lanishi lozim bo'lgan har qanday qismining qiymati.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha harajatlarning faqat ular bitim qiymatiga kiritilmagan va deklarant tomonidan hujjatlar asosida tasdiqlangan holidagina bitim narxiga qo'shib hisoblanishi mumkin.

Agar bitimni tuzishda tomonlar tovar O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan joygacha sotuvchi tomonidan etkazib berilishi xaqidagi shartlarni qo'llashsa, unda bojxona qiymati quyidagi to'lovlarni ular qiymatdan chiqarib tashlanishi sharti bilan o'z ichiga qamrab olmaydi, faqat ushbu xarajatlarning hisob-varaqlarida alohida ko'rsatilgan bo'lsa;

- sanoat qurilmalari, mashinalar yoki uskunalar kabi import qilingan tovarlar olib kelinganidan keyin amalga oshirilgan qurilish, tiklash, yig'ish, xizmat ko'rsatish yoki texnik hamkorlik ko'rsatish harajatlari;

- O'zbekiston Respublikasiga import qilinganidan keyingi transport xarajatlari;

- O'zbekiston Respublikasida to'lanishi lozim bo'lgan bojlar va soliqlar.

2-usulning qo'llanilishida ayni bir xil tovarlar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona qiymatini belgilash uchun baza sifatida qabul qilinadi.

qonunning 19-moddasiga binoan baxolanadigan tovarlar bilan hamma jixatlariga ko'ra, shu jumladan, quyidagi belgilari bo'yicha bir xilda bo'lgan tovarlar xuddi shuningdek tovarlar deb tushuniladi:

– fizik xususiyatlari;

– sifati va bozordagi kadri;

– qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi;

– ishlab chiqaruvchisi.

Bunday tovarlarni ko'rib chiqishda agar ularning boshqa hamma xususiyatlari tovarlarning aynan bir xil tovarlar deb e'tirof etilishi uchun qo'yiladigan yuqorida sanab o'tilgan talablarga muvofiq kelsa, unda ularning tashqi ko'rinishidagi unchalik jiddiy bo'lmagan farqlar ularni aynan bir xil tovarlar sifatida ko'rib chiqishni rad qilish uchun asos bo'la olmaydi.

Masalan, bir xolda bog'lar va polizlar uchun insektitsidli purkagich qismlarga bo'lingan va suyuqliksiz (dorisiz) etkazib beriladi. Ikkinchi xolda esa zararlovchi dorilar to'ldirilgan va yig'ilgan holatdagi xuddi shunday purkagichlar etkazib beriladi.

Purkagich ikkita yig'ma qismdan iborat bo'ladi:

a) nasos va qopqog'iga birlashtirilgan uchlik va b) zaharli moddalar uchun konteyner (idish). qismlarga bo'lingan purkagichlarni ishlaydigan xolatga keltirish uchun konteyner suyuqlik bilan to'ldiriladi va qopqog'i berkitiladi. Shunday qilib, ishlatish uchun tayyorlangan purkagichlar taqqoslasa bo'ladigan (o'xshash) holga keladi, hamma jixatlariga ko'ra, shu jumladan, fizik xususiyatlari va kadriga ko'ra bozorda xuddi shuningdek tovarlar tarzida taqdim etiladi, bir mamlakatda u qismlarga bo'lingan holida, boshqasida esa yig'ilgan holida qo'yilishi bundan mustanodir. Yig'ishga doir operatsiya aynan bir xil yoki shunga o'xshagan tovarlar tarzida ko'rib chiqilayotgan yig'ilmagan yoki yig'ilgan tovarlardagi farqlarning bartaraf etilishiga olib keladi. Shunday qilib, tovarlarning bir holatda yig'ilgan holida, boshqa holatda esa qismlarga bo'lingan holida etkazib berilishi ularni aynan bir xil tovarlar tarzida ko'rib chiqishni istisno eta olmaydi.

Agar tovar baxolanayotgan tovar bilan ayni bir mamlakatda ishlab chiqarilmagan bo'lsa, unda u baxolanayotgan tovar bilan aynan bir xil tovar deb hisoblanmaydi.

Turli shaxslar ishlab chiqargan tovarlar faqat deklarantlarda baxolanayotgan tovarlarni tayyorlagan shaxs ishlab chiqargan aynan bir xil tovarlar xaqida ma'lumotlar bo'lmasa, shunday holdagina aynan bir xil tovarlar deb hisoblanishi mumkin.

Agar tovarning loyihalanishi, tajriba-konstruktorlik ishlari, badiiy bezalishi, dizayni, eskizlari, chizmalari va shunga o'xshagan ishlari O'zbekiston Respublikasida bajarilgan bo'lsa, u aynan bir xil tovar deb hisoblanmaydi.

Agar tovarlar quyidagi shartlarga muvofiq kelsa, xuddi shuningdek tovarlarga doir bitim narxi bojxona qiymatini belgilash uchun baza sifatida qabul qilinadi:

a) O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelish uchun sotilgan bo'lsa;

b) baxolanayotgan tovarlar bilan ayni bir vaqtda yoki ular olib kelinishiga qadar 90 kundan ko'p bo'lmagan vaqtda olib kelingan bo'lsa;

v) taxminan baxolanayotgan tovarlar olib kelingan miqdorda va (yoki) huddi shuningdek tijoratchilik shartlari asosida olib kelingan bo'lsa.

Bunday usulni qo'llashda bojxona organlari imkoni boricha aynan bir xil tovarlarning baxolanayotgan tovarlar bilan bir xildagi tijoratchilik shartlari asosida va ko'prok ana shuncha miqdorlarda sotilishidan foydalanishi lozim. Bunga o'xshagan sotish xollari aniqlanmaganida aynan bir xil tovarlarning quyidagi uchta shartdan biriga muvofiq xolda sotilishi, xolidan foydalanishi mumkin:

a) bir xildagi tijoratchilik shartlari asosida, biroq boshqa miqdorlarda sotilishi;

b) turlicha tijoratchilik shartlari asosida, biroq ko'prok ayni bir xildagi miqdorlarda sotilishi;

v) turlicha tijoratchilik shartlari asosida va turlicha miqdoriy omilga ko'ra sotilishi.

Import qilinadigan aynan bir xil tovarlarga doir bitimning shu tarzda belgilangan qiymati baxolanayotgan tovarlar uchun bojxona qiymatini anglatadi.

Bunda shuni esda tutish kerakki, tijorat shartlari yoki miqdorlarida farqlar bo'lganida o'zgartirish kiritish uchun bunday o'zgartirishning uning maqsadga muvofiqligi va aniqligini shubxasiz darajaga etkazadigan dalillarning ko'payishiga yoki kamayishiga olib kelishiga doir omil shart bo'lib hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchining turli shartlar va turli miqdorlarga tegishli narxlarni o'z ichiga oladigan amaldagi preyskurantlari ana shunday ob'ektiv dalillar sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Masalan, baholanayotgan import qilingan tovarlar 10 ta birlikdan iborat guruhni tashkil etadi, bojxona organi va deklarant ixtiyorida mavjud bo'lgan aynan bir xil import qilingan tovarlarga doir bitimning yagona qiymati esa 500 ta birlikning sotilishiga tegishlidir. Bunda shu narsa e'tirof etilganki, sotuvchi miqdor uchun chegirmalar taqdim qiladi. Bunda talab etiladigan o'zgartirish sotuvchi preyskuranti va 10 ta birlikning sotilishiga doir narxdan foydalanish yordamida amalga oshirilishi mumkin. Bu preyskurandagi narxnavoning ishonchliligi va boshqa miqdorlardagi sotishlarga ham asoslanib tuzilganligini xisobga olib sotuvning 10 talik birliklardagi miqdorlar bilan sotilishi lozimligini anglatmaydi. Bunday ob'ektiv mezon bo'lmaganida bojxona qiymatini 2-usulga ko'ra belgilab bo'lmaydi.

Bunday o'zgartirish ham deklarant tomonidan haqiqatan ham hujjatlar asosida tasdiqlangan ma'lumotlar orqali amalga oshirilishi lozim.

Masalan, SVED tipidagi kir yuvish mashinasi Shvetsiyadan oluvchi X tomonidan bepul import qilinadi. Xuddi shunday turdagi mashina xaridor Y tomonidan AqShdan savdo bitimi natijasida import qilinadi.

A) etkazib beruvchi bepul etkazib berish oluvchi (shvetsiya) sved tipidagi kir yuvish (x) mashinalari (10 dona)

B) sotuvchi xuddi shuningdek tovarni etkazib xaridor (aQsh) berish bo'yicha savdo bitimi (100 dona) (y) bojxona qiymatiq 10000 aqsh dollari.

a) tovar uchun 1-usulni qo'llash mumkin emas, chunki olib kelish uchun savdo bitimi asos bo'lmagan. b) tovarning bojxona qiymatini belgilash uchun 1-usul qo'llanilgan. Oluvchi X va xaridor Y olib kelgan kir yuvish mashinalari aynan bir xil tovarlar hisoblanadi. b) tovar uchun bojxona qiymati belgilanganligi sababli uni bepul etkazib berishlar bo'lgani xolda ularni tovarlar miqdoriga qarab zarur o'zgartirishlar qilgan tarzda 2-usul bo'yicha baholash uchun jalb etish kerak bo'ladi.

Mabodo ushbu usulni qo'llashda aynan bir xil tovarlarga doir bitimning birdan ortiq, narxлари aniqlansa, unda import qilinadigan tovarlarning bojxona qiymatini belgilash uchun bunday narxlarning eng pastkisi (kami) qo'llaniladi.

O'xshash tovarlar deganda, garchi xamma jixatlariga kura bir xil bulmasa-da, lekin bir-biriga uxshash xususiyatlarga ega va baxolanayotgan tovarlar kabi funktsiyalarni bajarishga va tijorat jixatdan birini biri bilan almashlashga imkon beradigan uxshash tarkibiy kismlaridan iborat bulgan tovarlar tushiniladi.

Tovarlarni bir-biriga uxshashligini belgilashda kuyidagi jixatlar xisobga olinadi:

- sifati, tovar belgisining mavjudligi va bozordagi kadri;
- kaysi mamlakatda ishlab chikarilganligi;
- ishlab chikaruvchisi.

Uxshash tovarlarga doir bitim narxi buyicha bojxona qiymatini belgilashning 3-usulidan foydalanishda 2-usulni kullashdagi kabi koidalar kullaniladi.

Masalan, bir-biriga uxshagan bulimli doiradagi rezina pokrishkalar bir mamlakatda joylashgan ikkita turli ishlab chikaruvchilardan import kilinadi. Xar bir ishlab chikaruvchining uz savdo markalaridan foydalanishiga karamasdan rezina pokrishkalar bir xildagi standartlar, sifatiga ega, import kiluvchi mamlakatning avtomobi sanoatida bir xildagi e'tiborga sazovor va talabga egadir.

Ana shunday ma'lumotlar asosida kuyidagicha xulosalar chikarilishi mumkin:

a) ushbu rezina pokrishkalar turli savdo markazlariga egaligi sababli ular ayni bir xil tovarlar sifatida kurib chikilishi mumkin emas;

b) shu bilan birga, garchi pokrishka ma'lumotlari xamma jixatlariga kura bir xil bulmasa-da, baribir ular bir-biriga uxshagan xususiyatlarga va tarkibiy materiallarga egaki, bu ularning bir xildagi funktsiyalarni bajarishiga imkon beradi. Tovarlarni bir xildagi standartlarni xisobga olib bajarilgani, sifati va bozordagi shchadri jixatidan bir xilligi va savdo markasiga egaligi sababli ularni uxshash tovarlar sifatida kurib chiqish kerak buladi.

Deklarant 3-usulni kullanishda uxshash tovarlarni imkoni boricha baxolanayotgan tovarlar bilan bir xildagi tijorat shartlari asosida va taxminan shunchalik mishchdordagi sotilishiga doir axborotdan foydalanishi lozim. Bunday turdagi sotish xollari aniklanmaganida uchrab turadigan va kuyidagicha uchta shartdan biriga muvofik keladigan uxshash tovarlar sotilishidan foydalanish mumkin:

a) xuddi shunday tijoratchilik shartlari asosida, biroq turli mikdorlarda sotilishi;

b) turlicha tijoratchilik shartlari asosida, biroq taxminan bir xildagi mikdorlarda sotilishi;

v) turlicha tijoratchilik shartlari asosida va turli mikdorlarda sotilishi.

Ana shu shartlarni kaysidir biriga kura sotilish variantini tanlagach kuyidagi tegishli variantlarga tugri keladigan omillar buyicha uxshash tovarlarning bojxona qiymatiga uzgartirish kiritish kerak buladi:

a) fakat mikdoriy omillarga kura;

b) fakat tijoratchilik shartlariga tegishli omillarga kura;

v) tijoratchilik shartlariga tegishli omillar va mikdoriy omillarga kura.

Import kilinadigan uxshash tovarlarga doir bitimning uzgartirishlar xisobga olib belgilangan qiymati baxolanayotgan tovarlar uchun bojxona qiymati xisoblanadi.

Uzgartirishlarga nisbatan kuyiladigan talablar 2-usulga doir uzgartirishlarga kuyiladigan talablar singari buladi. Misolni kurib chikamiz.

a) Etkazib beruvchi (Shvetsiya)	Bepul etkazib berish (kafolat xisobiga)	Oluvchi (R)
“SVED” kir yuvish mashinasi 10 dona (etkazib berish vakti 01.01.98y.)		
b) Sotuvchi (AKSh)	Uxshash tovarlarni etkazib berish buyicha savdo bitimi “Alfa” manshinasi 1000 dona; Bojxona qiymati q 100000 AKSh dollari (etkazib berish vakti 05.10.97y.)	
v) Sotuvchi	uxshash tovarni etkazib berish buyicha savdo bitimi “Beta” kir yuvish mashinasi - 20 dona; Bojxona qiymati q 1800 AKSh dollari (etkazib berish vakti 20.11.97y.)	
g) Sotuvchi (Germaniya)	Uxshash tovarni etkazib berish buyicha savdo bitimi “Gamma” kir yuvish mashinasi - 15000 dona; Bojxona qiymati q 15000 AKSh dollari (etkazib berish vakti 25.12.97y.)	

Ushbu xolda ayni bir xil tovarlar takdim etilmagan, tunki tovarlar turli savdo markasiga va tashki bezatilishi jixatidan printsiplial farqlarga ega. Bu urinda gap bir xildagi xususiyatga ega va bir xildagi materiallardan tayyorlangan uxshash tovarlar xakida boryapti. Savdoda ular uzaro bir-birining urnini almashlashi mumkin.

b, v,g bandlari ostida keltirilgan tovarlar 1-usulga kura belgilangan bojxona qiymatiga ega.

a) tovar uchun 1-usulni kullash mumkin emas, chunki sotib olish fakti yuk.

2-usul xam kullanilishi mumkin bulmaydi, chunki aynan bir xil tovarlarning bojxona qiymati yuk. Shunday kilib, bunday xolda 3-usul kullanilishi kerak buladi. b, v, g tovarlari uchun bojxona qiymati belgilanganligi sababli uni a) tovar uchun bepul etkazib berish uchun asosiy xisob-kitob bazasi sifatida kullanilishi mumkin.

Birok ushbu xollarda uxshash tovarlarga doir 3 ta eng past narxlisini tanlash zarur. Bu xolda v) variantdagi etkazib berish eng makbuli bulishi mumkin, chunki tovar birligining narxi 90 AKSh dollaridan iborat bulgan edi. Shunday kilib, zarur uzgartirishlar amalga oshirilgach, v) tovarning bojxona qiymatidan a) tovarni baxolash uchun foydalanish kerak buladi.

Mabodo deklarantda aynan bir xil va uxshash tovarlarning bojxona qiymati xakidagi axborot mavjud bulmasa, unda baxolashning boshka usullariga utish lozim buladi.

4-usul buyicha bojxona baxosini chikarish uchun baxolanadigan, aynan bir xil yoki uxshash tovarlar Uzbekiston Respublikasining ichki bozoridagi dastlabki xolati uzgartirilmasdan sotiladigan sotish narxi bojxona qiymatini belgilash uchun asos kilib kabul kilinadi.

Qiymatni chegirib tashlash asosida baxolash usulidan foydalanishda tovar birligining baxolanadigan, aynan bir xil yoki shunga ixshash tovarlar Uzbekiston Respublikasi xududida sotuvchiga boglik bulmagan xaridor tomonidan olib kelish sanasidan 90 kun ichida eng kup guruxlar buyicha sotiladigan narxi baza sifatida kabul kilinadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona qiymatini ichki narx asosida xisoblash mumkin bulishi uchun undan fakat ichki bozorga xos bulgan elementlari, ya’ni ushbu tovarlar importidan keyin amalga oshirilgan xarajatlarni chegirib tashlanishi zarur.

Konunning 21-moddasiga muvofiq sotiladigan tovar birligi narxidan quyidagi xarajatlarni chegirib tashlanadi:

a) vositachilik xaki tushishga kilingan xarajatlarni, foydaga quyiladigan odatdagi ustamalar va olib kelingan bir xil klassdagi va turdagi tovarlarni Uzbekiston Respublikasida sotish bilan bogliq umumiy xarajatlarni;

b) tovarlar olib kirish yoki sotish munosabati bilan Uzbekiston Respublikasida tulanishi lozim bulgan import bojlari, soliklar, yigimlar va tulovdilar summasi;

v) Uzbekiston Respublikasida transportda tashish, sugurtalash, yuklash va tushirish uchun kilingan xarajatlarni.

Ichki bozordagi tovarlarning sotilishi narxini tanlashda kurib chikiladigan tovarlarning import kilinganidan sung birinchi tijorat darajasidagi sotib olinishidan, ya'ni import kilingan tovarlarning dastlabki kayta sotilishidan foydalanish lozim.

Bojxona qiymati belgilanishi lozim bulgan tovar guruxini tanlash uchun misollarni kurib chikamiz.

Sotish xajmi	Bir. Birlik narxi	Sotishlar uchun ushbu narx buyicha sotilgan umumiy mikdor
1-10 ta birlik	100	3 ta birlikdan 5 ta sotish 65
5ta birlikdan 10 ta sotish		
11-25 ta birlik	95	11 ta birlikdan 5 ta sotish 55
25 dan ortik birlik	90	30 ta birlikdan 1 ta sotish 80 50 ta birlikdan 1 ta sotish

Bir narx buyicha sotilgan tovarlarning eng kup mikdori 80 tani tashkil etadi, shunday kilib, eng kup jamlangan guruxdagi tovar birligi narxi 90 ta birlikni tashkil kiladi.

Bojxona qiymatini aniqlash uchun tovarning sotish narxidan 6.3-bandda kursatilgan, tovar birligiga tugri keladigan xarajatlarning bir kismini chikarib tashlash kerak buladi. Masalan, bu, aytaylik, 18 pul birligi - savdo ustamasi, 5,4 pul birligi - bojxona bojlari va soliklar, 0,6 pul birligi - transport xarajatlari bulsin. Uzbekiston Respublikasi xududida amalga oshirilgan va tovar birligiga tugri keladigan barcha xarajatlarning jami summasi 24 pul birligini tashkil etadi. Tovar birligi narxi -90 dan 24 pul birligini chikarib tashlash kerak. Shunday kilib, tovar birligining bojxona qiymati 66 pul birligidan iborat buladi. Bojxona qiymatini olib kelinadigan tovarlarni soniga uzgartirib, baxolanayotgan tovarlar guruxining bojxona qiymatini belgilash mumkin.

4-usul buyicha bojxona qiymatini aniqlash maksadida foydalanish uchun tovar birligi narxini belgilashda import kilinadigan mamlaktda sotuvchiga Konunning 21-moddasida nazarda tutilgan elementlarning tovarlar ishlab chikarilishi va ularning import kilinadigan mamlaktga eksportga sotilishi munosabati bilan foydalanishi uchun bevosita yoki bilvosita bepul yoki kamaytirilgan narx buyicha etkazib berishni amalga oshiradigan shaxsga kandaydir sotilishi e'tiborga olinmasligi kerak.

Ichki bozorda sotilgan tovarlarni tanlashda bir klass yoki turdagi tovarlar kurib chikiladi. Ushbu xolda 4-usulning kulllanilishi uchun baxolanayotgan tovarlar ishlab chikarilgan mamlakt va boshka mamlaktlardan chikkan tovarlar xam kurib chikilishi mumkin.

4-usul maksadlari uchun "eng yakin sana"ni belgilashda import kilinadigan tovarlar yoki aynan bir xil yoki uxshash import kilingan tovarlarning tovar birligi narxini belgilash uchun etarli mikdorda sotilishi amalga oshiriladigan sana ana shunday sana buladi.

Konunning 21-moddasida belgilanganidek, baxolanayotgan, aynan bir xil yoki uxshash tovarlarning ichki bozorda ularni olib kelish paytidagi kabi xolatida sotilishi xollari bulmaganida deklarantning iltimosiga kura kayta ishlashdan utgan tovar birligining narxi,

kushilgan qiymati va 6.3-bandga muvofik chegirib tashlanadigan xarajatlarga doir tuzatishlar kilingani xolda kullanilishi mumkin.

Bunda keyinchalik kayta ishlash jarayonida kushilgan qiymatdan chegirmalar obektiv va bunday ish qiymatiga nisbatan mikdoriy belgilanadigan ma'lumotlarga aoslanishi lozim. Sanoatda kabub kilingan formulalar, kurilish usullari va ishlab chikarishning tegishli tarmoklaridagi boshka amaliyot xisob-kitoblar negizini tashkil etishi lozim.

Odatda, 4-usul import kilingan tovarlar kayta ishlash natijasida uzining boshkalari bilan bir xilligini yukotadigan xollarda kullanilmaydi. Birok shunday vaziyatlar xam bulishi mumkinki, garchi import kilingan tovarlarning boshkalari bilan bir xilligi yukotilgan bulsa-da, kayta ishlash jarayonida kushilgan qiymati unchalik kiyinchiliklarsiz anik belgilash mumkin buladi. Boshka tomondan esa shunday xollar xam buladiki, import kilingan tovarlar uzining boshkalari bilan bir xilligini saklab koladiyu, biroq import kilingan mamlakatda tovarlarda shunday bir unchalik jiddiy bulmagan elementi bunyod etib, bunda ushbu baxolash usulidan foydalanish uzini oklamaydi. Yukorida bayon kilinganlar sababli bu xildagi xar bir vaziyat xar bir xolda aloxida tarzda karorlar u yoki boshka vaziyatning aniq xolatlariga muvofik kabul kilinishi lozim.

Qiymatlarni kushish asosida bojxona baxosini chikarish usulidan foydalanilganda, tovarning:

a) baxolanayotgan tovarning ishlab chikarish munosabati bilan tayyorlovchi tomonidan sarflangan materiallar qiymatini va boshka xarajatlarni;

b) ayni bir turdagi tovarlarni olib chikiladigan mamlakatdan Uzbekiston Respublikasiga sotishga xos bulgan umumiy xarajatlarning, shu jumladan, Uzbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan utish joyigacha transportda tashib keltirish, yuklash va tushirish, sugurtalash xarajatlarini;

v) aynan yoki bir xil uxshash tovarlarni Uzbekiston Respublikasiga etkazib berish natijasida eksportyor tomonidan odatda olinadigan foydani kushgan xolda chikariladigan baxosi bojxona qiymatini belgilash uchun asos sifatida kabul kilinadi.

Bu usulga kura bojxona qiymati fakat Uzbekiston Respublikasidan tashkarida olish mumkin bulgan axborot asosida belgilanadi. Odatda, tovarlarni ishlab chikaruvchi Uzbekiston Respublikasi yurisdiksiyasidan tashkarida buladi. Shu sababli 5-usulning kullanilishi odatda shunday shartlar bilan cheklangan buladiki, ularga kura xaridor bilan sotuvchi uzaro boglangan buladi va ishlab chikaruvchi Uzbekiston Respublikasining bojxona organlariga ishlab chikarish xarajatlari xakidagi zarur ma'lumotlarni takdim etish va keyinchalik utkazilishi lozim bulgan ularni tekshirilishini engillashtirishga tayyor buladi.

Tovarni ishlab chikarishni bojxona qiymatini belgilash maksadida takdim etgan axborot uning mamlakatida Uzbekiston Respublikasi vakillari tomonidan ishlab chikaruvchining roziligi bilan va manfaatdor mamlakatlar xukumati etarli darajada vaktlirok xabardor kilinadi va u bunday tekshirishga nisbatan karshilik kilmaydi degan shartga kura tasdiklanishi mumkin.

Xarajatlar xakidagi ma'lumotlar baxolanayotgan tovarning ishlab chikarilishiga tegishli, ishlab chikaruvchi tomonidan yoki uning tomonidan takdim etiladigan ma'lumot asosida belgilanishi lozim. Bunday axborot ishlab chikaruvchining tijoratga oid xisobotlarida, bunday xisobotlar tovarlar ishlab chikarilgan mamlakatda kabul kilinadigan xisobga olishning umumiy kabul kilingan koidalariga muvofik keladi degan shart bilan asos topgan bilishi kerak.

Xarajatlar, shuningdek, Konunning 18-moddasida nazarda tutilgan elementlar qiymatini, ya'ni 1-usulni kullashda xisobga olinadigan xarajatlarni xam uz ichiga olishi kerak. Ular shu bilan birga yana import kilinadigan tovarlarning ishlab chikarilishi munosabati bilan xaridor tomonidan sotuvchiga bevosita va bilvosita etkazib berilgan xar kanday elementning lozim darajada tasdiklangan qiymatini xam kamrab olishi lozim. Import mamlaktida bajarilgan elementlar qiymati fakat ana shu elementlarni ijro kiluvchi amalga oshirgan xak tulash doirasidagina kiritilishi lozim. Shuni esda tutish kerakki, qiymatlarni kushish usuli bilan bojxona bahosini aniqlashda xech kanday xarajatlar yoki elementlar qiymati ikki marta xisobga olinishi mumkin emas.

Taqdim etilgan ma'lumotlarni shuni kayd kilish kerakki, "foyda va xarajatlar mikdori" bir butun sifatida kurib chikilishi lozim. Bu shuni anglatadiki, agar biron-bir aloxida xolda ishlab chikaruvchi foydasi mikdori unchalik katta bulmasdan, uning umumiy xarajatlari yukori bulsa, unda uning birgalikda olingan foydasi va umumiy xarajatlari baribir odatda shunday sinfdagi yoki turdagi tovarlar sotilishida aks etadigan bunday kursatkichlarga muvofik kelishi mumkin. Bunday vaziyat masalan, maxsulot import mamlakatida bozorga chikadigan va ishlab chikaruvchi ushbu bozorni uzlashtirish bilan boglik yukori umumiy xarajatlarini kisman shuning xisobiga koplash niyatida foydaning nol darajasi yoki undan past darajani kabul kiladigan xolda vujudga kelishi mumkin. Agar ishlab chikaruvchi import kilinadigan tovarlarni sotishda u aloxida tijoratchilik xolatlari okibatida foyda olishini kursata olsa, unda uning foydaning amaldagi kursatkichlarini oklash uchun jiddiy tijoratga doir dalillari mavjud bulib, uning narxlarga oid siyosati sanoatning ushbu tarmogidagi oddiy narx siyosatini aks ettirishi sharti bilan bunday kursatkichlarni e'tibor uchun kabul kilish kerak buladi. Bunday vaziyat, masalan, ishlab chikaruvchilar talabning kutilmagan tarzda pasayib ketishi natijasida narxlarni pasaytirishga majbur bulishganida yoki ular tovarlarni import mamlakatida ishlab chikariladigan tovarlar toifasini tuldirish tartibida sotadigan va uzining rakobatga bardoshlilikini saklab kolish maksadida kam foydaga rozi buladigan xolda vujudga kelishi mumkin. Ishlab chikaruvchining uzi beradigan foyda va umumiy xarajatlar xashchidagi ma'lumotlar ishlab chikaruvchilar eksport mamlaktida tovarlarni import mamlakatiga olib chikish uchun amalga oshiradigan, baxolanayotgan tovarlar sinfdagi yoki shu turdagi tovarlarning sotilishidagi kursatkichlarga muvofik kelmaganida foyda va umumiy xarajatlar mikdori ishlab chikaruvchi tomonidan yoki uning tomonidan takdim etiladigan ma'lumotlardan boshka ishonchli ma'lumotga asoslanishi mumkin.

Qiymatlarni kushish usuliga kura bojxona qiymatini belgilash maksadlari uchun ishlab chikaruvchi tomonidan yoki uning nomidan takdim etiladigan ma'lumotdan boshka axborot foydalanilganida import kiluvchi mamlakatning bojxona organlari, agar import kiluvchi bu xakda iltimos kilsa, bunday axborot manbai, foydalanilgan ma'lumotlar va ularga asoslangan xisob-kitoblar xakida unga xabar kilishi lozim.

"Umumiy xarajatlar" atamasi 7.1.a-bandga kiritilmagan tovarlarning ishlab chikarilishi va eksportga sotilishiga doir bevosita va bilvosita xarajatlarni kamrab olishi kerak.

Mabodo import kilinadigan tovar uchun shu paytgacha kullanilgan barcha usullar bojxona qiymatini belgilashga olib kelmasa, unda xorijli ishlab chikaruvchi takdim etgan kalkulyatsiya xujjatlari asosida bojxona qiymatini belgilash imkoniyati xam mavjud bulib, bunday qiymat, masalan, material uchun xarajatlar, umumiy (kushimcha) xarajatlar, daromad, olib kelinadigan tovarlarning xiso-kitob kilingan qiymat usuli buyicha bojxona

qiymati kabi elementlarni uz ichiga olishi lozim. Bepul etkazib berish uchun 1-usuldan 4-usulgacha bulgan baxolash usullari istisno kilinadi (savdo bitimlarini yukligi, bir xildagi tovarlar uchun bojxona qiymatining yukligi, import kilinadigan mamlakatning ichki bozorida sotuvning yukligi). Bojxona olib kelinadigan tovarning bojxona qiymatini ishlab chikaruvchi takdim etgan kalkulyatsiya xujjatlari asosida xisoblab chikishi mumkin. Mabodo shubxa paydo bulsa, ishlab chishcharuvchidan uning roziligi bilan va 7.2-bandning 2-kismida nazarda tutilgan shartlarga rioya kilingani xolda tekshirib kurish kerak buladi.

Mabodo bojxona qiymati deklarant tomonidan kursatilgan beshta usulni izchillik bilan kullash natijasida belgilanishi mumkin bulmasa yoki bojxona organlari dalillari asosida bojxona qiymatini belgilashning ushbu beshta usulini kullash mumkin emas deb xisoblansa, unda baxolanayotgan tovarlarning bojxona qiymati kuyida keltiriladigan talablar doirasida 1-5-baxolash usullarini bir muncha kayishqoqlik bilan kullanish yo'li orkali belgilanadi va asoslanadi.

Rezerv usulini kullashda bojxona organlari deklarantga uzlarining ixtiyorida mavjud bulgan narxlarga oid ma'lumotlarni takdim kiladilar.

Kuyidagi 6-usulga kura bojxona qiymatini belgilash uchun baza sifatida kullanilishi mumkin emas:

- a) Uzbekiston Respublikasida ishlab chikarilgan uxshash tovarning sotuv narxi;
- b) ikki va undan ortik mukobil qiymatlarning eng yukorisi;
- v) tovarning olib chikilgan (eksport kilingan) mamlakat ichki bozoridagi baxosi;
- g) olib chikilgan (eksport kilingan) mamlakatdan uchunchi mamlaktlarga etkazib berilgan tovarning baxosi;
- d) eng past bojxona qiymatlariga, shuningdek, tovarlarning uzboshimchalik bilan kuyilgan yoki uz tasdigini topmagan soxta qiymatlari.

6-usulga kura belgilangan bojxona qiymati ilgari belgilangan bojxona qiymatlariga imkoni boricha maksimal tarzda asoslanishi lozim.

6-usul doirasida kullaniladigan baxolash usullari 6-usulning maksadlari va koidalariga muvofik tarzda yul kuyiladigan tarzda kayishkoklik bilan kullanadigan 1-5-usullaridan iborat bulishi kerak.

Kuyidagilar tartibga kura belgilangan usullarni kullanishda yul kuyilishi mumkin bulgan okilona kayinkok yondashuviga ayrim misollar bula oladi:

a) aynan bir xil tovarlarga nisbatan kayishkoklik kuyidagilar yuzasidan yul kuyilishi mumkin.

- aynan bir xil tovarlarni olib kelish muddatlari, biroq bojxona qiymatini belgilash uchun asos sifatida eksport kiluvchi mamlakatida boshka ishlab chikaruvchi tomonidan va bojxonada baxolanishi lozim bulgan tovarlarni eksport kiluvchi mamlakatdan boshka kaysidir uzga mamlakatda ishlab chikarilgan xuddi shuningdek import kilingan tovarlar kurib chikilishi mumkin;

- aynan bir xil import kilingan tovarlarning ilgari 4 va 5-usullarga kura belgilangan bojxona qiymatidan foydalanish;

b) uxshash tovarlarga nisbatan kayishkoklik kuyidagilar yuzasidan yul kuyiladi:

- uxshash tovarlarning olib kelinishi muddatlariga nisbatan;

- bojxonada baxolanishi lozim bulgan tovarlarni eksport kiluvchi mamlakatdan boshka kaysidir uzga mamlaktda ishlab chikarilgan shunga uxshagan import kilingan

tovarlar shunga uxshash tovarlarning bojxona qiymatini belgilash uchun asos sifatida foydalanilganida;

- uxshash import kilingan tovarlarning ilgari 4 va 5-usullarga kura belgilangan bojxona qiymatidan foydalanish;

v) 4-usulga nisbatan tovarlarning ichki bozorda sotilishi muddatlari xakidagi, shuningdek, ularning kay xolda import kilingani (ya'ni, muayyan kayta ishlashga yul kuyilishi) xakidagi talablarning kayishkoklik bilan talkin etilishiga yul kuyilishi mumkin.

6-usulni kullashda xujjatlar orshchali tasdiklashga nisbatan talablar, shuningdek, boshka usullarga nisbatan kuprok kayishkoklikka yul kuyadi: jaxon narxlari, ichki bozordagi narxlar buyicha axborot bildirgichlaridan foydalanish; komission ragbatlantirish xaklari, chegirmalar, foyda, transport tariflari va shu kabilarning umumiy kabul kilingan darajalari xakidagi statistik ma'lumotlardan foydalanish. Bunda baxolanayotgan tovarlarning etkazib berilishi shartlarini xisobga olgan xolda ma'lumotlar albatta tegishli ravishda uzgartirilishi lozim.

8-mavzu bo'yicha test variantlari:

1.Ikkinchi usulni (aynan bir xil tovar yuzasidan tuzulgan bitim kiymatiga karab boxolash usuli) qo'llashda qaysi shartlar bajarilishi lozim?

1. O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelish uchun sotilgan bo'lsa
2. Baholanayotgan tovarlar 90 kun davomidagi vaqtda olib kelingan bo'lsa
3. Olib kelingani tovarlarning ishlab chiqaruvchilari bir bo'lishi shart emas
4. Tijoratchilik shartlari mos bo'lsa
5. Olib kelingan tovarlar miqdori mos kelishi shart emas.

@A)1,2,4

B)2,3,5

C)1,2,5

D)2,4,5

2. O'xshash tovarlar deganda nima tushuniladi?

A)Bib-biriga o'xshash xususiyatlariga ega, bir xil funktsiyaga ega tovarlar

B)O'xshash tarkibiy qismlardan iborat tovarlar

C)Tijorat jihatdan bir-biri bilan almashtirishga imkon beradigan tovarlar

@D)Hamma javob to'g'ri

3 Tovarlarning bir-biriga o'xshashligini belgilashda qaysi jihatlari hisobga olinadi?

1. Sifati

2. Tovar belgisi

3. Tovar nomenklaturasi

4. Bozordagi kadri

5. Ishlab chiqaruvchi reytinggi

6. Ishlab chiqaruvchisi

7. Qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi

A)1,2,3,6,7

@B)1,2,4,6,7

C)1,3,4,6,7

D)1,2,5,6,7

4. To'rtinchi usul (qiymatlarni chegirib tashlash usuli) buyicha bojxona qiymatini belgilashda nima asos qilinadi?

A) O'zbekiston Respublikasining ichki bozoridagi aynan bir xil tovarlarni sotish narxi

B) O'zbekiston Respublikasining ichki bozoridagi o'xshash tovarlarni sotish narxi

C) O'zbekiston Respublikasining va yaqin mamlakatlarning ichki bozoridagi aynan bir xil tovarlarni sotish narxi

@D) O'zbekiston Respublikasining ichki bozoridagi aynan bir xil yoki o'xshash tovarlarni sotish narxi

5 To'rtinchi usulni (qiymatlarni chegirib tashlash usuli) qo'llashda tovar birligi narxida qaysi komponentlar chegiriladi?

1. Vositachilik xaqi

2. Transport xarajatlari

3. Tijorat xarajatlari

4. Sug'urta xarajatlari

5. Kelgusi davr xarajatlari

6. Import bojlar, soliqlar va yigimlar

7. Yuklash, tushurish xarajatlari

A) 1,2,3,5,6

B) 1,3,4,5,7

@C) 1,2,4,6,7

D) 2,3,5,6,7

6. Beshinchi usul (qiymatlarni qo'shish usuli) buyicha bojxona qiymatini belgilashda nima asos qilinadi?

1. Tovarning material qiymati

2. Transport xarajatlari

3. Mamlakat ichkarisidagi aynan o'xshash tovarning narxi

4. Yuklash, tushurish xarajatlari

5. Shartnomaviy narx

6. Sug'urta xarajatlari

7. Olinadigan foyda

8. Bojxona to'lovlari

@A) 1,2,4,6,7

B) 2,3,5,6,8

C) 1,2,5,6,7

D) 1,3,5,7,8

7. Rezerv usuli uchun nimalarni baza sifatida qo'llash mumkin emas?

A) O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan tovarlarning sotuv narxi

B) Ikki va undan ortiq muqobil qiymatlarning eng yuqorisi

C) Mamlakat ichki bozoridagi bahosi

@D) Xamma javob to'g'ri

8. Shaxsni ko'zdan kechirishda nechta xolis shaxs ishtirok etishi lozim?

A) 3 ta

@B) 2 ta

C) Xolis shaxsning ishtiroki shart emas

D) 1 ta

#79. Mavsumiy bojlardan nima maqsadda foydalaniladi?

- A)Tovarlarni mamlakatga olib kirishda nazorat qilish uchun
- B)Tovarlarni import qilishda boj to'lovlarini to'lashda
- @C)Tovarlarni olib kirish va olib chiqishni operativ tartibga solish
- D)Tovarlarni olib chiqishda nazorat qilish uchun

0. Muayyan iqtisodiy faoliyatni yuritish uchun davlat yoki maxalliy xokimiyat organlari tomonidan beriladigan maxsus ruxsatnoma ...

- @A)Litsenziya
- B)Sertifikat
- C)Patent
- D)Savdo huquqi

9-MAVZU	BOJXONA QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK
----------------	---

9.1Ma'ruzani o'qitish texnologiyasi (ma'ruza-2 soat, amaliy mashg'ulot-2 soat)

Talabalar soni: 50 ta	Vaqt - 2 soat
O'quv mashg'ulotining shakli	Tematik - axborot ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik

	uchun jismoniy va yuridik shaxslar javobgarligi. 2. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yuritish. 3. Bojxona organlari surishtiruv organlari sifatida. 4. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik. 5. Kontrabanda tushunchasi va kontrabanda uchun javobgarlik.
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> Bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.	
<i>Pedagogik vazifa:</i> - Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jismoniy va yuridik shaxslar javobgarligi ta'rif beradi; - Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yuritishning mohiyatini tushuntirib beradi; - Bojxona organlari surishtiruv organlari haqida tanishtiradi; - Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik tartibi bilan tanishtiradi.	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i> - Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jismoniy va yuridik shaxslar javobgarligini aytib beradi; - Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yuritishiga ta'rif beradi; - Bojxona organlari surishtiruv organlari sifatida tushuntirib beradi; - Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik haqida tushuntirib beradi; - Kontrabanda tushunchasi va kontrabanda uchun javobgarligiga tushuncha beradi.
<i>O'qitish usullari va texnikasi</i>	Ma'ruza, diskussiya, bir-biridan o'rganish usuli, blits-so'rov.
<i>O'qitish vositasi</i>	O'quv qo'llanma, ma'ruzalar matni, tarqatma materiallar, slaydlar, dioproektor.
<i>O'qitishning shakli</i>	Guruhlarda va «jamoalar bulib ishlash», frontal ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Guruhlar bilan ishlash uchun texnika bilan ta'minlangan auditoriya
<i>Monitoring va baxolash</i>	Kuzatish, og'zaki, yozma nazorat, o'quv topshiriq

1-tematik informatsion ma'ruzaning texnologik kartasi (2-soat).

aoliyat bosqichlari	Faoliyatning mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 min.)	1.1. Ma'ruzaning mavzusini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi. 1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi (1- ilova). 1.3. Har bir tinglovchiga mavzu buyicha tarqatma materiallarni tarqatadi. 1.4. Mavzu buyicha ma'ruza mashg'ulot-ining ma'ruza rejasiga izoh beradi.	Eshitadi va yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy jarayon (60 min.)	2.1. Quyidagi savollarga o'ylab javob berishlarini so'raydi: - Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jismoniy va yuridik shaxslar javobgarlik deganda nimani tushunasiz? - Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik deganda nimani tushunasiz? Blits-so'rov o'tkazadi. Savol-javob jarayonida aniqlashtiriladi va yo'naltiriladi. 2.2. Ekranga 1-chizma «Bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik»ni chiqazib va undagi tanishishni taklif etadi (2-ilova, slayd №1). Bu chizmani tuzilishini gapirib o'tib unga umumiy natijaviy xulosa tushunchasini beradi va talabalarni bilimlarini mustaxkam-lash maqsadida ularga quyidagi savollar bilan murojat etadi: - Kontrabanda tushunchasini izohlab bering? - Kontrabanda uchun qanday javobgarlik choralari belgilangan? Talabalarni javoblarini eshitib, to'g'ri yo'naltirib turadi va asosiy e'tiborni mavzuning maqsadiga qaratadi, tushuncha beradi va bu savolga yakun yasaydi. 2.3. Tinglovchilarga erkin fikr aytishga ruxsat beradi va ularni rag'batlantiradi. Maslahatchi sifati-da qatnashadi, izoh beradi, aniqlashtiradi va o'zgartishlar kiritadi. 2.4. Har bir talabaning berilgan savollarga javobidan keyin xulosa qiladi, talabalarning	Savollarga og'zaki javob beradilar 1-chizmani o'rganib chiqib jismoniy shaxslarni daromad solig'i bo'yicha o'z tushunchalarini gapirib beradilar. 2-chizmani o'rganib chiqib jismoniy shaxslarni daromadini soliqqa tortishda soliq stavkalari bo'yicha o'z tushunchalarini gapirib beradilar.

	e'tiborini ushbu mavzudagi masalaning mazmuniga qaratadi.	
3-bosqich. Yakuniy qism (10 min.)	3.1.Ma'ruzaga yakun yasaydi. 3.2. Baholaydi va rag'batlantiradi. 3.3. Kelgusi dars mavzusini e'lon qilib, mustaqil tayyorlanib kelishlari uchun uyga «Bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik» mavzusiga esse yozishga topshiriq beradi (4-ilova).	Talabalar eshitadi va yozib oladi.

1-ilova (15.1)

«Bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik» ma'ruzasida tinglovchilarning faoliyatini baxolash mezonlari ko'rsatkichlari

Guruhlar	Baholash mezonlari							
	So'zlab berishi (aniqlilik va tushunarlik, xulosalarning asoslanganligi)				Topshiriqning bajarilishi (to'g'riligi va izchilligi)			
	A'lo 2,0- ball	Yaxshi 1,5- ball	qoniqarli 1,0-ball	qoniqarsiz 0,5- ball	A'lo 2,0- ball	Yaxshi 1,5- ball	qoniqarli 1,0-ball	qoniqarsiz 0,5- ball
1								
2								
3								
4								

Kontrabandaga bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzishlarga va O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga tegishli soliqlar va boshqa majburiy boj to'lovlarini to'lashdan bosh tortishga qarshi kurash funktsiyasi O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining asosiy funktsiyalaridan biri ekanligi qonun bilan mustahkamlangan. Yuqorida aytib o'tilgan funktsiya bilan qonun hujjatlari tomonidan huquqni muhofaza qilish organlari sirasiga kiritilgan bojxona organlarining mavqeini ham belgilab berilishi o'z funktsional vazifalarini hal etishda bojxona organlarining huquqini kengaytiradi. Bojxona organlari bojxona bilan bog'liq huquqbuzarliklarga qarshi kurash vazifasini hal etib, bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishiga barham berish maqsadida huquqiy majburlash, sanksiya usullarini qo'llaydilar.

Bojxona bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka tortish sohasida O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining huquqni qo'llash amaliyoti O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining IX va X bulimlari qoidalariga bilan qonuniy tartibga solinadi. Ushbu qoidalar asosida bojxona haqidagi qonunlar buzilganligi uchun ta'sir ko'rsatish choralariga tegishli masalalar bo'yicha normativ baza shakllanadi.

Bojxona kodeksida bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi tushunchasiga keng izoh berilgan. Bojxona kodeksida va O'zbekiston Respublikasining bojxona qonun hujjatlarida belgilangan bojxona qoidalariga rioya etmaslik bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi deb hisoblanadi.

Aytib o'tilgan moddaga binoan bojxona qonunlarining buzilishi Bojxona kodeksi, «Boj tarifi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlari va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan belgilangan O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruv (shu jumladan bojxona rejimlari) tartibiga, bojxona to'lovlarini to'lashga, bojxona imtiyozlari berish va ulardan foydalanishga tajovuz qiluvchi shaxslarning huquqqa zid tusdagi hatti-harakati yoxud harakatsizligidir. Buning uchun (ya'ni, ularning huquqqa zid hatti-harakati yoki harakatsizligi uchun) Bojxona kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun javobgarlik sub'ektlarini aniqlashda shuni nazarda tutish kerakki, quyidagi O'zbekiston Respublikasi shaxslari ham, xorijiy shaxslar ham ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin:

- a) fuqarolar (ular huquqbuzarlik sodir etilgan paytda o'n olti yoshga to'lganda);
- b) mansabdor shaxslar (agar ular huquqbuzarlik sodir etgan paytda ularning xizmat vazifalariga Bojxona kodeksi va O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi bo'yicha qonun hujjatlari talablari bajarilishini ta'minlash kirsam);
- v) yuridik shaxslar (mulkchilik shakllaridan qat'i nazar korxonalar, tashkilotlar, muassasalar);
- g) yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 15-bo'limi 134-172-moddalarida bojxona haqidagi qonunlar buzilishi turlari va ular buzilganligi uchun javobgarlik belgilangan.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzgan fuqarolar va mansabdor shaxslar ma'muriy javobgar bo'ladilar, ularning qilmishlarida jinoyat alomatlari bo'lgan taqdirda esa, jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Huquqni buzuvchi (jismoniy shaxs) bilan bojxona organi (yuridik shaxs) o'rtasida o'zaro munosabatlar paydo bo'lganda, huquq buzish mavzusi esa fuqaroga tegishli tovar bojxona qoidalarining buzilishi fuqaro tomonidan sodir etilgan deb tavsiflanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun shaxslardan bojxona organi tomonidan faoliyatning muayyan turini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya yoki malaka attestati chaqirib olinishi mumkin.

Mansabdor shaxslar, agar ular tomonidan huquqni buzish sodir etilishi paytida Bojxona kodeksi, shuningdek boshqa qonun hujjatlarida belgilangan talablar bajarilishini ta'minlash ularning xizmat majburiyatlariga kirsas, bojxona qoidalarini buzilganligi uchun javob beradi.

Yuridik shaxslar va yuridik shaxsni tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxslarga nisbatan Bojxona kodeksining 134-172-moddalarida nazarda tutilgan bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun jarimalar, bojxona organi tomonidan faoliyatning muayyan turini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya yoki malaka attestatini chaqirib olish, bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi quroli yoki bevosita ashyosi hisoblangan tovarlar va transport vositalari musodara qilinishi qo'llaniladi.

Korxonalar va tashkilotlar xodimlari tomonidan ular o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida sodir etilgan bojxonaga oid qonun hujjatlarining buzilishi, ya'ni korxona yoki fuqaro (yukni oluvchi, jo'natuvchi, tashuvchi, saqdovchi)ning ishi bilan bog'liq hamda ularning manfaatlarini yo'lida va tovarlari bilan sodir etilgan hatti-harakat korxona va tashkilot (yuridik shaxs) tomonidan sodir etilgan bojxona qoidalarining buzilishi sifatida tavsiflanadi. Ushbu holda yuridik shaxslar sifatida bojxona organi bilan korxona, tashkilot o'rtasida o'zaro munosabat paydo bo'ladi. Korxona, tashkilot yoki fuqaroga qarashli bo'lgan tovar qonunni buzish ashyosi hisoblanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzgan shaxslardan tovarlar va transport vositalarini musodara qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ularning qiymati undiriladi.

Yuridik shaxslarni javobgarlikka tortish ularning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini ular bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

Yuridik shaxsning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini kontrabanda uchun hamda bojxona ishi sohasida boshqa jinoyatlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish yuridik shaxsni bojxonaga oid qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod etmaydi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun beriladigan jazo turlari. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun quyidagi jazolar beriladi (BK ning 132-moddasiga muvofiq):

1. Jarima. Jarima ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undirishdir. Jarimaning miqdori ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtdagi, davom etayotgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun esa huquqbuzarlik aniqlangan vaqtdagi belgilab qo'yilgan eng kam oylik ish xaqidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Tovarlari va transport vositalarining qiymatidan kelib chiqib hisoblanadigan jarima

ko'rinishidagi jazoni belgilashda ana shu narsalar qiymati deganda huquqbuzarlik aniqlangan kunda ularning erkin (bozor) narxi tushuniladi.

2. Bojxona kodeksida nazarda tutilgan ayrim faoliyat turlarini amalga oshirish uchun bojxona organi tomonidan berilgan litsenziyani yoki malaka attestatini chaqirib olish. Litsenziya yoki malaka attestatini chaqirib olish bojxona omborlari, bojsiz savdo do'konlari, erkin omborlar, vaqtincha saqlash omborlariga, shuningdek bojxona brokeri, bojxona tashuvchisiga yoki bojxona rasmiylashtiruvi mutaxassisiga ular tomonidan bojxona qoidalarini buzilganligi uchun, agar ushbu huquqbuzarliklar ko'rsatib o'tilgan shaxslar tomonidan litsenziya yoki malaka attestati bilan nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish munosabati bilan sodir etilgan bo'lsa qo'llanilishi mumkin.

3. Bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishini sodir etish quroli yoki bevosita ashyosi hisoblangan tovarlar va transport vositalarini musodara qilish. Musodara qilish - bojxona qoidalarini buzilishi ob'ekti hisoblangan tovarlar va transport vositalarining davlat mulkiga majburiy tekinga olib qo'yilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bojxona kodeksining 132-moddasi 2 va 3-bandlarida nazarda tutilgan jazolar esa, ham asosiy, ham qo'shimcha jazo sifatida qo'llanilishi mumkin.

Yuridik shaxs yoki yuridik shaxsni tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs tomonidan bojxona haqidagi qonun hujjatlari bir necha marta buzilsa, har bir huquqbuzarlik uchun alohida jazo beriladi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jazo berilishi javobgarlikka tortilayotgan shaxslarni boj to'lovlarini to'lash na Bojxona kodeksida nazarda tutilgan boshqa talablarni bajarish majburiyatidan ozod etmaydi.

Bojxona organi tomonidan muayyan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya yoki malaka attestatini qaytarib olish hamda jarima ko'rinishida jazo belgilash bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzish holati aniqlangan kundan boshlab olti oydan kechiktirmay, lekin u sodir etilgan kundan boshlab uch yildan kechiktirmay byudjetga bojxona to'lovlarini to'lamaslik bilan bog'liq ishlar bo'yicha - besh yildan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

Tovarlar va transport vositalarini musodara qilish ko'rinishidagi jazo bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzish sodir etilgan yoki aniqlangan vaqtdan hamda u asosiy yoki qo'shimcha jazo ekanligidan qati nazar qo'llaniladi.

Tovarlar va transport vositalarini g'ayriqonuniy olib o'tish kuni deb ularni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali haqiqatda olib o'tilgan kun hisoblanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibi bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan Bojxona kodeksiga muvofiq, Kodeksda tartibga solinmagan hollarda esa ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bojxona organi mansabdor shaxsi tomonidan bojxona qoidalarini buzilganligi belgilari aniqlanishi bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi haqida ish yuritilishiga asos bo'ladi.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish vazifalari quyidagilar hisoblanadi: har bir ishning holatini o'z vaqtida, har tomonlama, to'liq va xolis aniqlash, uni qonun hujjatlariga muvofiq hal etish, chiqarilgan qaror ijro etilishini ta'minlash, shuningdek ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilishi sabablari va unga ko'maklashuvchi

shart-sharoitlarni aniqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarni Konstitutsiyaga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalash, qonunchilikni mustahkamlash.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi to'g'risidagi ishlarni yuritish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishini aniqlash va ularga barham berish, birlamchi materiallarni, huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni tekshirish, aniqlangan fakt na huquq buzish holatlari, huquq buzuvchining shaxsini aniqlash, isbotlar to'plash va tekshirish bo'yicha protsessual harakatlarni yoritish, tekshirish materiallarini ko'rib chiqish va uning natijalari bo'yicha qaror qabul qilish;

- ish materiallarini ko'rib chiqishga tayyorlash;

- bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish;

- bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi to'g'risidagi ishlar buyicha qarorlar ijrosi;

- huquq buzishlarning oldini olish bo'yicha takliflar, axborot va xabarlar kiritish, ular sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda tartibga solishning boshqa chora-tadbirlari.

O'zbekiston Rsspublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiniig 276-moddasiga muvofiq ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishga oid dalillar har qanday faktik ma'lumotlardan iborat bo'lib, organlar (mansabdor shaxslar) shu ma'lumotlarga asoslanib ma'muriy huquqbuzarlik holati yuz bergan yoki bermaganligini, muayyan shaxsning uni sodir etishda aybdorligini va ishni to'g'ri ko'rib chiqish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni qonunda belgilangan tartibda aniqlaydi.

Bu ma'lumotlar quyidagi vositalar: bojxona haqidagi konun hujjatlari to'g'risidagi bayonnoma, javobgarlikka tortilayotgan shaxsning tushuntirishlari, jabrlanuvchi guvohlarning ko'rsatmalari, ekspert xulosasi, ashyoviy dalillar, ashyo va hujjatlarni olib qo'yish to'g'risidagi tuzilgan bayonnoma, shuningdek boshqa materiallar bilan belgilanadi.

Bojxona xaqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishni bojxona organining mansabdor shaxsi huquqbuzarlik aniqlangan joyda yoki yuqori bojxona organining ruxsati bilan huquqbuzarlik sodir etilgan joyda yuritadi.

Bojxona qoidalari buzilishi to'g'risidagi ishlarni yuritish uchun bir bojxona organidan boshqasiga berish masalalari ular uchun yuqori turuvchi O'zbekiston Respublikasi bojxona organi tomonidan hal etiladi.

O'zbekiston Respublikasining yuqori turuvchi bojxona organi bojxona qoidalari buzilishi to'g'risidagi har qanday ishni yuritish uchun o'ziga qabul qilishi yoki uni ushbu maqsadlar uchun O'zbekiston Respublikasining istalgan quyi bojxona organlariga berishi mumkin.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishni yuritish u boshlangan kundan e'tiboran bir oy muddatdan kechikmay tugallanishi lozim.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yuritish muddati zarur hollarda bojxona organining boshlig'i tomonidan yuridik shaxslarga va yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxslarga nisbatan to'rt oygacha uzaytirilishi mumkin.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish materiallarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar ish ko'rib chiqilgunga qadar oshkor qilinmaydi.

Quyidagi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi to'g'risidagi ish yuritish boshlanmasligi, boshlangan ish esa to'xtatilishi kerak:

- 1) voqea yoki bojxona huquqbuzarligi tarkibi mavjud bo'lmaganda;
- 2) bojxona qoidalarini buzilishi sodir etilgan paytda shaxs o'n olti yoshga to'lmaganda;
- 3) bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishini sodir etgan shaxs aqli butun bo'lmaganda;
- 4) shaxs zarur mudofaa yoki eng oxirgi chora holatida ish ko'rganda;
- 5) bojxona qoidalarini buzilganligi uchun jazo qo'llash bartaraf etilgan taqdirda amnistiya chiqarilganda;
- 6) bojxona haqidagi qonunlar buzilganligi uchun javobgarlikni belgilovchi hujjat bekor qilinganda;
- 7) ishni ko'rib chiqish paytiga kelib, bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun jazo berish muddatlari tugaganda;
- 8) javobgarlikka tortiluvchi shaxsga nisbatan bir faktning o'zi bo'yicha jazo qo'llash to'g'risida qaror yoxud bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi to'g'risidagi ishni to'xtatish haqida belgilangan tartibda bekor qilinmagan qaror mavjud bo'lganda, shuningdek o'sha bir faktning o'zi bo'yicha jinoiy ish mavjud bo'lganda;
- 9) unga nisbatan ish yuritish boshlangan shaxs vafot etganda.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilganligi fakti bo'yicha hamda zarur harakatlarni sodir etish paytida bojxona organining mansabdor shaxsi qonun hujjatlarida belgilanadigan shaklda bayonnomalar tuzadi. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha bayonnomalarga to'plangan dalillar ko'shib qo'yiladi. Bojxona organining mansabdor shaxsi ish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uzil-kesil hal etilgunga kadar dalillarning saqdanishini ta'minlash choralari ko'rishi shart.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishini aniqlash va to'xtatish hamda dastlabki hujjatlarni tuzish (bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi to'g'risida bayonnoma tuzish, tushuntirishlar olish, huquqni buzish quroli yoki bevosita buyumi hisoblangan ashyolar va hujjatlarni olib qo'yish, ularning saqlanishini ta'minlash, jarima undirish ta'minlanishi uchun buyumlarni olib qo'yish va boshqa harakatlar) bojxona postlarining operativ-inspektorlik tarkibi, kontrabandaga qarshi kurash, bojxona qoidalarini buzilishiga qarshi kurash bo'limi va surishtiruv xodimlari, shuningdsk huquq buzilishini bevosita aniqlagan bojxona xizmatlarining boshqa bo'linmalari xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish va ma'muriy bayonnomalar tuzish huquqi berilgan bojxona organlarining mansabdor shaxslariga quyidagi lavozimlarda ishlovchi shaxslar tegishli bo'ladi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining boshqarmalari, bo'limlari boshliqlari, bosh, katta inspektorlari va inspektorlari hududiy bojxona xizmatlarining boshqarmalar, bo'limlar, bo'linmalar, bojxona postlari boshliqlari, bosh, katta inspektorlari va inspektorlari.

MJK ning 279-moddasi, O'zR BK ning 177-moddasi talablariga muvofiq bojxona qonunlari buzilishining har bir fakti bo'yicha ma'muriy huquqbuzarlikni bevosita aniqlagan bojxona organi xodimi belgilangan shakl bo'yicha bayonnoma tuzadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi to'g'risidagi bayonnomada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

1. Bayonnoma tuzilgan sana va joy.

2. Bayonnomani tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi.
3. Huquqni buzgan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar.
4. Safarning maqsadi, yo'nalish, poezd, avtomashina yoki boshqa transport vositasi-ning tartib raqami, uning kimga tegishli ekanligi, borish yo'nalishi.
5. Sodir etilgan qonun buzish joyi, vaqti va mohiyati.
6. Mazkur huquq buzish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi me'yoriy hujjat.
7. Olib ko'yilgan (ushlangan) ashyolar, boyliklar va hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar.
8. Huquq buzuvchining tushuntirishi va boshqalar.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi aniqlanishining har bir holati va ular bo'yicha ko'rilgan choralar yuzasidan bojxona organi xodimi tomonidan bildirishnoma yoziladi. Unda sodir etilgan huquq buzish aniqlanishining barcha holatlari (izlash usullari, yashirish usullari, nazorat qilish, texnik vositalarini qo'llash, og'zaki so'rov natijasida olingan ma'lumotlar, bagaj va qo'lda olib yuriladigan yukni rasmiylashtirish, shaxsan ko'zdan kechirish, transport vositasi, konteynerni ko'zdan kechirish, shuningdek, ishga tegishli bo'lgan boshqa holatlar) aks ettirilishi kerak.

Agar huquq buzuvchining biror-bir nohuquqiy hatti-harakatlari bilan moddiy zarar etkazilsa - bildirishnomada moddiy zarar kimga, qancha miqdorda, qay tarzda stkazilganligi qisqa, biroq batafsil bayon etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 285-288-moddalariga muvofiq boshqa ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanib bo'linganidan keyin ma'muriy huquqbuzarlikni to'xtatish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash, basharti bayon-noma tuzish zarur bo'lib, uni huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida tuzish imkoni bo'lmagan taqdirda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida mazkur shaxsni ma'muriy yo'l bilan ushlab turishga, shaxsni ko'rikdan o'tkazishga, uning ashyolari, transport vositalarini ko'zdan kechirishga va ashyo hamda hujjatlarni olib qo'yishga yo'l qo'yiladi.

O'zR MJKning 287-moddasiga muvofiq bojxona organlari xodimlari O'zR MJK ning 198 va 227-moddalarida nazarda tutilgan holatlar sodir etilganda, ma'muriy tuxtatishni amalga oshirishlari mumkin. Ma'muriy to'xtatish to'g'risida bayonnoma tuziladi. Unda bayonnoma tuzilgan sana va joy, lavozimi, bojxona organi, bayonnomani tuzgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, ushlangan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar, ushlash vaqti, joyi va asoslari, ushlangan shaxs olib kelingan vaqt va joy, ushlangan ozod qilingan vaqt, ushlash vaqtida qanday harakatlar qilinganligi ko'rsatiladi.

Bayonnomaga uni tuzgan shaxs, ushlangan shaxs, guvohlar, boshqa shaxslar bor bo'lganda ular ham imzo chekadilar. Ushlangan shaxs imzo chekishni rad etgan taqdirda bu haqda bayonnomada qayd etiladi.

Bojxona nazorati, ko'zdan kechiruv paytida topilgan huquqbuzarlik quroli yoki bevosita buyumi bo'lgan tovarlar, transport vositalari, hujjatlar na boshqa buyumlar bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan xolislar guvohligida olib qo'yiladi. Olib qo'yilgan tovarlar, transport vositalari, hujjatlar va boshqa buyumlar ish ko'rib chiqilgunga qadar bojxona organlari belgilagan joylarda saqlanadi.

Bojxona haqidagi qopun hujjatlari buzilgan taqdirda jarima hamma tovarlar va transport vositalarining qiymati undirilishini ta'minlash uchun huquqbuzardan, agar u O'zbekistan Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo'lmasa va yuridik shaxsdan - agar u O'zbekiston Respublikasi hududida filial yoki vakolatxonaga ega bo'lmasa, tovarlar

va transport vositalari, O'zbekiston Respublikasi valyutasi va valyuta boyliklari olib qo'yilishiga yo'l qo'yiladi.

Tovarlar na transport vositalari va boshqa ashyolarni olib qo'yishning imkoni bo'lmagan taqdirda ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish taqiqlanadi, ularning saqlanishi esa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ta'minlanadi.

Bojxona organining mansabdor shaxsi olib qo'yilgan tovarlar, transport vositalari va boshqa buyumlarni baholash paytidagi bozor narxlari bo'yicha baholab, ularning eskirganligini hisobga oladi. Zarur hollarda baholash mutaxassis ishtirokida o'tkaziladi. Pul, obligatsiyalar, cheklar, aktsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar nominal qiymati bo'yicha xisobga olinadi.

Bojxona organining mansabdor shaxsi bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishni yuritish jarayonida dalillarni aniqlash va ularni qayd etish, ishga ahamiyati bo'lgan boshqa holatlarni aniqlash uchun joyni, hududlarni, binolarni, transport vositalarini, ashyolar va hujjatlarni bojxona tekshiruvidan o'tkazishga haqlidir.

Bojxona tekshiruvi hududi, binosi, transport vositasi, ashyolari va hujjatlari tekshirilayotgan shaxs (uning vakili) ishtirokida kamida ikki guvoh hozirligida, zarur hollarda esa mutaxassislar ishtirokida o'tkaziladi.

Bojxona haqidagi qonunlar buzilishi to'g'risidagi ishlarni yuritishda bojxona organi mansabdor shaxsining qarori bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ekspertiza tayinlanishi mumkin. Bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi to'g'risidagi ishni yuritayotgan bojxona organining mansabdor shaxsi qaror asosida va guvohlar, zarur hollarda esa mugaxassislar ishtirokida tovarlar va boshqa buyumlarning namunalari va nusxalarini olish, shuningdek ekspertiza o'tkazish uchun zarur bo'lgan imzolar, dastxatlar, namunalarni olishga haqlidir.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi to'g'risidagi ishni yuritishda javobgarlikka tortiluvchi shaxsdan tashqari, uning vakili, advokati, ekspert, mutaxassis, tarjimon, guvoh xolis qatnashishlari mumkin.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha chiqimlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, xolislarga to'lanadigan summalar;
- tekshiruv va inventarlash munosabati bilan sarflangan summalar;
- dalillarni saqlash, tashish (jo'natish) va tekshirish uchun sarflangan summalar;
- ishni yuritish va ko'rish munosabati bilan bojxona organi kelgan boshqa xarajatlar.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarga quyidagilar kiradi:

– agar jazo chorasi tariqasida jarima, litsenziyami yoki malaka attestatini chaqirib olish chorasi, shuningdek konun hujjatlarida nazarda tutilgan alohida hollarda tovarlarni musodara qilish chorasi qo'llanilsa, bojxona organi tomonidan ko'riladi.

– agar asosiy yoki qo'shimcha jazo chorasi tariqasida tovarlarni va transport vositalarini musodara qilish nazarda tutilsa, tegishli bojxona organi joylashgan erdagi sud tomonidan ko'riladi. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni ko'rish va bojxona organlari nomidan jazolarni qo'llashga bojxona organlarining boshliqlari va ularning o'rinbosarlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri davlat bojxona qo'mitasi boshqarmalari va «Toshkent-AERO» MBM boshliqlari) haqlidir.

Ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan xorijlik fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar MJKning 17-moddasiga muvofiq umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortilishi kerak.

O'zR BKning 188-moddasiga muvofiq bojxona organi boshlig'i (boshliq o'rinbosari) bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini chiqaradi:

- jarima solish to'g'risida;
- ish yuritishni tugatish to'g'risida;
- jinoyat ishini qo'zg'atish va surishtiruv o'tkazish to'g'risida;
- huquqbuzarliklar to'g'risidagi materiallarni tegishli idoradar bo'yicha yuborish to'g'risida;
- ishni qo'shimcha ravishda yuritish (tekshirish) uchun qaytarish to'g'risida.

Bojxona organi boshlig'i (uning o'rinbosari) O'zbekiston Respublikasi MJK 271-moddasida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lgan taqdirdagina ishni yuritishni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Bunda qarorda mazkur modda va qo'llanilgan me'yoriy hujjatnint tegishli bandiga havola qilingan holda ishni yuritish to'xtatilganligi to'g'risida batafsil qayd etiladi.

Ma'muriy (bojxona) huquqni buzish to'g'risidagi ish bo'yicha qaror ishni ko'rib chiqish tamom bo'lgach darhol e'lon qilinadi. Huquqni buzuvchi u qaysi bojxona huquqini buzgani uchun O'zR BK ning 132-moddasida nazarda tutilgan jazoga duchor qilinayotganligini aniq bilishi kerak. Qaror nusxasi uch kun ichida unga nisbatan qaror chiqarilgan shaxsga, shuningdek uning iltimosiga ko'ra jabrlanuvchi surishtiriladi yoki yuboriladi. Qaror nusxasi tilxat ostida topshiriladi, agar u jo'natilsa, bu haqda ishda tegishli yozuv qayd etiladi. Ma'muriy jazo qo'llanilishi javobgarlikka tortiluvchi shaxsni boj to'lovlarini to'lash majburiyatidan va Bojxona kodeksida nazarda tutilgan boshqa talablarni bajarishdan ozod qilmaydi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror ustidan yuqori turuvchi bojxona organiga (mansabdor shaxsga) yoki bojxona organi joylashgan erdagi sudga o'n kun muddatda berilishi mumkin.

Yuqori turuvchi bojxona organi boshlig'i bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha chiqarilgan qaror ustidan berilgan shikoyatni yoki prokurorning protestini ko'rish vaqtida quyidagi hal qiluv qarorlaridan birini qabul qiladi:

- a) qarorni o'zgarishsiz qoldiradi, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaydi;
- b) qarorni bekor qiladi va ishni yangidan ko'rish uchun yuboradi;
- v) qarorni bekor qiladi va ish yuritishni tugatadi;
- g) bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jazo chorasini kamaytirmagan holda uni O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodsksida nazarda tutilgan doirada o'zgartiradi.

Bojxona kodeksining 192-moddasiga muvofiq bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha chiqarilgan qarorni bekor qilib, ish yuritishning tugatilishi undirilgan pul summalarining, olib qo'yilgan va musodara qilingan ashyolarning qaytarilishiga, shuningdek aynan qabul kilingan qaror bilan bog'liq boshqa cheklashlar bekor qilinishiga olib keladi.

Bojxona organlarining jarima solish to'g'risidagi qarorini ijro etish O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 193-198-moddalari (XI bo'lim) talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zR JPK 38-moddasiga muvofiq bojxona organlari bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi to'g'risidagi ishlar bo'yicha surishtiruv organlari hisoblanadi.

Jinoiy ishlar bo'yicha surishtiruv dastlabki tergov uchun amaldagi jinoyat-protsessual qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda va qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi. Quyidagi holatlar bundan mustasnodir:

- surishtiruvni surishtiruv organlari boshliqlari yoki ularning topshirig'iga ko'ra surishtiruvchilar olib boradi;
- surishtiruvchining qarori surishtiruv organi boshlig'i tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Surishtiruv organiga jinoyat belgilarini va uni sodir etgan shaxslarni aniqlash, O'zR JPK bilan belgilangan qoidalarga muvofiq ular tekshirilgandan keyin jinoiy ish bo'yicha isbot sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnik vositalardan foydalangan holda zarur chora-tadbirlar ko'rish yuklanadi. O'zR JPK 38-moddasi 8-bandiga muvofiq bojxona organlari bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun, ya'ni O'zR JK 182-moddasida nazarda tutilgan belgilar mavjud bo'lgan jinoyatlar bo'yicha surishtiruv olib boradilar.

O'zR JK 182-moddasi bo'yicha jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat begisiga ega bo'lgan huquq buzishni aniqlab, boshliq (surishtiruv organi rahbari, surishtiruvchi) O'zR JPK 329, 39 va 330-moddalariga muvofiq belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazadi (darhol) va quyidagilar xususida qaror qabul qiladi:

- a) jinoiy ish qo'zg'atish, yuritish uchun o'ziga qabul qilish va surishtirishga kiritish;
- b) jinoiy ish qo'zg'ashni rad etish;
- v) idoraviy bo'ysunish bo'yicha ariza, ma'lumot berish.

Jinoyat belgilari mavjud bo'lgan taqdirda surishtiruv organi jinoiy ish qo'zg'aydi va Jinoyat protsessual kodeksiga amal qilgan holda jinoyatni aniqlash va uning izlarini mustahkamlash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan tergov xarakterlarini amalga oshiradi

Jinoiy ish bo'yicha surishtiruv 10 sutkadan ortiq bo'lmagan muddatda tamomlanishi kerak. O'zR JPK 342-moddasiga muvofiq surishtiruvchi ishni, agar:

- 1) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat aniqlangan bo'lsa;
- 2) muayyan shaxsni aybdor sifatida ishda qatnashishga jalb qilish uchun asos aniqlangan bo'lsa;
- 3) ishni to'xtatish uchun asos aniqlangan bo'lsa;
- 4) tergovchi ish yuritish uchun ishni unga berishni talab qilsa surishtiruv uchun belgilangan muddat tamom bo'lishini kutmay ishni zudlik bilan tergovchiga berishi kerak.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik o'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 182-moddasida nazarda tutilgan, ya'ni «Bojxona haqidagi qonunlarni buzish Bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari va vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) xizmat lavozimidan foydalangan holda sodir etilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilishi yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud mol-mulk musodara qilinib, uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi bilan jazolanadi.

Ushbu harakat:

a) chegarani buzib o'tish, ya'ni bojxona xizmatining roziligini olmasdan turib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan ochiqdan-ochiq o'tkazish puli bilan;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, mol-mulk musodara qilinib, uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Xizmat mavqeidan foydalangan holda bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzishda zarar summasi alohida yirik miqdorni tashkil etishi shart emas, ya'ni xizmat mavqeidan foydalanish mazkur jinoyatning mustaqil belgisini tashkil etadi.

Ob'ektiv jihatdan bojxona haqidagi qonunlar buzilishi tovarlar va boshqa qimmatliklarning O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tilishida ifodalanadi. Sub'ektiv jihatdan jinoyat sodir etilgan jinoyatning to'g'ridan-to'g'ri sodir etilganligida ifodalanadi.

Aqli joyida bo'lgan va 16 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, xorijiy davlatlar fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs jinoyat sub'ekti bo'lishi mumkin.

JK ning 182-moddasida qayd etilgan jinoyatning ob'ektiv jihati tovarlar yoki boshqa buyumlarni olib o'tish, ularni sodir etish usullari, olib o'tilayotgan tovarlar va boshqa buyumlarning yirik miqdori bo'yicha harakatlarni o'z ichiga oladi. Jinoiy oqibatlarining boshlanishi talab etilmaydi.

Bojxona nazoratiga qalbaki hujjatlar, qasddan buzilgan ma'lumotlar mavjud bo'lgan hujjatlar, shuningdek bojxona organlari bojxona nazorati ob'ektlarining O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali o'tishi bilan bog'liq nohuquqiy qaror qabul qilinishi uchun ularni adashtirish maqsadida unga asos bo'lmagan holda noqonuniy tuzilgan yoxud tasdiqlangan hujjatlarni taqdim etish hujjatlardan aldov yo'li bilan foydalanish deb e'tirof etiladi. Muhrlarni, xarflar va boshqa markirovkalarni soxtalashtirish, hujjatlardan aldov yo'li bilan foydalanishdagi singari maqsadda qonuniy sifatda taqdim etiladigan o'xshash belgilar qo'yish bojxona birxillashtiruvchi vositalaridan aldash maqsadida foydalanish deb e'tirof etiladi.

Tovarlar va qimmatliklarning bojxona nazoratidan boshqa joyda olib o'tilishi O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari belgilagan joylardan boshqa joyda yoki bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishning belgilangan vaqtdan tashqarida amalga oshirilishi mumkin.

Ob'ektlarni bojxona nazoratidan olib o'tish uchun buyumlarning aniqlashtirilishini qiyinlashtiradigan yashirin joylardan foydalanish yoki boshqa usullardan foydalanish yoxud bir xil buyumni boshqa buyumlar ko'rinishiga o'xshatish bojxona nazoratidan yashirish deb tushuniladi. Tovarlar yoki boshqa ob'ektlarni bojxona nazoratidan olib o'tish miqdori mazkur moddaga izohga muvofiq, agar u eng kam oylik ish haqining yuz baravari va undan ortig'iga teng bo'lsa, alohida yirik miqdor deb tan olinadi.

Olib o'tilayotgan buyumlar ularni turli bojxona rejimlarida va maxsus shart-sharoitlarda, jumladan qonun hujjatlarida yuz berayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda olib o'tishning maxsus qoidalarini belgilovchi qonun hujjatlari asosida mazkur modda ro'yxatiga tushuvchi buyumlar deb e'tirof etiladi.

Kontrabanda tovarlar, valyuta va boshqa qimmatliklarni bojxona haqidagi qonunlarni buzgan holda davlat chegarasi orqali yashirincha olib o'tish. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq kontrabanda - ya'ni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona

nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, kuchli ta'sir qiluvchi zaharli, zaharlovchi, radioaktiv, portlovchi moddalar, portlash qurilmalari, qurol-yarog', shuningdek, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni yoki diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallarni O'zbekiston Respublikasiniig bojxona chegarasidan o'tkazish, u mol-mulk musodara qilinib yoki musodara qilinmay besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg'in qurolining boshqa turlarini, shunday qurollarni yaratishchda foydalanilishi mumkinligi ayon bo'lgan material va moslamalarni, shuningdek giyohvandlik vositatori yoki psixotrop moddalarni ko'p miqdorlarda kontrabanda qilishda mol-mulk musodara qilinib, o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi {O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 246-moddasi). Jinoyat tarkibi quyidagilarni tavsiflovchi belgilarning to'rt guruhini tashkil etadi: jinoyat ob'ekti, uning ob'ektiv jihat, jinoyat sub'ekti va sub'ektiv tomon.

Jamiyatning xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar kontrabanda jinoyati ob'ekti hisoblanadi. Ob'ektiv jihatdan kontrabanda taqiqdangan buyumlarning O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqapi olib o'tilishida ifodalanadi. Sub'ektiv jihatdan jinoyat sodir etilgan jinoyatning qasddan sodir etilganligida ifodalanadi. Aqdi joyida va o'n olti yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi, xorijiy davlat fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxs jinoyat sub'ekti bo'lishi mumkin.

Kontrabanda uchun jinoiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali ushbu buyumlar MDH mamlakatlariga yoki MDH ga kirmaydigan mamlakatlarga olib o'tilishidan qat'i nazar, Jinoyat kodeksining 246-moddasi dispozitsiyasida ko'rsatilgan ashyolarning g'ayriqonuniy olib o'tilishi bilan boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining «Kontrabanda va bojxona haqidagi konun hujjatlari buzilishi to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida» 1996 yil 27 fevraldagi 2-son qarorida quyidagilar tushuntirilgan:

a) Jinoyat kodeksining 246 va 82-moddalari dispozitsiyalarida ko'rsatilgan buyumlar, tovarlar va boshqa boyliklarning O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali g'ayriqonuniy olib o'tilishi deganda bojxona nazoratidan tashqari ularning bojxona organi joylashgan joydan boshqa joyda yoki bojxona rasmiylashtiruv va nazorati amalga oshiriladigan vaqtdan tashqari olib o'tilishi e'tirof etilishi kerak;

b) bojxona nazoratidan yashirgan holda Jinoyat kodeksining 246 va 182-moddalari dispozitsiyalarida ko'rsatilgan buyumlar, tovarlar va boshqa boyliklarning O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali g'ayriqonuniy olib o'tilishi deganda ularning yashirin joylardan va ularni aniqlashning boshqa usullaridan yoki bir xil buyumlarga boshqa ko'rinish borish yo'li bilan olib o'tishdan foydalangan holda olib o'tilishi ham tushunilishi kerak. Maxsus saqdanadigan joylar deganda yashirin joylarni, shuningdek transport vositalaridagi kontrabanda maqsadlaridagi konstruktiv saqdanadigan joylar va oldindan bo'laklarga ajratilishi, montaj qilingan buyumlarni olib o'tish uchun asbob-uskunalar va moslamalarni hisoblash zarur;

v) hujjatlardan aldov yo'li bilan foydalanish deganda bojxona organiga buyumlar, tovarlar va boshqa boyliklarni bojxona chegarasi orqali olib o'tish uchun asos sifatida qalbaki hujjatlar, g'ayriqonuniy yo'l bilan olingan hujjatlar, yoxud soxta ma'lumotlar bor bo'lgan hujjatlar taqdim etilishini tushunish kerak;

g) O'zbekiston Respublikasi bojxona haqidagi qonun hujjatlariga muvofiq bojxona bixillashtiruvchi vositalari deganda tovarlar yoki boshqa boyliklarni ularga tamg'alar, muhrlar, raqamli, xavfli va boshqa markirovkalash belgilarini, bixillashtirish belgilarini, shtamplar qo'yishni, nusxa va namunalar olishni, tovarlarni, boshqa boyliklarni tavsiflashni, chizmalar chizishni, ko'lamli tasvirlar, fotosuratlar, rangli suratlar tayyorlashni, tovarga ilova qilinadigan hujjatlar va boshqa hujjatlardan foydalanishni bixillashtirish tushuniladi.

Bojxona bixillashtiruvchi vositalaridan aldash yo'li bilan foydalanish deganda, O'zbekiston Respublikasi yoxud boshqa davlatlarning bojxona organlari tomonidan qo'llanilgan bixillashtirish vositalarining o'zgartirilishi, yo'q qilinishi, shikast etkazilishi yoki yo'qotilishi bilan bog'liq shaxslarning hatti-harakatlarini tushunish kerak;

d) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 246-moddasida sanab o'tilgan, deklaratsiya to'ldirilgan yoki o'z nomi bilan deklaratsiya to'ldirilmagan kontrabanda buyumlari yoxud 182-moddada ko'rsatilgan tovarlar yoki boyliklar deganda, kontrabanda buyumlari yoki tovarlar yoxud boshqa boyliklarni deklaratsiya to'ldirish tartibi buzilish bilan bog'liq shaxslarning chegara orqali olib o'tish maqsadida, ya'ni deklaratsiya to'ldirish shakli va joyi to'g'risidagi bojxona haqidagi qonunning belgilangan talablariga rioya qilmaslik, uni amalga oshirish tartibi, deklaratsiya taqdim etish muddatlariga va boshqa qo'shimcha hujjatlarga rioya qilmaslik, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan yoki uning hududidan olib chiqiladigan kontrabanda buyumlari, tovarlar yoki boshqa boyliklarga nisbatan deklaratsiyaga ularning nomi va soniga doir soxta ma'lumotlar kiritilishi bilan bog'liq hatti-harakatlari tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 246 va 182-moddalarida ko'rsatilgan kontrabanda yoki bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi dsb, buyumlar, tovar-moddiy boyliklarning O'zbekiston Respublikasi chegarasi orqali haqiqatda g'ayriqonuniy olib o'tilishi paytidan boshlab tamom bo'lgan jinoyat deb hisoblash kerak.

9-mavzu bo'yicha test variantlari:

1 Bojxona bojlari kelib chiqishiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi?

- A)Doimiy, o'zgaruvchan
- @B)Avtonom, preferentsial, konventsion
- C)nomikal va samarali
- D)Import, eksport, tranzit

2 Hozirgi vaqtda Respublikamizda nechta bojxona rejimi amal qiladi.?

- A)12 ta
- @B)15 ta
- C)10 ta
- D)11 ta

3. Tovarlar bojxona hududidan tashkariga ularni ushbu hududga qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqiladigan bojxona rejimi qaysi?

- A)Reimport
- @B)Reeksport
- C)Eksport
- D)Tranzit

4. Deklaratsiyada deklaratsiya qilinadigan tovarlarning maksimal miqdori qancha?

A)50

B)100

C)150

@D)Cheklanmagan

5. Eksport uchun bojxona to'lovlari qachon to'liq bekor qilingan?

A)1991 yil

@B)1998 yil

C)2002 yil

D)2004 yil

6. Qaysi bojxona rejimidagi tovarlar import rejimiga kiritilishi mumkin emas?

A)Vaqtincha saqlash rejimi

B)Bojsiz savdo do'koni rejimi

C)Eksport rejimi

@D)Tranzit rejimi

7. Bojxona ombori rejimiga qanday tovarlarni joylashtirish mumkin?

A)Bojxona organi tomonidan olib qo'yilgan tovarlar

@B)Tez buzuluvchan tovarlar

C)Qonun-qoidalarga muvofiq ta'qiqlangan tovarlar

D)Foydalanish va saqlash muddati o'tgan tovarlar

8. Bojxona ombordagi tovarlarning hisob hujjatlari necha yil saqlanishi lozim?

A)3 yil

B)4 yil

@C)5 yil

D)1 yil

9. Tovarlarni bojxona ombor rejimida qancha muddatgacha turishi lozim?

@A)3 yil

B)4 yil

C)5 yil

D)1 yil

10. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ish yuritish va tugallanish muddati?

@A)6 oydan kechikmay

B)1 oydan kechikmay

C)3 oydan kechikmay

D)4 oydan kechikmay

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2009.
2. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi. T.: "Adolat" 2006 y.
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. - T.: "Norma". 2010 y.
4. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. //Xalq so'zi, 29 avgust 1997.
5. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuni, 2000 yil 14 dekabr. //Soliqlar va bojxona xabarlar. 2001 y. № 2.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1245-sonli Qarori (2009 yil 22 dekabr).
7. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir. 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. –T.: "O'zbekiston", 2009 y.
8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: "O'zbekiston", 2009 y. -56 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mikrofimlar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3620-sonli Farmoni (2005 yil 20 iyun).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3619-sonli Farmoni (2005 yil 14 iyun).
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida"gi PQ-100-sonli Qarori (2005 yil 15 iyun).
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining 2004 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 567-sonli Qarori, 2003 yil 30 dekabr.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining 2005 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 610-sonli Qarori (2004 yil 28 dekabr).
14. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 532 PK-sonli Qarori (2006 yil 18 dekabr).
15. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2008 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 744 PK-sonli Qarori (2007 yil 12 dekabr).
16. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlash-tirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: "O'zbekiston", 2005.
17. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik. –T.: "O'zbekiston", 2005.
18. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch - qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. –T.: "O'zbekiston", 2004.

19. Anchishkin A.I. Prognozirovanie tempov i faktorov ekono-micheskogo rosta / RAN. In-t narodnoy xoz. Prognozirovaniya. M. : MAKS Press, 2003.
20. Bekker E.G. O praktike ukloneniya ot nalogov i metodax protivodeystviya ey Vestnik finansovoy akademii pri Pravitelstve Rossiyskoy Federatsii 3(31)'2004. Moskva "Finansi i statistika" 2004.
21. Vahobov A., Srojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti. –T.: TMI, 2002.
22. Vladimirova L.P. Prognozirovanie i planirovanie v usloviyax rinka: Ucheb. posobie dlya studentov vuzov M.: Dashkov i K, 2004.
23. Vilkova E.S., Ramonovskiy M.S. Nalogovoe planirovanie. –M.: 2004.
24. Dzagoeva M.R. Institutsionalniy podxod k issledovaniyu nalogovogo potentsiala i nalogovogo bremeni. Vestnik finansovoy akademii pri Pravitelstve Rossiyskoy Federatsii 1(29)'2004. Moskva "Finansi i statistika" 2004.

Qo'shimcha adabiyotlar

25. Jo'raev A., Abdullaev H. Soliqni prognoz qilish. /Ma'ruza matnlari to'plami. –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2005.
26. Jo'raev A.S. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. / Monografiya. "Fan" nashriyoti. 2004.
27. Jo'raev A.S. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish-ning dolzarb muammolari: prof. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. - T.: O'zR DJQA, 2005.
28. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. / "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2005.
29. Iskakov, B.I. Prognozirovanie i planirovanie v usloviyax rinka: Ucheb. posobie : T. 1 / Mosk. bank. in-t, - M.: 2000.
30. Knyazev V.G., Chernik D.G. Nalogovie sistemi zarubejnih stran. –M.: «YuNITI», 2003.
31. Kojinov V.Ya. Nalogovoe planirovanie. –M.: 1999.
32. Krivoshapkin S.I. Sovremennye formy planirovaniya i prognozirovaniya v perexodnoy ekonomike : Avtoref. dis. ... kand. nauk; Ekonomicheskie nauki : 08.00.05 / Ros. akad. gos. sluzbi pri Prezidente Ros. Federatsii M., 2000
33. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. – 204 b.
34. Medvedeva A.N. Kak minimizirovat nalogovie plateji. –M.: 1999.
35. Milyakov N.V. Nalogi i nalogooblojenie. –M.: Infra-M, 2001.
36. Modruxovich A.G. Optimizatsiya nalogooblojeniya. –M.: 1997.
37. Moskin E.F. Nalogooblojenie pribili i doxodov predpriyatiy i organizatsiy. –M.: 1997.
38. Nalogi: Uchebnik dlya vuzov / Pod red. D.Chernika. M: Yuniti-Dana, 2004.
39. Nalogi i nalogooblojenie. 2-e izd. /Pod. red. M.V. Romanovskogo, O.V. Vrublevskoy –SPb.: Piter, 2001.
40. Panskov V.G., Knyazev V.G. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik dlya vuzov. –M.: MTsFER, 2003.
41. Prognozirovanie i planirovanie v usloviyax rinka : Ucheb. posobie dlya studentov vuzov / Pod red. Morozovoy T.G., Pikulkina A.V. M. : YuNITI-DANA, 2003.

42. Pepper Dj. Prakticheskaya entsiklopediya mejdunarodnogo nalogovogo i finansovogo planirovaniya. –M.: 1999.
43. Rumyantsev, A.V. Zarubejniy opit analiza i prognozirovaniya nalogovix postupleniy : Avtoref. dis. kandidata nauk; Ekonomicheskie nauki : 08.00.14 / Ros. un-t drujbi narodov.M., 1999
44. Toshmurodov T. Soliqlar./Izohli lug‘at. –T.: Mehnat, 2003.
45. Toshmurodova B. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. /Monografiya. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2002.
46. Shaxova G.Ya.Finansovie potoki v prognozax sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya : Avtoref. dis. ... d-lra nauk; Ekonomicheskie nauki : 08.00.10 / N.-i. fin. in-t M-va finansov Ros. Federatsii. M., 2001.
47. Yutkina T.F. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik. 2-e izd., pererab. i dop. –M.: INFRA-M, 2002.
48. Ekonometricheskie metodi v sotsialno-ekonomicheskom prognozirovanii : Ucheb. posobie / Mosk. gos. in-t mejdunar. otnosheniy (Un-t) MID Rossii; Podgot.: Sernova N.V. i dr. M., 2000
49. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. –T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003.
50. O‘razov K.B. Savdoda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish. / “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2004.
51. O‘zbekiston iqtisodiyoti. /Tahliliy sharh 2003 y. –T.: 2004 y. №4.
52. Sotsialno-ekonomicheskoe pokazateli Respubliki Uzbekistan za 2003. –T.: 2004 g.
53. O‘zbekiston Iqtisodiyoti. /Tahliliy sharh 2004 y. T.: 2004 y. №8.